

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI

A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov,
N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov

IQTISODIYOT NAZARIYASI

DARSLIK

II qism

TOSHKENT
«GRAND KONDOR PRINT»
2024

UDK: 494.376:22.15:63

KBK: 81.652.22

Q 668

A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov
«Iqtisodiyot nazariyasi». Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik.
II-qism. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, –
Toshkent, «GRAND KONDOR PRINT» 2023. 336 bet.

Ushbu darslikni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan talablar, oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali bakalavr yo'nalishlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar hisobga olingan. Darslik Prezident asarlari, matbuotda chop etilgan ma'ruzalari, mamlakatimizda milliy iqtisodiyotimizni samarali va barqaror rivojlanishi bo'yicha qabul qilingan Qarorlar, qonunlar va boshqa u bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlangan.

Ushbu darslikni tayyorlashda xorijiy MDH va respublika iqtisodchi olimlar tomonidan chop etilgan darslik va ilmiy ishlardan foydalanilgan.

Darslik iqtisodiyotni nazariy asoslarini rivojlanishi, bozor iqtisodiyotini tashkil topishi, rivojlanishi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi bo'limlaridan tashkil topib, ular bir-biriga mazmunan bog'liqlikda berilgan.

Taqrizchilar: **i.f.d., professor Abulqosimov X.P.**
 i.f.d., professor Allayeva G.J.

Mas'ul muharrir: **i.f.d., professor A.Qodirov**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
kengashining 2023 yil 28 dekabrda 4-sonli qaroriga asosan
nashr etishga ruxsat berildi.*

ISBN 978-9910-9290-2-1

© A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov,
N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov 2024
© « GRAND KONDOR PRINT» 2024

KIRISH

Shakllanayotgan Yangi O'zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning keng istiqbollari ochildi. Mamlakatimiz erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan ildamlab bormoqda.

Shulardan kelib chiqgan holda yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazish bugungi kunda nihoyatda muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim tizimi asosiy rol o'ynaydi. Respublikamiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir."¹

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy ta'lim yangi bosqichlarni yuzaga keltirish jarayonini o'z boshidan kechirmoqda, aholida, ayniqsa yoshlarda hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, mamlakatimizning taraqqiyoti va istiqboli amal-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси 21.12.2022. <https://www.xabar.uz/jamiyat/>

ga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasi avvalambor zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bevosita bog'liq.

Iqtisodiy bilimlar gumanitar ta'lim va talablar kasbiy tayyorgarlikning zaruriy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy ta'limning bosh maqsadi bozor iqtisodiyoti asosiy bo'g'inlarining tarkibiy tuzilishi va vazifalari, iqtisodiy jarayonlarning mantiqi va samaradorligi, maqsadga muvofiq iqtisodiy qarorlarni qabul qilish tamoyillari, iqtisodiy sub'ektlarning faoliyat ko'rsatish va o'zaro ta'sirini huquqiy asoslari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy bilimlar – talabalarni faol hayotiy yondashuvga ega bo'lgan fuqorolar sifatida shakllantirishning zaruriy shartidir. Iqtisodiy bilimlar qanchalik chuqur bo'lsa, har qanday yo'nalishdagi mutaxassisning reytingi shunchalik yuqori bo'ladi.

Haqiqiy dalillarga asoslanadigan "Iqtisodiyot nazariyasi" fani dunyoda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning barcha murakkabliklarni tushunishga yordam beradi. "Iqtisodiyot nazariyasi" jahon iqtisodiyot fani, uning oldingi va hozirgi zamon iqtisodiy maktablari yutuqlaridan foydalanadi va jahon mamlakatlari va jumladan O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini o'rganadi.

Mazkur darslikda iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni o'rganishning umumnazariy jihatlarini jadvallar va rasmlar yordamida, ularni funksional tahmin qilish bilan to'ldirib borilgan. Bu esa iqtisodiy hodisalar

va jarayonlarning mohiyatini ilmiy tarzda tushunish imkonini beradi.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Oliy majlisi deputatlariga qilgan murojaatnomalarida "Eng katta boylik – bu aql, zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir. Shu sababli xalqimiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"¹ deganlar.

Darslikni yozish jarayonida mualliflar o'quv va uslubiy holatlarni e'tiborga olganlar. Jumladan, darslik qabul qilingan fan dasturiga mosligi, ma'ruzalarni qo'yilgan maqsadlarga javob berishi, iqtisodchi olimlarning iqtisodiy masalalar bo'yicha nazariy qarashlari, ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha turli madaniylashgan yo'nalishda ishlab chiqarishni o'rganish, sinfiy va nosinfiy yo'nalishda o'rganishdan iborat.

Iqtisodiy taraqqiyot holatini o'rganishda nazariy maktablarning qarashlarini o'rganish asosida ilmiy asosda aniq iqtisodiy jarayonni tadqiq qilish asosida iqtisodiy rivojlaniшни kelib chiqishini o'rgangan holda unga baho berish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson ishlab chiqarish jarayonida asosiy omil sifatida tan olinishi munosabati bilan inson kapitalini intellektual rivojlanishiga yo'naltirilayotgan investitsiya mablag'larini o'sishi respublikada de-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. "Xalq so'zi" 2020 yil, 20-yanvar, 2-bet.

mokratik taraqqiyot va iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish va devertifikatsiyalashtirish sharoitida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashga iqtisodiyot nazariyasi fani ularning iqtisodiy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

O'quv darsligi iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari bozor iqtisodiyoti nazariyasi, microiqtisodiyotning amal qilish va rivojlanish qonuniyatlari, milliy iqtisodiyot macroiqtisodiyotning amal qilish va rivojlanish qonuniyatlari, jahon xo'jaligi bo'limlaridan iborat.

O'quv darsligi noiqtisodiy oliy o'quv yurtlarining bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

19-bob. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSİYALAR

Tayanch so'zlar: investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, jamg'arish, iste'mol, kapital, ehtiyoj, mehnat, ish haqi, foyda, ortiqcha ishlab chiqarish.

19.1. Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va uning sifati

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi qanday mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishdan qat'iy nazar uning asosiy maqsadi aholining iste'mol talablarini qondirish va ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan xajmda xomashyolar sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iboratdir. Iste'mol ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib turli mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining iste'mol talablarini zarur darajada qondirish bozor sharoitida eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bu muammoning dolzarbligi shundan iboratki bozor sharoitida nodavlat mulkchilik shakllariga asoslangan ishlab chiqarishni asosiy maqsadi ishlab chiqarishga sarf qilingan kapitalga ya'ni investitsiyaga ma'lum miqdorda foyda olishdan iborat hisoblanadi. Lekin foyda olish uchun har bir tadbirkor nodavlat mulkchiligida foyda olishni maqsad qilib olishga qaramasdan u foyda olish yo'lida asosiy iste'molchilarni tashkil etuvchi kam ta'minlangan ijtimoiy ximoyaga muxtoj bo'lgan xalq ommasi uchun

ularning xarid qilish qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda iste'mol bozoriga tovar ishlab chiqaradilar.

Xususiyl mulkka asoslangan ishlab chiqarish jarayonidan foyda olish uchun ular asosiy ommani tashkil etuvchi aholining xarid qilish qobiliyatini e'tiborga oladilar. ishlab chiqarish jarayoni aholining iste'mol talablaridan kelib chiqqan holda iste'mol uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq. Bizga ma'lum ishlab chiqarish jarayonini yildan-yilga takrorlanib rivojlanishi doimiy ravishda kengaytirilgan holatda takror va takror rivojlanib borishi zarur. Buning asosiy sababi aholining yildan-yilga son jihatdan o'sib borishi, ularning iste'mol tovarlarini xarid qilishni o'sib borishi ikkinchi tomondan esa aholining to'lovi o'sib borishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bog'liq aholining iste'mol talablarini to'liq qanoatlantirish bozor iqtisodiyoti sharoitida muammo hisoblanadi. Uning asosiy muammosi bo'lishiga sabab tabiat va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xajmi tabiat bilan bog'liq bo'lib bu tabiiy mahsulotlar cheklangan holatda bo'lishiga qaramay aholining iste'mol talablari cheklangan bo'lmaydi. Balki u ma'lum davrda to'yingan iste'mol darajasiga bo'lgan holda ma'lum vaqtdan so'ng yana iste'mol talabi qayta tiklanadi.

Aholini iste'mol talablarini qondirish moddiy-ne'matlarga bo'lgan talabi doimiy ravishda o'sib boradi. Aslida aholining iste'mol talablari ma'lum davrdan so'ng yana va yana qayta tiklanib boradi. Aholining iste'mol talablari doimiy ravishda uning xarid qilish qobiliyatiga nisbatan o'sib boradi. Inson talabini chegarasi yo'q. Ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda o'sib borishi ishlab chiqarish jarayonida aholining mehnat qilishga layoqati borligiga bog'liq. Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish o'sib bo-

rishi iste'mol kuchlaridan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish darajasiga bog'liq. Aholining turmush sharoitlarini yaxshilash ularning iste'mol talablarini o'sib borishi milliy iqtisodiyotning tarmoqlarida bo'ladigan modernizatsiya va diversifikatsiyalar asosida yangi ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bog'liq. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil topgan yangi iqtisodiy tarmoqlar aholining turmush darajalarini ma'lum miqdorda o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan (yalpi ichki mahsulotni) o'sib borishi iste'mol talablarini yanada o'sib borishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish jarayoni asosan talab va taklif qonuniga asoslangan holda ishlab chiqarish jarayoni rivojlanib boradi. Bozor sharoitida ishlab chiqarishni o'sib borishi aholining iste'mol talablarini qondirish emas balki tadbirkorlar o'z faoliyatlari asosida ma'lum xajmda foyda olishga qaratilgan bo'ladi.

Ammo tadbirkorlar faoliyatini samaradorligiga iste'molchilarni iste'mol mahsulotini harid qilib olishiga bog'liq.

Iqtisodiy jihatdan aholining xarid qilish qobiliyatini o'sib borishi ularning iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talablari o'sib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol aholining talab darajasida bo'lishi uchun o'sib kelayotgan yosh avlodlarni mehnatga bo'lgan munosabatlarini ularda shakllantirish zarurki ular moddiy boyliklar ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilish iste'mol talablarini to'liq qondirishning birdan-bir yo'li hisoblanadi. Aholining iste'molini o'sib borishini ta'minlash bilishimiz zarur chunki ma'lum darajada mahsulot ishlab chiqarish va aholini iste'mol talablarini qondirish mumkin emas. Shuning uchun bozor iqtisodiy sharoitida ham iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabni bilib olish uchun Respublikada har

bir ishlab chiqarish sub'ekti tomonidan ishlab chiqarilishini tashkil etish biznes rejalarida ishlab chiqarishga rejalashtirilgan mahsulotlar xajmi bir yil uchun emas balki kamida 3-5 yilga belgilanishi kerak. Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmi respublikada aholining o'sib borish miqdoriga nisbatan muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqarilishi kerak.

Aholining iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talab faqat ularni o'sib borishi hisobiga emas balki ularning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan tushum sharoitlarini ishlab chiqarishda mehnat bandligini ta'minlash, mehnat unumdorligini o'sib borishi natijasida ish xaqklarining na faqat nominal darajada balki real darajada o'sib borishi ham ularning iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talablarini o'sib borishini ta'minlaydi. Aholining ko'payishi ularning tug'ilish darajalariga bog'liq. Respublikamizda tug'ilmoq darajalarini o'sib borayotganini va o'lim darajalarini kamayib borishi natijasida umumiy aholi sonini o'sib borishini muqobil ravishda natijasida 2050-yillarga aholining umumiy soni 50,0 mln. kishiga yetishi kutilmoqda.

Demak aholining o'sib borishi Respublikamizda kishi boshiga iste'mol mahsulotlarini yetkazib berishni ta'minlash uchun iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishni bir necha bor o'sishini ta'minlashni talab etadi. Aholining iste'mol talablarini qondira borish meditsina tomonidan belgilangan normativlarga asoslangan holda ularni qanoatlantirish dolzarb muammo ekanligi bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb muammo hisoblanadi. Sababi iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan aholining turmush darajalarini yaxshilanib borishi ularda shunchaki iste'mol talablarini qondirish emas balki sifatli iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish muammosini xal etishni talab qiladi. Res-

publikada birinchi darajada aholining turmush sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammo uy-joy qurish va ularni sifatli uy-joylar bilan ta'minlash ularning iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashdan keyingi ikkinchi dolzarb muammo hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy rivojlanish sharoitida iste'mol talablarini qondirishda ishlab chiqarish jarayonini takroriy ravishda rivojlanib borishini kengaytirilgan ravishda amalga oshirish nafaqat ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishni balki iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini o'sib borishini ta'minlaydi. Aholining iste'mol talablarini o'sib borishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatliy darajasini o'sib borishini talab etadi. Hozirgi keyingi 2-3-yil ichida Respublikamiz aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida uy-joy qurilishini rivojlanishi natijasida ularni sifatli bajarilgan kvartiralar bilan ta'minlanishi ularni ji-hozlashtirish tovarlariga bo'lgan talablarni o'sib borishiga olib kelmoqda. Ishlab chiqarish jarayoni iste'mol bilan bog'liq. Aholining iste'mol talablarini o'zgarib borishi va uni qondirish milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishiga olib kelishi bilan birga ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bozor iqtisodiyotining asosiy qonuni talab va taklif, jami talab va jami taklif ekanligidan kelib chiqqan holda iqtisodiy jihatdan Respublikamizni rivojlanishini ta'minlash yo'lida ishlab chiqarish kuchlarini talablarini qondirish asosiy muammo bo'lib uni qondirilishi aholining iste'mol talablarini qondirilishi bilan bog'liq.

Bu bog'liqlikni ta'minlashning asosiy vositalari ishlab chiqarish jarayonini aholining to'lov qobiliyatidan qolishmasligi va to'lov qobiliyatini qolishmasligini ishlab chiqarish

rishga nisbatan muvofiqlashtirib borish ularning xarid qilish qobiliyatlarini mehnat xaqi to'lovlarini ishlab chiqarishning o'sib borishiga monan darajada o'sib borishini ta'minlashga yoki umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borishni iste'mol mahsulot birligini arzonlashtirib borishiga bog'liq. Iste'mol talablarini qondirish ishlab chiqarish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqlikda ta'minlashi mumkin.

Shu bilan aytish mumkin ishlab chiqarish sub'ektlari bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z oldilariga qo'ygan asosiy maqsad foyda olishni ta'minlab berish hisoblanadi. Agar biz ishlab chiqaruvchilarning maqsadlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga asoslansak bu holat aholining iste'mol talablarini iqtisodiy darajada rivojlanishiga javob bermasligi iste'molga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarishga olib keladi. Ishlab chiqarish jarayoni aholining xarid qilish iqtisodiy qobiliyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilsa iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talablarni to'liq qondirilmasligi asosida ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi iqtisodiy nisbatni buzilishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha ishlab chiqarish jarayoni aholining iste'mol talablariga nisbatan ustun darajada rivojlanish qonuniyatiga asoslangan holda ishlab chiqarishni tashkil etish asosida olib borishga asoslanish kerak. Har bir tashkil topayotgan yangi yo'nalishdagi ishlab chiqarish jarayoni yangi moddiy va ma'naviy iste'mol darajalarini tashkil topishi bilan bog'liq. Yangi ishlab chiqarish yo'nalishlari yangi iste'mol yo'nalishlarini keltirib chiqaradi. Bu holat inkor etib bo'lmaydigan holat bo'lib har qanday iqtisodiy-ijtimoiy tizimga yoki erkinlashgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarishni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini harakatga keltira-

digan kuch hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida aholining iste'mol talablarini qondirish bilan ishlab chiqarish munosabatlarini tartibga keltirish zarur. Ammo bu muammoni xalq etish ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish bilan bog'liq. Buning uchun respublikada aholining iste'mol talablaridan kelib chiqqan holda ularning talablarini qondirish uchun ijtimoiy talablarni e'tiborga olgan holda davlat va nodavlat mulkchiligiga ishlab chiqarishni tashkil etishdan qat'iy nazar ularni talab darajasini qondirishga yo'naltirilgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish lozim.

Bozor sharoitida erkin raqobatga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol va ishlab chiqarish jarayonida iste'mol va ishlab chiqarish jaryonini rivojlanib borishi va ular o'rtasida zarur bo'lgan muqobil nisbatlarni o'rnatish ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish darajasiga bog'liq.

Respublika ishlab chiqarishida asosiy omili mehnat resurslari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar talab va taklif asosida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishni talab darajasiga muvofiq rivojlanishini tashkil etish zarur. Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi makroiqtisodiy darajada jami talab va jami taklifga monan rivojlanishini ta'minlash aholini absalyut daromadlarini ishlab chiqarish darajalariga monan darajada rivojlanishiga bog'liq. aholining iste'mol darajalarini o'sib borishi ishlab chiqarishni yuqori darajada innovatsion rivojlanishni tashkil etish bilan bog'liq. bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda uning asosiy iqtisodiy qonuni bo'lgan jami talab va jami taklif iqtisodiy qonuni talablari asosida ishlab chiqarish jarayoni bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatlarni muqobil bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishini rejalashtirish asosida aholining

iste'mol talablarini qondiradigan darajada ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish zarur. bozor sharoitida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar mavjud. Faqat ishlab chiqarish jarayonini talab va taklif asosida rivojlantirishda ularni tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan sharoitlarni mavjudligi milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun yetrali darajada investitsion mablag'lar bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish jarayonini innovatsiyalashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish asosiy masala bo'lib bu omil asosida aholining iste'mol talablarini to'liq qondirishni ta'minlash mumkin. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsiyalar asosida olib borishni samaradorligi ishlab chiqarish firmalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va ularni boshqarish darajasiga bog'liq.

19.2. Jamg'arishning mazmuni va manba'lari

Milliy iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror iqtisodiy krizislarsiz rivojlanishi yalpi ichki mahsulotni (YaIM) ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq. Yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning bir qismi sarf qilingan ishlab chiqarish xarajatlarini ayrgandan so'ng qolgan mahsulot sof milliy mahsulot bo'lib u iste'mol va jamg'arma fondlariga bo'linadi. Yalpi ichki mahsulotni formulada quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$\mathbf{YaIM=S+v+m}$$

Bu yerda: YAIM – yalpi ichki mahsulot;

S – ishlab chiqarish xarajatlarini moddiy xarajatlari;

v – mehnat resurslari xarajatlari;

m – qo‘shimcha mahsulotni yoki olingan foydani ifoda etadi.

Ishlab chiqarish jarayonini rivojlanib borishi jamiyatning iste‘mol talablarini qondirish darajasida rivojlanib borishi zarur. Aks holda jamg‘arma va iste‘mol o‘rtasidagi shakllanadigan nisbatni buzilishi natijasida ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasida tashkil topishi zarur bo‘lgan iqtisodiy nisbatlarni buzilishiga va iqtisodiy krizislarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Jamg‘arma fondi iqtisodiy kategoriya bo‘lib uni qay darajada shakllanishi milliy iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini uning maqsadini belgilab beradigan davlat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga bog‘liq. Jamg‘arma fondi bozor iqtisodiyoti sharoitida asosan ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda takrorlanib turishi ishlab chiqarish xajmini o‘sib borishida ifodalanadi. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog‘liq. chunki oddiy takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo‘shimcha mahsulotning ma‘lum bir qismini ishlab chiqaruvchi tomonidan jamg‘arilishining bir omili sifatida xizmat qiladi. Oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini qayta takrorlanishi uchun ajratilgan mablag‘ ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu holatda mablag‘ tejamkorligi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ajratilgan mablag‘dan ishlab chiqarish sub’ektini foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida erkinlashgan raqobat asosida turli mulkchilik shakllariga asoslangan ishlab chiqarish sub’ektlar doimiy ravishda arzon xomashyo, arzon ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalari hamda ishchi kuchlarini jalb qilishni talab va taklif asosida ta‘minlashlari jamg‘armaga bog‘liq

bo'lib, ishlab chiqarish ma'lum darajada ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ehtiyotkorlik mablag'larini fondlariga ega bo'lishlari lozim.

Ishlab chiqarish jamg'armasi ishlab chiqarish jarayonini jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta'minlab berishiga asoslanishi lozim. Bu ishlab chiqarish jamg'armalari asosan asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma fondlar tariqasida tashkil topadi. Ishlab chiqarish fondlari ulardan foydalanish jarayonida tashkil topgan va yaratilgan sof mahsulotning ma'lum bir qismini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha yaratilgan sof mahsulotning bir qismi ijtimoiy iste'mol talablarini o'sishini e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan shaklda olib borish zarurligidan kelib chiqqan holda jamg'arma fondiga ajratiladigan mablag' aniqlanadi.

Jamg'arma mablag'larini tashkil etish ishlab chiqarish jarayonini ob'ektiv ravishda rivojlantirishni tashkil etish bilan bog'liq. Jamg'arma fondini tashkil topishi ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirib borishning asosiy manbai bo'lib, bu jamg'arma mablag'laridan ichki va tashqi muhitlarni e'tiborga olgan holda amalga oshira borish bozor iqtisodiyotining talab va taklif, jami talab va jami taklif qonunlari darajasida talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy inqirozsiz rivojlanishi va jamiyat a'zolarini iste'mol talablarini qondira borishi ishlab chiqarish jarayonini rivojlanib borish darajasiga bog'liq. Jamg'arma fondi mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida milliy iqtisodiyotni rivojlanishini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan jamg'arma

mablag'larini ifoda etuvchi jamg'arma fondi faqat ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan takror chiqarish sharoitida zarur bo'lgan miqdorda jamg'arma mablag'larini tashkil etish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish muddatlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining ma'lum yillik qiymatlarini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga o'tkazib berishlari asosida amortizatsiya fondi tashkil topadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari dastlabki qiymati kamayib bormaydi aksincha qo'shimcha texnika va texnologiyalarni sotib olish hisobiga ularning umumiy qiymati o'sib borsa aylanma mablag'lar esa o'z qiymatlarini ishlab chiqarishning bir sikli ichida ishlab chiqarilayotgan tovarlar qiymatiga to'liq o'tkaziladi va xarajatalr ishlab chiqarilgan yil davomidagi mahsulot qiymatida ajratib olish hisobiga qayta tiklanadi. Iste'mol jamg'armasini asosiy vazifasi aholining shaxsiy va ijtimoiy iste'molini va ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan ravishda tashkil etish uchunqo'shimcha ish kuchini iste'mol talablarini qondirishni ta'minlaydi. Jamiyat a'zolarining iste'mol talablarini qondirishda bozor iqtisodiyoti sharoitida ham asosiy manba ishlab chiqarish jarayonida olinayotgan ish xaqi hisoblanadi. Ish xaqi asosan zaruriy ishlab chiqarishda band bo'lganlarning mehnatlari asosida yaratilgan zaruriy mahsulot hisoblanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish sub'ektlari ishlab chiqarish jarayonida olgan foydalari ishlab chiqarish kuchlarining mehnatlari natijasida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning puldagi ifodasi bo'lib ishlab chiqarish sub'ektlari olayotgan foydalarida qo'shimcha ish xaqi to'lovlarini amalga oshirishlari mumkin.

Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir inson tadbirkorlik faoliyatlarini olib borish asosida o'zining iste'mol darajalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy

va iqtisodiy jihatdan sharoitlar respublikada yaratilgan. Iste'mol jamg'armasi asosan qiymat shaklida ifodalanib u ish xaqi shaklida ish xaqi foni ko'rinishida bo'ladi. Ish xaqi fondini o'sib borishi qo'shimcha ishchi kuchlarini ishlab chiqarishga jalb qilish asosida yoki ish xaqini o'sib borishi asosida ish xaqi fondi qiymati o'sib borishi mumkin.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan oila a'zolari oila boshlig'i ish xaqi orqali va ishlayotgan pensionerlar pensiya olishlari, yordamga muhtojlar yordam pullari olishlari oila a'zolarining iste'mol jamg'arma fondini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotni talab va taklif asosida rivojlantirib borishidan asosiy maqsad aholini ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlarini nodavlat ishlab chiqarish sub'ektlarini ifoda etmagan holatda bo'lsa ham ular yuqori darajada foyda olish maqsadida aholining iste'mol talablarini o'sib borishini ishlab chiqarilayotgan iste'mol va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarni arzonlashtirib hisobiga amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida jamg'arma mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan jamg'arma tariqasida, iste'mol uchun zarur bo'lgan jamg'arma tariqasida va zarur bo'lgan darajada zahira resurslari ehtiyotkorlik zahirasi shaklida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish jamg'armalari – ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, sifatli ishlab chiqarish vositalari natural shaklda innovatsion rivojlantirish asosida jamg'ariladi. Bu jamg'arma natural va qiymat shaklida amalga oshiriladi. Qiymat shaklida ishlab chiqarish uchun jamg'arma qiymat shaklida davlat byudjeti mablag'laridan, yirik ishlab chiqarish korporatsiya va aksionerlik kompaniyalaridan va nodavlat mulkchilik ishlab chiqarish egalari bo'lgan

tadbirkorlar mablag'laridan tashkil topadi. Bu mablag'lar ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish va kengaytirish uchun sarf qilinadi.

Iste'mol jamg'armasi – jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy mahsulot va xizmat turlaridan tashkil topib bu jamg'armalar asosan yana qo'shimcha ravishda ishchi kuchlarini jalb qilishni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish uchun jamg'ariladigan iste'mol jamg'arma mablag'lari natural shaklda ishlab chiqarish jarayonlari yo'nalishlari bo'yicha turli shakllarda bo'ladi. Ularning jamg'arilishi – iste'mol mahsulotlari shaklida sotib olish asosida, ijtimoiy ya'ni ko'pchilik, jamoa shaklida jamiyat a'zolari iste'mol qilish va xizmat ko'rsatishda foydalani-ladigan mahsulot va xizmat turlaridan tashkil topib bu-lar davlat, jamoa va turli xajmdagi tadbirkorlik korxonala-ri mulklaridan tashkil topadi. Bu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan jamg'arma iste'mol uchun zarur bo'lgan jamg'arma va zahira, ehtiyotkorlik jamg'armalari bozori iqtisodiyoti talablari asosida rivojlanayotgan milliy iqti-sodiyot sharoitida ishlab chiqarish tadbirkorlik sub'ektlari-ning har birida olinayotgan foyda va daromadlar hisobi-ga ta'minlanib boriladi. Mamlakat darajasida esa davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Iste'mol jamg'arma-sini o'sib borishini asosini birinchidan ish xaqini o'sib bori-shi, ikkinchidan aholining mehnatga yaroqli resurslari to-monidan tashkil etilgan tadbirkorlikdan va aholini ijtimoiy ximoya qilish mablag'laridan turli nafaqa, to'lovlar qiymat-larini o'sib borishidan tashkil topadi.

Xulosa qilib aytish mumkin iste'mol jamg'armasi iste'-mol tovarlarini ish xaqlari va tadbirkorlik faoliyatlari hisobiga sotib olishdan va mamlakat darajasida noishlab chiqarish uy-joy, madaniy-ma'ishiy ko'rilmalar, dam olish

maskani, meditsina xizmat ko'rsatish va turli yo'nalishdagi maktab yoshigacha bo'lgan tarbiya va ta'lim muassasalaridan tashkil topadi.

Jamiyatni rivojlanishi mamlakatni qanday rivojlanish yo'lini tanlab olishidan qat'iy nazar uni rivojlanishiga zarur bo'lgan zahiralarni va ehtiyotkorlik fondlar jamg'armasi amalga oshirila borishi zarur. Jamg'armaning bu shakldagi ko'rinishiga asosiy sabab ishlab chiqarish jarayonini har qanday holatda amalga oshirishni ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida zahiralarni va ehtiyotkorlik fondlarini shakllanishini o'sib borishi ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni usulsiz amalga oshirish uchun eng zarur bo'lgan bir omil deb ham qarash mumkin. Shuning uchun jamg'arma mablag'larini bu yo'nalishlarda mamlakatimizda tashkil topishi ilmiy va uslubiy jihatdan asoslab berilgan tarzda shakllantirib borish zarur.

Bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari asosida kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonini barqaror olib borishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish jamg'armasi bilan iste'mol jamg'armasi o'rtasidagi nisbat muqobil barqaror nisbat bo'lishi kerak. Jamg'arma jarayoni na faqat natura holatda balki qiymat holatida ham bo'ladi. Qiymat shaklida jamg'arma nominal va real qiymat shakllarida ifodalangani. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishlab chiqarish tadbirkorlik sub'ekti mustaqil ravishda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jihozlarni xarid qilib olishni o'zlari amalga oshiradi. Shu bilan birga davlat tomonidan bu muammolarni xal etishda qatnashadi va yordam beradi. Real ya'ni absalyut narxlarda moddiy jihozlarni xarid qilib ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirib borishda ahamiyat na faqat ishlab chiqarish jarayonini balki nomoddiy jamg'arishni ham

takomillashgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanish jamg'arma mablag'lari bilan uni real holatda ishlatilishi quyidagilarga bog'liq.

Real ya'ni absalyut narxlarda jamg'arma mablag'lari hisobiga zarur bo'lgan ishlab chiqarish jihoz va fondlarini xarid qilib olishdagi mohiyati katta real ya'ni absalyut narxlarni ishlab chiqarish vositalariga tushib borishi ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan jihozlarni ko'proq xarid qilib olishni va ishlab chiqarish jarayonini kengaytirib borish sharoitini talab darajasida bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga real va absalyut narxlarda ishlab chiqarish jamg'armasi mablag'i hisobiga ishlab chiqarish jihozlarini xarid qilish sifatli ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonini turli mulkchilik shakllarga asoslanganligi jamg'arma mablag'larini shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur bo'lgan jamg'arma mablag'larini jamg'arilishi birinchi navbatda ishlab chiqarish tadbirkorlik sub'ektlarini ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini na faqat ichki va tashqi iste'mol bozorlarida o'zining sifat darajalari bilan, mahsulot birligini arzonlashuvi bilan milliy iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy inqirozsiz rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi bilan ajralib turadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg'arma mablag'lari mamlakat darajasida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish va aholini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishiga yo'naltirilishi bilan davlat darajasida aholining ijtimoiy ximoya qilinishi amalga oshiriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobiga ishlab chiqarish jarayoni ekstensiv va intensiv usulda rivojlanib boradi. Ammo

iqtisodiy rivojlanishni ekstensiv shakli ishlab chiqarish sub'ektlarini son jihatdan ko'paytirish hisobiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda ifodalasa, intensiv shaklda ishlab chiqarish jarayonini jamg'arish mablag'lari hisobiga amalga oshirish yangi innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash asosida mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirish hisobiga ishlab chiqarish xajmini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot birligiga kamaytirishda ifodalanadi. Lekin jamg'arma mablag'laridan foydalanish milliy iqtisodiyotni ekstensiv va intensiv usullari asosida rivojlantirish zarur bo'lgan holda ikkala usulda foydalanish maqsadga to'g'ri bo'ladi. Bozor sharoitida ham ishlab chiqarish jarayonlarida yiriklashuv va markazlashuv holatlari bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonini yiriklashuvi innovatsiya yangiliklarini ishlab chiqarishga qo'llanishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanib sifatii darajalarini o'sib borishiga olib kelishi natijasida ishlab chiqarish jarayonida yiriklashuv amalga oshadi. Yuqori unumdorlik ta'minlovchi innovatsiya yangiliklari ishlab chiqarish jarayonlarini kooperatsiya asosida rivojlanishni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Bozor sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini yiriklashuvi natijasida yirik monopolistik korxonalar tashkil topadi

Erkin raqobat asosida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishni ta'minlash uchun yirik monopol korxonalarini tashkil etish yo'lida borish emas balki ularni ishlab chiqarish yo'nalishlariga qarab optimal kooperativ ishlab chiqarish tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish zarur. Jamg'arma ishlab chiqarish mablag'lari bilan iste'mol uchun ajratilayotgan mablag'lar o'rtasidagi nisbat bir-biriga muvofiq bo'lishi kerak. Bu ikki shakldagi moliyaviy mablag'larni tashkil topishi bozor iqtisodi-

yoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini iqtisodiy inqirozsiz va barqaror rivojlantirishni ta'minlashi bilan birga aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini talab darajasida qondirilishini ta'minlashi kerak.

19.3. Jamg'armaning mablag'laridan foydalanish samaradorligi

Jamg'arma iqtisodiy kategoriya bo'lib ishlab chiqarish jarayonida ma'lum yo'nalishda iste'mol bozorlariga tovar ishlab chiqarish asosida yaratilgan yalpi mahsulotdan uni ishlab chiqarish xarajatlari qoplangandan so'ng qolgan foydani ma'lum qismi korxonaning jamg'arma mablag'larini tashkil etadi. Ishlab chiqarish sub'ektlarida jamg'arilgan mablag'lari qiymat va natural shaklda barcha ishlab chiqarish sub'ektlarida ana shunday ikki ko'rinish shaklda bo'ladi. Jamg'arma na faqat ishlab chiqarish korxonalari darajasida balki barcha yuridik sub'ektlar, xususiyl mulkdorlar va uy xo'jaliklari tomonidan jamg'arma amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish ishlab chiqarilgan milliy daromadni ma'lum bir qismi aylanma va doimiy fondlar tariqasida ishlatiladi. Ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida tashkil topgan mablag'lar xarajatlar darajasida yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish yoki mavjud bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish uchun jamg'arilgan mablag'lar asosiy kapital tariqasida ishlab chiqarish asosiy fondlarini kengaytirish va sifatli ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashga sarflanadi. Jamg'arma mablag'lari bilan investitsiya xarajatlari xajm jihatdan bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Sababi jamg'arma fondi ishlab chiqarish jarayonida olingan foy-

daning ma'lum qismi hisobiga tashkil topadi. Jamg'arma fondi tushunchasi ishlab chiqarish investitsiyalashtirish tushunchasiga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib jamg'arma mablag'lari hisobiga nafaqat asosiy fondlarni yangilash ularni yangi texnika va texnologiyalar bilan boyitish asosida asosiy fondlarni qiymat shaklida o'sib borishi ta'minlanadi. Shu bilan birga aylanma fondlar xajmini o'sib borishi ham jamg'arma mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayonida olingan daromadlar hisobiga asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi. Jamg'arma mablag'lari korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatlarini o'sib borishini ta'minlash maqsadida ularni ta'mirlash ishlarini olib borish ham jamg'arma mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish sub'ektlarini samaradorligini o'sib borishini, ularning raqobatdoshligini ta'minlash ularni modernizatsiyalash asosida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashtirishni amalga oshirish zarur. Jamg'arma mablag'larining asosiy qismi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun sarflanadigan asosiy omillardan hisoblanadi. Jamg'arma mablag'larini bir qismi ijtimoiy moddiy shart-sharoitlarni yaratish uchun sarflanadi. Bu yo'nalishga jamg'armadan sarf etilgan ishlab chiqarish uchun va ishdan tashqari vaqtlarda dam olish, xordiq chiqarish bilan bog'liq ijtimoiy ob'ektlarni qurilishni ta'minlashga ana shu ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan jamg'armaning ma'lum qismi hisobiga amalga oshiriladi. Jamg'arma mablag'lar bozor iqtisodiyoti sharoitida kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonini olib borishda asosiy moliyaviy omil hisoblanadi. Ammo amaliyotda ishlab chiqarish jarayonlari rivojla-

nirish uchun zarur miqdorda jamg'arma mablag'lari taqsimotini to'g'ri tashkil qilmaslik oqibatida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, ishlab chiqarish vaqtidan unumli foydalanmaslik kabi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish ta'minlanishiga shart-sharoitlarni yaratib berilmasligi natijasida ishlab chiqarish jarayonini belgilangan darajada amalga oshirilmasligi oqibatida jamg'arma mablag'lari o'sib borilishini ta'minlanmasligi natijasida uni talab darajasida rivojlanmasligiga olib keladi.

Umuman jamg'arma mablag'laridan foydalanishda belgilangan darajadagi jamg'arma mablag'iga asoslanishi kerak. Belgilangan darajadagi mablag'dan ortiqcha foydalanish ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini o'rtasidagi nisbatlarni buzilishga olib keladi. Oqibatda makroiqtisodiy darajada ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda ishlab chiqarish iqtisodiy tarmoqlari o'rtasidagi nisbatlarni buzilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirib borishni iste'mol talablaridan kelib chiqqan holda olib borilishi jamg'arma mablag'larini talab darajasida o'sib borishiga salbiy ta'sir etadi. Bozor sharoitida ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishi iste'mol bozorlarida narxlarni qat'iylik darajasiga ham bog'liq. Narxlarni iqtisodiy krizislar va inflyatsiya darajalariga qarab jamg'arma mablag'larini ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga kerak bo'lgan miqdorda jamg'arma mablag'lari investitsiya tariqasida ajratilib boriladi. Bozor sharoitida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish uchun ajratilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda xarajat qilinishi ishlab chiqarish jarayonini o'sib borishini va ishlab chiqarish asosida olinayotgan foydadan jamg'arma mablag'larini milliy iqti-

sodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha mablag'lar ajratish uchun qo'shimcha moliyaviy manba darajasi o'sib boradi. Ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga sarf qilina-yotgan mablag'lardan foydalanish samarali bo'lishi lozim. Chunki ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiyalash-dan maqsad korxonalarining foyda olish darajalarini o'sib borishini ta'minlashga bog'liq. ishlab chiqarish jarayoniga sarf qilina-yotgan jamg'arma mablag'laridan samarali foy-dalanishni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$Jm = Md \cdot Im \cdot 100\%$$

Jm – jamg'arma mablag'lari samaradorligi foizda;

Im – investitsiya mablag'lari so'mda;

Md – milliy daromadni o'sishi so'mda.

Jamg'arma investitsiyalarni samaradorligi mahsulot ishlab chiqarishni kam jamg'arma investitsiya mablag'lari hisobiga o'sib borishida ifodalanadi. Investitsiya mablag'laridan samarali foydalanish quyidagilarga:

- ishlab chiqarish tarmoqlarini takomillashtirib bo-rishga;

- ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan korxonalar qurilish muddatlarini qisqartirishga;

- ilm-fan taraqqiyotida qo'lga kiritilgan innovatsiya-lar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg'arma mablag'la-ridan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlash uchun bozor talablaridan kelib chiqqan holda nafaqat ish-lab chiqarish jarayonini balki tarmoqlar o'rtasidagi nis-batlarni ham takomillashtirib borish asosida jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish mum-kin.

19.4. Investitsiya mazmuni va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif qonunlari talablari asosida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy manbai tadbirkorlik firmalarida asosan firma tomonidan ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga olingan foyda yoki xizmat boshqa firma xo'jaliklariga xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlardan va ortiqcha ishlab chiqarish vositalarini sotishdan tushgan pul mablag'lari hamda asosiy fondlardan foydalanish hisobiga tushadigan mablag'lar investitsiya mablag'larini tashkil etadi. Agarda firmalardan ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish va unga zarur bo'lgan ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini sotib olish uchun firmalarda mablag' yetarli bo'lmasa ular birinchi o'rinda banklardan oladigan kredit mablag'larini investitsiya tariqasida foydalanadilar.

Investitsiya mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' hisoblanadi. Investitsiya mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish yoki yangi qo'shimcha ishlab chiqarish jarayonini ko'rib ishga tushirishda ham foydalaniladi. Investitsiya mablag'lari ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy ishlab chiqarish fondlarini rivojlantirishga yangi samarali mehnat sarfini tejoychi innovatsion ishlab chiqarish vositalarini xarid qilib olishga va apylanma fondlarni yangilashga yoki kengaytirishga sarflanadi.

Investitsiya mablag'lari nima?

Investitsiya mablag'lari uzoq muddatlarga davlatdan, maxalliy va xorijiy investorlardan olingan qarz bo'lib ichki yoki tashqi ishlab chiqarish sohalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida foyda olish xajmini rivojlantirish

uchun sarf etiladigan mablag' hisoblanadi. Investitsiyalar asosan:

- yangi qurilish ishlariga;
- yangi ishlab chiqarish uchun innovatsion ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga;
- ishlab chiqarish jarayoniga qo'shimchak moddiy xarajatlar qilish uchun;
- firma xodimlari uchun ijtimoiy shart-sharoitlarni yaxshilash bilan bog'liq qurilish ishlariga sarf-xarajatlardan tashkil topadi.


Investitsiya mablag'laridan foydalanish natijasida asosiy fondlarni sifatijihatdan o'zgarishlariga olib keladi. Investitsiya mablag'lari ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlashda materiallar va jihozlarni jang'arish va insonni kapitallashuv darajasiga o'sib borishi korxonaning innovatsion darajasini yaxshilanib borishini ta'minlaydi.

Investitsiyalar yalpi investitsiya tariqasida ichki ishlab chiqarish vositalarini yangilashda va ishlab chiqarish jarayonini o'sishda ko'rish mumkin. Investitsiya sof investitsiya holatida ham bo'lishi mumkin. Sof investitsiya bu yalpi investitsiyadan amortizatsiya mablag'larini asosiy fondlar qiymatidan chiqarib olinishi natijasida olingan sof investitsiyani tashkil etadi. Sof investitsiya mablag'lari yalpi investitsiyalar xajmiga nisbatan kichik bo'lib industrial investitsiya yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun mablag' bo'lib uni o'sib borishiga sabab yangi qo'shimcha ishlab chiqarish jarayonini tashkil etilishi hisoblanadi. Bozor sharoitida investitsion talab o'sib boradi. Bunga asosiy sabab ishlab chiqarish jarayonini qo'shimcha ravishda kengaytirish yoki yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarishga jalb qilingan investitsiya mablag'la-

rini qaytarish muddati uning asosida tashkil etilgan ishlab chiqarishdan olinadigan foyda muddatiga bog'liq bo'ladi. Demak investitsiya berish muddati uni foyda berish normalariga va shu xajmda qo'yilgan pul mablag'i to'lanadigan bank foiziga bog'liq bo'ladi. Investitsiya talabiga ma'lum omillar ta'sir etadi bu ta'sir etuvchi omillar:

- daromadni o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;
- daromadlarni pasayishiga olib keluvchi omillardan iborat.

Agarda investitsiya mablag'lariga talab o'sib borsa investitsiya egri chizig'i o'sib boradi buni quyidagi 19.1-rasm-da ko'rish mumkin.



19.1-rasm. **Investitsiya egri chizig'i**

Ishlab chiqarish jarayonida daromadni va investitsiyalarni bog'liqligini multiplikator orqali aniqlash mumkin. Multiplikator – bu koeffitsient bo'lib olinayotgan daromadni o'zgarishini investitsiya mablag'lariga nisbatan o'sishi yoki kamayishini ifoda etadi.

Misol uchun investitsiya mablag'i 10 milliard so'mni tashkil etsa, uning natijasida yalpi mahsulot o'sishi qiymat shaklida 20 mlrd.so'mga teng bo'lsa multiplikator teng bo'ladi

$$M_p = \frac{YaMU}{\text{investitsiya o'sishi}} = \frac{\Delta YaMM}{\Delta \text{investitsiya}}$$

Yoki $\Delta YaMM=Mr=\Delta$ investitsiya yoki multiplikatorni investitsiya ko'paytirish asosida YaMM o'sishini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytsak aholi qancha ko'p mablag' sarfini iste'molga sarf qilsa multiplikator darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Aholining daromadlarini jamg'armasini o'sib borishi multiplikator darajasini pasayishiga olib keladi. Daromadni investitsiya mablag'larini o'sib borishiga ta'sirini akselyator ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Akselyator (tezlatguvchi) ma'nosini bildiradi. Bu koeffitsient bo'lib daromadni investitsiyaga nisbatan o'sib borishini ifoda etadi. Formulada:

$$\text{Akselyator} = \frac{\text{investitsiya}}{\text{O'tgan yilgdagi milliy daromad}}$$

Investitsiya mablag'larini o'sishi asosiy muammo bo'lib uni aniqlashda umumiy bir yagona tushuncha yo'q. Ayrim iqtisodchilar Makkonel Bryu investitsiya mablag'larini iqtisodiy o'sishini ikki usul asosida ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulot asosida yoki uni kishi boshiga o'sib borishini aniqlash taklif qilinadi. Boshqa iqtisodchilar esa iqtisodiy o'sish nafaqat miqdoriy balki mahsulot sifatiiy tomonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish omillarini takomillashtirishda ko'radilar. Investitsiya mablag'lari asosida ishlab chiqarish ekstensiv ya'ni qo'shimcha xarajatlarni jalb qilishga asosan ishlab chiqarish o'sib boradi. Intensiv asosda ishlab chiqarish asosan qo'shimcha xarajatlarsiz ishlab chiqarish jarayonini o'sib borishini bildiradi. Investitsiya mablag'lari samaradorligi foyda olishda yoki zarar ko'rishda yana nollik darajada foyda ham zarar ko'rmaslikda ifodalanadi. Investitsiya xarajatlarini nollik samaradorligida o'sish darajasi o'zgartirilmagan holda amalga oshiriladi. Yuqori o'sish darajasi investitsiya mablag'lariga

nisbatan ishlab chiqarish darajasini ustun darajada bo'lishini bildiradi. Investitsiya sarflari asosida iqtisodiy o'sishga quyidagi taklif omillari ta'sir etadi:

- tabiiy boyliklarni miqdori va sifati;
- aholini mehnatga bo'lgan qobiliyati va mehnat resurslari;

- asosiy kapitalni mavjudligi;


- ishlab chiqarish texnologiyalarini darajasi.

Talab omillarida esa asosan:

- ish xaqi;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari tashkil etadi.

Taklif omillari moddiy va mehnat resurslarini taqsimoti mahsulot ishlab chiqarishni o'sishiga xizmat qilishi kerak. Investitsiya mablag'larini samaradorligi ikki omilga asoslangan ko'p omilli modeli quyida (19.2-rasm)da keltirilgan:



19.2-rasm. Ko'p omilli model


Ikki omilli modelda mehnat va kapital investitsiya mablag'i asosida rivojlanishda qatnashadi. Amerika iqtisodchisi asoslashicha 21 mahsulot xajmi o'sishi mehnat

unumdorligini asoslanishida $1/3$ qismi esa mehnat xarajatlarini o'sishiga asoslanadi. Ikki omili ishlab chiqarishda birinchi omilda ilmiy texnika progressi hisobiga olinmaydi ikkinchisida ilmiy texnika samaradorligi e'tiborga olinadi. Agar ilmiy texnika taraqqiyoti bo'lmasa kapital jamg'arishi sekin-asta mahsulot ishlab chiqarishni pasayib borishiga olib keladi.

Ilmiy texnika taraqqiyotida mehnat unumdorligi va investitsiya o'sib boradi. Investitsiya xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib kelsa, ikkinchi holatda kapital xarajatlarini qiqarishiga olib keladi. Investitsiya xarajatlari iqtisodiy rivojlanish jarayonida aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga olib keladi shu bilan birga investitsiya xarajatlari asosida ishlab chiqarishning rivojlanishining salbiy tomonlari mavjud. Bular jumladan: atrof-muhitni ifloslanishi; aholida ma'lum darajada kelajaka bo'lgan ishonchsizlik olib keladi. Iqtisodiy o'sish kategoriyasi tushunchasi, iqtisodiy rivojlanishga nisbatan tor darajada ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishni faqat bir tomonini ifodalaydi. Iqtisodiy o'sish esa mahsulot ishlab chiqarish jarayonida texnikkaviy o'zgarishlarni o'zida ifoda etadi. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbatga Dj.M.Keyns tomonidan ijtimoiy talabni tahlil qilishi asosida iqtisodiyotni iqtisodiy krizisdan olib chiqishni umumlashgan ijtimoiy olib chiqadi deb hisoblagan. Keyns modelida iqtisodiyotni tartibga solishda davlat tomonidan amalga oshirilishini talabni tartibga solish deb hisoblangan. Sinfy iqtisodchilar esa iqtisodiyotni bozor tizimini o'zi tartibga soladideb hisoblaganlar. Ularning fikricha davlatning iqtisodiy siyosati faqat narxlarga ta'sir etiladi, ishlab chiqarish xajmiga va ishchilarni bandligiga ta'sir ko'rsataolmaydi deb hisoblaganlar.


Shuning uchun iqtisodiyotni davlat aralashuviga zaruriyati yo'q deb hisoblaganlar.

Investitsiyaga bo'lgan talab investitsiya to'lovlari uchun olinadigan foizga bog'liq. Buni 19.3-rasmda quyidagicha ko'rsatish mumkin.



19.3-rasm. *Investitsiya mablag'iga talab*

Investitsiya mablag'lariga foiz to'lovlari past bo'lsa investitsiyaga talab o'sadi va aksincha holatda investitsiyaga talab kamayadi. Siniy iqtisodchilar jamg'arma banki (19.4-rasm)da investitsiya o'rtasidagi muvozanatni M_1 ko'rsatkichida ifodalaganlar, foyda nomasini pasayishi investitsiyaga bo'lgan talabni pasayishiga M_1 dan M_2 ga ko'chadi. Natijada yangi investitsiya va muvozanati M_3 ko'chadi.



19.4-rasm. *Investitsiya jamg'armasiga*

19.5. Respublikada investitsiya faoliyatini ta'minlash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uni investitsiyalashtirish darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda investitsiya mablag'i jahon leksionidan olingan bo'lib iqtisodiyotni rivojlantirishga ajratilgan mablag'lar Respublikamizni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqillikka erishgunga qadar **kampit qo'ymalar** deb yuritilgan.

Investitsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlanishini harakatga keltiruvchi asosiy qiymat (pul) shaklidagi tovar hisoblanadi. Investitsiya mablag'lar milliy iqtisodiyotni va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda faol qatnashuvi natijasida uni ikki qismga bo'lib o'rganish zarur. Jumladan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish bilan bog'liq investitsiya mablag'lari asosan ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarini va ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni tashkil etuvchi aylanma fondlarga taqsimlangan holda ishlatiladi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ajratilgan investitsion mablag'lardan samarali foydalanish respublikada yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishni o'sishiga olib keladi.

Respublikada 2017-2018-yillar ichida yalpi ichki mahsulot (YaIM) 5,1 foizga ko'payib 407514,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shu davr ichida yalpi qo'shilgan qiymat esa 4,5 foizga o'sib 361951,1 mlrd. so'mni tashkil etgan mahsulotlarga sof soliqlar 5,5 foizga ko'payib 2018 yilda 45,563,4 mlrd. so'mni tashkil etib YaIM qiymatiga nisbatan 0,6 foizni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida aholin-

ing iqtisodiy va ijtimoiy turmush sharoitlarini farovonligini oshirishga olib keladi.

Prezidentimizning 2017 – yil 7 – fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillar ichida rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlarini belgilab berilishi va ularni amalga oshirish ham investitsiya mablagʻlari bilan bogʻliq. Mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan 2019 yilni “faol investitsiyalar ijtimoiy rivojlanish yili” deb belgilanishi bu investitsiyalashtirish jarayonini naqadar zarurligini koʻrsatadi.

Bundan kelib chiqqan holda 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 16 foiz koʻp investitsiya mablagʻlarini oʻzlashtirish rejalashtirilgan. 2019-yilda neft-gaz va kimyo sanoatini yanada rivojlantirish uchun investitsiya dasturiga umumiy qiymati 27,8 milliard dollarlik 26 ta loyiha amalga oshirilishi boʻyicha rejaga kiritilgan yoki energetika va moliya vazirliklariga “Shoʻrtan gaz-kimyo” majmuasining tozalangan metani negizida sintetik suyuq yoqilgʻi (GTL) ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi boʻyicha 2,3 milliard dollarda xorijiy kreditlarni jalb etish rejalashtirishga yoki “Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish” loyihasi boʻyicha Rossiya “Gazprombank”ning 300 million dollarini kreditini jalb etish rejalashtirilgan.

Respublikada investitsiya faoliyatini rivojlanib boriishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilinishi 2018 yilda 14,4 foizdan 19,0 foizga oʻsishi valyuta miqdorini 1,9 barobarga tushishini oshishiga olib keldi. Natijada eksportdan tushgan valyuta tushumlarini ishlatilishi investitsiya mablagʻlariga boʻlgan ehtiyojlarni qoplash uchun umumiy valyuta tushumining 30,0 foizdan 61,0 foizgachan qismi taʼminlashga ishlatilmoqda. Milliy

iqtisodiyotni rivojlantirish zarur bo'lgan mablag'lar investitsiya tariqasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarflanishi bo'yicha respublikamizda bozor talablari sharoitida investitsiya mablag'larini ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish bo'yicha ilmiy ravishda asoslangan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilmagan va har bir ishlab chiqarish sub'ektlari ishlab chiqarish xajmini talab va taklifdan kelib chiqqan holda investitsiya mablag'larini ajratib beradilar. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ishlab chiqarish sub'ektlari qo'ygan vazifalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish jarayoni natijasi oldidan umumiy daromadlaridan asosan 25 foizgacha bo'lgan qismini ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish uchun sarf qiladilar, asosan sanoat tarmoqlarida. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda investitsiya mablag'larini sarflanish darajasi Yerlarning unumdorligiga va sug'oruv suvlari bilan ta'minlashuviga, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnika, qishloq xo'jaligi mashinalariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish tashkil etilganyoki etish darajalariga qarab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida olinayotgan daromadning 50 foizigachan investitsiya mablag'lari sifatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarflanadi.

Demak jamg'arish bilan investitsiya mablag'lari o'rtasidagi nisbani qay darajada tashkil topishiga qarab iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya mablag'lari ajratib boriladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ajratilgan investitsiya mablag'lari xarajati nominal bo'lib hisoblansa, amalda belgilangan ishlarni bajarishga sarflangan investitsiya xarajatlariga real investitsiya xarajatlari deb yuritiladi. Investitsiya mablag'i – asosiy ishlab chiqarish fondini, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyolar qiymatini o'zida ifoda etuvchi aylanma fondi, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishchi kuchlaridan, ehtiyot-

korlik fondlarini tashkil etishda foydalaniladi. Investitsiya mablag'lari davlat darajasida aholi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ob'ektlarni qurilish xarajatlaridan tashkil topadi. Investitsiyalashtirish asosan ichki va tashqi investitsiyalashtirish manbalariga bo'linadi. Ichki investitsiyalar manbai bo'lib ishlab chiqarishda olingan foyda yoki daromadning ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish uchun sarf qilingan bir qismi, amortizatsiya fondi jamg'armalaridan joriy va kapital ta'mirlashdan qolgan qismi tashkil etadi. Shu bilan birga banklardan olingan kreditlar ham investitsiya mablag'larini tashkil etishi mumkin agarda bu mablag'lar ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga ishlatilsa. Investitsiya mablag'lari davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mablag'lar ham tashkil etadi. Iqtisodiyotni rivojlanishini investitsiyalashtirishda xorijiy mamlakatlar tomonidan, yirik ishlab chiqarish kompaniyalari tomonidan yoki xususiy yirik mulkdorlar tomonidan olingan investitsiyalar.

Xorijdan investitsiyalar asosan ma'lum muddatga olinib uni muddati kelganda foydalanganlik uchun ma'lum foiz qo'shimchasi bilan qaytariladi. Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilish portfeldagi investitsiya tariqasida bo'lib undan foydalangan mamlakatlarda asosan ma'lum bir ishlab chiqarish ob'ektlarini to'liq ko'rish va mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash darajasiga bog'liq xarajatlar to'liq qoplanadi. Investitsiya mablag'larini ishlatish natijasi investitsiya xarajatlariga olinadigan foyda, nollik samarali va zarar ko'rish ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Respublikada innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun Yetarli shart-sharoitlar mavjud. Respublikada davlat milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bosh islohotchi tariqasida investitsiya faoliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor beribkelmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkin respublika milliy iqtisodiyotini samarali rivojlanishini investitsiyalar xarajatlari asosida ta'minlash aholining iste'mol va turmush darajalarini o'sib borishidagi nisbatlar asosida aniqlash mumkin.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Iste'mol va jamg'arish ob'ektiga nimalar kiradi?
2. Jamg'arish ob'ektiga nimalar kiradi?
3. Investitsiyaning mohiyati nimadan iborat?
4. Portfeldagi investitsiya nimadan iborat?
5. Investitsiya qanday turlarga bo'linadi?

Testlar

1. Investitsiya jamg'armasi nimadan iborat?
 - a) ishlab chiqarish fondlarini o'sishida
 - b) aylanma fondlarni o'sishida
 - d) yalpi mahsulotlarni o'sishida
 - e) daromad
 - f) foyda
2. Investitsiya nima?
 - a) kredit
 - b) asosiy fond
 - d) qimmatli qog'ozlar
 - e) aktsiya
 - f) chek
3. Sof investitsiya nima?
 - a) amortizatsiya
 - b) aylanma mablag'
 - d) uzoq muddatli kredit
 - e) qisqa muddatli kredit
 - f) ishlab chiqarishga sarflanma investitsiya
4. Xususiy investitsiya manbai nima?
 - a) oila daromadi
 - b) ish xaqi
 - d) bankdagi pul qo'yilmalari
 - e) next pullar
 - f) oila daromadi, bankdagi qo'yilmalar

20-bob. IQTISODIY TARAQQIYOT, IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK

Tayanch so'zlar: iqtisodiy o'sish, milliy boylik, iqtisodiy siyosat, xo'jalik mexanizmi, mehnat resurslari, yalpi milliy mahsulot, ekstensiv o'sish, intensiv o'sish, iqtisodiy o'sishning salbiy yuqori va nominal sur'atlari, samaradorlik, iqtisodiy o'sish sur'atlari, F.Keninging iqtisodiy jadvali, iqtisodiy o'sishning Dj.M.Keyns modeli, nosinfiy model, tarixiy-sosiologik model, tarmoqlararo balans modeli.

20.1. Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko'rsatkichlari

Iqtisodiy o'sish har bir mamlakat taraqqiy jihatidan rivojlanib borishining asosiy muammosi hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish darajasi mamlakatning iqtisodiy holatiga va aholining turmush sharoitlari darajasiga qarab belgilanadi. Iqtisodiy o'sish muammosi cheklangan resurslardan samarali ravishda foydalanish asosida aholining cheksiz iste'mol talablarini qondirish darajasiga qarab aniqlanadi. Ish haqlarini o'sib borishi iqtisodiy rivojlanishni ijobiy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatsa mahsulot tovarlarning iste'mol bozorlarida narxlarning asossiz o'sib borishi, uy-joy kommunal to'lovlarni, soliqlarni o'sib borishi iqtisodiy rivojlanishni talab darajasida emas ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiy o'sish to'g'risida umumlashgan yondoshuv yo'q. Jumladan AQShlik Makkonnel, Bryu iqtisodiy o'sishni ikki usulda hisoblashni tavsiya etadi:

- birinchi usul yalpi milliy mahsulotni (YAMM) yoki sof milliy mahsulot (SMM) hisoblash asosida aniqlash;

- ikkinchi usul ular (YAMM) va (SMM) kishi boshiga ishlab chiqarish usulida hisoblashni tavsiya etadilar.

Boshqa iqtisodchilar guruhi bular asosan MDH mamlakatlari iqtisodchilari bo'lib ular iqtisodiy o'sishni miqdor ko'rsatkichini o'zida ko'rsatishni o'ziga kifoyalanmasdan uni sifatiga va ishlab chiqarish omillariga e'tibor berish zarur deb hisoblaydilar. Ular iqtisodiy o'sishni ekstensiv, intensiv, aralash (aniq) iqtisodiy o'sishga bo'ladilar.

Industrial rivojlanishni – innovatsion iqtisodiy rivojlanish deb asoslamodalar. Iqtisodiy o'sish aktual muammo bo'lib uning o'sib borishi ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy resurslarga bo'lgan talabni o'sishi bilan tabiiy boyliklarni kamayib borishi o'rtasida ziddiyatlar o'sib bormoqda. Tabiiy boyliklarni kamayib borishi oqibatida mamlakatning ekologik holatiga salbiy ta'sir etadi.

Demak iqtisodiy rivojlanish muammosi faqat aholining iste'mol talablarini o'zini emas balki tabiatning ekologik holatini pasayishi bilan ham bog'liqdir. Demak mamlakatning ekologik holatiga putur Yetkazmasdan turib xalq iste'molini qondirish uchun iqtisodni rivojlantirish zarur ekan. Iqtisodiy rivojlanishda ishlab chiqarish va iste'mol o'zaro bog'liq bo'lib iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. Tabiat esa iqtisodiy rivojlanishni asossiz olib borishiga o'zining qarshiligini ko'rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot har bir mamlakatning asosiy maqsadini ifoda etadi.

Jamiyat taraqqiyoti moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishni rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatda qanchalik ishlab chiqarish rivojlansa, tovarlar ishlab chiqarish hajmi o'sib borsa, ularning sifati yaxshilanib borsa, milliy daromad hajmi shunchalik ko'payib boradi. Iqtisodiy o'sish ana shu milliy daromadning o'sishida uning hajmida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish jamiyat taraqqiyotining talablari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy o'sish doimiy ravishda talabni qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sish davlatni har tomonlama mustahkamlaydi. Iqtisodiy o'sishning asosiy maqsadi jamiyat a'zolarining talablarini to'liq qondirishdan iboratdir. Iqtisodiy o'sish deganda ishlab chiqarishning natijalari va uning omillarining miqdori va sifatining oshganligi tushuniladi. Iqtisodiy o'sish bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy islohotlar strategiyasi va yo'lini shakllantirish mexanizmi bilan uzviy bog'liqdir.

Iqtisodiy taraqqiyot iqtisodni qanday ishlab chiqarishning mulkchilik shakllariga asoslanishidan va uni boshqarish usullaridan qat'iy nazar har bir mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasini ifodalaydi. Iqtisodiy taraqqiyot nafaqat iqtisodiy tarmoqlarning iqtisodiy o'sishiga balki ijtimoiy sohalarni rivojlanishini ham qamrab oladi.

Iqtisodiy o'sish davlatning iqtisodiy siyosatiga bog'liq. Iqtisodiy siyosat belgilangan maqsaddan kelib chiqqan xolda qaysi tarmoqlarni rivojlantirishni, unga zarur bo'lgan xom ashyo resurslari, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari bilan ta'minlash, zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash, mavjudlarini malakaviy darajalarini oshira borishni iqtisodiy o'sish maqsadidan kelib chiqqan xolda istiqbollashtirishni rejalashtiradi.

Iqtisodiy o'sishni qay holatda tartibga javob beradimi yo'qmi uni asosan davlatning olib borayotgan iqtisodiy siyosati asosida iqtisodiy rivojlanish va aholining turmush darajasidan bilish mumkin.

Iqtisodiy o'sishni qay holatda samarali yoki samarasiz ekanligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini rivojlanish darajasi ham aniq mamlakatni iqtisodiy

holatini ifodalab beradi. Iqtisodiy o'sish har bir mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sish cheklangan tabiiy resurslar bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sish cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosida iste'mol talablarni qondirishi kerak.

Iqtisodiy o'sish iqtisod tarmoqlarini tarkibiy tuzilishiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan ham bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan xolda, u ishlab chiqarish xajmini va mahsulotlar sifatini oshirishda ifodalanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Demak, sobiq totalitar iqtisodiy-ijtimoiy tuzumdan qolgan iqtisodiy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti talablari asosida demokratik yo'nalishda rivojlanishini ta'minlash uchun yangi xo'jalik yuritish mexanizmlarini shakllantirish lozim edi. Talabalar yaxshi anglab olishlari kerakki, yangi xo'jalik mexanizmi respublika uchun uning aholisi uchun nima beradi va unga qanday qilib erishishi mumkin. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun avvalo o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy huquqiy bazalarini mustahkamlash turli shakllaridagi mulkchilikka aslangan ishlab chiqarishni joriy etish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishning pasayib borishini oldini olish va makroiqtisodiy muvozanatga erishish, moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, tarmoqlarida iqtisod xo'jaliklarida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinlik

berish, davlatni ularning ishlab chiqarish faoliyatiga aralashmaslikni ta'minlash lozim.

Iqtisodiy o'sish nima bilan o'lchanadi? Iqtisodiy o'sish bir yil ichida yaratilgan yalpi milliy mahsulotning, milliy daromadning va sof foydaning ko'payishi bilan yoki jon boshiga o'sishi bilan o'lchanadi. Uni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$U_y = \frac{YaMM}{A_s}$$

U_y – iqtisodiy o'sish;

$YaMM$ – yalpi milliy mahsulot;

A_s – aholi soni.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sish qo'lga kiritilgan iqtisodiy yutuqlar asosida ifodalash mumkin. Mamlakatda 2018 – yilda yalpi ichki mahsulot 5,1 foizga ko'payib 407514,5 mlrd.so'mni tashkil etadi. Shu yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 15,9 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

14,4 foizga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bo'yicha ishlab chiqarish 0,3 foizga, qurilish ishlari 9,9 foizga, yuk aylanmasi 5,7 foizga, yo'lovchi aylanmasi 3,4 foizga, chakana savdo tovar aylanmasi 5,5 foizga, xizmatlar xajmi 8,4 foizga, tashqi savdo aylanmasi mln.AQSH dollarida 27,3 foizga, eksport 13,5 foizga, import esa 39,6 foizga ko'paygan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya mablag'lari 107537,4 mlrd.so'mni tashkil etib yil davomida 18,1 foizga ko'paygan.

Iqtisodiy rivojlanish 2017-2018 yillar ichida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 4,5 foizga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari bo'yicha 0,1 foizga sanoat bo'yicha 2,1 foizga qurilish ishlari bo'yicha 0,5 foizga, sav-

do, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish 0,3 foizga, tashish va saqlash, axborot va aloqa bo'yicha 0,5 foizga boshqa xizmat tarmoqlari 1,0 foizga ko'paygan.¹ Respublikada korxonalar va ob'ektlarni xususiylashtirish 2018 – yilda ham davom etadi. O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra 2018 yil ichida 835 ta (dastur doirasidagi va dastur doirasidan tashqari ob'ektlarni qo'shgan holda) korxonalar va ob'ektlar xususiylashtirilgan. Xususiylashtirish natijasida davlatga tushgan tushumlar 223048,2 mln.so'mnitashtirilgan.²

Aholining o'rtacha oylik nominal ish xaqi 2018-yilda 2561,3 ming so'mni tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 29,1 foizga ko'paygan. O'rtacha nominal oylik ish xaqi 1822,2 ming so'mni tashkil etib 2017-yilga nisbatan 25,0 foizga ko'paygan.

20.2. Iqtisodiy o'sish modellari

Hozirgi kunda, shartli ravishda, iqtisodiy o'sish modellari 3 xil nazariyasi va 3 xil yo'nalishni aytib o'tish mumkin:

- keynsanchilik yo'nalishi;
- neoklassik yo'nalishi;
- tarixiy–sosiologik yo'nalishi.

1. Iqtisodiy o'sishni birinchi marotaba fiziokrat Fr. Kene o'zining iqtisodiy jadvalida (1758 y.) ko'rgan edi. U

¹ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2018 yil yanvar-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent: 12-13 bet, 139-266 betlar.

² O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2018 yil yanvar-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent: 12-13 bet, 139-266 betlar.

milliy xo'jalikni o'zining balansiga ega bo'lgan tizim sifatida aks ettirdi. Faqat u qishloq xo'jaligidagi mehnat, unumli mehnat va unda qo'shimcha mahsulot yaratiladi degan fikrga asoslangan edi. U qo'shimcha mahsulot deb qishloq xo'jaligini umumiy mahsulotining iste'mol qilingan hajmidan ortiqchasini tushungan. Fr. Kene qishloq xo'jaligida mahsuloti iqtisodiyotining boshqa sohalariga sotish yo'li bilan harakat qiladi degan.

Fr. Kene jadvali amaliy ahamiyatga ega bo'lmasada, u bu yo'nalishda birinchi bo'lib o'zining iqtisodiy o'sish modelini bergan. Dj.M.Keyns modeli yalpi talabga asoslanadi. Yalpi talab muvozanatlashgan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ijtimoiy talab kapital quymalar asosida qanoatlantiriladi va daromad oshib boradi. U. Domar modeliga asosan, kapital mablag'lar daromadnigina emas, balki ishlab chiqarish quvvatlarining ham oshirish omili deb hisoblagan.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy o'sishi uchun Yetarli darajada xom-ashyo, ilmiy salohiyat va ishlab chiqarish kuchlari mavjud. Iqtisodiy o'sish modellari ikki yo'nalishda **ikki omilli va ko'p omilli** ko'rinishlarida bo'ladi.


Ikki omilli iqtisodiy o'sish modeli mehnat va kapitalga asoslanadi.

AQShlik iqtisodchi Denisonni fikricha ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 2/3 qismini o'sishi mehnat unumdorligiga 1/3 qismi esa mehnat xarajatlariga to'g'ri keladi deb hisoblaydi. Ikki omilli modelning birinchi shaklida ilmiy texnika taraqqiyoti e'tiborga olinadi. Ilmiy texnika taraqqiyotida kapital va mehnat unumli bo'ladi. Investitsiya mablag'lari yangi texnika va texnologiyalarni sotib olinishi va ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi hisobiga

mehnat unumdorligini o'sib borishi ijtimoiy mahsulotni o'sib borishiga olib keladi.

Investitsiya mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishini ta'minlasa, ayrim holatlarda investitsiya mablag'lari ishlab chiqarish xarajatlarini kamayib borishini ta'minlaydi.

Ko'p omilli iqtisodiy o'sish modelida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish oqibatida ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarishni o'sib borishini ta'minlaydi. Barcha ishlab chiqarish omillaridan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish egri ishlab chiqarish munosabatini o'zgarishiga olib keladi buni quyidagi (20.1-rasm)da ko'rish mumkin.



20.1-rasm. **Ko'p omilli model**

Iqtisodiy o'sishning Domar modelida talabni ko'paytirish maqsadida investitsiyadan foydalanish asosida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, xajmini oshirish yo'lida foydalaniladi. Domar investitsiyani ko'payishi, ishlab chiqarish quvvatini oshirishi qo'shimcha foyda keltiradi ammo investitsiyani o'sishi foydani o'sishi bilan teng bo'lishi uning quvvatini o'sishiga teng bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

U. Domar yuqoridagi muammoni hal qilishda uchta tenglama yordamida Yechishni taklif etdi:

a) taklif tenglamasi:

$$dx = Ub \quad (17.2)$$

Bu yerda: dx – ishlab chiqarishning o‘sishi;

U – kapital mablag‘lar hajmi;

b – kapital mablag‘larning o‘rtacha unumdorligi;

b) talab tenglamasi:

$$M = bUa$$

d – jamg‘arishga bo‘lgan o‘rtacha moyillik (mul‘tiplikator miqdorining teskarisi);

U – mahsulot hajmiga ta’sir qiluvchi kapital mablag‘lar miqdori;

a – daromad miqdori;

v) muvozanat asosiy tenglamasi – daromad va harajat miqdorining asosiy tenglamasi

$$\frac{dY}{\alpha} = Ub \quad (17.4)$$

Yuqoridagi tenglamalarga asoslangan holda kapital mablag‘larning o‘sish normasini aniqlash mumkin. Domar modelibirfaktorli va birxil mahsulot ishlab chiqaradigan sohaga asoslangan.

Xarid modeli. Iqtisodiy o‘sish trayektoriyasini o‘rganadi. Milliy daromadni o‘sishini o‘tgan davrdagi bilan bog‘laydi. U daromadni haqqoniy va kafolatlangan daromadni ajratadi. Bu model akselerator nazariyasiga asoslangan bo‘lib, tadbirkorlarning investitsiyani qo‘llashdagi bo‘lgan vazifalarni tahlil qilinadi. Xarid ikki xil shart-sharoitidan kelib chiqadi. Birinchisi: jamg‘arish darajasining o‘sishi bilan daromad darajasining o‘sishi ($APC = MPC$) bo‘lsa, ikkinchisi: kapital mablag‘lar hajmining oshishi bi-

lan daromad miqdorining oshishi hisoblanadi. Dj.M.Keyns tenglamasiga asosan (jamg'arish hajmining investitsiya hajmi) o'sish normasini, kapital koeffitsiyentiga ko'paytirib, MD dagi jamg'arish ulushiga teng bo'lgan miqdorini aniqlash mumkin.

Neoklassik model ikki model va uning o'zaro bog'liq ekanligidan foydalaniladi. Neoklassik modelning asosiy tahliletishvositasi ishlab chiqarish funktsiyasi hisoblanadi. Avtorlar (P. Duglas, X. Kobb) asosiy kapitalning ko'payishi, ishlab chiqarish vaqti va ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishgan. Natijada quyidagi vorma formula tavsiya etiladi:

$$Y = 1,01 \cdot L^a \cdot K^b$$

Bu Yerdagi: Y – ishlab chiqarish hajmi;

L – mehnat sarfi;

K – kapital sarfi;

a – koeffitsiyent darajasi;

Bunda $a = 3/4$ va $b = 1/4$ ga teng. Bu koeffitsiyentni tahlil qilayotgan omil 1 % ga oshsa, ishlab chiqarish hajmining qanchaga oshganligini ifodalaydi.

Tarixiy-sotsiologik model. Rostau U. – iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasining muallifi. U quyidagi bosqichlarga e'tiborni qaratgan:

1. Sinfy jamiyat (statistik muvozanat, ITI) da foydalanishning chegaralangan ekanligi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasining pasayishi.

2. Taraqqiyot uchun shart-sharoitlarni yaratish bosqichi (ayrim ishlab chiqarish sohasida samaradorlikning oshishi).

3. Taraqqiyot bosqichida (milliy daromadni yaratishda ilmiy texnika inqilobining yutuqlaridan keng foydalaniladi).

4. Yetuklik davrida (iqtisodiy o'sish sur'atlari oshadi,

ishlab chiqarish hajmi aholi soni o'sishiga nisbatan yuqori bo'ladi).

5. Ko'p miqdorda iste'mol qiluvchi jamiyat qisqa muddatli mahsulotlarga bo'lgan talabni cheklash natijasida, uzoq muddatga mo'ljallangan tovarlarni iste'mol etishining ahamiyati oshib boradi.

V. Leont'evni tarmoqlararo balans modeli. Bu model iqtisodiy o'sishni boshqarishga mo'ljallangan bo'lib, ishlab chiqarishni harajatlari sifatida namoyon bo'ladigan natural va qiymat ko'rinishidagi tizimini ifodalaydi.

Amaliyotda foydalanish mumkin bo'lgan iqtisodiy o'sishni universal modelini Nobel' mukofoti laureati V. Leont'ev yaratdi. Uning yaratgan tarmoqlararo balansi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish ko'p mamlakatlarda foydalanilmoqda. Tarmoqlararo balansi asosida mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'gan mehnat va resurslar harajatini aniqlash mumkin bo'ladi.

20.3. Iqtisodiy o'sish omillari va turlari

Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotda ifodalanadi. Iqtisodiy o'sish jami talab va taklifga bog'liq. Jami talab o'sib borsa jami taklif ham o'sib boradi. Xulosa jami talab jami taklif bilan uzviy bog'liqlikda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy o'sishni omillarini ishlab chiqarish xajmini ko'paytirish bilan bog'liq bo'lgan omillarini quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin.

Birinchi guruxga taklif omillaridan iborat bo'lib ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga jalb qilinayotgan tabiiy va mehnat resurslaridan, asosiy va aylanma kapitalardan, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalardan, ilmfan yutuqlaridan va insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlar-

idan tashkil topadi. Ishlab chiqarish xajmining kengayishi, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishni o'sishi shu omillardan samarali va tejimli foydalanishga bog'liq.

Ikkinchi talab omillari yalpi xarajatlarning miqdori, zahiralarini taqsimlashning samaradorligidan tashkil topadi. Talab omillari ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishlab chiqarishning samaradorligi sub'ektlarining ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajalariga va axolining talablariga bog'liq. Iqtisodiy barqarorligini o'sishi axolining iste'mol talablariga, ishlab chiqarish korxonalarini ishlab chiqarish vositalariga, texnika texnologiyalaridan foydalanish darajalarini o'sishiga olib keladi.

Asosiy va aylanma kapitallar iqtisodiy o'sishning asosiy omillari hisoblanadi. Asosiy kapital uzoq muddatda foydalanadigan korxonalarining bino va turli qurilish inshootlaridan va ishlab chiqarish texnika va texnologiyalardan tashkil topadi. Ular o'zlarining qiymatlarini yoqotmaydilar. Ular o'z qiymatlarini bajarilgan ishlariga ulardan foydalanish koeffitsiyentiga (yillar)ga qarab, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga o'z qiymatlarini ma'lum belgilangan qismi darajasida o'tqazib boradilar. Bu o'tkazilgan mablag'lar maxsus amortizatsiya fondida jamg'ariladi. Texnikalar ma'naviy yoki jismoniy eskirgan taqdirda ularni qayta tiklash uchun amortizatsiya mablag'laridan foydalaniladi.

Aylanma fondlar esa o'zlarining qiymatlarini ishlab chiqarishning bir siklida yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to'liq o'tqazadi va bu qiymat ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotdan ishlab chiqarish xarajatlari qiymatini ajratib olish orqali tiklanadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini iste'mol bahol-

arini kamaytirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga mahsulot birligini tannarxini arzonlashtirish zarur.

Yer iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. U nafaqat qishloq xo'jaligining asosiy omili balki sanoat korxonalarini joylashtirish va axolining yashashi uchun ham zarur omil hisoblanadi. Foydali Yer chaklangan omil undan samarali foydalanish zarur. Yerlar tarkibiga ko'ra unumdor

Yerlar cheklangan va unda asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi.

Yer omili asosan qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin bo'lgan va ekin maydonlarini kishi boshiga to'g'ri kelish iqtisodiy samaradorligi oshirish faqat fan va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish darajasiga bog'liq.

Suv omili qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishning eng zarur omil hisoblanadi. Yerlarning samarali foydalanishda sug'orish suvlaridan tejamkorlik asosida foydalanishni talab etadi. Suv omili bilan ta'minlanishidan kelib chiqqan xolda qishloq xo'jaligini joylashuvini mintaqalashtirish zarur.

Tabiiy-iqlim sharoitlar ham ishlab chiqarishning asosiy omillaridan nafaqat tarmoqlarini rivojlantirish balki qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ham ahamiyatga ega.

Mehnat omili ishlab chiqarish xajmini o'sishi unda band bo'lgan ishchilar soniga, belgilangan kundalik ish soatiga va ularning mehnatlarini unumdorligiga bog'liq.

Ishlab chiqarishda ishchilarni jalb qilish mehnat resurslari miqdoriga va ish joylarini tashkil etishga bog'liq. Ish soatlarini, ish xaftasini qisqartirish hisobiga ham ishchilarning bandlik darajasini oshirish uchun korxonalarda ko'p smenali ish soatlarini qo'llash hisobiga ham mehnatga yaroqli resurslardan foydalanishni oshirish

mumkin. Bu ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish xajmini oshirish bilan ham bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sishda ham barqarorlikka erishishining strategik vazifasini respublika iqtisodiyoti tarkibini tubdan o'zgartirish, ya'ni xom-ashyo ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish darajasiga o'tishi ham ijtimoiy ham iqtisodiy ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan usulda olib borish bilan bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish qaysi omillar hisobiga olib borilayotganligini ifodalaydi. Umuuman iqtisodiy o'sish ikki xil ekstensiv va intensiv turga bo'linadi.

Ekstensiv turdagi iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Iqtisodiy o'sishning **intensiv turida** mahsulot ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada unumliroq ilg'or mehnat vositalarini, tejamliroq mehnat buyumlarini qo'llash, ish kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Iqtisod sof holda intensiv yoki ekstensiv turda rivojlanmaydi. Sobiq Ittifoqda iqtisodiy rivojlanishning ekstensiv usulining ulushi yuqori bo'lgan bo'lsa, G'arbiy Yevropa, Yaponiya, AQSH davlatlarida intensiv rivojlanishning ulushi yuqori bo'lgan. Iqtisodiy o'sishni shakllariga qarab quyidagi turlarga ajratildi: **salbiy sur'atlar**, **yuqori sur'atlar** va **nol sur'atlar**. Yuqori darajadagi iqtisodiy o'sish maqsadga muvofiq bo'lsa-da, bu holda mahsulot sifati ko'tarilmasligi mumkin. Iqtisodning umumiy darajasi o'smasada (**nol darajada** bo'lganda) ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi o'zgarishi

iste'mol mollari ko'payishi bilan harbiy qurollarni ishlab chiqarish hajmi qisqarishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishning **salbiy sur'atlari**, ya'ni oldingi yilga nisbatan yalpi milliy mahsulot hajmining kamayishi milliy iqtisodiyotda tanazzul jarayonlarining mavjudligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv xususiyatlarini ishlab chiqarishning samaradorlik darajasidan ham aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini, ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan foizda ifodalanishida belgilanadi va uni quyidagi formulada hisoblash mumkin:

$$S = \frac{M_{ux}}{U_x} = 100\% \quad (17.6)$$

S – samaradorlik;

M_{ux} – mahsulotning umumiy hajmi;

U_x – umumiy harajatlar.

Yalpi mahsulotning ishlab chiqarish samaradorligi uning faqat hajmiga emas balki sifatiga va sarf etilayotgan harajatlar hajmini qisqartirishga ham bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sishning sur'atlari foizda o'lchanadi va uni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$\text{Iqtisodiy o'sishning sur'atlari} = \frac{\text{Joriy yildagi YMM}}{\text{o'tgan yildagi joriy YMM}} * 100\% \quad (17.7)$$

Iqtisodiy o'sish, uning sur'atlari, hajmi mavjud bo'lgan zahiralalar bilan ifodalanadi:

- tabiiy zahiralarning miqdori va sifati;
- mehnat zahiralarning miqdori va sifati;
- ishlab chiqarish fondlarining miqdori va sifati;
- texnologiya;

- yalpi harajatlarning miqdori;
- zahiralarni taqsimlashning samaradorligi.

Yuqorida 4 ta omil taklifning omillari hisoblanadi. Aynan shu omillar iqtisodiy o'sish va real mahsulot hajmini oshirish imkoniyatini beradi. 5 va 6 omillar talab omillari hisoblanadi va real iqtisodiy o'sish sur'atlariga ichki omillar bilan birgalikda tashqi omillar (jahon bozoridagi baholar, siyosiy ahvol va h.k.) ta'sir o'tkazadi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlariga o'lchash mumkin bo'lmaydigan omillar (ishlashni hohlash, tadbirkorlik faoliyati, xo'jalikdagi tartib buzarlilar, mehnatga ongli yondoshish, qishloq xo'jaligidagi tabiiy sharoit, tabiiy ofat va h.k.) ham ta'sir o'tkazadi.

Iqtisodiy o'sish juda ham yuqori darajada bo'lishi, ya'ni talab va to'lov darajasiga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilsa, u iqtisodiy krizisga, inflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy o'sish talab va taklif iqtisodiy qonuniga rioya qilingan holda olib borish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy o'sishni, iqtisodiy krizislardan holi etish iqtisodiyot tarkibida tub islohotlarni amalga oshirish, ya'ni xom-ashyo ishlab chiqarishdan jahon standartlari talablariga javob beradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish bilan ta'minlash mumkin.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, avvalo ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish hisobiga jamiyat iste'mol talablariga mos bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish, kredit tizimlaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy inflyatsiyani oldini olish, gorizontaal iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, xo'jalik mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini xom-ashyo bilan ta'minlash orqali erishishi mumkin.

20.4. Milliy boylik va uning tarkibi

Milliy boylik bu butun avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy, ma'naviy va fan, ilmiy texnika yutuqlaridan va tabiiy boyliklardan tashkil topgan boylikka aytiladi. Milliy boylikdan davlat va axolii foydalanadi.

Milliy boylikni o'sishi ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotni iste'mol talablarini qondirishdan ortib qolgan qismi hisobiga ko'payib boradi.

Milliy boylikni birinchi marotaba ingliz iqtisodchisi Uil'yam Petti tomonidan 1864 - yilda hisoblab chiqilgan. Iqtisodiy holatni ko'rsatishning asosiy ko'rsatkichi milliy boylik deb hisoblagan. Uning asosiy qismi jamg'arilgan mol-mulklar hisoblanadi degan.

Milliy boylik o'zining tarkibi jihatdan asosiy va aylanma kapitalga, tovarlar zaxiralariga, uzoq muddatda foydalaniladigan iste'mol tovarlariga, nomoddiy fondlariga, mehnat resurslariga, inson kapitaliga va foydalanilayotgan tabiat resurslariga bo'linadi.

Milliy boylikni o'sishi milliy iqtisodiyotni iqtisodiy inqirozlarsiz o'sishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida aholining ijtimoiy turmush darajalarini yaxshilanishiga sharoit yaratib beradi.

Milliy boylikni o'sishi faqat tabiiy boyliklarni o'sishiga emas, balki ishlab chiqarish jarayonida ilg'or fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanish asosida milliy boylikni ishlab chiqarish evaziga ham ko'paytirish mumkin.

Demak milliy boylikni tabiiy milliy boylikka va ishlab chiqarish asosida yaratilgan milliy boylikka bo'lish mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan milliy boylik xajmi fan texnika va ishlab chiqarish texnologiya yutuqlaridan samarali foydalanish darajasiga bog'liq.

Milliy boylikni ishlab chiqarish jarayonida yaratishda asosiy bo'lgan tarmoq energetika resurslari ishlab chiqaradigan tarmoqlar hisoblanadi. Energetika resurslari ishlab chiqaradigan tarmoqlar ishlab chiqarishning bamosoli qon tomiri deb hisoblash mumkin.

Tabiiy resurslar odatda foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan resurslarga bo'linadi.

Ekologik salohiyatni ta'minlash uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish vaqtni doimiy ravishda tejash ishlarini olib borish zarur. Masalan Yerlarning tarkiblarini ta'minlash, unumdorligini saqlash Yangi serxosil navlarni yaratish bilan bog'liq. Sug'orish suvlaridan tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan foydalanish yoki ularning o'rniga sun'iy ravishda o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytsak milliy boylik ishlab chiqarilgan va tabiiy resurslar boyliklaridan tejamkorlik asosida samarali foydalanish orqaligina kelajak avlodlarni yashashlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bizning asosiy maqsadimiz bo'lishi kerak.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Iqtisodiy o'sish va uning ko'rsatkichlari?
2. Iqtisodiy o'sishning iqtisodiy siyosatiga bog'liqligi?
3. Iqtisodiy o'sish omillari va turlari?
4. Iqtisodiy islohotning ikkinchi bosqichi vazifasi?
5. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari?
6. Samaradorlik qanday aniqlanadi?
7. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini aniqlash?
8. Iqtisodiy o'sish modellari?
9. Milliy boylik va uning tarkibi?

Testlar

1. Iqtisodiyotning davriyligiga sabab bo'lgan ichki omillarga quyidagilardan qaysi birini kiritish mumkin?

- a) asosiy kapitalning jismoniy Yemirilishi
- b) ishlab chiqarish vositalariga xususiy egalik qilish
- d) urushlar, stixiyali holatlar
- e) markaziy rejalashtirishning mavjud emasligi
- f) investitsiya mablag'irining yetishmasligi

2. Elektr energiyasi bahosining oshishi natijasida inflyatsiyaning qaysi turi vujudga keladi?

- a) talab inflyatsiyasi
- b) taklif inflyatsiyasi
- d) balanslashmagan inflyatsiyasi
- e) mo'tadil inflyatsiyasi
- f) joriy inflyatsiyasi

3. Ta'lim olayotgan talaba ish bilan bandlikka kiradimi?

- a) bandlilar kategoriyasiga kiradi
- b) to'liq band bo'lmaganlar guruhiga kiradi
- d) ishsizlarga kiradi
- e) ish kuchi tarkibiga
- f) to'liq ish kuchiga kirmaydi

4. Iqtisodiy o'sish davrida quyidagilardan qaysi biri antisiklik tartibga solishda qo'llaniladi?

- a) soliq stavkasi kamaytiriladi
- b) hisob stavkasi pasaytiriladi
- d) hisob stavkasi oshiriladi
- e) davlat xarajatlari oshiriladi
- f) soliq stavkalarini o'sishi

5. Inflyatsiya aholining ma'lum bir qatlamlariga nafli bo'lishi mumkin.

Ular kimlar?

- a) ko'p miqdorda qarz bo'lgan fermer
- b) nafaqaxo'r
- d) o'qituvchi
- e) metropoliten ishchisi

6. Ekstensiv iqtisodiy o'sish omili deb nima hisoblanadi?

- a) yangi texnologiyani xarid qilish
- b) qo'shimcha ishchilarni yollash
- d) ishchi malakasini oshirish
- e) ekin maydonlarini kengaytirish
- f) eski ishlab chiqarish vositalarini yangilash

7. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladigan omil nimadan iborat?
- yalpi xarajatlar darajasini o'sishi
 - qo'shimcha resurslardan samarali foydalanish
 - ishlab chiqarish investitsiyalarining ko'payishi
 - ishchi bandligini o'sishi
 - barcha javoblar to'g'ri
8. O'tgan yili baholar indeksi 120, joriy yilda 132 % bo'lgan. Joriy yildagi inflyatsiya darajasini aniqlang.
- 5 %
 - 10 %
 - 12 %
 - 32 %
 - 20 %
9. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari nimada ifodalanadi?
- jamg'arishga bo'lgan ishtiyoq so'nadi
 - milliy daromad qayta taqsimlanadi, ya'ni nominal ish haqining o'sish sur'ati baholarning o'sish darajasidan orqada qola boshlaydi
 - mehnatkashlarning jamg'arishlari qadrsizlanadi
 - soliq tushumlarining kelib tushishi ta'minlanadi
 - ishlab chiqarish pasayadi
10. Joriy yilda ishsizlik darajasi to'la bandlik sharoitida 5 % ni tashkil etdi. (Xaqiqiy ishsizlik darajasi 9 %) YAMM q 500 mlrd. so'm. Ishsizlik natijasida YAMM ning qancha qismi qoladi?
- 5% (25 mlrd.so'm.)
 - 4 % (20 mlrd.so'm.)
 - 10 % (50 mlrd.so'm.)
 - 15 % (30 mlrd.so'm.)
 - 8 % (40 mlrd.so'm.)
11. Joriy yilda real YAMM miqdori 55 mlrd.so'm ni tashkil etgan. O'tgan yili bu ko'rsatkich 50 mlrd.so'm bo'lgan. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini aniqlang.
- 5 %
 - 10 %
 - 12 %
 - 15 mlrd.so'm
 - 20 mlrd.so'm
12. Intensiv iqtisodiy o'sishda qanday holat yuz beradi?
- yangi korxonalarni qurilishi
 - mavjud bo'lgan resurslarni tejash
 - ishchilar sonini oshishi
 - qo'shimcha pul resurslarini jalb etish
 - jalb qilingan ishchi kuchi ko'payadi
13. Iqtisodiy o'sish nima?
- ishlab chiqarishni rivojlanishi
 - ijtimoiy buyumlarni ishlab chiqarishni o'sish

21-bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATLI VA MUTANOSIBLI RIVOJLANISHI

Tayanch so'zlar: milliy iqtisodiyot, muvozanat, mutanosib rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy tizim, jami talab, jami taklif, makroiqtisodiy muvozanat, yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarish real hajmi, yalpi xarajat yalpi daromad, sof foyda, iqtisodiy ishlab chiqarish modellari, M.Keyin modeli, V.Leontev modeli, iqtisodiy mtstanosiblik, modernizatsiyalash.

21.1. Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiqtisodiy va xususiy muvozanatlik

Milliy iqtisodiyotning qanday rivojlanishi yo'lini tanlab olishidan qat'iy nazar uni makroiqtisodiy yoki umum-iqtisodiy rivojlanishi mavjud resurslarni ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nisbatlar darajasini mutanosib bo'lishiga bog'liq. Milliy iqtisodiyotni muvozanatli darajasida rivojlanishini ta'minlash uchun nafaqat moddiy resurslar bilan ishlab chiqarish o'rtasida muvozanatli nisbatga erishishida ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasida, moliyaviy resurslar bilan moddiy resurslar o'rtasida, mehnat resurslari bilan ularni ish joylari bilan ta'minlash tayyorlanayotgan yuqori malakaviy kasbga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va ishlab chiqarish jarayonlariga bo'lgan talablar, milliy iqtisodiyotning barcha iqtisodiy tarmoqlari o'rtasida ichki savdoda iste'molni zaruriy iste'mol mahsulotlari bilan qondirish va boshqa tashkiliy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarida muvozanatli nisbatlarni bo'lishi milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Agarda

yuqorida aytib oʻtilgan milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini taʼminlovchi nisbatlar taʼminlanmasa milliy iqtisodiyot iqtisodiy inqirozga tushib qolishi mumkin. Albatta milliy iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosibli rivojlanishini taʼminlash har bir rivojlanayotgan davlatning iqtisodiy holatiga va undagi shart-sharoitlariga bogʻliq.

Iqtisodiy taraqqiyotni rivojlanib borishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur boʻlgan ishlab chiqarish omillari oʻrtasidagi boʻladigan muqobil omillar nisbatiga bogʻliq. Omillar oʻrtasidagi muqobil nisbat korxonalar, tarmoqlar darajasida qolaversa iqtisodiy rivojlanib borishni makroiqtisodiy barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash iqtisodiy tarmoq darajasidagi yaʼni mikroiqtisodiyot subʼetklarida ishlab chiqarishni tashkil etish va iqtisodiy rivojlanish har bir ishlab chiqarish korxonalarida mikroiqtisodiy jihatdan muqobil va barqaror rivojlanishini taʼminlashi zarur.

Iqtisodiy tizimlarni makroiqtisodiy darajada barqaror rivojlanishi oʻz vaqtida iqtisodiy F. Kene XVIII asrda oʻzining iqtisodiy jadvalida koʻrib chiqqan XIX asrda K.Marks xarajat va mahsulot ishlab chiqarish takror ishlab chiqarish nazariyasida yaʼni xarajat va ishlab chiqarishda deb hisoblangan. AQShlik iqtisodchi Nobel mukofoti lavruati V.Leontev XX asrda oʻzining “xarajat va ishlab chiqarish” nazariyasini ishlab chiqqan va taklif qilgan.

Tenglik nazariyasi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy holatini ifoda etadi. Bu holat barcha aʼzolarini talablarini qanoatlantiradi. Bu tenglik alomati qisman va umumiy holatda boʻlishi mumkin. Qisman makroiqtisodiy barqarorlik umumiy iqtisodiy rivojlanishning maʼlum bir qismini (ta-

lab va taklif asosida tashkil topgan narx, mahsulot sifati, yoki ishlab chiqarish xarajatlari va hokazo). Umumiy iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqarorlik bu milliy iqtisodiyotni shunday holatiki (bozorlarda narxlar talab va taklif asosida birday bo'lib, iste'molchilarn qanoatlantiradi). Ammo bunday holatni bo'lishi qin muammo hisoblanadi. Hozirgi rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti barqarorlikni ta'minlashda doimiy ravishda iqtisodiy barqarorlik nisbatini buzilishi bilan bog'liq. Demak, ikki holat "tenglik va notenglik" o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy-ijtimoiy ziddiyatni bartaraf etish uchun ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida muqobillikni o'rnatish zarur. Iqtisodiy talab va iqtisodiy taklifni ta'minlashda ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtasidagi nisbatni muqobil bo'lishini ta'minlash lozim.

Iqtisodiyot nazariyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklifga asoslangan holda ishlab chiqarish jaryonlarini rivojlanib borishini o'rganishga asoslanadi. Bizga ma'lum bozor iqtisodiyoti tenglik talab taklifga, jamiyat darajasida jami talab va jami taklifda ifodalanadi.

Bozor sharoitida makroiqtisodiy darajadagi talab va taklif bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jaryonini iqtisodiy modeli deb qarasaq, xato qilamiz, chunki talab va taklifni o'zaro muvofiqligi iqtisodiy rivojlanishdagi tenglikka ifoda etadi.

Bozor sharoitida iqtisodiy rivojlanishdagi "tenglik" va notenglik holat salbiy rol o'ynashi mumkin.

Bu ishlab chiqarishni rivojlantirish va rivojlatirmasligi ham mumkin.

Makroiqtisodiy muvozanat:

- iste'mol mahsulatlarini ishlab chiqarish va iste'mol

o'rtasida, ishlab chiqarish resurslarini jalb etish va ulardan foydalanishdagi munosabat;

- tovarlar va xizmatlarni taklif etish va ulardan foydalanishdagi munosabat;

- moliyaviy iqtisodiy holatni moddiy buyumlashgan iqtisodiy holat o'rtasidagi nisbatlarda ko'rish mumkin.

Sobiq administrativ markazlashgan markazdan boshqaruv tizimida iqtisodiyotni muvozanatli va barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni talab darajasida yaratilmaganligi oqibatida iqtisodiyotni muvozanatli tashkil etish mutanosibli rivojlanish talablariga javob bermagan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy tenglikni va uni mutanosib rivojlanishini ta'minlash uchun yetarli darajada sharoit mavjud. Agarda erkinlashgan bozor iqtisodiyoti mexanizmiga rioya qilingan holda tarmoqlar o'rtasida makroiqtisodiy muvozanat o'rnatilsa, bozor iqtisodiyotini erkin raqobat asosida rivojlanish mexanizmlariga asoslangan holda olib borilsa u o'zini o'zi tartibga solish asosida makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlay olishi mumkin.

Makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va iqtisodiyotni mutanosib holatda rivojlantirishni ta'minlash uchun milliy iqtisodiyot sub'ektlarini ham barqaror rivojlantirishni tashkil etish zarur. Milliy iqtisodiyotni quyi ishlab chiqarish bosqichida ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'rtasida mikrodarajada talab va taklif munosabatlaridan kelib chiqqan ravishda ishlab chiqarishni tashkil etishni bozor mexanizmlariga asoslangan holda olib borish zarur.

Ammo makroiqtisodiy shu jumladan mikro iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash va milliy iqtisodiyotni barqa-

ror rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni uzoq muddatlar-ga yaratish murakkab muammo hisoblanadi. Chunki milliy iqtisodiyotni barqaror va uni muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga ichki va tashqi muhitlar bilan bog'liq omil-larni ta'sir qilishini inkor etmaslik kerak Bunday omil-lardan biri ishlab chiqarish munosabatlariga uni rivojlan-tirishga yetarli darajada e'tibor bermaslik.

Iqtisodiy taramoq sohalarida bo'ladigan yirik mo-nopolistik xususiyatga ega bo'lgan korxonalarni va ayrim holatlarda davlatning boshqaruv tashkilotlarini asossiz aralashuvi natijasida ham makroiqtisodiy rivojlanish nis-batlarini buzilishiga olib kelishi mumkin. Makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishi barqaror rivojlanish mutanosibligini ta'minlashni asosiy shartlari-dan biri bozor sharoitida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha omillarning harakati talab va taklif asosida amalga oshirilishi kerak.

Makroiqtisodiy muvozanat asosida iqtisodiyotni muqo-bil darajada rivojlanishini bozor iqtisodiyoti taklablariga monan rivojlanishni va barqaror rivojlanishiga erishishni ta'minlash mumkin deb asoslash murakkab muammo hi-soblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham boshqa iq-tisodiy farmatsion rivojlanish sharoitlaridagi bu iqtisodiy holat barqarorligini uzoq muddatlarga ta'minlash mumkin emas. Chunki iqtisodiy rivojlanish jarayoni bizga ma'lum iqtisodiy inqirozlardan, iqtisodiy inflyatsiya holatlaridan holi emasligi iqtisodiy rivojlanishni tsiklik darajada takror-lanib turishi makroiqtisodiy rivojlanishga, undagi nisbat-larni buzilishiga olib keladi. Jamiyat va uning a'zolarining ijtimoiy iste'mol talablarini qondirilishidan iqtisodiy va ij-timoiy jihatdan manfaatdor ekanligi bizga ma'lum.

Agar biz jamiyat a'zolarining ijtimoiy manfaatdorligini ta'minlasak biz ayta olishimiz mumkin milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda makroiqtisodiy muvozanatga erishdik va uning natijasida iqtisodiyot talab darajasida rivojlanmoqda deb hisoblash mumkin. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida bozor iqtisodiyoti sharoitida foydalanadigan talab va taklif qonunlariga asoslangan jamiyat a'zolarini talabi ma'lum mahsulotga bo'lgan talabni taklif esa ana shu mahsulotga bo'lgan talabni qondirishni ifoda etsa jami talab va jami taklif bu umumlashgan holda jamiyatni va uning a'zolarini ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan xomashyo, ishlab chiqarish vositalari, innovatsion texnologiyalariga bo'lgan talabni qondirish uchun jami taklif etuvchi sub'ektlar tomonida bu omillar bilan ta'minlash lozim.

Albatta bu jami talab va jami taklifni to'liq ta'minlash muammosi milliy iqtisodiyotni rivojlanish darajasiga bog'liq. Makroiqtisodiy darajadagi jami talab mamlakat darajasida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) ni taklif qilish darajasiga bog'liq. Jami talab va jami taklif bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida bu iqtisodiy kategoriyalar yakka tartibda bo'ladigan talab va taklif kategoriyalaridan o'zining iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi va uni bozor iqtisodiyoti sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'rganishni talab etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jami talab va jami taklif o'rtasidagi nisbatni muvozanatli ekanligini aniqlashda asosan ikki usuldan foydalanish mumkin.

Birinchi usul bu ob'ektiv usul bo'lib milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan barcha moddiy-ne'matlarni jon boshiga ishlab chiqarish darajasini

natural ko'rsatkichlarda hisoblash zarur. Bu Yerda kishi boshiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot xajmi aholini talablarini belgilangan meditsina normativlari asosida talabga javob bersa bunday holatni milliy iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosib rivojlanayotganini ko'rish mumkin.


Makroiqtisodiy darajada milliy iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosib darajada rivojlanish darajasini ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning umumiy qiymatiga jami talabning qiymat shaklidagi munosabatini muvofiq kelishi orqali aniqlash mumkin. Jami talab va jami taklifni bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni nisbatlarini muvozanatni cheklangan moddiy resurslar sharoitida ta'minlash milliy iqtisodiyotimizning asosiy iqtisodiy siyosatimizni maqsadidir.

Xulosa qilib aytish mumkin iqtisodiy muvozanat bu ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasida va ular bilan iste'molchilar o'rtasida bo'ladigan tenglik asosidagi holatga aytiladi. Jami iqtisodiy muvozanat esa milliy iqtisodiyotni iqtisodiy-ijtimoiy muvozanatli rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan jami taklifni ifodalovchi moddiy mehnat resurslari va kapital resurslarini jami talabni qondirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymatiga nisbatan pul qiymati shaklidagi talabni qondirilishida ifodalanadi. Xususiy iqtisodiy muvozanat ikki yuridik va jismoniy sub'ektlar o'rtasidagi munosabatni ifodalanishiga aytiladi.

21.2. Makroiqtisodiy muvozanatni baholash

Makroiqtisodiy mutanosiblik (21.1-rasm) holatini aniqlab borish va iqtisodiy erishilgan yutuqlarni yoki kamchiliklarni aniqlash va umumiy iqtisodiy holatni baholash zarur.

Rasmda talab AS va taklif AD kisishgan M nuqtasi ulardan barqaror foydalanganlikni ko'rsatadi. "M" nuqtadan yuqori bo'lsa jami talab va taklif o'rtasidagi nisbat buzilgan bo'lib ortiqcha mahsulot ishlab chiqariladi. "M" kam bo'lsa ishlab chiqarishdagi nisbat buzilgan bo'lib, jami talab va jami taklif o'rtasidagi nisbat buzilgan bo'ladi.



21.1-rasm. Ishlab chiqarishni real hajmi
Umumiy iqtisodiy barqarorlik.

Makrodarajada iqtisodiy holatni baholash zarur. Mikrodarajada iqtisodiy rivojlanish darajasini muvozanatini aniqlashda har bir huquqiy va jismoniy sub'ekti ma'lum bir davrda odatda oy, kvartal, yarim yillik va bir yillik ishlab chiqarishda erishilgan natural yalpi mahsulot yoki yalpi mahsulot qiymati orqali hisoblansa, makroiqtisodiy darajada ham tarmoqlar va mamlakat miqyosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar natural va qiymat shaklida hisoblash mumkin. Tarmoqlar darajasida tarmoqlarda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot natural va qiymat shaklida ifodalansa, mamlakat darajasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) va yalpi milliy mahsulot (YaIM) qiymat

ko'rsatkichlari orqali makroiqtisodiy muvozanat aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) iqtisodiy ko'rsatkichi mamlakatni ichki resurslari hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarilgan xajmini ifoda etsa, yalpi milliy mahsulot (YaMM) iqtisodiy ko'rsatkichi yalpi ichki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini va tashqaridan mamlakatga import tariqasida olib kelingan mahsulotlar qiymatini ham o'zida ifoda etadi. Mamlakat darajasida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini mohiyati shundan iboratki u mamlaktimizda ishlab chiqarilayotgan ichki mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol talablarimizni qanchalik darajada qanoatlantirishni ko'rsatib beradi. Milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada muvozanatli rivojlanishni ta'minlashda sof zaruriy mahsulot (SZM) iqtisodiy ko'rsatkichdan foydalanish zarur. Buning asosiy sababi (YaMM) ishlab chiqarish ko'rsatkichi yil davomida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan investitsiya tovarlarini xarajatlarini qoplash zaruriyatidan kelib chiqqan xolda (YAMM) ko'rsatkichdan tashqari sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichidan foydalanish zarur. Chunki sof milliy mahsulot (SMM) iqtisodiy rivojlanish darajasini bir yildagi holatni ifoda etadi.

Sof milliy mahsulot yalpi milliy mahsulotdan ajratilgan amortizatsiya (AF) qiymati ayirmasi bo'lib u asosiy kapitalni tiklash xarajatlariga sarflanadi. U quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\mathbf{YAMM-AF=SMM}$$

Milliy daromad (MD) o'zida umumiy daromadni ifoda etadi. Bu daromad ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlovchi korxonalar (Yer, ishchi kuchi, kapital va inson)lar-

ning ishbilarmonlik natijalari asosida olingan daromadni ifoda etadi. Bu ko'rsatkich (MD) jamiyatga ishlab chiqarilishini qanchagacha tushunishini ifoda etadi. Ishlab chiqarilgan yalpi (YaMM) uni ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarini ayrgandan so'ng qolgan (YaMM) qiyosiy soliqlarni chiqarib tashlash natijasida hosil bo'lgan milliy daromad (MD) bozor sharoitidan kelib chiqqan daromad sifatida yangi sof mahsulotni ishlab chiqarish manbai hisoblanadi. Shaxsiy daromad (SHD) milliy daromadga nisbatan har bir shaxsni ishlab chiqarish jarayonida qilgan mehnati evaziga olgan daromadni ifoda etadi. Shaxsiy daromadga transfert xarajatlari hisobiga olingan foyda ham shaxsiy daromadga kiradi. Boshqa turli to'lov mablag'lari davlat byudjetidan to'lanadigan nafaqalar ham shaxsiy daromadni tashkil etadi. Shaxsiy daromaddan turli to'lovlar jumladan kommunal to'lovlari va uy-joy, moolmulk soliqlari to'langandan qolgan shaxsiy daromad oila a'zolari uchun sarflanadi.

Xulosa qilib aytish mumkin yalpi milliy mahsulot asosida keltirilgan (YaMM), sof milliy mahsulot (SMI), milliy daromad (MD) va shaxsiy daromad (SHD) ko'rsatkichlari milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy modelini va nisbatni ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Yalpi milliy mahsulotni (YaMM) makroiqtisodiy modelini ishlab chiqarishni asosini tashkil etadi. Shuning uchun qanday omillar uni xajmini aniqlashini bilish lozim. Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yalpi milliy mahsulotni (YaMM) ishlab chiqarish darajasi o'sib borishiga turg'unlik ya'ni iqtisodiy rivojlanishni to'xtab qolishi salbiy ta'sir etsa muttasil rivojlanib boruvchi muvozanat (YaMM) xajmini o'sib borishini ta'minlaydi.

21.3. Asosiy milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta'minlovchi iqtisodiy modellar

Milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish va foyda olishni ta'minlash muvozanatli iqtisodiyotni rivojlantirishga bog'liq. Bu umuman har qanday iqtisodiyotni rivojlantirish usullariga ham tegishli bo'lsadabozor iqtisodiyoti sharoitida ta'minlash asosiy iqtisodiy masala hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda uni barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash bo'yicha turli iqtisodiy rivojlantirish modellari mavjud. Iqtisodni muvozanatli rivojlantirish foyda olishni asosiy sharti ekanligidan kelib chiqqan holda iqtisodni nosinfy modeli bo'yicha rivojlantirish asosan olingan kreditlarga belgilanadigan foiz stavkalari bilan va ishlab chiqarilayotgan hamda iste'mol bozorlariga chiqarilgan tovarlarga belgilanadigan narxlarni tartibga solish va rivojlantirishni maqqul ko'rganlar.iste'molni talabga nisbatan ortiq o'sib borishini foiz stavkalari va tovar birligiga belgilangan narxlar asosida tartibga solib borishini samarali deb hisoblaydilar.

Nosinfy - iqtisodiy rivojlanish modeli hisobiga L.Valras modelini keltirish mumkin. Bu modelga asosan umumiy raqobat tengligini ta'minlash yoki AQShlik iqtisodchi V.Leontevning "xarajat va ishlab chiqarish" modellarini keltirish mumkin. L.Valras bu model asosida iqtisodiy muvozanatli rivojlanishni eng talabga javob beruvchi model deb hisoblaydi. Xorijiy iqtisodchi olimlardan V.Pareto, D.Xiks, Neyman va boshqa olimlar sinfiy va nosinfy iqtisodiy rivojlanish modellarini o'rganish va tahlil qilish asosida sinfiy iqtisodiy rivojlanish modeli ayrim tomonlarini

Dj.M.Keyns tomonidan o'rganish asosida sinfiy iqtisodiy rivojlanish modelidan ayrim tomonlarini o'zining "Umumiy bandlik nazariyasi, foiz va pul asarida", barqaror narxlar, o'zgarib turuvchi foiz stavkalarini, ish xaqi stavkalarini o'zgarib turishini talab va taklif muvofaqligi ta'minlashi mumkinligini ko'rsatib bergan. Nosinfiy iqtisodiy rivojlanish modeli vakillari "pul bozorini" real bozorga bog'liq bo'lmagan pul bo'lib uni muomalada bo'lishi iqtisodiy rivojlanish barqarorligiga ta'sir etmaydi deb hisoblaydilar. Bu bilan ular davlatni iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ta'sir eta olishini inkor etadilar. Dj.M.Keyns nazariyoti vakillari iqtisodiy rivojlanish modelini ishlab chiqarishda takomillashmagan raqobat sharoitidaturli omillarni ta'siri natijasida haqqoniy erkin demokratik bozorni rivojlanishini ochiq ko'rsata olmaganlar.

Dj.M.Keyns fikricha qisqa davrda narx va ishlab chiqarish omillari talabni o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazolmaydi shuning uchun bu ko'rsatkichlar ma'lum davrlarda o'zgaraymay qolishi mumkin. Dj.M.Keyns sof milliy mahsulotni o'sishi (SMM) qisqa muddatda o'sishi talabni samaradorligiga bog'liq, na faqat umumlashgan taklifga bog'liq deb hisoblaydi. Iqtisodiy rivojlanish modeli uzoq iqtisodiy rivojlanish jarayonini ifoda Dj.M.Keyns modeli qisqa makroiqtisodiy rivojlanish barqarorligini ko'rsatib bergan. Iqtisodiy barqarorlik mavjud cheklangan moddiy ishchi kuchi va kapital resurslari bilan unga bo'lgan talabni muvofiqligida ko'rish mumkin.

Ijtimoiy iste'molni o'sishi iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslarga nisbatan ustun darajada rivojlanadi. Shuning uchun iqtisodiy muvozanatni ijtimoiy iste'molni cheklash asosida yoki iste'molga Yetarli dara-

jada ishlab chiqarishni o'sishini ta'minlash orqali erishish mumkin. Iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada rivojlanishida qisman muvozanatga ikki mikroiqtisodiy rivojlanish omillari o'rtasida erishish mumkin. Masalan mehnat ish xaqi o'rtasida, yoki talab va taklif o'rtasida va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha omillar o'rtasidagi nisbatlar talab va taklif asosida tashkil topishi kerak.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- iqtisodiy rivojlanish jarayonini ta'minlash uchun zarur bo'lgan umummilliy maqsadni iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvaffaqlashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonining asosiy makroiqtisodiy resurslari bo'lgan barcha mehnat moddiy va kapital resurslari ish joylari bilan mehnat resurslarini ta'minlash, ishsizlikni minimumlashtirish darajasini mavjud ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqarishni aniq talabgor mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lishi kerak;

- makroiqtisodiy darajada ishlab chiqarish tarkiblarini umumiy iste'mol talablari tarkiblaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish zarur.

Iqtisodiy rivojlanishni makroiqtisodiy darajada muvozanatli va mutanosib rivojlanishini ta'minlashda aniq matematik usullar asosida olib borish bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy darajada iqtisodiy tarmoqlar o'rtasida muvozanatlarni buzilishini oldini olishni ta'minlaydi. Ana shunday modellardan biri Sey modeli bo'lib makroiqtisodiy darajada ishlab chiqarish xajmini iste'mol xajmiga muvofiq kelishini zarurligini ko'rsatadi va jami

taklifni jami talabga muvofiq bo'lishi iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Yana ana shunday matematik modellardan biri "milliy hisob" modeli bo'lib ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarf etilgan umumiy makroiqtisodiy darajadagi xarajatlarni nisbatini umumiy milliy daromadlarga teng bo'lishiga bog'liq. Ishlab chiqarish jarayonini makroiqtisodiy darajada rivojlantirish uchun sarf etilgan umumiy investitsiya xarajatlarini va iqtisodiyotda tejalgan mablag'larni jami taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar qiymatiga va jamg'armalarga teng bo'lishi ham milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Keltirilgan matematik modellarni milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlanishini muvozanatli ekanligini bu matematik modellar asosida olinayotgan foydalar darajasida aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish jarayoniga sarf qilingan investitsion mablag'lar asosida jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar yig'indisiga bo'lgan nisbatlar asosida aniqlashga multiplikator samarasi deb yuritiladi. Agarda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarf etilgan investitsiya mablag'lari 200 mlrd.so'mni tashkil etib ishlab chiqarilgan jami milliy mahsulot qiymati 250 mlrd. so'mga teng bo'lsa multiplikator nisbati 250, 200 mlrd.so'mga yoki 1,25 ga teng bo'ladi. Multiplikator samarasi natijalari bir korxonaga yoki tarmoq doirasida yoki boshqa korxonaga tarmoqlari doirasida samarali bo'lishi mumkin.

21.4. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta'minlash iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashga bog'liq. Iqtisodiy mutanosiblik milliy iqtisodiyotni

sodiyotning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ta'minlash zarur. Agarda ishlab chiqarish tarmoqlari, korxonalar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish sharoitlarini tashkil etmasa ishlab chiqarish iqtisodiy inqiroz holatiga tushib qoladi.

Milliy iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosib ravishda rivojlanib borishini ta'minlash yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlaydi va jami ishlab chiqarish bilan jami iste'mol o'rtasidagi nisbatni barqarorligini ta'minlaydi. Bunday holatga ega bo'lish mamlakatimizda jami talabni jami taklifga bo'lgan nisbatini to'g'ri tashkil etishiga erishganlikni ko'rsatadi. Makroiqtisodiy darajada mutanosiblik turlarini quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- umumiy iqtisodiy mutanosibliklar

- ular mamlakat darajasida umum ishlab chiqarish xarajatlari bilan umum ishlab chiqilgan yalpi milliy mahsulot (YAMM) o'rtasida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tashkil etishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan iste'mol va jamg'arish fondlari o'rtasida, ishlab chiqilgan tovarlar va xizmatlar bilan muomalaga chiqarilgan pul masalalari o'rtasida aholining daromadlari bilan xarajatlari o'rtasida, tashqi savdo sohasida eksport bilan import o'rtasida, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ajratilgan investitsiya mablag'lari bilan unga bo'lgan zaruriy talablar o'rtasida bo'ladigan mutanosibliklarni ifoda etadi;

- tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar-bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlanishini inqirozsiz olib borishning asosiy omillaridan biri uning iqtisodiy ishlab chiqarish tarmoqlar o'rtasida o'zaro mutanosib munosabatlarni tashkil etilishiga bog'liq. Mamlakatimizda eng asosiy mutanosiblikni sanoat

tarmoqlari bilan qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida bo'lishi zarur. Milliy iqtisodiyotimizni bu ikki sanoat tarmoqlari bilan qishloq xo'jaligi tarmoqlarini bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligini e'tiborga olgan holda ular o'rtasidagi mutanosibligini ta'minlash mamlakatni barqaror va samarali rivojlanishiga jami talab va jami taklif nisbatlarini buzilmasligini ta'minlaydi;

- tarmoqlar ichidagi mutanosibliklar – bu mutanosibliklarni to'g'ri tashkil etish ana shu tarmoqni samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyotning hamma tarmoqlari ichida o'zaro to'g'ri tashkil etilgan nisbatlar shu tarmoqni rivojlanib borishini garovidir. Masalan neft va gaz sanoati tarmog'ini olib qarasaq neft va gazni qidiruviga uni ya'ni uglevodorod resurslarini qazib olish o'rtasidagi nisbatni mutanosib bo'lishi uni qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri tashkil topishini ta'minlaydi;

- korxonalar o'rtasidagi mutanosiblik – har bir ishlab chiqarish korxonalari ichidagi bo'limlari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etilishi shu korxonani samarali foyda olib ishlashini ta'minlaydi;

- iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagi mutanosibliklar. Mamlakatimizda har bir viloyat iqtisodiy mintaqaga bo'lib ular o'zaro iqtisodiy munosabatlarni muvozanatli tashkil etmasdan turib rivojlana olmaydilar. Chunki ulardagi mavjud yo'nalishlardagi ishlab chiqarish jarayonlari mintaqalarini bir-biriga iqtisodiy bog'liqlikda rivojlanishini ishlab chiqarish kooperatsiyasi asosida olib borishni talab etadi;

- davlatlararo iqtisodiy munosabatlar–hozirgirivojlanib borayotgan jahon xo'jaligi sharoitida mustaqil mamlakatlar o'rtasida turli yo'nalishlarda mutanosibliklarni

oʻrnatishni talab etadi. Buning asosiy sabablari tabiiy va ishlab chiqarish boʻyliklari boʻyicha, mehnat resurslari bilan taʼminlash boʻyicha isteʼmol bozorlarini rivojlantirish, fan va texnikalar innovatsiya yutuqlariga erishish ulardan foydalanish boʻyicha mavjud boʻlgan tafovutlar mamlakatlarni oʻzaro munosabatlarini mutanosib boʻlishini taʼminlash zarurligini koʻrsatadi.

Agarda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bogʻliq boʻlgan mutanosibliklarni oʻrnatiga erishish – mamlakatdagi tabiiy va ishlab chiqarilgan resurslardan toʻliq foydalanish ishlab chiqarishni samarali olib borish asosida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish, ish bilan bogʻliq darajasini oʻsib borishini taʼminlash, narxlarni barqarorligini taʼminlash, eksport va import nisbatlarini muvozanatli ravishda olib borishni taʼminlashga erishish mumkin.

21.5. Mamlakat iqtisodiy muvozanatni va mutanosibli rivojlantirishda iqtisodiyotni tarkibiy oʻzgarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash oʻrni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatni iqtisodiy inqirozsiz barqaror rivojlantirib borishning asosiy yoʻli mamlakatimizning ichki tabiiy resurslarini va ishlab chiqarilayotgan moddiy resurslarni olish, jahon bozor iqtisodiyoti talablarini eʼtiborga olgan holda iqtisodiyotimizni tarkibiy oʻzgarishlarini takomillashtirish asosida jami talab va jami taklifni muvofiqlashtirib borish zarur.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-sonli farmoni boʻyicha 1-ilova qilingan 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivoj-

lantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi".

2017-2021 -yillar ichida respublikamizda vatanimizni qay yo'nalishlarda iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy ishlarni amalga oshirish belgilab berilgan. Respublikani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga belgilangan tadbirlarni ijobiy bajarilishini asosiy sharti shundan iboratki ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi"ni mamlakatimizda to'la amalga oshirishga erishsak na faqat milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy rivojlantirish tarmoqlar tizimini takomillashtirishga balki u bilan bog'liq bo'lgan turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillardan ongli, tushungan ravishda qo'llash ma'naviy jihatdan jamiyatimizning a'zolarining dunyoviy qarashlarini tubdan o'zgarishni ta'minlaydi.

"Harakatlar strategiyasi"da belgilangan tadbirlarni amalga oshirilishi iqtisodiyotni isloh qilinishini tartibga solinganligini ifodalaydi. Bu o'z navbatida bo'ladigan iqtisodiy rivojlanishdagi tarmoqlar o'rtasidagi nomutanosib iqtisodiy holatlar oldini olishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyotimizni "Harakatlar strategiyasi" ga asoslagan holda rivojlantirish uchun unda belgilangan quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirishning usutuvor yo'nalishlarini belgilab olish. Buning uchun demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va malakatni modernizatsiyalashtirish va diversifikatsiyalashda Oliy Majlis siyosiy partiyalarining rolini oshirish. Davlatni boshqaruvi tizimini takomillashtirishda boshqaruvni markazlashtirishdan bosqichma-bosqich chiqarish, ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, davlat xizmati tizimini isloh qilish. Mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy va si-

yosiy rivojlantirishda xamkorlikni amalga oshirishda uni natijalarini samarali bo'lishiga erishish zarur. Jamiyatni boshqaruvi tizimini takomillashtirishga e'tiborni qaratish masalalarini bajarishga ahamiyat berish zarur.

2. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida sud huquq tizimini yanada isloh qilinishini ustuvor yo'nalishlari belgilandi. birinchi o'rinda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ximoya qilishni ishonchli kafolatlash. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunlarini takomillashtirish, sud-huquq tizimida qonuniyligni yanada mustahkamlash. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishga e'tibor berish.

3. "Harakatlar strategiyasi" ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'limida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish maqsadida makroiqtisodiy darajada tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur. Bu davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, xarajatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish. Soliq yuklarini kamaytirishni ta'minlash yo'lida soliq tizimini takomillashtirish zarur. Ilg'or xo'jalik yuritish tajribalaridan foydalanish, pul-kredit, valyuta siyosatini takomillashtirish bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish banklarni kapitallashuv darajasini va depozit bazasini oshirishga va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga e'tibor berish zarur.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishini barqarorligini ta'minlash iqtisodiy inqirozlar oldini olish uning tarkibiy o'zgarishlarini ichki va tashqi muhitlarni e'tiborga olgan holda takomillashtirish zarur. Milliy iqtisodiyotni mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlashda nodavlat ishlab chiqarish tizimini rivojlantirishga e'tibor berish zarur. Ish-

lab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish asosida birinchi o'rinda maxalliy xomashyo resurslari asosida ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish asosiy masala bo'lishi kerak.

Milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirishni ta'minlashni asosiy yo'llaridan biri bu mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligini tannarxini arzonlashtirishdan iborat. Respublikada xizmat ko'rsatish sohaslarini, turizm industriyasini rivojlantirish zarur. Mamlakatimizda faol ishlab chiqarish bilan faoliyat olib borayotgan huquqiy va jismoniy shaxslarni o'z mahsulotlari bilan jahon bozoriga olib chiqish, uni eksport qilishni liberallashtirish zarur. Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotimizni mo'tadil rivojlanishini ta'minlovchi asosiy tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgarishiga e'tibor berish asosida uning sohaslarini samarali rivojlanishini ta'minlash asosida aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va qayta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni zarur darajada ular bilan ta'minlash mumkin.

Olib boriladigan qishloq xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilish asosida rivojlantirish mamlakatimizni oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi. "Harakatlar strategiyasi" ga asosan paxta va boshqali don ekiladigan ekin maydonlarini qisqartirish evaziga oziq-ovqat bo'ladigan kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlar ekish, intensiv bog' va uzumzorlarni rivojlantirish maydonlarini muqobillashtirishga e'tibor beriladi. Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirishni rag'batlantirish va

rivojlantirish zarur. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ishlab chiqarishni intensiv usullardan foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklariga va zararkunandalariga qarshi kurashish ishlarini olib borish zarur.

Xususiy mulk huquqini ximoya qilishni kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni olib borishni davom ettirish va viloyat tumanlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini mutanosibligini ta'minlash. Bu tadbirlarni olib borish ularni samarali bo'lishini ta'minlash ijtimoiy sohani rivojlantirish bilan bog'liq. Bu sohalar rivojlansa, aholi bandligi ta'minlansa ularning ish xaqlari va daromadlari o'sib borishi mumkin. "Harakatlar strategiyasi" asosida amalga oshiriladigan tadbirlar aholi uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish, ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga bog'liq.

O'zlashtirish bilimlarni nazorat qilish savollari

1. Iqtisodiy muvozanat tushunchasi nimadan iborat?
2. Iqtisodiy muvozanat turlari?
3. Makroiqtisodiy muvozanat mohiyati?
4. Milliy daromad nima?
5. Muvozanatli rivojlantirish modellarini bilasizmi?
6. Muvozanatlashtirishni nosinfy modeli mohiyati?
7. Iqtisodiy mutanosiblik turlari?
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash nima?
9. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda nimani tushunasiz?

Testlar

1. Muvozanat nimani ifoda etadi?
a) ishlab chiqarishni rivojlanishini;

- b) iqtisodiyotni rivojlanishini;
 - v) iqtisodiy tengligini;
 - g) iqtisodiy nisbatlarni buzilishini.
2. Makroiqtisodiy muvozanat barqarorlik nimani ifoda etadi?
- a) makroiqtisodiy muvozanat tenglikni;
 - b) makroiqtisodiy muvozanat birligini;
 - v) mikroiqtisodiy nisbatlarni.
3. Jami talab va jami taklif nimani ifoda etadi?
- a) jami talabni mohiyatini;
 - b) jami taklifni mohiyatini;
 - v) jami taklifni ustun darajada rivojlanishini;
 - g) jami talab va taklif iqtisodiy muvozanatni bildiradi.
4. Sof milliy mahsulot nimani bildiradi?
- a) YaMM;
 - b) YaIM;
 - v) ishlab chiqarilgan tovarlarni;
 - g) sof milliy mahsulotni.
5. Nosinfy ishlab chiqarish modeli nima?
- a) ishlab chiqarish xarajatlarini tartibga solish;
 - b) yalpi mahsulotni ishlab chiqarish;
 - v) ishlab chiqarishni ishlab chiqarish vositalariga va mehnat-

ga.

22-bob. IQTISODIYOTNING TSIKLLIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK

Tayanch soʻzlar: iqtisodiy tsikl, inqiroz, turgʻunlik, jonlanish, yuksalish, tarkibiy inqiroz, pul, talab inflyatsiyasi, moʻtadil inflyatsiya, tezkor inflyatsiya, giperinflyatsiya, kutilayotgan inflyatsiya, kutilmagan inflyatsiya, strategik usul, taktik usul, ish kuchi, ishsizlik, friksion ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, tsiklik ishsizlik, ishsizlik darajasi, Fillips egri chizigʻi.

22.1. Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularni nomoyon boʻlishi

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi milliy iqtisodiyotni talab va taklif asosida muqobil darajada boʻlishidan darak beradi. Milliy iqtisodiyotni barqaror ravishda rivojlanib borishi yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish jarayonini oʻsib borishini koʻrsatadi. Ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yangiliklarni qoʻllash asosida mehnat unumdorligini oʻsib borishini, mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun boʻlayotgan moddiy va mehnat xarajatlarini kamayitini taʼminlaydi.

Bizga maʼlum har bir mamlakat oʻzining iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish asosida mamlakat aholisining isteʼmol talablarini ichki ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish hisobiga qanoatlantirishga harakat qiladi. Bu oʻz navbatida xorijiy mamlakatlarda faqat oʻzlarida Yetishtirilmaydigan zarur boʻlgan mahsulot, xomashyo, texnika va texnologiyalarni sotib olish bilan boʻlgan aloqalar mamlakat uchun zarur boʻlgan valyutani maʼlum miqdorda saqlab qolishni taʼminlaydi. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi har doim talab darajasida bozor iqtisodiyoti-


ning asosiy qonuni bo'lgan talab va taklif qonuni talablari-ga mos kelgan holda rivojlanib bormaydi. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida ma'lum sabablarga ko'ra iqtisodiyot rivojlanishi bir tekisda amalga oshirmaydi. Iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Ichki omillar ishlab chiqarish tashkil etuvchi firma va korxonalar bilan bog'liq bo'lib ayrim vaqtda korxonalar va firmalarda yetarli mablag'larni bo'lmasligi ishlab chiqarish, tashkil etish uchun xomashyolarni ishlab chiqarish vositalarini yetishmasligi, xomashyolarni sifat darajasida talabga javob bermasligi, yoqilg'i-moylash materiallaridan to'liq foydalanmasligiga va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'mol bozorida iste'molchilar tomonidan qabul qilinmasligi, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan ishchi xodimlarining malakaviy darajalarini past bo'lishi natijasida xarid qilinmasligi oqibatida mahsulot birligiga bo'ladigan ortiqcha xarajatlar natijasida olinadigan foyda miqdorini kamayishi hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada barqaror rivojlanishiga tashqi ta'sir etuvchi omillar: ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyolarning sifatini pastligi, xomashyolarning qiymatligi, ishlab chiqarish vositalarining sifat darajalarini talabga javob bermasligi, malakali ish kuchlariga bo'lgan talabni qondirmasligi, ishlab chiqaruvchi firma, korxonalar bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchilarga Yetkazib berish bo'yicha iqtisodiy munosabatalr talab darajasida shakllanmaganligi, moliyaviy, soliq munosabatlarini bozor iqtisodiyoti talablari asosida takomillashtirib borilmasligi salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada rivojlanishi tsiklik holatda amalga oshiriladi.

Iqtisodiy rivojlanishning tsiklik holati quyidagilardan tashkil topadi. Bu inqiroz, pasayish, turg'unlik, jonlanish yuksalishdan iborat. Lekin iqtisodiy rivojlanish jarayonida bu iqtisodiy tsikllar ketma-ketlikda emas balki ko'pincha spiral holatda harakatda bo'ladi. Bunga asosan iqtisodiy rivojlanishni tsiklik ya'ni bosqichma-bosqich harakati-ni bir joyda ya'ni rivojlanmagan holda emas balki tsiklik rivojlanishni spiral holda harakat qilishini ijobiy rivojlanish holati deb qarash mumkin. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy tsikllar turli ko'rinishida o'zining xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar davriyligi muddati bilan qisqa, o'rta, uzoq muddatlari bilan soha yo'nalishi bilan sanoat va qishloq xo'jaligida rivojlanish shakli bilan tarkibiy, tarmoq yo'nalishlari bilan, vujudga kelish holati bo'yicha neft, gaz, energetika, oziq-ovqat, xomashyo, valyuta, kengligi yo'yilishi: milliy, millatlararo bilan belgilanadi. Iqtisodiy inqirozning muddati:

- talabni taklifga mos kelmasligi;
- talabni ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan o'zgarish;
- ishlab chiqarish jarayonini bir ishlab chiqarish jarayoniga o'tkazish munosabati bilan texnologik usulda o'zgarishi bilan bog'liq.

Iqtisodiy inqirozlarni qisqa, o'rtacha va uzoq qatlarga bo'linishi (22.1-rasm)da keltirilgan.



22.1-rasm. Iqtisodiy inqiroz bo'lish muddatlari

Iqtisodiy inqirozlarni doimiy takrorlanishi (22.1-rasm) da keltirilgan muddatlar ichida bo'lib o'tishi mumkin. Ayrim holatlarda iqtisodiy inqirozlar bu muddatlarni to'liq qamrab olmasligi ham mumkin. Bunga asosiy sabab innovatsion ishlab chiqarish jarayonini boshqaruvini qo'llash, malakali kadrlarni ishlab chiqarishga jalb qilinishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni iste'mol bozorida talabgorligini o'sib borishi asosiy sabab hisoblanadi.

22.2. Iqtisodiy rivojlanishning davriyligi. Iqtisodiy tsikl va uning bosqichlari

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hech qaysi mamlakatda iqtisodiy rivojlanish bir tekis bo'lmaydi. U davriy tasnifga ega bo'lib, iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy davrga (tsiklga) quyidagicha ta'rif beriladi: «Davriy – bu mulkiy xo'jaliklar va jahon xo'jaligini bir butun holda harakat qilishining umumiy shakli iqtisodiy dinamikaning muhim omili, makroiqtisodiy muvozanatning aniqlovchilaridan biri, progressiv rivojlanishning shakli»¹.

«Iqtisodiy tsikl iqtisodiy rivojlanish darajasining ketma-ket yuksalishi va tushkunlikka tushish jarayonidir»². Demak, iqtisodiy davr bu rivojlanishning shakli bo'lib, iqtisodiyotning bir inqirozdan ikkinchi inqirozgacha bo'lgan harakat davrini o'z ichiga oladi. Davrlar davomiyligi turlicha, ya'ni qisqa va uzun bo'lishi mumkin. Shuning uchun «uzun to'lqinlar» va «qisqa to'lqinlar» davri farqlanadi.

¹ Kamayev V. D. Uchebnik po osnovam ekonomicheskoy teorii. M. Vldos, 1994 g. 355 str.

² Makkanell R., Bryu S.L. Ekonomiks. Referat. M., Menedjer, 1992 g. 72 str.

Uzun to'liqlar davri 40–60 yillik davrni o'z ichiga oladi. «Uzun to'liqlar» nazariyasiga angliyalik X.Klark asos solgan. 1847-yilda 1793 va 1847-yillardagi inqirozlar o'rtasida 54 yillik farqqa e'tibor berdi va u tasodifiy emas, bu jarayon ob'ektiv shartlangandir, degan xulosaga keldi.

Iqtisodiyotni tsiklik rivojlanishi milliy iqtisodiyotni rivojlanib borishini ichki va tashqi vaziyatlardan kelib chiqqan holda o'zgarib borishi iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishning asosiy yo'li deb qarash zarur. Tsiklik taraqqiyotda ishlab chiqarish jarayonini bir maromda, bir hajmda o'sib bormasdan turib uning harakat ko'rsatkichlarini o'zgarib turishi iqtisodiy inqirozning tsiklik harakatlarini ifoda etmaydi. Buning uchun:

- ishlab chiqarishdagi ishlab chiqarish jarayonidagi xajm o'zgarishlarini takrorlanishi;

- ishlab chiqarishni takroriy rivojlanishda tsikllarni qaytarilishi;

- tsikllarni qaytarilishini davriyligi.

Buning uchun iqtisodiy inqirozni tsiklligini takrorlanib turishi zarur. Ijtimoiy ishlab chiqarishda bo'ladigan tsikllik iqtisodiy inqirozlarni vujudga kelishini quyidagilarga asoslangan holda tushuntirish mumkin:

- nosinfy iqtisodchilar iqtisodiy inqirozni tasodifiy holat bo'lib uni tez o'tishi;

- aholining ma'lum qatlamini moddiy ne'matlarni xarid qilish qobiliyatlarini talab darajada bo'lmasligi oqibatida iste'mol buyumlarini iste'mol darajasiga nisbatan ortiqchaligi;

- pul-kredit siyosatini amalda talab va taklif munosabatini buzilishi;

- bozor mexanizmini talabga javob bermasligi oqi-


batida davlat tomonidan iqtisodiy rivojlanishiga aralashuvi deb hisoblaydilar.

Iqtisodiy tsikllarni bo'lishini iqtisodchilar quyidagiga asoslaydilar: tsikllarni birinchi yondoshuvi bo'yicha tsiklga tashqi omillarni ta'sir etishi, ikkinchi yondoshuv bo'yicha, ichki ta'sir etuvchi omillar, uchinchi yondoshuv bo'yicha birinchi va ikkinchi yondoshuv bo'yicha ta'sir etuvchi omillarni sitezi ya'ni ikklasining omillarini ta'sirini ifoda etadi. Birinchi yondoshuvda tsikllarni takrorlanishida tashqi omillarni o'rganish zaruriyati bo'ladi.

Tashqi omillar asosan iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidan tashqaridagi omillar bo'lib ular quyidagilardan aholining o'sib borishi yoki kamayishi, ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zgarishi, siyosiy holatni o'rganish asosida ichki holatini iste'mol darajasini, investitsiyalash va davlatning ichki siyosatiga e'tibor berish lozim. Xulosa qilib aytish mumkin iqtisodiy inqirozni oldini olishni birinchi usulida tashqi omillarni o'rganish va tegishli chora ko'rishni talab etsa, ikkinchi usulda ichki omillarni o'rganish va tegishli xulosa chiqarish asosida ham iqtisodiy rivojlanish tsikllarini tartibga solish mumkin. Uchinchi usulda iqtisodiy inqiroz oldini olish jarayonida ichki va tashqi omillardan foydalanish asosida iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish mumkin.

Davriylik nazariyasini rivojlantirishda ko'pgina iqtisodchi olimlar ham o'z hissasini qo'shgan. Ular o'z asrlarida to'lqinlarni, iqtisodiy adabiyotlarda ortiqcha ishlab chiqarish, davriy inqirozlarni o'rganishga katta ahamiyat bergan. Yuqoridagi ta'kidlab o'tiladigan iqtisodiy davr (tsikl) ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlanguncha qadar takrorlanib turadigan harakati tushuniladi.

Buni sxematik ko'rinishda ifodalashimiz mumkin (22.1-rasm).



22.1-rasm. *Iqtisodiy o'sishning sikilligi*

T – yillar;

Q – milliy ishlab chiqarishning real hajmi;

A – o'tgan ishlab chiqarish tsiklining eng yuqori hajmi;

AV – inqiroz davrida ishlab chiqarishni pasayish hajmi;

S – turg'unlik bosqichi;

J – jonlanish bosqichi;

Y – yuksalish bosqichi.

Iqtisodiy davr (sikl) inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar iqtisodiy davr fazalari deyiladi. Fazalarning har birida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi. Vaqti-vaqti bilan ijtimoiy ishlab chiqarish harakatida paydo bo'lib turadigan uzilish, ya'ni iqtisodiy nomunosabatlikni ikki turi farqlanadi:

1. Ortiqcha tovar ishlab chiqarishdan yuzaga keladigan inqiroz.

2. Ishlab chiqarishning qisqartirish natijasida yuzaga keladigan inqiroz.

Inqiroz davrida ishlab chiqarishning qisqarishi baho-

larning barqaror bo'lmashligi, ishsizlar sonining ortishi, ish haqining pasayishi, aholi (mehnatkashlar) turmush darajasining yomonlashuvi kabi holatlar yuzaga keladi. Inqiroz bosqichida tovarlar aholining sotib olish qobiliyati bilan belgilanuvchi talabiga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilganligi va sotilmay qolayotganida yaqqol ifodalangani, baholar pasayib ketadi, foyda miqdori pasayadi, ishlab chiqarish hajmi qisqaradi. Buning natijasida ishsizlar soni ko'payadi, ish haqi pasayadi, kreditga talab oshadi, foiz ko'tariladi, banklardagi qo'yilmalar ommaviy ravishda qaytarib olinadi.

Iqtisodiy inqiroz davrida:

- ishlab chiqarishda bo'lgan jamg'arma moddiy resurslarni tugatish ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanadigan investitsiyalarni qisqartirish, mehnatga bo'lgan talabni qisqartirish, tovar mahsulotlarini narxlarini qisqarishi, foydaning pasayishi, kreditga bo'lgan talabni va foiz to'lovlarini qisqartirish.

Turg'unlik davrida:

- ishlab chiqarish jarayoni kamaymaydi va o'smaydi;
- ortiqcha ishlab chiqarilgan tovarlar asta-sekin yo'qotiladi;
- ssuda to'lovlari foizlari pasayadi.

Jonlanish davrida:

- korxonalar, firmalar ishlab chiqarish jarayonlarini yangi iste'mol bozoriga moslashtiradilar va mahsulot ishlab chiqarishni bozor talabiga qarab ko'paytirib boradilar.

Yuksalish fazasi uchun ishlab chiqarishning inqiroz gacha bo'lgan darajasidan oshib ketish, tovar baholarining ancha ko'tarilishi, korxonalarning ishga tushurilishi, ishsizlar sonining kamayishi, bank va kredit ishla-

rining yo'lga qo'yilishi kreditga talabning oshishi va foiz me'yoringing ko'payishi tavsiflidir. Nisbiy ortiqcha ishlab chiqarish va nisbiy kam ishlab chiqarish shaklidagi inqirozlardan tashqari **tarkibiy inqiroz** ham mavjud bo'lib, ular davriy tavsifga ega emas. Bu holda ayrim soha va tarmoqlar o'rtasida chuqur nomunosiblik yuz beradi. Bunday inqiroz sababi hom ashyolarning keskin yetishmasligidir. Masalan, energiya inqirozi bilan boshlanadi. Tarkibiy inqiroz natijasida talab va taklif munosabati buziladi va xom ashyoning bahosi ko'tarilib ketadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarkibiy inqiroz davriy tavsifga ega emas, lekin uzoq muddat davom etishi bilan tavsiflanadi. Tsikli inqirozdan farqli ravishda, struktura inqirozda, bir yoki bir necha tarmoq izdan chiqqan sharoitda qolgan tarmoqlar tez rivojlanadi.

Albatta, davlat inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirib turadi. Inqiroz va tushkunlik davrlari salbiy oqibatlarini oldini olish, ularni bartaraf etish uchun nafaqat bir mamlakat doirasida, balki mamlakatlararo faoliyatlar muvofiqlashtirilmoqda, birgalikda milliy programmalar ishlab chiqarilmoqda.

22.3. Iqtisodiy inqiroz to'lqinlari, inqiroz turlari va kelib chiqish sabablari

Iqtisodiyotni rivojlanishi doimiy ravishda barqaror rivojlanmaydi. Iqtisodiyotni rivojlanishida ma'lum uzilishlar bo'lib turadi. Iqtisodiy rivojlanishda bo'lib turadigan uzilishlarni iqtisodchi olimlardan Dj.Klark, Dj.Xiks, Dj.M.Keyns, K.Marks, I.Shumpeter va boshqalar o'rgangan. Iqtisodiy inqirozlarni kelib chiqishini monetaristlar ortiq-

cha yoki yetishmovchilik darajasida pullarni Yetishmasligida ko'radilar ammo ko'pchilik iqtisodchi olimlar iqtisodiy inqirozlarni kelib chiqishining sabablarini ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ortiqcha ishlab chiqarishda ko'radilar. M.Tugan-Baranovskiy fikricha iqtisodiy inqiroz sababi ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlarini talabdan tashqari ishlab chiqarilishi deb hisoblaydi.

N.Klador esa investitsiya bilan jamg'arma o'rtasidagi uzilishlar iqtisodiy inqirozning kelib chiqishini asosiy sababi deb hisoblaydi. AQShlik iqtisodchi P.Samuelson fikricha, xususiy mulk xususiy mulk erkinligini kamayib borishi va erkin korxonalarini erkinlik darajalarini pasayib borishi iqtisodiy inqirozni kelib chiqishini asosiy sabab deb hisoblaydi. Inqirozlar iqtisodiy sub'ektlarni ayniqsa tadbirkorlarni psixologik holatdan chiqaradi deb A.Pigu, Dj.M.Keyns va boshqalar hisoblaydilar. K.Marks esa sanoatdagi iqtisodiy inqirozlarni vaqti bilan ishlab chiqarish vositalarini yangilanishi bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Y.Shumpeter iqtisodiy inqirozlarni kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida uni iqtisodiyotda tebranishini uch bosqichda uch darajada bo'lishini ko'rsatib bu tsikllarni ochgan olimlar nomi bilan Dj.Kichin, K.Juglyala va N.D.Kondratev nomi bilan atagan¹.

D.Kichin tsikli 1926 yilda Dj.Kitchin tomonidan ishlab chiqarishni olib borish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslarni sotish narxlarini tahlil qilish asosida iqtisodiy inqirozni qisqa, 2-4 yilgachan bo'lgan davrlarda bo'lishini o'rganishga e'tibor bergan.

K.Juglyal tsikli – odatda ishlab chiqarish jarayonida

¹ Ekonomicheskije nauki. M.: 1990 № 10. S.95

bo'ladigan iqtisodiy inqiroz davrida ishlab chiqarish vositalariga va turli yo'nalishdagi ko'rilishlarga bo'lgan talabni pasayishi bilan bog'liq bo'lib bu sikl odatda 8-12 yillar ichida kapital qo'ymalarni o'sishi bilan qoplanadi. Bu siklni o'rtacha 8-12 yil bo'lishini o'rtacha tsikl yoki K.Marks buni sanoat sikli deb nomlagan. Uzoq muddatli iqtisodiy tsikl 40-60 yil davom etadi. Bu iqtisodiy siklni N.D.Kondratevning "uzoq to'lqinlar" sikl deb ataladi. N.D.Kondratev uzun iqtisodiy siklni to'rt to'lqinini o'rganib ularni 52, 48, 56, 45 yillarga bo'lgan. N.D.Kondratev fikricha:

-birinchi uzun to'lqin – Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi bilan bog'liq;

-ikkinchi to'lqin – temir yo'l transportini rivojlanishi bilan bog'liq;

-uchinchi to'lqin – elektroenergiyani telefon va radiodan foydalanish bilan bog'liq;

-to'rtinchi to'lqin – avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish bilan bog'liq;

-beshinchi to'lqin – ilmiy injenerlikni, elektronika va mikroprotsess jarayonlardan iborat.

Iqtisodchi olimlar fikricha 1982 – yildan beshinchi iqtisodiy to'lqin harakati bor. AQShlik iqtisodchi Dj.Klark iqtisodiy tsikllarni tebranishlarni o'rganishda asosan iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabni o'zgarishiga e'tibor berish asosida iste'mol ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish xomashyolariga bo'lgan talabni o'sib borishini vujudga keltiradi deb hisoblaydi.

Bu qonuniyatni Dj.Klark iqtisodiy tsikllik rivojlantirishining asosiy sharti ekanligidan kelib chiqqan holda uni **akseleratsiya sharti** yoki **akseleratorsamaradorligi** deb nomlagan.

Akselerator samaradorligi ijtimoiy ishlab chiqarishga sarf qilingan investitsiyani milliy daromadni o'sishiga bo'lgan nisbatida ifodalanadi. Uni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$B = \frac{U_1}{U_2 - 1 - U_t - 2}$$

bu yerda:

V – akselerator;

U_1 – investitsiya;

t–investitsiya qilingan yil;

U_2 – milliy daromad.

Bu misolda ko'ramiz. Agarda 2017-2016-yillar ichida iste'mol talablari o'sgan bo'lsa 2018-yilda investitsiyalash amalga oshirilsa:

$$B = \frac{U_{2018}}{U_{2017} - U_{2016}}$$

Frantsuz iqtisodchisi Aftalon investitsiyani ishlab chiqarish jarayoni birdan o'sib borayotgan iste'mol talabni birdan qondiraolmaydi. Iste'mol talabni qondirish uchun ishlab chiqarish xajmini kengaytirish uchun ma'lum vaqt ketadi deb asoslab bergan. Iqtisodiy inqirozda bo'ladigan iqtisodiy tsikllar iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri birday bo'lmaydi. Masalan yengil sanoat tarmoqlariga ta'siri natijasida ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlar og'ir sanoat tarmoqlarida bo'ladigan o'zgarishlarga nisbatan tez bo'ladi. Iqtisodiy inqiroz tarkibiy inqiroz ko'rinishida ham bo'ladi. Tarkibiy inqiroz iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarida bo'lishi tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni buzilishi natijasida hosil bo'lsa, tarmoq ichidagi ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini talab va taklif asosida barqaror bo'lmasligi natijasida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan

xomashyo texnik detallarini o'z vaqtida yetkazib bermaslik tarmoq sohalarida ishlab chiqarish va ularni ta'minlash jarayonini talabga nisbatan pasayishi tarmoq inqiroziga olib keladi. Tarmoq inqiroziga barham berish tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni talab va taklif darajasida bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Agrar inqirozlar sanoat tarmoqlarida bo'ladigan inqirozlarga nisbatan uzoq muddatlarga cho'ziladi. Sababi qishloq xo'jaligida agrar iqtisodiy inqirozni bo'lishiga qaramay ishlab chiqarish jarayoni davom etaveradi. Qishloq xo'jaligida agrar inqirozlarni oldini olish uchun ishlab chiqarish jarayonini progressiv usullardan foydalanishni tashkil etish va ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mashinalari va texnikalar bilan ta'minlash, agrotexnologiya uslublariga rioya qilish va ishlab chiqarishda band bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlarini iqtisodiy manfaatdorligini oshirish zarur.

22.4. Pul-kredit sohasidagi inqiroz

Inflyatsiya jahon miqyosida muammolarni keltirib chiqaradi. Inflyatsiya pulning qadrsizlanishi bilan bog'liq bo'lib uning xarid qilish qobiliyati pasayadi. Inflyatsiyaga qarshi kurashishda uni oldini olishda asosan pul reformalarini amalga oshirishda emas balki uning xarid qilish qobiliyatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv tadbirlarini takomillashtirish ustidagi tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish zarur. Iqtisodiyotda narx bozor iqtisodiyoti sharoitida umumiy bir qiymat ko'rsatkichi bo'lib bozorda har bir tovarga belgilangan narxni talab va taklif asosida bo'lishini ta'minlaydi. Bozord-

agi narx doimiy ravishda talab va taklif asosida o'zgarib turadi. Lekin bu o'zgarishlar ob'ektiv talab va taklif asosida bo'lib u ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini qobiliyatini va ma'lum miqdorda foyda olishni ta'minlashi zarur.

Inflyatsiyani o'sib borishi pulning qadrsizlanishiga olib keladi uning asosiy sabablaridan biri ko'pincha mamlakatlarda muomilaga talabga nisbatan qog'oz pullarni chiqarishni uni qadrsizlanishini oldini olishni ta'minlaydi deb hisoblaydilar. Agarda pul muomilasida pulning qadrsizlanishi darajasini oldi olinmasa uning ta'siri tovarlarning narxlarni o'sib borishiga olib keladi. Inflyatsiyani toifalashtirishda narxlarni o'sish darajasi, tovarlar narxini tashkil etishdagi tafovutlarga qarab va kutilayotgan inflyatsiyaga qarab belgilanadi. Inflyatsiyani ochiq shaklida odatda tovarlar narxlarini o'sib borishida ko'rish mumkin. Yashirin inflyatsiya esa odatda muomilada bo'lgan tovarlarni muomiladan chiqib ketishida narxlarni va daromadlarni o'zgarmasligida, narxlarni chegaraviy darajasida belgilanishi ifodalanadi. Inflyatsiya darajasini qay holatda ekanligini ***iste'mol narxlari indeksi*** orqali aniqlash mumkin.

Odatda iste'mol savatchasini hozirgi qiymatini o'tgan davrdagi iste'molga faraz qilsak iste'mol savatchasini narxi o'zgarmasa uni bir yildagi qiymatini bu yilgi iste'mol savatchasini qiymatini o'tgan yildagi iste'mol savatchasi qiymatiga bo'lib aniqlash mumkin quyidagi formula asosida:

$$INI = \frac{\text{iste'molsavatchani bu yildagi narxi}}{\text{iste'molsavatchani o'tganyildagi narxi}} * 100\%$$

Iste'mol savatchasi narxlariga ta'sir etuvchi inflyatsiyani qay darajada ekanligini aniqlashda bu yildagi iste'mol

savatchasi qiymatidan o'tganyildagi iste'mol qiymati savatchasini ayirish asosida qolgan qiymati o'tgan yildagi iste'mol savatchasi qiymatini va ayrilgan qiymatni 100 ga ko'paytiriladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\text{inflyatsiya darajasi} = \frac{\text{bu yildagi iste'mol narxi} - \text{o'tgan yildagi iste'mol narxi}}{\text{o'gan yildagi iste'mol narxi}} * 100\%$$

Inflyatsiya holatini bo'lishga asosiy sabab pul massasini ishlab chiqarilayotgan tovarlar massasini qoplay olmasligi, byudjet xarajatlarini o'sib borishi natijasida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish resurslarini pasaytirish hisobiga ishlab chiqarish jarayonini xarbiylashtirish, xarbiy tarmoqlarda ishlovchilarni iste'mol talablarini o'sib borishi, byudjet tanqischilligi, tashqi savdo eksportidan keladigan daromadni kamayishi, soliqlar va to'lovlarni o'sib borishidir. Inflyatsiya darajasini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yo'nalishlari bo'yicha balaslashtirilgan va balaslashtirilmagan inflyatsiyaga ham bo'lish mumkin. Balaslashtirilgan inflyatsiya jarayonida odatda narxlar doimiy muqobil darajada bo'ladi. Balaslashtirilmagan inflyatsiya darajasida tovarlarning narxlari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Inflyatsiya **kutilgan va kutilmagan** holatda bo'lishi mumkin. Inflyatsiya darajasini uzayishiga ishlab chiqarish jarayoniga sarflanadigan ishlab chiqarish xarajatlari ta'sir etadi. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ishlab chiqarish xarajatlarini o'sib borishi korxonalar va firmalarning foyda darajasi pasayib boradi. Inflyatsiya jarayoni ham spiral holatida harakatda bo'lib u talab yoki taklif tomonlarida ham bo'lishi mumkin. Inflyatsiya darajasi bo'yicha quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- tabiiy inflyatsiya darajasi 10 foizgachan;

- inflyatsiya darajasi 10-20 foizda bo'lsa suzib yuruvchi inflyatsiya bo'lib davlat pul siyosatini tartibga solishi kerak;

- inflyatsiya 20 foizdan ortiq bo'lsa tezkor inflyatsiya bo'lib pul siyosatini tubdan o'zgarishini talab etadi;

- inflyatsiya darajasi 200 foizdan ortiq bo'lsa buni hal etish na faqat iqtisodiy balki siyosiy jihatdan hal etish tasnifiga ega bo'ladi.

Inflyatsiyani gipperinflyatsiya darajasida bo'lishi iqtisodiyotni to'liq izdan chiqaradi, ishlab chiqarish ishdan chiqadi.

Inflyatsiyaning salbiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- pulning xarid qilish qobiliyati pasayadi;

- jamg'arma pullar qiymati tushadi;

- daromadlar va boyliklar aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanadi;

- ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiya mablag'larini yo'naltirish pasayadi;

- umumiy ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi;

- mehnatni rag'batlantirish pasayadi.

Inflyatsiyani oldini olish davlat tomonidan unga qarshi ko'radigan choralariga bog'liq, bu choralar quyidagilardan iborat:

- inflyatsiya jarayoni muqobillashtirish;

- pul muomilasini cheklash;

- byudjet kamomadini oldini olish;

- soliq to'lovlarini reforma qilish;

- ishlab chiqarishni qayta tarkibini ishlab chiqish;

- valyuta kursini tartibga tushirish;

- iqtisodiyotni tovarlilik darajasini oshirish;

- ish xaqi, pensiya va yordam pullarini indeksatsiya qilish;

- pul reformasini amalga oshirishdan iborat.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Iqtisodiy rivojlanish davriyligiga sabab nima?
2. Tarkibiy inqiroz sabablari nimadan iborat?
3. Pulning qadrsizlanishi sabablari?
4. Mo'tadil inflyatsiya nima?
5. Tezkor inflyatsiya nima?
6. Giper inflyatsiya sabablari?
7. Iqtisodiy tsikl va uning bosqichlari?
8. Iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar?
9. Iqtisodiy inqiroz bo'lish muddatlari?
10. Iqtisodiy inqiroz to'loqlari nima?
11. Akselerator samaradorligi nima?
12. Kondratev uzun iqtisodiy to'loqini nima?
13. Iste'mol savatchasi nima?
14. Kutilgan inflyatsiya nima?
15. Kutilmagan inflyatsiya nima?

Testlar

1. Iqtisodiy o'sish davriyligi nimaga bog'liq?
 - a) ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotning jamiyat talabini qondirmasligi
 - b) ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotning xarid qilib olish talabiga nisbatan ortiqchaligi
 - d) pulning qadrsizlanishi
 - e) muomalaga jami ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatiga teng holda pulni chiqarilmasligi
 - f) jami talab va jami taklif o'rtasidagi nisbatni buzilishi
2. Pulning qadrsizlanishiga sabab nima?

- a) muomalaga talabdan tashqari pul hajmini chiqarilishi
 - b) muomalaga zarur miqdordagi talab darajasida pulning chiqarilmasligi
 - d) muomalada naqd pullarning cheklanganligi
 - e) iqtisodiy inqirozning bo'lishi
 - f) hamma javoblar to'g'ri
3. Yalpi ish kuchi nimalardan iborat?
- a) mehnatga yaroqli erkak va ayollardan
 - b) mehnat qilish yoshiga yetkanlarda
 - d) mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan nogiron va nafaqaxo'rlardan
 - e) mehnat resurslaridan
 - f) ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchi kuchlaridan
4. Ishsizlikning asosiy sababi nimadan iborat?
- a) ish joylarini yeishmasligi
 - b) ish joylariga nisbatan ularni ortiqchaligi
 - d) ishlab chiqarish jarayonining talab darajasida rivojlanmasligi
 - e) unumli yerlarning cheklanganligi
 - f) talab bilan taklif o'rtasidagi muvozanatni buzilishi

23-bob. ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK

Tayanch so'zlar: ish kuchi, ish kuchi mohiyati, inson ishlab chiqarish omili, ish kuchini takror ishlab chiqarish, ishchi kuchi si-fati, mehnat bozori, ish kuchiga talab, mehnat bozori, ish kuchini ish bilan ta'minlash, mehnat bozorida Dj.M.Keyns modeli, ish haqi, nufus qonuni, ish kuchidan foydalanishni cheklanganligi, sinfiy si-yosat, ishsizlik sabablari, ishsizlik va inflyatsiya bog'liqligi, Fillips egri chizig'i.

23.1. Ish kuchining iqtisodiy – ijtimoiy mazmuni

Jamiyat yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yalpi ichki mahsulotni moddiy ne'matlar tariqasida ishlab chiqarmasdan turib uning a'zolari bo'lgan insonlarning iste'mol talablarini qondirish hozirgi davrning eng dolzarb muammosi hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining iste'mol ta-lablarini qondirishda ishlab chiqarish jarayonida moddiy omillardan tashqari uni harakatga keltiruvchi inson asosiy omil hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonini takror ishlab chiqarish bilan birga inson omili ham har doim takror va takror ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish moddiy omilla-rini va ishchi kuchlarini doimiy ravishda kengaytiril-gan holda ishlab chiqarilishiga sabab aholining iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sishi va aholining ko'payib borishidir.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonini za-rurligi shundan iboratki ularning mehnat qilish qobiliyat-

larini doimiy ravishda aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga asoslanadi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning asosiy yoʻnalishi yoshlarni bilimiy va malakaviy darajalarini olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan ularning malakalarini oshirish kurslarida qoʻshimcha malakalarini, tadbirkorlik faoliyatlarini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozim. Mehnat qilish qobiliyati insonda gavdalanganligi uchun mehnat qilish qobiliyatiga ega boʻlgan inson mehnat resursini tashkil etadi. Mehnat qilish qobiliyatiga ega boʻlgan aholining maʼlum qismi mehnat resurslarini tashkil etadi. Mehnat resurslari muhim xususiyatlaridan boʻlib insonni mehnat qilish qobiliyatini undan ajratish mumkin emasligi hisoblanadi. Shuning uchun ham inson ijtimoiy va siyosiy hususiyatga ega. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarish ularni toʻla ravishda ish joylari bilan taʼminlash darajasiga bogʻliqligini ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. Ishchi kuchi miqdor va sifat darajalariga ega. Ish kuchini miqdor darajasida oʻsib borishi aholini koʻpayishi bilan bogʻliq.

Aholining koʻpayishi tugʻilmoq va oʻlmoq koʻrsatkichlari oʻrtasidagi koʻrsatkich darajasiga bogʻliq. ish kuchi uning mehnat qilish qobiliyatiga ega boʻlgan ish kuchlarini oʻsib borishi miqdorida belgilansa, uldarning ilmiy va kasbiy malakaviy daprajalari ularni oliy va oʻrta maxsus maʼlumotlarga ega boʻlishlari bilan belgilanadi. Mikro iqtisodiy darajada ishlab chiqarish munosabatlari mikroiqtisodiy subʼektlar darajasida ishlab korxonalarda ichki mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida band boʻlgan mehnat resurslarining roli beqiyos katta.

Yaratilgan ichki mahsulot birinchidan ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashayotgan uch omil xarajatlarini qoplash zarur aks holda ishlab chiqarish jarayonini qayta

takroriy ravishda kengaytirilgan holda olib borib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatni roli erkin raqobat asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda alohida ahamiyatga ega. Inson mehnati uning qobiliyati bozor munosabatlari sharoitida takomillashib rivojlanib borishi bilan u raqobatdosh bo'lishi lozim. Bu holat esa o'z navbatida ishlab chiqarishni innovatsion rivojlanish darajasiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot shu korxonalar jamiyati a'zolari o'rtasida sarf qilingan mehnat darajalariga qarab taqsimlanishi lozim.

Buning uchun har bir ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar mehnat qilish darajalari va olayotgan ish haqlari qidirishda erkinlik berishga, kerak bo'lsa boshqa ish joylari bilan ta'minlovchi iqtisodiy mintaqalarga o'tish va o'zlarini ish sohalari bo'yicha ish joylari bilan ta'minlashga ega bo'lsalar ularga zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish zarur.

Mehnat bozori bilan ishlab chiqarish sub'ektlari ishchilarga to'lanadigan ish haqlarini ob'ektiv qilgan mehnatiga yaroqli bo'lishiga e'tibor berib borishlari zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorini tashkil etish va undan samarali foydalanish uchun doimiy ravishda mehnat bozori ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish kuchiga bo'lgan talablarni o'rganib borishi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur soha ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirib borish asosida ishlab chiqarish bilan ish kuchiga bo'lgan talabni muqobil nisbatiga ega bo'lishni ta'minlash mumkin.

Mehnat bozori quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- ishlab chiqarish korxonalar, firma va boshqa turda-

gi sub'ektlarni ishchi kuchlarini sotib olish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga;

- ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnatni ishlab chiqarish uchun bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini o'zaro bog'lanishni tashkil etishga;

- ishchi kuchlariga bo'lgan talabni erkin ravishda ta'minlashga, ya'ni ularni ishlab chiqarishga jalb etishni erkin raqobat asosida amalga oshirishga;

- ishchi kuchlarining o'zlarini ish sohalariga qarab erkin harakat qilishlariga;

- ishlab chiqarishga nisbatan ortiqcha ish kuchlarini ish joylarini qidirishda erkinlik berishga, kerak bo'lsa ish joylari bilan ta'minlovchi iqtisodiy mintaqalarga o'tish va o'zlarini ish sohalari bo'yicha ish joylari bilan ta'minlashga ega bo'lsalar ularga zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish zarur.

Mehnat bozori bilan ishlab chiqarish sub'ektlari ishchilarga to'lanadigan ish haqlarini ob'ektiv qilgan mehnatiga yaroqli bo'lishiga e'tibor berib borishlari zarur.

Respublikada 1-yanvar 2019-yil ma'lumotiga ko'ra aholining 30,3 foizi mehnatga layoqatli yoshidan kichiklar, 59,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar tashkil etgan. Respublika aholisining tabiiy harakatida 2017-2018 yillarda tug'ilganlar 715,5-768,3 ming kishini tashkil etgan. Aholining ming kishi hisobiga tug'ilishi shu davr ichida 22,1 promillendan 23,3 promillenni tashkil etgan.

Innovatsion ishlab chiqarish darajasini rivojlanishi ish kuchlaridan foydalanish samaradorligini oshira borishini ta'minlash uchun ularni iqtisodiy tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlashni takomillashtirishni va kasbiy malakaviy va oliy darajada bilimlarga ega bo'lmagan ishchilarni

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda qayta o'qitish asosida malakaviy darajalarini oshirish zarur. Mehnat resurslarini ishsizligini aniqlashda ularni ish bilan bandligi va ishsizligini mehnat bozorida ular o'rtasida tashkil topgan nisbat orqali bilish mumkin. Ish kuchlarini bandligi ularga bo'lgan talab va taklifni muvofiqligini ko'rsatadi.

23.2. Mehnat bozori

Mehnati bozori barcha bozor turlari ichida eng asosiy bozor hisoblanadi. Mehnat bozori o'zining maxsus xususiyatlariga ega. Bu bozorda oddiy mehnat ta'sirida yaratilgan tovarlar bilan savdo qilish emas balki iste'mol va ishlab chiqarish vositalarini yaratuvchi inson mehnati bozori ekanligi bilan ajralib turadi.

Mehnati bozorini rivojlanishi bozor talablari asosida uning tashkil topishi insonlarning psixologik qarashlari, ijtimoiy xususiyatlari xamda mehnat qilish faoliyati bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatni motivasiyalashtirish ya'ni uning turli shakllarida bozor talablari asosida rivojlanishi bilan ajralib turadi. Mehnat bozorida inson va uning oila a'zolarini to'liq davr talablari asosida kamolatga yetkazish uchun zarur bo'lgan moddiy omil ish xaqi shakllanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori ko'p qirrali bozor bo'lib, u jamiyatni iqtisodiy – ijtimoiy holatini ifoda etadi. Mehnat bozorida ish beruvchilar bilan ish kuchlarini sotuvchi sub'ektlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar ham tovar va pul shaklida amalga oshiriladi, sababi bozor iqtisodiyoti sharoitida ish kuchi tovar bo'ladi. Bu maxsus tovar, foyda keltiruvchi tovar hisoblanadi, bu tovarning maxsusligi shundan iboratki ish kuchidan uning

mehnat qilish, tadbirkorlik xususiyatlarini ajratib bo'lmaydi.

Ishchi kuchi tovar deganda asosan ishchini mehnat qilish qobiliyati darajasi tushunilishi kerak. Ishchi kuchini mehnat qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa uning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi. Mehnat bozorida ish kuchini ishlab chiqarishning ma'lum yo'nalishlari bo'yicha qo'llash uchun oldi sottisi amalga oshiriladi. Mehnat bozorining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ish kuchi egalari bilan unga talabgor bo'lgan ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasida iqtisodiy munosabat tovar pul shaklida amalga oshirish;

- mehnat bozorida ish kuchiga talab va taklifni shakllantirish;

- mehnat bozorida ish kuchini tanlash va ishga yollanishni tashkil etish;

- ish kuchining harakati erkin harakat bo'lib u istagan soxa va korxonalarida ishlash xususiyatlariga ega bo'lishi;

- mehnat bozorini maxsus yo'nalishlarga qarab uning kasbiy malakaviy mahoratlaridan kelib chiqqan xolda shakllantirish;

- mehnat bozori ish kuchi mehnatiga to'lanadigan ish xaqini belgilashni ta'minlaydi;

- mehnat bozori real iqtisodiy rivojlanish muhitlarini e'tiborga olgan xolda ish kuchi mehnat bozorini shakllantirishni ta'minlaydi.

Mehnat bozorining xususiyatlari quyidagilarda ifodalangani:

- ish kuchlarini sotuvchi sub'ektlar bilan uni xarid qiluvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi;

- mehnat bozorida ish kuchi uchun uning mehnat qil-

ishiga zarur bo'lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy muhitni yaratish ahamiyatiga egaligi;

- mehnat bozori mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi;

- mehnat bozori doimiy ravishda davlat va uning turli institutlari, kasaba ittifoqlari ta'sirida bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning asosiy siyosatlaridan biri ishsizlikka qarshi kurash darajasini oshirish yo'lida mehnat bozorini tartiblashdan iboratdir. Agarda 2007-yilda mehnat resurslari soni 15219,6 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa respublikada 2014-2017-yillar ichida mehnat resurslari 18048,0 mingdan 18666,3 mingga yoki 3,4 foizga ko'paygan, iqtisodiy faollar soni shu davrda 13505,4 mingdan 14357,3 mingga yoki 4,1 foizga ko'paygan. Faol bo'lmagan mehnat resurslari 4542,6 mingdan 4309,0 mingga kamaygan yoki 5,2 foizga kamaygan. Mehnat resurslarini shaharlardagi nisbati 2014-2017-yillar ichida 53,6 foizdan 51,3 foizga kamaygan. Qishloq joylarida esa bu ko'rsatkich 46,4 foizga ko'paygan xolos.

Umumiy ishga joylashganlarning 52 foizi 16-30 yoshdagilar tashkil etgan. Ish bilan ta'minlanganlarning 54,2 foizi erkaklar, 45,8 ayollar esa 45,8 foizni tashkil etgan. Mehnat bozori mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir etadi. Mehnat bozorining talab darajasida ishlashi mamlakat barqarorligini asosidir. Shuning uchun ham har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy holatdan kelib chiqqan xolda mehnat bozorini rivojlantirish uni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqadi.

2014-2017-yillar ichida ishsizlar soni 687,0 ming kishidan 469,9 mingga kamaygan. 2015-2017-yillar ichida

ishlaydiganlar soni 13520,3 mingni yoki 73,5 foizni tashkil etdi. Mehnat bozorini tashkil etish va uni boshqarish dasturi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- bandlik darajasini oshirishni rag'batlantirish;
- mehnat xodimlarni malakalarini oshirish va qayta tayyorlash asosida kaspiy mahoratlarini oshirish;
- ish kuchlarini ishlab chiqarishga joylashtirishni ta'minlash;
- ish bilan ta'minlanmagan ishlashni xoxlovchilarni ishga joylashtirish;
- ish bilan ta'minlanmagan mehnat qilishga layoqati bo'lgan shaxslarni ijt'imoiy ximoya qilishni ta'minlash.


Shu bilan birga davlat qo'shimcha ravishda qiyosiy usullar orqali mehnat bozorini rivojlantirish uchun chora va tadbirlar ko'radi. Jumladan, mamlakatdagi iqtisodiy holatini, biznesni rivojlantirish chora tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlashda pul-kredit va soliq undirish tizimlari orqali tartiblash asosida ishsizlik darajasini kamaytirish va ularga bo'lgan talab va takliflarni muvofiqlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni bo'lishiga erishadi. Erkinlashtirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti turli mulkchilik shakllariga asoslangan ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasidagi raqobat asosida mehnat bozori shakllanadi. Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z ish kuchini sotuvchi va uni xarid qilib oluvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar erkin ravishda ikkala sub'ektning kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Erkin raqobatga asoslangan mehnat bozori quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- ish kuchini yollash ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasidagi erkin raqobatga asoslanadi;

- ish kuchini mehnat bozoriga taklif qiluvchilarning asosiy qismi malakasiz va mutaxassis sub'ektlar tashkil etadi;

- ishlab chiqarish sub'ektlaridagi mehnat qilish sharoitlarini deyarlik birday bo'lishi ish kuchiga bo'lgan tovar-pul munosabatlarini tengligiga va uni ish xaqiga ta'sir qilmasligida ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish kuchiga bo'lgan talab bilan taklif o'rtasidagi muvozanat ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Ish kuchlariga bo'lgan talab va taklif muvofiqligi iqtisodiy rivojlanishning hamma tarmoqlarini qamrab olishi kerak, shundagina iqtisodiyot inqirozsiz barqaror rivojlanadi. Ish kuchiga bo'lgan talab ishlab chiqarish jarayonini va uning turlarini o'sib borishiga bog'liq. Demak ish kuchiga talab moddiy va nomoddiy tarmoqlarni rivojlanish darajasiga bog'liq ekan, ish kuchini yollovchi tadbirkor sub'ekt uni ishga jalb qilishi unga qanday foyda keltirishini va uning qiymatini qoplab olishini bilishi zarur. Shunga qarab ish kuchiga talab va taklif (23.1-rasm) shakllanadi.



23.1-rasm. Mehnat bozorida keysanchilik modeli

Tadbirkor iste'mol tovarlari bozori samaradorligidan kelib chiqqan holda zarur bo'lgan ishchi kuchlarini (Uk_0) nominal (Ux_0) kelib chiqqan holda olinadigan foydani belgilagan. Agarda ish xaqi (Ux_2) ishchi kuchiga bo'lgan (Ux_0) ga tenglashadi. Sababi ishlab chiqarish xarajatlarini o'sishi hisoblanadi. Bu holatda tadbirkorlarni ishchi kuchiga bo'lgan talab qisqaradi va (Uk_0) teng bo'ladi. Natijada ishlab chiqarish jarayoninikengaytirilgan holda olib borish ta'minlanmaydi. Ishchi kuchiga ish xaqi to'lovlari minimal darajada bo'lganda (Ux_0) ishchi kuchi talab (Ux_2) oshadi. Bu sharoitda mehnat bozorida barqarorlik uzoq muddatda bo'ladi va ish xaqini past darajada bo'lish ko'proq ishchi kuchini jalb qilish evaziga tadbirkor foyda oladi. Iste'molchilarni esa iste'mol tovarlarini iste'mol qilish darajasi pasayadi, tadbirkorlar esa iste'mol tovarlarini iste'mol bozorida o'tmasligi tufayli ishlab chiqarish jarayonini qisqartiradilar. Buning natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabni qisqarishi talab va taklif o'rtasidagi nisbatni buzilishiga olib keladi. Dj.M.Keyns nazariyasiga asosan talab va taklif muvofiqligi (23.1-rasm)da ish xaqi (Ux_1) bilan (Uk_1) to'qnashgan (YE) nuqtasi talab va taklifni o'zaro muvofiqligini ko'rsatadi.

Ish xaqini o'sishi ish kuchiga bo'lgan talabni kamaytiradi. Ish kuchiga bo'lgan talab iqtisodiy rivojlanishning tsiklik bosqichlariga, fan va texnika taraqqiyotida foydalanish darajasiga va iqtisodiy mintaqalarda mehnat bozorlarini xususiyatlariga bog'liq. Ish kuchini mehnat bozorida taklif qilishga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- iqtisodiy mintaqalarning demografik jarayonlari, ishlab chiqarishda qatnasha oladigan mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar;

- ayollarning tadbirkorlik faoliyatlarida ularning faolligini o'sib borishi;
- aholining malakaviy va kasbiy mahorat darajalarini oshib borishi;
- aholining migratsiya jarayonlari darajasi;
- ish xaqLARining o'sib borishi va mehnat sharoitlari darajalariga ham bog'liq.

Ish kuchini ishlab chiqarish jarayonida bandlik davrida ishlab chiqargan mahsuloti uning pulda ifodalangan qiymati ish o'rnini egallash samaradorligini bildiradi. Demak ish vaqtidan unumli foydalanish zarur. Foyda samaradorligi esa ishlab chiqarishda band bo'lgan ish kuchini ma'lum ishlab chiqarish darajasiga erishgandan keyingi vaqtlar ichida u foyda (daromad) keltiradi.

Foydani o'sishi ishlab chiqarishda bandlik vaqtini qisqartirishda ifodalangan xolda ish xaqi darajasini kamayishiga ta'sir etmaydi. Foyda samaradorligi odatda mehnat tejamliligini ifodalaydi. U ishlab chiqarish vaqtiga nisbatan bo'sh vaqtini ko'payishiga ifodalanadi.

Tarmoq darajasida esa foydani o'sishi ishlab chiqarishda band bo'lgan ish kuchlarini qisqartirishiga olib kelishi mumkin.

Mehnat bozorida ish kuchiga talab va taklif doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Mehnat bozorini o'rganishda mehnat bozori modellarini o'rganish zarur.

Mehnat bozori modellarini quyidagi turlari mavjud:

- erkin raqobatga asoslangan mehnat bozori. Bu yerda ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasida ish kuchiga bo'lgan talablarini qondirish erkin raqobat asosida amalga oshiriladi;
- monopsoniya mehnat bozori. Bu mehnat bozori

takomillashmagan bozor bo'lib, unda yagona monopsoniya monopoliya sub'ekti tomonidan ish kuchi mehnati xarid qilinadi. Monopsoniya mehnat bozorining asosiy xususiyatlari ma'lum bir yo'nalishda ish kuchlarini asosiy bandligi tashkil etadi. U mehnat turiga nisbatan alternativ mehnat deyarlik bo'lmaydi. Bunday mehnat qiyinchiligidir. Jumladan qishloq joylarida dehqon yoki chorvador mehnati yoki duradgor mehnati va boshqalar;

- monopoliya mehnat bozorida ish kuchini xarid qilish bir necha turli yo'nalishdagi firmalar tomonidan amalga oshiriladi;

- oligopoliya mehnat bozorida odatda bir necha monopoliyalar ish kuchlarini ishga yollash bilan shug'ullanadilar;

- sof oligopoliya mehnat bozorida yirik monopoliyalar ish kuchi xaridorlari bo'ladi.

Mehnat bozorida kasaba uyushmalarining roli katta. Ishlab chiqarishda band bo'lgan tadbirkorni ish kuchini mehnat qilish qobiliyati uning kuchi mehnati asosida yaratiladigan yangi qiymat ham qiziqtiradi.

Xulosa qilib aytish mumkin ish kuchiga bo'lgan talabning o'sishi ish xaqiga nisbatan teskari proporsional nisbatda bo'ladi. Ish beruvchi tadbirkor ish xaqini kamaytirishga intilsa ishlovchi ishchi kuchi ish xaqini oshirishga intiladi. Ular o'rtasidagi munosabatni faqat kasaba ittifoqi yordamida muvofiqlashtirish mumkin.

23.3. Nufus qonuni. Ishchi kuchlaridan foydalanishni tartibga soluvchi nazariyalar

Milliy iqtisodiyotni nazariy-amaliy jihatdan tartibga solishda asosiy muammolardan biri ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etishda

xorijiy iqtisodchilar fikricha davlat bilan bozor o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish hisoblanadi. Birinchi marotaba davlat bilan bozor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda ingliz iqtisodchisi A.Smit tomonidan o'rganilgan. Uning fikricha shaxsiy va ijtimoiy manfaatdorlikni ta'minlash mumkin qachonki davlat tomonidan aralashuv bo'lmasa degan. Uning fikricha bozor "ko'zga ko'rinmaydigan qo'llar" tomonidan tartibga solinadi deb hisoblagan.

A.Smit fikricha har bir inson o'zining kapitalidan foydalanishda u ishlab chiqargan tovari iste'mol bozorida yuqori foyda keltirsin bu foyda ijtimoiy manfaatni emas balki yakka tartibdagi mulkdor manfaatini manfaatdorligini ta'minlaydi. Adam Smit fiziokratlar nazariyasiga nisbatan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatni iqtisodiy xayotini boshqarishni eng yaxshi usuli deb hisoblagan. U quyidagi shartlarni asoslab bergan:

- ishchi kuchi foydalanishni cheklanmasligi;
- erkin yerlarni sotilishi;
- davlat tomonidan sanoat ishlab chiqarishga va ichki erkin savdoga to'sqinlik qilmaslik;
- erkin tashqi savdoni olib borishga.

Adam Smit fikri bo'yicha bu ko'riladigan iqtisodiy choralar xususiy manfaatdorlik bilan ijtimoiy manfaatdorligini ta'minlaydi deb hisoblagan. Bu nazariya asosida Adam Smit hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasiga asoslangan erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti modeliga asos solgan. Ishchi kuchlarini bandlik nazariyasiga asos solgan iqtisodchisi Dj.M.Keyns hisoblanadi uning fikricha erkin bozor raqobat tartibiga solaolmaydi va erkin raqobatga asoslangan bozor to'liq ishchi kuchlarini bandligini ta'minlay olmaydi.

Sinfiy siyosiy iqtisod vakillarini ximoya qiluvchi no-

sinfiy oqim vakillari fikricha “ma’lum darajada ishsizlar bo’lishi” zarur bo’lishi ldozim va ulardan qutilish qiyn deb hisoblaydilar. Mehnatga bo’lgan talab ularni ishga jalb qiluvchi tadbirkorlarning ish xaqlari to’lash qobiliyatlariga bog’liq. Ish kuchlavrini ishlab chiqarishga jalb etishda tadbirkorlar iloji boricha kam ishchi kuchlarini jalb qilishga va ish xaqlarini past darajada to’lashdan manfaatdorlar.ish xaqi to’lovini oshirish esa kam ishchi kuchlarini mehnat unumdorligini oshirish hisobiga ish xaqini oshirishdan manfaatdor bo’ladilar. Ish kuchlarini jalb etishda makroiqtisodiy omillarga ham bog’liq. Ishchi kuchiga talab ishlab chiqarish jarayonini innovatsion rivojlanish darajasiga bog’liq. Birinchi marotaba makroiqtisodiy daromad fan va texnika taraqqiyotini ishchi kuchlarini jalb etishga ilmiy texnika taraqqiyotini ingliz iqtisodchisi R.Xarrod asoslab bergan. Uning fikricha ilmiy-texnika taraqqiyoti jonli mehnatni tejashni ta’minlaydi. Shu bilan birga ilmiy-texnika taraqqiyoti buyumlashgan mehnatni ham tejashni ta’minlaydi. Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish usullaridan biri ilmiy-texnika taraqqiyotidan foydalanish asosida jonli mehnatni tejash mumkin.

Ingliz ruxoniysi Maltus o’zining xalqini ko’payib borishi Nufus (qonuni) muallifi bo’lib bu qonunga asosan iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish arifmetik (1,2,3,4,5) progressda o’sib boradi, aholining o’sib borishi esa geometrik (2,4,8,16,32) progressda o’sib boradi degan. Maltus ishsizlikni asosiy sababi qilib aholining geometrik progressda qo’yishidir deb hisoblagan holda aholini ko’payib borishini tabiiy ravishda urushlar, turli kasalliklar va tabiiy ofatlar asosida kamaytirishni taklif etadi.

Sinfiy siyosiy iqtisod esa bozor iqtisodiyotini o’zi ishchi kuchiga bo’lgan talabni tartibga soladi. Ishchi kuchla-

rini hohlovchilar kichik oylik maoshlarida ishlashni hohlamasalar yuqori oylik ish xaqini to'lash ish joylarini topguncha ishsiz bo'ladilar deb hisoblaydilar.

Marksizm nazariyotchilari esa ishchilarni ishsiz bo'lishini kapitalizmni ichki holatiga bog'liq deb hisoblaydilar. Uning asosiy sababi qilib kapitalni doimiy kapitalni o'sib borishi o'zgaruvchi kapitalni esa kamayib borishida (S-doimiy kapital, V-o'zgaruvchan kapital) organik tuzilishidagi o'zgarishlar bilan bog'laydilar. Ishsizlik asosan joriy, turg'un va yashirin (qishloq xo'jaligida) bo'ladi deb hisoblaydilar uni o'zgartirish uchun yangi iqtisodiy-ijtimoiy tuzim zarur deb hisoblaydilar.

23.4. Ishsizlik va uning turlari, iqtisodiy oqibatlari

Ish bilan bandlikni ta'minlash makroiqtisodiy holatni tavsiflashni asosiy iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Mehnatga yaroqli mehnat resurslari o'zlarining mehnat qilish qobiliyatlariga qarab ish joylari bilan ta'minlanishi zarur. Ammo mehnat resurslarini ma'lum qismi ish joylari bilan ta'minlanmasligi natijasida ular ishsizlar guruhini tashkil etadilar. Ish joylari bilan ta'minlangan mehnat resurslari iqtisodiy mehnat resurslarini tashkil etadilar. Ish bilan ta'minlangan va ta'minlanmaganlar umumiy mehnat resurslarini tashkil etadilar. Davlat hamma mehnat resurslarini ish joylari bilan ta'minlay olmaydi. Ammo ularni ish joylari bilan ta'minlashga davlat kerak bo'lgan chora va tadbirlarni ko'radi. Mehnat resurslarini to'liq ravishda ish joylari bilan davlat tomonidan ta'minlanmasligi sabablari: birinchidan aholining yashab turgan joylarini o'zgartirib turishlari natijasida hosil bo'ladigan ishsizlik shakliga

friktsion ishsizlik deb aytiladi. Ikkinchidan ishlab chiqarish tarkibida bo'ladigan texnologik o'zgarishlar oqibatida ishchi kuchlariga bo'lgan talabning o'zgarishiga tarkibiy ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Tarkibiy ishsizlik – ishlab chiqarish tarkiblarini o'zgarib turishi bilan bog'liq bo'lib u mamlakatning iqtisodiy siyosati asosida o'zgarib turishi tarkibiy ishsizlikni kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy inqirozlar yoki iqtisodiy inflyatsiya davrlarida siklik holatdagi ishsizlik iqtisodiy o'sishni pasayishi va turg'unlik holatida yuz beradi.

Ishchi kuchlarini to'liq bandligi tsiklik ishsizlik bo'lma-gan holatda ifodalanadi. Shu bilan birga “to'la bandlik” ishsizlikni yo'q ekanligini ifodalamaydi. Ishsizlik darajasi to'liq ish bilan mehnat resurslari ta'minlangan holatda “tabiiy ishsizlik darajasi” deb ataladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga yaroqli aholini ish joylari bilan ta'minlash, ishsizlikni olidini olish, mehnat bozorini tartibga solish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi. Bugungi kunda respublikda ishchi kuchining ortiqchaligi mavjud va mehnat bozorida ishchi kuchini taklif qilish darajasi yuqori.

Ishlashni hohlovchilarga mehnat bozorida erkni harakat qilishlari, turli mehnat qilish rejimi bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tanlashlari ishga qabul qilish, uni qonunga hilof ravishda bekor qilish, hohlagan ishga joylashish, kasb o'rganish, malakalarini oshirish bepul tashkil etish, mahalliy mehnat tashkilotlari yo'llanmasi bilan stipendiya olish asosida amalga oshirilishi boshqa joyga ishga qabul qilinganda sarf qilingan harajatlarni kompensasiya qilish davlat tomonidan kafolat beriladi.

Respublikada mehnatga layoqatli aholining bandiligini ta'minlash tizimi ishlab chiqilgan.

Bu tizim o'z ichiga quyidagilarni oladi.

1. Mehnat qonunchiligi, bandlikka ko'maklashishi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari.

2. Ijtimoiy himoya qilish (eng kam ish haqini belgilash, ish joylarini kvotalash, ishsizlarga nafaqa to'lash).

3. Kasbga yo'naltirish kasbiy tayyorgarlik malaka oshirish, qayta tayyorlash tizimi.

4. Yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlash.

Aholini bandligini ta'minlashning yaxlit tizimini amalga oshirishda mehnat qonuni bozor talablari asosida takomillashtirib bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyati kuchaytirilmoqda Yangi ish joylarini yaratayotgan, ish beruvchilar rag'batlantirilmoqda, ularga soliq va kredit imtiyozlari berilmoqda. Ish kuchini sifatini oshirish hisobiga ularni raqobatdoshligini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish asosida amalga oshirilmoqda. Ish joylari bilan ta'minlashning samarali vositasi bo'lgan kichik biznes, xususiyy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va servis soxasi rivojlantirilmoqda, ijtimoiy himoyalashga muxtoj bo'lgan aholiga ish o'rinlariga kvotalash tartibi o'rnatildi. Ishsizlik darajasini aniqlash uchun mamlakatning barcha aholisi uch guruhga bo'linadi:

1. 16 yoshga to'lmagan yoshlar, ruxiy kasalxona va ahl-oq tuzatish kolonniyalarida yashayotganlar;

2. Nafaqaxo'rlar, talabalar, uy bekalari qandaydir sabablarga ko'ra ishlamayotganlar va ish qidirayotganlar;

3. Ish kuchi.

Ishsizlik darajasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_d = I_{sh} / Ish_k \times 100 \% \quad (23.1)$$

Bunda: I_d – ishsizlik darajasi;
 I_{sh} – ishsizlar soni;
 Ish_k – ish kuchi.

Ishsizlik hozirgi kunda jamiyatimizning eng markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki u, birinchidan, resurslardan to'liq foydalanilmayotganlikdan va aholi daromadining talab darajada emasligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, mamlakat yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganlikdan dalolat beradi. Bular o'z navbatida ma'lum salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Ulardan birinchisi ijtimoiy sohada kuza-tiladi. Bu oilaviy munosabatlarda vaziyatning keskinlashuvi va jamiyat miqyosida noroziliklarning ko'payishiga olib keladi.

Ishsizlik darajasi ishsizlikni tashkil etuvchilar sonini ishlab chiqarishda band bo'lganlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$ishsizlik\ darajasi = \frac{\text{ishsizlar soni}}{\text{ishchi kuchlari soni}} * 100\%$$

Ishsizlikni iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishda quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- ijtimoiy yalpi ichki mahsulotni (YaMM) ishlab chiqarishni o'sish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ishsizlik xarajatlarini qoplashdagi nisbatlarni o'zgarishiga olib keladi;
- ishsiz ishchilarning malakaviy darajalarini sifatini pasayishiga olib keladi. Muvozanatsizlikning sabablaridan biri ishsizlik hisoblanadi. Ishsizlik bu mehnatga layoqatli aholining ba'zi sabablarga ko'ra beish yurishi hisoblanadi. O'qish bilan band bo'lgan talabalar, nafaqalar, uy bekalari,

to'liq bo'lmagan ish kuni bilan ishlayotganlar, ishsizlar soniga qo'shilmaydi.

Respublikada ishsizlikni oldini olish va bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlash uchun kompleks tadbirlar ishlab chiqilib hayotga qo'llanilmoqda. Jumladan, tovarlarga, xizmatlarga, tariflarga chakana bahoning ko'tarilishiga muvofiq aholi daromadlarini indeksasiyalash tizimi tashkil etilib, yashash qiymatini eng kam miqdori aniqlanib, davlat tomonidan ish haqining eng quyi miqdori belgilab berilmoqda. Ayrim oziq-ovqat mol-lari davlat tomonidan dotatsiya mablag'laribilan chakana baholar nisbiy arzon darajada ushlab turilibdi. Tashkil etilgan mehnat birjalarida ishsizlarni ro'yxatga olish ularni ikkinchi mutaxassislikka o'qitish va ishsizlik nafaqalari berish tashkil etilgan. Bu olib borilayotgan tadbirlar ma'lum darajada ishsizlik muammolarini hal etishini yengillashtiradi.

Ishsizlikning salbiy oqibatlaridan biri uning YaMM hajmiga ta'sir o'tkazishi hisoblanadi. Ishsizlikning haqiqiy darajasi 1 % ga oshganda YaMM ning hajmi 2,5% ga tushadi. Ishsizlik darajasi bilan YaMM o'rtasidagi bunday teskari bog'liqlikni Amerikalik iqtisodchi A.Ouken tahlil qilgan, shuning uchun bu bog'liqlik A.Ouken qonuni deyiladi. Ishsizlikni o'sishidan jamiyat juda katta iqtisodiy talofat ko'radi.

23.5. Yalpi ish kuchi, uning bandligi

Yalpi ish kuchining iqtisodiy – ijtimoiy mazmuni.

Mehnat iqtisodiy kategoriya bo'lib iqtisodiy nazariya fanning murakkab masalalridan biri hisoblanadi.

O'z vaqtida ingliz iqtisodchisi David Rikardo "oddiy ish haqi xajmi ikki tomondan tuzilgan bitimga bog'liq. Ishchi

ko'proq olishni hohlasa, egalari iloji boricha kam berishga intiladi. Birinchisi ish haqini ko'tarish uchun kelishuvga harakat qilsa, egalari esa uni pasaytirishga intiladi."

Mehnat bozorini tahlil qilishda nazariy maktab vakillari tanglik qilib tadbirkorlikni rivojlanishi yoki ijtimoiy haqiqatni oladilar.

Mehnat to'g'risidagi qarashlarga Amerikalik D.B.Klark mehnat nazariyasi to'g'risida nosiniy (neoklassik) maktabiga asos solgan. D.B.Klark mehnatni kompleks holatda tahlil qilmasdan u asosan mehnat taqsimotini o'rgangan.

D.B. Klark o'zining "Boylik falsafasi" 1886 yilda "Boylik taqsimoti" 1888 yilda asarlarida asosan daromad taqsimotini, mahsulotda har bir omilni hissani belgilash tangliklarini aniqlash ishchini mehnati mahsulotini olmasligi, bir qismini foyda tariqasida berishi, bu holat har bir sog'lom fikrlovchi inson sotsialist bo'lar edi" deb yozadi.

Nosiniy mehnat nazariyasi ishlab chiqarish jarayonini birlashtiruvchi va bir paytda mehnat, kapital, yer tadbirkorlik qobiliyatini ishlab chiqarish omillari sifatida faoliyat qiladi deb hisoblagan. Hozirgi zamon iqtisodchilari mehnat bozori kontseptsiyasida firmalar manfaatdorligidan kelib chiqqan holda o'zlarining qarashlarini ifoda etadilar.

23.6. Ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i


«Bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlarining ikkinchi bosqichining eng asosiy vazifasi har bir kishi mehnatining qadrini oshirish, ish shaklini tanlashda erkin bo'lishi huquqiy ta'minlanishi, mehnat qilish huquqi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyati hamda o'z mehnatidan daromad olish huquqiy mehnatiga yaroqli aholining ish

bilan bandlik muammosini hal etish», – zarur degan edi I. Karimov¹.

50–yillardagi tadqiqotlar natijasida ishsizlik va inflyatsiya o‘rtasida teskari bog‘liqlik borligi aniqlandi. Bunday teskari bog‘liqlarning sababi mehnat bozorining muvozanatsiz holda ekanligidir.

Birinchidan jamiyat a‘zolari to‘liq band bo‘lgan holda ham ba‘zi bir tarmoqlarda mehnatga bo‘lgan talabning yuqori bo‘lishi ish haqining oshishi natijasida harajatlarning va bahoning oshishi mumkin. Ikkinchidan, aholi to‘liq bandlilik darajasiga yaqinlashgan sari kasaba ittifoqlari ish haqini oshirishni talab etadilar. Tadbirkorlarga esa malakali ish kuchini yonlash tobora og‘irlashib boradi. Shuning uchun, firmalarga ish tashlash qimmatga tushishi sababli, kasaba ittifoqlarning talabiga yon bosadi, ish haqining oshishi natijasida xarajatlar ham oshganligi tufayli, bu xarajatlarni bahoni oshirish hisobiga qoplanadi.

Lekin, 70–yillardan boshlab ishsizlik bilan inflyatsiya mos ravishda osha boshladi, ya‘ni stageinflyatsiya holati yuz beradi (23.2-rasm).



23.2-rasm. *Filips egri chizig‘i*

¹ I.Karimov O‘zbekiston – buyuk kelajak sari. Toshkent, «O‘zbekiston», 1998 y. 403 bet.

Respublikada antimopol qonuni ishlayotganligini quyidagicha tushuntirish mumkin. 2011-yilda Respublikada yalpi ichki mahsulotning 82,5 foizi nodavlat 17,5 foizi davlat sektoriga to'g'ri kelgan. Kichik biznes (tadbirkorlari) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning yalpi ichki mahsulotdagi xissasi 2018 yilda 59,4 foizni tashkil etgan.

Qolgan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish tarmoqlarida 21,0 foizni, qurilish ishlarida 69,0 foizni, chakana savdo aylanmasida 47,0 foizni va aholiga pullik xizmat kshrsatish 46,4 foizni tashkil etgan

Haqiqatan ham Respublikamizda antimonopol qonun ishlab turayotganligini ko'rish mumkin. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotning yalpi ichki mahsulotida fermer xo'jaliklarining xissasi 2010-yilda 35,0 foizni, 2011-yilda 34,1 foizni, dexqon xo'jaliklarida bu ko'rsatkich 62,9: 63,7 foizni, qishloq xo'jaligi korxonalarida 2,1; 2,2 foizni tashkil etgan. Respublikada ish bilan ta'minlashga muxtoj bo'lgan aholining asosiy qismi mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qiladi. Ularning hissasi 2007-2011-yillar ichida 4.7 foizdan 2.3 foizga kamaydi. Respublikada umumiy ishsizlik darajasi 2011-yilda 5.0 foizni tashkil etgan. Ishga joylashtirish bo'yicha bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muxofaza qilish markazlariga murojaat qilganliklar 85.8 foizi ish bilan ta'minlanganlar.

Shu davrda OPEK davlatlarida neftning bahosi to'rt marta oshgan, natijada harajatlar oshgan, qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari kamaygan. Shuning uchun, ishchilar ish haqini oshirishni va baholarning oshishi natijasida ko'rilgan zararni qoplashni talab etdilar.

Oddiy keynsian modeliga asosan bandlik darajasi va ishlab chiqarish hajmi shuni ko'rsatadiki iqtisodiyotda

inflyatsiya yoki ishsizlik yuzaga keladi, ikkalasi birdaniga yuzaga kelmaydi.

Testlar

1. Adam Smitniish kuchidan foydalanish nazariyasi mohtiyati nimada?
2. Sinfyiy siyosiy iqtisod vakillarining nazariyasi nimaga asoslanadi?
3. Ingliz iqtisodchisi R.Xarrod nazariyasi nimaga asoslandi?
4. Maltus nufusli nazariyasi mazmuni nimada?
5. Marksizm nazariyasi nimaga asoslanadi?
6. D.M.Keyns nazariyasi mazmuni nimadan iborat?

24-bob. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT

Tayanch soʻzlar: moliya, moliyaviy munosabatlar, davlat byudjeti, jamoatchilik fondlari, sugʻurta fondlari, davlat valyuta zahiralari, firma va tashkilotlarning pul fondlari, taqsimlash, ragʻbatlantirish, nazorat qilish, ijtimoiy ximoyalash, makromoliya, mikromoliya, oddiy aktsiya, imtiyozli aktsiya, broker, diller, byudjet xarajatlari, byudjet daromadlari, byudjet kamomadi, davlat qarzi.

24.1. Moliyaning mazmuni va ahamiyati

Moliya pul munosabatlarining asosiy qismi boʻlib ishlab chiqarish korxonasi va firmalarini iqtisodiy jihatdan davlat bilan huquqiy subʻektlari va ularni oʻzaro bogʻliqligini taʼminlaydi. Moliya fondi pul jamgʻarmalari asosida tashkil topishi har bir bozor iqtisodiyoti qatnashayotgan subʻektlarda boʻlishi kerak. Pul fondlarini shakllanishi asosida tashkil topgan munosabatlarga moliyaviy munosabiyatlar deb aytiladi. Moliyaviy munosabatlar turli koʻrinishda boʻlishi mumkin. Chunki bozor sharoitida qatnashuvchi subʻektlarga moliya mablagʻlari kerak. Bozor subʻektlari boʻlgan korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi yuqori boʻlsa, ularning foyda va daromad olishning yillik darajalari oʻsib borsa davlat moliyaviy koʻrsatkichi oʻsib boradi. Natijada davlat byudjetining iqtisodiy shakllanish darajasi yuqori boʻladi. moliyaviy mablagʻlar darajasi korxonalarda olingan foyda, daromad hisobiga oʻsib borsa, davlat byudjeti asosan bozor iqtisodiyoti subʻektlari tomonidan olingan foydadan ajratiladigan foyda soligʻi darajasiga bogʻliq. Moliyani shakllanishi davlat tomonidan olib boriladigan

moliyaviy siyosatga bog'liq. Moliyaviy siyosat iqtisodiy inqirozlar davrida iqtisodiyotni iqtisodiy inqiroz holatidan muqobil rivojlanishiga o'tish davrida ham o'zgarib boradi.

Moliya tarixiy tasnifga ega bo'lgan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U bozor munosabatlari sharoitida davlatning vazifalari va ehtiyojlarini rivojlantirib borishi ta'siri ostida vujudga keladi. Moliya atamasi lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, to'lov daromad ma'nosini anglatadi. Moliya – pul mablag'lari fondlarini, moliyaviy kreditlarni taqsimlash va ulardan foydalanish xususiyati vujudga keladigan munosabatlar tizimidir. Maxsus fondlar orqali harakat qiluvchi pul munosabatlari moliya munosabatlarini tashkil etadi. Moliya munosabatlari pul munosabatlarining bir qismi bo'lib, davlat byudjeti, jamotatchilik fondlari, sug'urta fondlari, davlat valyuta rezervlari, firmalar, tashkilotlar va shunga o'xshash sub'ektlarning pul fondlari va boshqa maxsus fondlar moliya tizimining asosiy bo'g'inlarini tashkil etadi. Xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ya'ni takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan pul zahiralari jamg'armalarini hosil qilish va ulardan foydalanish tizimi mamlakat moliyasini tashkil etadi.

Xullas, moliyaviy munosabatlar deyilganda, pul mablag'lari jamg'armalarining harakati tufyli davlat, korxonalar va tashkilotlar, hududlar va alohida fuqarolar o'rtasida vujudga keluvchi barcha iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Moliya davlatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy munosabatlarni quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

- davlat bilan korxonalar o'rtasida munosabatlar;
- boshqaruvning turli darajasidagi davlat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar;

- davlat bilan uyushmalar, jamot tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar;
- davlat bilan aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlar;
- korxonalar ichidagi, bo'limlararo va ishchilar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari.

Barcha pul munosabatlari ham moliyaviy munosabatlar bo'la olmaydi. Shaxsiy iste'molga va ayirboshlashga, chakana sotuvga, transportga, maishiy, kommunal xizmatlariga, tomoshaxonalar va boshqalarga to'lov uchun, shuningdek, jamiyatning ayrim a'zolari o'rtasidagi oldi-sotdi muomalasi, pul tortiq etish va meros qilib olish uchun xizmat qiladigan pul mablag'lari moliyaviy munosabatlarga kirmaydi.

Davlat bilan aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar, avvalo, davlat tomonidan turli ijtimoiy iste'mol darajalarini qondirish xarajatlaridan turli to'lovlar, nafaqalar va imtiyozlar olish munosabati bilan yuzaga keladi. Ta'limga, davolashga, aholiga tekin yoki arzonlashtirilgan holda beriladigan buyumlarga qilinadigan chiqimlarni qoplashga ajratiladigan mablag'lar davlat tomonidan turli ijtimoiy himoyalash darajalarini qondirish harajatlariga kiradi. Moliyaviy munosabatlar aholi soliqlarini hamda aholining zayomlar, lotereyalar ko'rinishida davlatga beriladigan qarzlarni, banklarga omonat tarzda qo'ygan vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni ham o'z ichiga oladi. Davlat o'z navbatida uy-joy qurish, qimmatbaho tovarlarni sotib olish va boshqa maqsadlar uchun aholiga kredit beradi. Davlat moliyasi moliya tizimining asosini tashkil etadi. Uning asosiy bo'g'ini esa davlat byudjetidir. Davlat moliya tizimi yordamida yalpi milliy mahsulotni taqsimlaydi

va qayta taqsimlashni amalga oshiradi. Moliya tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– davlat faoliyatining moddiy asoslarini yaratish;

– davlat yalpi milliy mahsulotlarining bir qismini pul ko‘rinishida o‘z qo‘lida jamlaydi va moliya tizimi yordamida uni qaytadan taqsimlaydi. Umuman olganda, moliyaning vazifalari uch guruhga bo‘linadi.

Moliya iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy sohalarini rivojlantirishni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlaydi va ularga xizmat ko‘rsatadi.


1. Taqsimlash – bunda moliya vositasida jamiyatda yaratilgan yalpi milliy mahsulot va uning asosiy qismi bo‘lmish milliy daromad xo‘jalik sub‘ektlari o‘rtasida taqsimlanib, pul fondlariga aylantiriladi.

2. Rag‘batlantirish – moliya o‘z vositalari orqali xo‘jalik sub‘ektlarining iqtisodiy faollikka undaydi. Bunda moliya vositalari bo‘lib, moliya tizimida ishlatiladigan soliqlar, to‘lovlar, subsidiyalar va subvensiyalar hisoblanadi.

3. Ijtimoiy himoyalash – bu jamiyat a‘zolari ma‘lum qatlamlarining minimal tirikchilik yuritishni moliyaviy jihatdan ta‘minlash, ya‘ni moliyaviy kafolatlardan iborat. Davlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatishni nazorat qiladi, ya‘ni moliya tizimi yordamida davlat turli soliqlar va daromadlarni byudjetga yig‘ish, ular o‘rtasida belgilangan nisbatlarga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatadi. Moliya tizimi xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning moliyaviy faoliyati, jamiyat iqtisodiy faoliyatining yakunlari xususida axborot berish, aholining kam ta‘minlangan qismini ijtimoiy himoyalashni mablag‘ bilan ta‘minlash vazifalarini ham bajaradi.

4. Nazorat qismi vazifasi – moliyaviy mablag'lardan to'g'ri berilgan yo'nalishlar bo'yicha foydalanishni ta'minlaydi. Turli xarajatlar, foyda, ish haqi, soliqlar, qarz to'lovlari, sug'urta haqi, boj to'lovlari va shunga o'xshash boshqa to'lov va ajratmalar moliyaviy vositalar hisoblanadi. Ular asosida moliyaviy zahiralar, ya'ni turli pul fondlari shakllanadi

Moliyaviy zahiralar markazlashgan, ya'ni umumdavlat va jamiyat miqyosida hamda korxonalar, tashkilot, firma va jamoa uyushmalari doirasida ham bo'lishi mumkin. Markazlashgan moliyaviy zahiralar umumxalq ehtiyojlari uchun sarflansa, kichik moliyaviy zahiralar o'sha xo'jaliklarning ehtiyojlari va faoliyatlari uchun sarflanadi. Markazlashgan moliyaviy zahiralar makromoliya, kichik moliya zahiralar mikromoliya (24.1-rasm) deb ataladi.



24.1-rasm. Moliyaviy zahiralar

Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmayotgan, vaqtincha ortiqcha bo'lgan mablag'lar moliya bozorida sotiladi. Moliya bozori – valyuta bozori, qimmatbaho qog'ozlar bozori, investitsiya bozori va ssuda kapitali bozorini o'z ichiga oladi. Moliya bozori valyuta bozorida odatda valyuta sotish va sotib olish operatsiyalari, qimmatbaho qog'ozlar

bozorida (aktsiyalar, veksellar, sertifikatlar) sotish va sotib olish operatsiyalari, investitsiya bozorida investitsiya, ya'ni kapitallar sotish, sotib olish operatsiyalari va nihoyat ssuda bozorida asosan ssuda kapitalini banklar sotish va sotib olish operatsiyalari orqali amalga oshiriladi.

Aktsiyalar qimmatbaho qog'oz bo'lib, uning egasiga foyda dividend keltiradi. Aktsiya aktsiya egasini shu aktsiyani chiqargan korxonada kapitalida ma'lum xissasi borligini anglatadi. Ular oddiy va imtiyozli bo'ladilar. **Oddiy aktsiya** egasi oladigan dividend korxonada daromadlariga bog'liq bo'ladi va uning egasi aktsionerlik jamiyatida ovoz berish huquqini kafolatlaydi **Imtiyozli aktsiya** egasiga belgilangan foiz hisobida dividend olishni ta'minlaydi, lekin u aktsionerlar yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

Obligatsiya – bu korxonada qarzdorlik majburiyatini tasdiqlovchi qimmatbaho hujjatdir. U ma'lum muddatga chiqariladi va har oyda yutuq tariqasida foiz to'lash kafolatlanadi. Moliya bozorida **brokerlar** vositachilik qiladilar va komission foiz oladilar. **Dillerlar** esa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish va sotishni amalga oshiradilar va ma'lum foydani o'zlashtiradilar.

24.2. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari

Davlat byudjeti – bu umum jamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar bo'lib, moliya tizimining asosiy bo'lagi hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini ma'lum maqsadda rivojlantirish, turli markazlashgan jamg'armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag'lari fondini – davlat byudjetini tuzish yo'li bilan ta'minlanadi. Davlat byudjeti

mamlakat moliya tizimining markaziy bo'g'ini vazifasini o'taydi.


Moliya tizimini tashkil etishda 2 shartga asoslanadi:

- demokratik sentralizmga bu usulda quyi tashkilotlar respublika darajasida moliyaviy tashkilotlarning qabul qilingan moliyaviy ko'rsatmalarini bajarishga asoslansa;
- fiskal usulda esa bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda maxalliy byudjet o'zining xarajatlari va daromadlari bilan davlat byudjetiga kirmay mustaqil federal byudjetni tashkil etadilar.

Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliya yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish, turli markazlashgan jamg'armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag'lari fondini – davlat byudjetini tuzish yo'li bilan ta'minlanadi. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining markaziy bo'g'ini vazifasini o'taydi.

Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliya yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Turli mamlakatlarda davlat byudjetini tuzish va undan foydalanishning bir qancha umumiy xususiyatlari bor. Davlat byudjetining umumiy ko'rinishi (24.2-rasm) ikki qismdan iborat bo'ladi: 1-chisi daromadlar qismi; 2-chisi – xarajatlar qismi.

Davlat byudjeti xarajatlari o'sib borayotgan bo'lsada u yalpi ichki mahsulotga nisbatan kamayib bormoqda. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soxa va aholini ijtimoiy ximoyalash xarajatlari o'sib borayapti. Bu davlatimizning tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatining natijasidir. Quyida 24.1-jadvalda davlat byudjetining xarajat tarkibi keltirilgan.



24.2-rasm. **Davlat byudjetining umumiy ko'rinishi**

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin respublikada iqtisodiyotni va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun davlat byudjet xarajatlari o'sib bormoqda. Bu iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. Davlat byudjetining 59-60 foizi ijtimoiysoxaga va aholini ijtimoiy ximoyalashga xarajat qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining davlat byujeti 2010-yilda 0.3 foiz profiitga ya'ni daromad xarajatlarga nisbatan ustunligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ya'ni milliy iqtisodiyotning tarmoq korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondalarini jahon andozalariga javob bera oladigan darajada yangilash imkoniyatlaridan foydalanish hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Respublikada investitsion dasturlarni amalga oshirish-

da quyidagi manbalardan: markazlashtirilgan investitsiyalardan, davlat byudjeti mablag'laridan, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi mablag'laridan, byudjetdan tashqari mablag'lardan, tiklash va taraqqiyot jamg'armasi va xukumat kafolatlari asosida xorijiy investitsiyalaridan foydalanilmoqda.

Shu bilan birga ularning har birida, mamlakat rivojlantirishining ayrim bosqichlarida moliya siyosatini yuritishning asosiy quroli bo'lgan davlat byudjeti o'zining tarkibi va sarflanish mohiyatiga ko'ra jiddiy farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti mamlakatimizning har yili oladigan daromad va xarajatlari hisobidan iboratdir. To'la xo'jalik hisobiga o'tib, ishlashi natijasida ilgari respublikamiz byudjetiga tushadigan foydaning katta qismi korxonalar va birlashmalarda qoldiriladigan hamda ish haqi yoki rag'batlantirish vositasi sifatida foydalanadigan bo'ladi. Bundan tashqari, davlat byudjeti ijtimoiy-madaniy hamda aholini ijtimoiy himoyalashga sarflanadigan mablag'lari ko'paydi.

Iqtisodiy moliyaviy aholining nochorligiga taqsimotninggina emas, balki ishlab chiqarish samaradorligining pastligi asosiy sababdir. Chunki, mehnat unumdorligining pastligi, sarf-xarajatlarning yuqoriligi ishlab chiqarish natijalarining salmog'iga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Moddiy boyliklar bilan ta'minlangan kapital mablag'larning sarflanishi esa tugallanmagan qurilish ob'ektlarini ko'paytirib yuboradi. Bitkazilmagan qurilishlar o'z vaqtida ishga tushirilmay yotishi ham bu mablag'larni qoplash uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yadi. Natijada davlat byudjetiga tushadigan mablag' miqdori kamayadi. Bu esa byudjet kamosmadining ortib borishiga olib keladi. Moliyaviy tanglikdan

chiqish yo'llaridan biri iste'mol mollari aylanmasini keskin oshirish, iste'mol bozoridagi ahvolni tubdan yaxshilashdir.

Byudjet taqchilligining oldini olish bilan iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yetishtirilgan xom ashyo va mahsulotlarni shu yerning o'zida qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish orqali barham berish mumkin. Davlat byudjeti intizomiga rioya qilish iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridandir.

24.3. Byudjet kamomadining muammolari va davlat qarzi

Davlat byudjetining xarajat qismi daromad qismidan ortib ketisa, bu byudjet kamomadi deyiladi. Byudjetning kamomadi o'zida davlat qarzi degan ma'noni aks ettiradi. Davlat qarzi ikki turga bo'linadi:

1. Davlatning tashqi qarzi;
2. Davlatning ichki qarzi.

Davlatning tashqi qarzi deganda, uning tashqi davlatlarga, har xil moliyaviy uyushmalarga, xorijiy firmalar va alohida shaxslarga qarzi nazarda tutiladi. Davlatning ichki qarzi deganda, firma, kichik korxonalar, jamoa korxonalar va o'z xalqidan olgan qarzidir. Byudjet taqchilligi bilan davlat qarzi bir-biriga bog'liqdir. Chunki byudjetni tartibga solish masalasi har qanday hukumatning oldida turgan markaziy masaladir.

Byudjetni tartibga solishning uch tamoyili mavjuddir:

Birinchi tamoyil – davlat byudjeti har yili balanslanishi lozim.

Ya'ni davlat byudjetiga doimiy ravishda tashqi va ichki muhitidan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritishdan

iboratdir. Bu usul davlatning fiskal siyosatining samaradorlik darajasini pasayishiga olib keladi.

Ikkinchi tamoyil – davlat byudjeti har yili emas, balki iqtisodiy tsikl davrida balanslashtirilishi kerak degan g'oyani ilgari suriladi.

Bu tamoyilda odatda iqtisodiy inqirozga qarshi ko'rashda soliqlar normasi kamaytiriladi, ishlab chiqarish xarajatlari esa oshiriladi, natijada bu byudjet kamchiligiga olib keladi.

Uchinchi tamoyil – byudjet emas, balki iqtisodiyotning o'zini ichki balanslashtirilishi takomillashtirish, degan fikrni asosiy qoida qilib oladi.

Davlat byudjeti mablag'laridan tashqari har bir davlatda byudjetdan tashqari fond bo'lib asosiy zaruriy masalalarni xal etishda foydalaniladi. Byudjetdan tashqari respublikada ijtimoiy ehtiyotkorlik fondi, nafaqat fondi va meditsina ehtiyotkorlik fondi mavjud. Davlatning *ijtimoiy ehtiyotkorlik fondi* hisobiga vaqtincha ishlamayotganlarga yordam nafaqalari beriladi. Bu fond asosan korxonalar tomonidan ehtiyotkorlik uslubi bilan korxonalar tomonidan majburiy to'lovlar asosida tashkil topadi. Nafaqa fondi – nafaqa oluvchi nafaqalarga xizmat ko'rsatadi. Meditsina ehtiyotkorlik fondi pulsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Iqtisodiyotning yuksalish davrida esa davlat soliq normalarini ko'taradi va davlat xarajatlarini kamaytiradi. Natijada byudjet ijobiy sal'doga ega bo'ladi. Bunda moliyaning asosiy vazifasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir. Iqtisodiy o'sish byudjetga soliqlar tushumini ko'paytiradi, makroiqtisodiy barqarorlik esa, uni rag'batlantiradi.

Davlat byudjeti taqchilligini bartaraf etishning asosiy yo'llari quyidagilardan iboratdir ishlab chiqarishni ken-

gaytirish, mehnat unumdorligini oshirish vositasida yalpi milliy daromadning o'sishiga erishish;

- ma'muriy-boshqaruv, mudofaa va boshqa turdagi xarajatlarni kamaytirish hisobiga byudjetning xarajat qisimidan daromad qismining ortiq bo'lishini ta'minlash;

- ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanish, ilg'or texnologiyalarini joriy etish, ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish hisobiga milliy daromadni keskin ko'paytirish;

- jahon bozoriga xom ashyo chiqarish o'rniga ularni qayta ishlab, tayyor raqobatdosh mahsulot sifatida chiqarish ham mamlakat milliy daromadini ko'paytirish yo'llaridan biridir.

Davlat o'z mamlakatining iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda, byudjet siyosatini ishlab chiqadi. Bunday siyosat mamlakatning mablag' imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladigan ishlar majmuidan iborat bo'lgan hukumatning moliyaviy faoliyati dasturi bo'lishi lozimligini, byudjet taqchilligi ustida qat'iy nazorat o'rnatilishini, uni qoplash manbalarini ko'rsatishni juda katta iqtisodiy samara beradigan iqtisodiy dasturlarga byudjetdan mablag' ajratishni talab etadi.

24.4. Soliq siyosati, uning tabiati, vazifalari va tamoyillari soddalashtirish tizimlari

Soliq siyosati iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliq siyosatini yuritishning asosiy maqsadi korxonalar va tashkilotlarga nisbatan to'g'ri solig'ini shakllantirishdan iborat. Soliq siyosatini kuchli ijtimoiy himoyalashni ta'minlash asosida olib borish lozim. Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston Respublikasi oldida soliq

va soliq tizimini o'rganish muammosi turgan emas. Chunki, soliqlar markazlashgan asosda tashkil etilib, asosan aholidan uy-joy daromad solig'i va kommunal to'lovlari tarkibida undiriladi. Tashqi savdoorqali olinadigan soliqlar bilan faqat markaz shug'ullanadi. Zero, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy manbai hisoblanadi. Soliq tizimi davlatga iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida byudjet uchun zarur bo'lgan mablag'larni to'plab beradi. Soliq tizimi milliy mahsulotning ma'lum qismini qayta taqsimlashda va aholini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir mustaqil davlat o'z oldidagi vazifalarini bajarishi, iqtisodiy muammolarni hal etishi uchun o'z byudjetiga ega bo'lishi lozim. Byudjet esa bozor iqtisodiyoti tizimi sharoitida asosan soliqlar hisobiga va qisman esa daromadlar hisobidan shakllantiradi.

Turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar, tashkilotlar va aholidan pul ko'rinishida soliqlar undiriladi. Soliq uni undirib oluvchilar bilan to'lovchilar o'rtasida doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy voqelikning o'zida aks ettiradi. Soliqning o'zi ham iqtisodiy- moliyaviy kategoriya hisoblanadi. Soliqlar majburiy to'lovlar ko'rinishiga ham ega. Chunki soliqlar va ularni to'lash miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan demokratik asosda belgilanadi. Barcha tashkilotlar va korxonalar, aholi uni bajarishga majburdilar, shuningdek Respublika Vazirlar Mahkamasi, Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda maxsus ijtimoiy fondlarga belgilangan to'lovlarni ham to'lash majburiydir.

Soliqlarning shakllanishi va taqsimlanishini to'g'ri amalga oshirilishi ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishini ta'minlaydi. Chunki soliqlarni kamaytirish

orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga erishish mumkin, xuddi shuningdek, soliqlarni ko'paytirish evaziga ayrim iqtisod tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmini kamaytirish mumkin bo'ladi. Barcha turdagi soliqlardan tushgan tushumlar byudjetga tushadi va uni davlat zarur yo'nalishlarga taqsimlaydi. Uning katta qismi davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy–madaniy tadbirlarga, aholini ijtimoiy himoyalashga, davlatni boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanadi.

Soliq tizimini o'rganishda daromadlarni soliqqa tortiladigan va soliqqa tortirmaydigan daromadlarga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda olinadigan soliq darajalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- proporsional soliq stavkasi;
- progressiv yoki o'sib boruvchi soliq stavkasi;
- regressiv soliq stavkasi.

Proporsional stavka asosan soliq ob'ektidan yagona foizlarda olinadi. Masalan: uy-joy, mol-mulklardan olinadigan soliq.

Progressiv, ya'ni o'sib boruvchi stavka asosan daromadning o'sib borishi bilan olinadigan soliq foizlari ham oshib boradi.

Regressiv soliq to'g'ri kamayib boruvchi soliq stavkasi bo'lib, korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish hajmi va daromadlariga aholining oylik maoshlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Regressiv soliq stavkasi daromadni o'sishi bilan kamayib boradi.

Daromad, foyda, qo'shilgan qiymat solig'i, samaradorlik, tannarx, muomala xarajatlari, turli maqsadli fondlar chegirmalari moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar, firmalarning iqtisodiy holatini belgilab beradi. Shu bilan bir-

ga birlashmalar, korxonalar, muassasalarining va kichik biznes sub'ektlarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining iqtisodiy holatini nazorat qilish hamda ularning mexanizmlarini to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor berish zarur.

24.5. O'zbekistonda soliq tizimining mohiyati. Soliqlarning turlari

Respublikada iqtisodiy va jismoniy sub'ektlardan soliq undirish «Korxonalar birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga asoslanadi. Bu qonun asosida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining hamda mahalliy byudjetlarning soliqlar tarzidagi daromadlar manbalarini belgilab beradi. Bu soliqlarni joriy etishdan maqsad davlat ijtimoiy kafolatlarni moliyaviy bazasini ta'minlashdan, huquqiy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdan tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanishni va atrof-muhitni muhofaza etishni rag'batlantirishdan iboratdir.

Soliqlar dastavval **egri va to'g'ri soliqlarga** bo'linadi. **To'g'ri soliq** korxonalar yoki mehnatkashlarning daromadlaridan olinadi. Uning manbai korxonalar va fuqarolarning daromadlari hisoblanadi. **Egri soliqlar** korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan to'lansa-da, u asosan, iste'molchilardan ustama haq qo'yish orqali undiriladi.

To'g'ri soliqlar moddiy harajatlarni, mol-mulklarni, mehnat va pul resurslarini tejashni ta'minlaydi. Egri soliqlar esa bozor munosabatlari mohiyatidan kelib chiqqan bo'lib, unga qo'shilgan qiymat solig'i, cheklangan tovarlarga aksiz solig'i, chetga chiqarilayotgan tovarlarga, xom ashyolarga solinadigan soliqlar va eksport-import soliqlari kiradi. Egri soliqlarning iqtisodiy mohiyati shundan ibo-

ratki, bu soliqlar guruhi tovarlar yoki xomashyolar aylanmasidan so'ng davlat byudjetiga tushadi, pulning muomala vazifasini mustahkamlash, pulning qadrsizlanishining oldini olishni ta'minlaydi.

Soliqlar to'lovchi ob'ektlari bo'lib ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida soliqlar ishlab chiqilgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlari tashkil etadi.

Korxonalar, birlashmalar, muassasalarning, kichik biznes sub'ektlarining faoliyatini soliq yo'li bilan tartibga solish, quyidagi umumiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

- manbalardan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lashni majburiyligi;

- barcha hududiy ma'muriy pog'onalar uchun yagoo bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat idoralarining umumdavlat soliq siyosati doirasida soliqlarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish;

- o'z faoliyati bilan eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlab chiqarish korxonalariga imtiyoz berish, shuningdek, xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish tizimi orqali soliq mezonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash;

- deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarni uyushtirish asosida barcha sub'ektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olingan majburiyatlari ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish.

Qabul qilingan soliq to'lash qonuniga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtisodiy va jismoniy sub'ektlar O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlarni to'laydilar:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- suv resurslaridan foydalanilgani uchun soliq;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma solig'i;
- yer qaridan foydalanilgani uchun soliq va maxsus to'lovlar:

- yer qaridan foydalanilgani uchun soliq;
- bonus;
- qo'shimcha foyda solig'i (qimmatli metallar);
- mol-mulk solig'i;
- yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslarning solig'i;
- yer solig'i;
- jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan daromad solig'i.

Yuqorida keltirilgan soliqlardan tashqari quyidagi to'lov va yig'imler mavjud:

- yagona ijtimoiy to'lovlar;
- Respublika pensiya jamg'arma majburiyatlariga ajratmalar;
- fuqorolarni pensiya jamg'armasiga to'lov;
- Respublika yo'l jamg'armasiga ajratma va yig'imler.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida soliq turlarini soddalashtirish orqali quyidagi turlarga bo'lingan:

- yagona Yer solig'i (qishloq xo'jaligida fermer xo'jaligida);
- yagona soliq to'lovi;
- qat'iy belgilangan soliq (tadbirkorlik faoliyatida).

Soliq to'lovlarining summasi O'zbekiston Respublikasi byudjetiga Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga,

viloyatlar, Toshkent shahar byudjetlariga va boshqa mahalliy byudjetlarga har yili kelasi yil uchun byudjet tasdiqlanayotganda, belgilanadigan normativlar bo'yicha o'tkaziladi. Mahalliy hokimiyat idoralari O'zbekiston Respublikasining umumiy yo'nalishiga asoslangan holda o'z hududlarida olinadigan mahalliy soliqlarni belgilaydilar. Soliqlarning aniq turini belgilash hokimiyat idorasi yoki u vakil qilgan boshqa idora belgilaydi:

- soliq to'lovchi;
- soliq to'lanadigan ob'ekt;
- soliq stavkalarini;
- soliq hisoblab chiqarish va to'lash tartibini;
- soliq solish bo'yicha imtiyozlarni;
- soliqning amal qilish muddatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan ajnabiy fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi qonunda quyidagilar ifodalangan:

- soliq to'lovchilar;
- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar;
- soliq yuzasidan imtiyozlar;
- ikki yoqlama soliq solishni bekor qilish.

Soliq to'lash tizimi soliqdan ozod etish yoki imtiyozli soliqlarni ham o'z ichiga oladi. Imtiyozli soliq to'lovchi korxonalariga (birjalar, tayyorlov, ulgurji, ta'minlovchi – sotuvchi, vositachi va savdo-tijorat korxonalaridan tashqari) tuzilgan va ro'yxatdan o'tgan korxonalar kiradi va birinchi yili 25 foiz, ikkinchi yili 50 foiz miqdorda soliq to'laydilar.

Soliqlardan ozod etiluvchi korxonalariga xizmat qilayotgan xodimlarning 50 foizi nogironlar, 75 foizigacha maktab o'qituvchilari, bilim yurti talabalari bo'lsa yoki nogironlar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning ishlab chiqaruvchi

korxonalar, ijtimoiy tashkilotlar, yoshlar jamg'armalari va boshqa shungan o'xshash tashkilotlar kiradi.

Respublika soliqlari bozor iqtidodiyotiga bosqichmabosqich o'tib borishida, uning iqtisodiy qonunlari talabiga qarab takomillashtirib boriladi.

Soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rniga qarab, quyidagi guruhlariga bo'linadi. **Iqtisodiy mohiyatiga** qarab, bevosita va bilvosita yoki to'g'ri va egri soliq'larga bo'linadi. Kelib tushish manbaiga qarab, **soliqlar yuridik** (tashkilotlardan) va **jismoniy** (shaxslardan) olinadigan **soliqlarga** bo'linadi. Byudjetga tushish nuqtai nazaridan soliq'larni **davlat byudjetiga tushadigan soliq'larga**, ya'ni (davlat byudjetiga) va (mahalliy byudjetga) tushadigan **mahalliy soliq'larga** bo'linadi. Jismoniy shaxslar har yili soliq deklaratsiyasini to'ldirib borishlari kerak. Bu hujjat jismoniy shaxs tomonidan yil ichida topgan daromadidan soliq to'lash miqdorini kuzatishni ta'minlaydi. Davlat byudjet soliq to'lovlari hisobiga shakllanadi.

24.6. Davlatning fiskal siyosati va iqtisodiy barqarorli

Davlatning fiskal siyosati – hukumat tomonidan davlat xarajatlari va soliq solish tartibiga kiradigan o'zgarishlardir. Bundan maqsad to'la bandlik va to'la ishlab chiqarish hajmiga erishishdir. Davlatning fiskal siyosati soliq'larni undirish va byudjet mablag'larining makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda ijtimoiy masalalarni hal etish maqsadida hukumat imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Fiskal siyosatining asosiy dastagi soliq stavkasini ishlab chiqishdir. Davlatning fiskal siyosati soliq stavkasini ishlab chiqarishini shakllantiradi va uning sarflanishini ta'minlaydi.

Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolini mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning mohiyati quyidagilardan iborat:

- bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi;

- avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani fiskal xazinani to'ldirish, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarish kerak;

- soliqlar xazinani to'ldirish siyosatining asosiy usuri bo'lib, davlat byudjetining daromad qismi eng muhim umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim;

- soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan birgalikda, yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyot tuzilishini o'zgartirishda, aholini ijtimoiy ximoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi;

- soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga moddiy xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

Moliya, bank va soliq tizimlari bozor infrastrukturasi-ning tarkibiy qismi hisoblanar ekan, demak, bu tizimlarda juda ko'p har xil ma'lumotlarni yig'ilishi tabiiy. Bu ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash muammolari mavjud. Bularni faqat telekommunikatsiya va yo'ldosh aloqalaridan hamda komp'yuter vositalaridan keng foydalangandagina hal qilib bo'ladi. Bunga esa hukumatimiz huquqiy asos yaratdi, ya'ni «Axborotlashtirish haqida» hamda «Elektron

hisoblash uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoyalash to'g'risida»gi,

«O'zbekiston Respublikasining qonunlari» va «O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish kontseptsiyasini ma'qullash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Bu qonunlar va qarordan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda Respublikani komp'yuterlashtirishni davr talab etmoqda va bunga keng yo'l ham ochilmoqda.

Hozirgi kunda bank va soliq tizimlarini axborotlashtirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilindi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma'lumotlarni qayta ishlaydigan yagona komp'yuter tizimini yaratish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustda 388 sonli qaror qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1994-yil 18-martdagi "Bank tizimini takomillashtirish, pul kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 146 sonli qarorida esa bank tizimini ham komp'yuterlashtirish masalasi qo'yilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya, bank va soliq sohalari bir-biriga mukammal bog'liq bo'lgan jabhalardir. Shuning uchun bu jabhalarning yagona avtomatlashtirilgan (integrallashtirilgan ma'lumotlar) tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu tizimni yaratish va joriy etishdan asosiy maqsad axborot yig'ish, uni qayta ishlash va tahlil qilishdan ko'p mehnat qilinishini kamaytirish, moliya rejalarini ko'p variantdan hisob kitob qilish va ularni eng maqbul tarzda bir-biri bilan muvofiqlashtirish, moliya organlari apparatlarini yaxshilash asosida moliya boshqaruvida yuqori sifarga erishishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarishda yagona integrallashtirilgan moliya, bank va soliq jabhalarining ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati katta.

Davlat soliq yukini muqobillashtirish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Jahonda davlatlarning soliq yuki darajasi 29 foizdan (AQSH)da 48,3 foizgachan (Daniya)da tashkil etadi. Davlatning soliq yukini muqobilashtirish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Moliyani tashkil topish va iqtisodiy mohiyati?
2. Moliyaning sub'ektlari nimalardan tashkil topadi?
3. Moliyaning vazifalari nimalardan iborat?
4. Makromoliya va mikromoliyalarni tashkil topishi?
5. Broker va dillerlarning vazifalari?
6. Davlat byudjetini tashkil topishi?
7. Byudjet kamomadi va davlat qarzi oldini olish?
8. Soliqlarning davlat soliq siyosati bilan bog'liqligi?
9. To'g'ri va egri soliqlar olishdagi farqlar?
10. Majburiy to'lovlar qanday to'lovlardan iborat?
11. Soliqlarni kelib tushishiga qarab qanday soliqlarga bo'lindi?
12. Davlatning fiskal siyosati nima?

Testlar

1. Moliya nima?
 - a) davlatning pul mablag'lari
 - b) davlat korxonalarining pul mablag'lari
 - d) nodavlat korxonalarining pul mablag'lari
 - e) davlat ta'sirida bankda bo'lgan pul mablag'lari
 - f) aholining pul mablag'lari
2. Moliyaviy munosabatlar nima?

- a) davlat bilan davlat korxonalari o'rtasidagi munosabatlar
 - b) davlat bilan nodavlat korxonalari o'rtasidagi munosabatlar
 - d) davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar
 - e) davlat bilan ijtimoiy-siyosiy va xarbiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar
 - f) pul takliflarini tartibga solishdagi iqtisodiy munosabatlar
3. Davlat byudjeti nima?
- a) pulning jamg'arilishi
 - b) pulning taqsimlanishi
 - d) puldan foydalanish
 - e) moliyaviy resurslardan markazlashtirilgan holda davlat darajasida to'plash, taqsimlash va samarali foydalanish
 - f) davlat iqtisodiyotini tartibga solish
4. Byudjet kamomadi nima?
- a) pul emissiyasi
 - b) monetar siyosati
 - d) muomalaga chiqarilgan pulning yeishmasligi
 - e) xarajatlarning daromadga nisbatan ortiqchaligi
 - f) kredit operatsiyalari bo'yicha davlat qarzi
5. Davlatning harajatlar siyosati nimaga asoslanadi?
- a) pul hajmiga
 - b) monetar siyosatiga
 - d) fiskal siyosatiga
 - e) resurslarni taqsimlash siyosatiga
 - f) mamlakatda pul taklifini tartibga solishda
6. Moliyaviy bozor nima?
- a) pul savdosi
 - b) aktsiya savdosi
 - d) veksel savdosi
 - e) zayomlar savdosi
 - f) pul va qimmatli qog'ozlar savdosi
7. Aktsiya nima?
- a) qimmatli qog'oz

- b) daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz
- d) pulni jamg'arish usuli
- e) zayom
- f) kompaniyalar tomonidan chiqarilgan va sotib olinadigan qimmatli qog'oz

8. Dividend nima?

- a) daromad
- b) ish haqi
- d) aktsiyadan kelgan daromad
- e) kapital bahosi
- f) aktsiya bahosi

9. Soliq nima?

- a) kommunal xizmatlari to'lovlari
- b) daromaddan to'lovlar
- d) moliyaviy kategoriya
- e) davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan majburiy to'lovlar

f) yer solig'i

10. Soliq tizimi nima?

- a) soliqlarni yig'ish
- b) soliq to'lovlari
- d) soliq turlari
- e) soliq a tortish
- f) qonuniy asosda soliqlar yig'ish

11. Soliq stavkasi nima?

- a) davlat tomonidan belgilangan to'lovlar
- b) proporsional stavkalar
- d) o'sib boruvchi stavkalar
- e) pasayib boruvchi stavkalar

f) olingan daromaddan soliq shaklida to'lanadigan bir qismi

12. Soliqning ko'payishi byudjet daromadining o'sishiga olib keladimi?

a) soliq ishlab chiqarish hajmini o'sishiga bog'liq

b) soliqni o'sishi ishlab chiqarish hajmini pasayishiga olib keladi

d) soliqni o'sishi olinayotgan daromadlarning haqiqiy hajmini yashirishga olib keladi

e) soliqlarning o'sishi vaqtincha ishlab chiqarishni o'sishiga olib keladi

f) soliq to'lov stavkalari ko'payishi soliq yig'ilishini o'sishini ta'minlaydi

13. Soliqning qaysi turi iste'mol tarkibini o'zgarishiga olib keladi?

a) muomala solig'i

b) aktsiz solig'i

d) daromad solig'i

e) tadbirkorlikdan olinadigan daromad solig'i

f) to'g'ri va egri (aktsiz, bojxona to'lovlar) soliqlar

14. O'sib boruvchi soliq qanday soliq turi?

a) proporsional soliq turi

b) o'sib boruvchi soliq turi

d) qat'iy daromad solig'i

e) qo'shimcha qiymat solig'i

f) aktsiz solig'

15. Davlatning soliq siyosati nima?

a) soliq tizimini tashkil etish

b) soliq yig'ish

d) soliqsiz to'lovlarni rivojlantirish

e) soliqlarni shakllantirish

f) soliq munosabatlarini shakllantirish

16. Korxonalar soliq to'lovidan ozod bo'lishi mumkinmi?

a) yirik korxonalar soliq to'lovlarini belgilangan miqdorda amalga oshiradilar

b) samarasiz korxonalar soliq to'lovlaridan ozod etiladi

d) ma'lum imtiyozga ega bo'lgan korxonalar soliq to'lovlardan ozod qilinadi

e) hamma korxonalar soliq to'lashi shart

f) nodavlat korxonalari soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshiradi

25-bob. PUL-KREDIT TIZIMI

Tayanch soʻzlar: pul, pul-kredit tizimi, pul tizimini tarkibi, pul muomilasi, pul miqdorini belgilash, pul muomila vositasi, toʻlov vositasi, qiymat oʻlchov vositasi, jamgʻarish vositasi, jahon puli, pul agregatlari, pul taklifi, pul talabi, pul multiplikatori, pul massasi, kredit, bank krediti, isteʼmol krediti, kommertsiya krediti, ipoteka krediti, xoʻjaliklararo pul krediti, davlat krediti, bank tizimi, konsalting, lizing, faktoring, injenering.

25.1. Pul-kredit tizimi. Pul tizimining tarkiblari

Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonni rivojlanib borishi oʻzining xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar nimalardan iborat boʻlishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy rivojlanish bilan bogʻliq boʻlgan tashkiliy ishlab chiqarish vazifalarini doimiy ravishda bozor talab va taklif qonuni asosida isteʼmol bozorlarini talablarini oʻrganish asosida ishlab chiqarish jarayonining asosiy omili boʻlgan pulga boʻlgan munosabatlarni qanday holda boʻlishiga xech kim toʻgʻri baxs bera olmaydi. Demak pul tovariga boʻlgan talab iqtisodiy rivojlanish darajasiga toʻliq javob berish uchun pul tovariga boʻlgan talab ham bozor talabidan kelib chiqqan holda rivojlanadi.

Agar oʻtish umumlashgan iqtisodiy-ijtimoiy tizim davrida maʼlum muddatga byudjet mablagʻlaridan mablagʻ yaʼni pul ajratib berilgan boʻlsa, hozirgi da pul tovariga boʻlgan talabni maʼlum muddatga javob beraoladi deb boʻlmaydi. Shuni aytish lozimki erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir subʼektni mustaqil bozor iqtisodiyotini oʻrganish asosida ishlab chiqarish jarayonini

zarur bo'lgan iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarni e'tiborga olish va rivojlantirishni ta'minlash har bir sub'ektning iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda tashkil topishi, ularni ma'lum bir pul egaligiga ega ekanligini talab etadi.

Respublikada pul muomilasini rivojlantirish uchun respublikamiz o'zining milliy pul birliklarini ijtimoiy muomilaga so'm kupon va plastik kartochkalar kiritildi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun o'zining qiymat o'lchovi vazifalarini bajarishni tashkil etish uchun 1994 yilda "so'm" va uning qiymat o'lchovi birliklari tashkil etildi. Pulning kelib chiqish sabablari va uning mohiyati iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan Nemis arxeologi Avgus Bek 1838 yilda o'zining ixtiro nazariyasida pulning kelib chiqishi qadimiy qonunchilarning ijodiy fikrlari asosida kelib chiqqan deb hisoblaydi.

Inglis faylasufi va iqtisodchi Djon Lokk (1690-1691) yillarda kelishuv nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga asosan pul insonlar o'rtasida o'zaro kelishuvida ayrim narsalar pul vazifasini bajargan deb hisoblaydi.

Nemis iqtisodchisi G. Knapp. 1905 yilda o'zining xartal nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga asosan xuquqiy qurilma tomondan pulni mahsulot deb qabul qilinishi natijasida u qonuniy to'lov vositasi sifatida unga talab muomola vositasi qullari sifatida va uni qiymat o'lchovi qilgan deb hisoblaydi.

Frantsuz olimi J.Boden XVI asrda qiymat nazariyasini yaratgan. Pulning qiymati uning miqdori bilan o'lchandi deb hisoblagan. Bu nazariyaga asoslangan xolda tovar qiymatini o'sishini turli davrlarda SH.L.Montesk'e, Dj.Mill', D.Rikardo. I.Fisher, A. Marshallar ko'rib chiqqan va nixoyat pulning nominal nazariyasi asosida pulning qiymati dav-

lat tomonidan belgilanadi deb hisoblaganlar. Bu nazariya tarafdorlari XX asrda G.Knapp, Dj.M.Keyns va P.Samuel'son hisoblanadi.

Tovar nazariyasi. Bu nazariyaga asosan pulning qiymati talab va taklifni bir-biriga ta'siri (inglis iqtisodchisi Dj.Styuart tomonidan XVIII asrda bu nazariya XX asrgachan xukmronlik holatida bo'lgan, Rossiyalik iqtisodchi V.YA.Jeleznov esa bu nazariya doirasida pul tovari uni ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liqligini va metall pullarga bo'lgan talab qog'oz pullarga nisbatan ustun ahamyatga ega deb hisoblagan.

Mehnat nazariyasi bu nazariyaga asosan pulning qiymati uni ishlab chiqarish uchun ketgan ijtimoiy zaruriy mehnat bilan ya'ni ishlab chiqarish harajatlari bilan belgilanadi deb hisoblagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pul, pul massasi va uning agregatlari haqida ham to'xtalib o'tish lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda pulning har xil guruhlari qo'llaniladi. Ular pul agregatlari deyiladi va muomaladagi pul massasining muqobil o'lchovlari bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda quyidagi pul agregatlari farqlanadi.

M 0 – pul agregati pulning aktiv qismi bo'lib, naqd pul mablag'lari sifatida xo'jalik aylanmalarida xizmat ko'rsatadi. (Ular banknot, tangalar bo'lib bank tizimidan tashqari muomalada bo'ladi)

Pul mablag'larining passiv qismi naqd pulsiz xolida harakatda bo'ladi.

M1– joriy schetlardagi mablag'lar: talab qonunigachan aholi pul depozitlari (pul jamg'armasi) korxonalarining joriy hisob raqamlaridagi pullar.

M 2 – tezkor hisob raqamidagi pullar. Bu aholining

korxonalarining va mahalliy byudjetning tezkor pul qo'yilmalari.

M 3–davlat va banklarning qimmatli qog'ozlari tashkil etadi.

Pul agregatlari ichida o'zining yo'qotilishi *M 0 M 1* agregatlari tashkil etib ular moliyaviy amaliyotda tor ma'noda «haqiqiy pullar» hisoblanadi.

M 2, M 3 pul agregatlari odatda keng ma'nordagi pul deb yuritiladi.

Qimmatli qog'ozlar *L* – pul agregatini, *X* – xorijiy valyuta agregatini tashkil etadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida naqd pullar *M 0* umumiy pul massasining 5-10 foizini tashkil etadi.

Mohiyatiga ko'ra, pul davlat, banklar, jamg'arma muassasalarini qarz majburiyatlari hisoblanadi. Unga bozorda tovar va xizmatlar sotib olishligi mumkinligi tufayli ular qiymatga egadirlar. Binobarin pul qadri deganda, pulning tovar va xizmatlarni xarid etish, chet el valyutalariga almasha olish qobiliyati tushuniladi. Pul bozori pul muomilasi bozor sharoitida erkinlashirilgan holda amalga oshirilishi kerak.

Iqtisodiyotni qanday ishlab chiqarish usuliga va mulkka bo'lgan egalik shakllaridan qat'iy nazar jamiyat a'zolari o'rtasida, jamiyatning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sub'ektlari o'rtasida ularni o'zaro iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirmay mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy holatlarini davr talablari asosida rivojlantirib bo'lmaydi. Ayniqsa hozirgi erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoiti har qanday mavjud muammoni xal etishda sub'ektlarni o'zaro munosabatlarini rivojlantirib boshqirish, pul tovari o'zining harakat qilish xususiyatlari o'tmish tizim davridagi xizmatlaridan to'liq farq qiladi. Beqaror bozor

iqtisodiyoti tizimi davrida milliy iqtisodiyotni rivojlan-tirishda pul, u bilan bog'liq kredit tizimi vazifalari tubdan o'zgargan holda mavjud ishlab chiqarish xizmatlarini bajarish masalalarini amalga oshirish pul va kredit tizimi-ning tashkil topishi va rivojlanishiga bog'liq bo'lib qol-ganini to'g'ri anglash.

25.2. Pul agregatlarini likvidik darajasi

Pul agregatlari o'zining likvidik darajasiga ega bo'ladi-lar. Likvidik deganda nimani tushunish kerak? Likvidik korxonalarda, umuman turli ob'ektlarda mavjud bo'lgan aktivlar o'z yo'nalishlariga qarab, o'zlarining kapital agre-gat yo'nalishlariga qarab, iloji boricha kam xarajatlar aso-sida tezlik bilan bu likvidlik xarajatlarini naqd pulga ayla-na olish qobiliyatiga bog'liq. Likvidlikni aylanish qobiliyati ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uni boshqaruvi-ga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari asosida ishlab chiqarishni tashil etish va uni boshqarish darajasi qancha-lik yuqori bo'lsa, bu korxonalarda naqd pullar hissasi 8-10 foizni tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul bo-zorini mohiyati o'sib boradi. Uni inkor etmasligimiz lozim.

Pul bozorini rivojlanishi pul sub'ektlari tomonidan tak-lif etilayotgan pulga va foydalanish uchun ma'lum bir davr-ga to'lanadigan foiz darajasiga bog'liq. Pul bozorida pulni taklif etish uning multifikatlariga bog'liq bo'lib, u asosan banklarda to'plangan majburiy zaxiralarga bog'liq.

Demak, banklar tomonidan beriladigan pul investitsiya mablag'lari banklar tomonidan belgilangan majburiy zaxi-ralarga qo'shimcha hajmga nisbatan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki pul multifikatori o'sib


borish jamg'arma mablag'larini o'sib borishiga olib keladi. Buni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$m = \frac{m_3}{R^m} \text{ yoki } m = 1$$

Bu Yerdan: t – pul taklif multifikat koeffitsiyenti; R – majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmi; CH – majburiy zaxiralar foizdagi me'yori.

Zarur bo'lgan pulga talabni bir qismi ayriboshlash uchun bo'lgan pulga hamda zaruriy aksiyalarni sotib olishga bo'lgan talabni ifoda etadi.

Taklif va unga bo'lgan talabni, muvozanat stavkasini (25.1-rasm) bir-biriga qo'shadi.



25.1-rasm. **Pul bozorida muvozanatni tiklash**

S – bu pulning taklifini aks ettiradi va vertikal shaklga ega bo'ladi, chunki pul – kredit va moliyaviy muassasalar biror miqdorda pul hajmi yaratgan deb olinadi va u nominal foiz stavka miqdoriga bog'liq bo'ladi. D – esa pulga bo'lgan talabni aks ettiradi.

Bu to'g'risida K.R. Makkonel va S.L.Bryu Pul bu pul qiladi. Ingliz iqtisodiy lug'atida pul aktiv bo'lib hamma Yerdan almashuv vositasi hisoblanadi.

O'z vaqtida Rossiyalik mashxur iqtisodchi M.I Tugan-Baranovskiy pulning predmet vazifasi (uning asosiy vazifasi) pul predmetini qilishdir.

Pul bu o'zida ijtimoiy maxsus qiymatni (qog'oz pul belgilari, metal tangalar, hisobdagi yozuvlar) ma'lum bir vazifani iqtisodiyotda ma'lum bir foydalanish vazifalarini bajaradi.

Pulning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Muomalada pulning vazifasi-pulga ishlab chiqarish sub'ektlari bilan iste'molchi sub'ektlar o'rtasida tovar-pul muomalasini amalga oshirishda foydalaniladi. Muomalaga chiqarilgan pullar birliklari qonuniny kuchga ega bo'lib uni muomala jarayonida qabul qilinishi qonuniy kuchga ega. Qiymat o'lchov vositasi – pul tovarlarni ishlab chiqarishga sarf qilingan xarajatlarni miqdorini, tovarlar qiymatini, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar, olingan qarzlarni, turli komunal to'lovlari bajarish vazifasini bajaradi.

To'lov vositasi sifatida pul tovarlarning turli aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning qiymatini o'lchashga xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyotda milliy so'm bilan olib borilsa, jahon iqtisodiyotida valyutani almashuv kursi asosida amalga oshiriladi.

Jamg'arma vositasi-pulning jamg'arish vositasi shaklida insonlarni o'zlarining pullarini har xil shakllarda (akt-siyalar, obligatsiyalar, qimmat baho tovarlar, banklarga qo'yilgan yoki naqd pul sifatida) saqlaydilar.

Pulning xozirgi zamon shakli predmet sifatida quyidagi talablarga javob berishi kerak: uni maydalaganda qiymatini o'zgarmsiligi, pul tovarini ixchamligi, pul tovari qiymatini o'zgarmsligi, pul tovari qiymatini chidamligi, pul qiymatini biriligini o'zgarmsligi pul predmetini tayyorlov tannarxini arzonligi, pul tovar predmetini muomolaga

zarur bo'lgan miqdorda chiqarilishi va pul tovar qiymatini muqobil bo'lishiga javob berishi zarur.

25.3. Pulga bo'lgan talabni tartiblash

Pulga bo'lgan talab to'lanadigan foizga olinadigan daromatga va pul birligining doiraviy aylanmasi bog'liq va u quyidagi

$$P^m = \frac{P^b * P_d}{P^0} \quad (25.3)$$

P^m = pul massasi

P^b = pul bahosi

R^D = real daromad

P^m = pulning aylanmasi harakati

Pulning pul bozidagi taklifi esa banklarning zaxira va daromadlariga bog'liq va quyidagi formula orqali ifodalanaadi

$$P_t = \frac{B_z}{B_m} \quad (25.4)$$

P_t – pul taklifi;

B_z – zaxirasi;


B_m – bankning majburiy zaxirasi.

Pulga bo'lgan talabni (keynsangancha) modelida talab egri chizig'i (P_m) pul massasi milliy daromad o'sganda uning aylanish (P_m) pul massasi milliy daromad o'sganda uning aylanish tezligi qisqaradi va pulga bo'lgan talab egri chizig'i 1-rasm yuqoriga ko'tariladi.


Pulga bo'lgan taklif markaziy bankning pul siyosatiga bog'liq bo'lib u ma'lum darajada zarur bo'lgan (P^m) ni 25.3-rasm ushlab turadi. Pul massasi (P^m) oshishi va kamayishi mumkin.

Aktiv operatsiyalarda ssuda operatsiyalari va qimmat-

baho qog'ozlar bilan operatsiyalar muhim o'rinni egallaydi. Mijozlarga ssuda berar ekanlar tijorat banklari pul taklifini oshiradilar. Pul miqdorini o'sish hajmi, ortiqcha rezervlar miqdoriga va mul'tiplikatorining hajmiga bog'liq. Ortiqcha rezervlar tijorat banklari tomonidan qonuniylashtirib qo'yilgan majburiy rezervlar va summasidan ortiqcha qismidir.



25.2-rasm. Pul talabining o'zgarishi



25.3-rasm. Pul taklifining (P^A) o'zgarishi

Pul mul'tiplikatori majburiy rezervlar normasiga teskari mutanosibdir;

$$m = \frac{1}{r} \quad (22.5)$$

bu yerda: m – pul multiplikatori;
 l – umumiy pul multiplikatori;
 r – majburiy rezervlar normasi.

Shunday qilib, pul taklifini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$M = E \cdot M \quad (22.6)$$

bu yerda: M – pul taklifi;
 E – ortiqcha rezervlar;
 M – pul mul'tiplikatori.

Pul bozoridagi talab va taklifning bir-biriga to'g'ri kelishi iqtisodiyot uchun o'ta muhim masala hisoblanadi. Ayrim sabablarga ko'ra muomaladagi pul massasining ko'payib ketishi inflyatsiya jarayonlarining zo'rayishiga, yalpi talabning jami taklifga nisbatan oshib ketishi makroiqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning qadrsizlanishi, muomala sohasida qachonki ularning qiymati umuiy xarajatlar qiymatiga mos kelmasa, muomila sharoitidagi pul inflyatsiya bo'ladi va ular ikki holatda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish vositalari xomashyo va mehnat resurslarini jalb qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Inflyatsiyani oldini olish innovatsion ishlab chiqarish vositalarini rivojlantirish asosida innovatsion tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning intellektual bilim jamg'armalari o'sib borishini ta'minlash asosida inflyatsiya holatidan chiqish mumkin.

Pul bozorini kelib chiqishining asosiy sababi ayniqsa erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining pulga bo'lgan talabi ma'lum vaqtda ularning to'lov qobiliyatlariga nisbatan yuqori bo'lishidir. Bunday talabnidoimiy ravishda bo'lishi moliyaviy institutning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Pul bozori naqd va naqdsiz (kredit) holatida amalga oshiriladi.

Pul bozorida naqd pullarni oddiy tovarlarni sotib olishdagidek ifodalansada u aslida almashinadi.

Bu almashuv ma'lum foiz hisobiga amalga oshiriladi. Foiz ulardan foydalanganlik uchun to'lanadigan xaq. Pulga bo'lgan talab va taklif unga qo'yiladigan foizga bog'liq.

Shuning uchun pul bozorida talab va taklifni muvo-

zanatlab turish lozim, deb hisoblanadi. Buni asosan davlat o'zining chiqargan qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish natijasida amalga oshiradi.

25.4. Kredit moxiyati, vazifalari va tizimi

Pul doimiy ravishda aylanishi ya'ni harakatda bo'lishi zarur. Ammo muomalaga chiqarilgan pul doimiy harakatda bo'lmaydi, uni harakatini tashkil etishda ortiqcha pulga ega bo'lgan huquqiy sub'ektlar shu pulga zaruriyati bo'lgan sub'ektlar o'rtasida iqtisodiy muomalani kredit berish va kredit olish tariqasida xal etish mumkin. Kredit keng ma'noda qarz berish bo'lib ikki iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida iqtisodiy munosabat amalga oshiriladi. Kredit faqat pul shaklida emas balki ma'lum mol-mulkn xarid qilib olish usulida ham bo'ladi. Kreditni qisqa muddatga berilish asosan uni zarurligi, tezkorligi va qaytarib berish muddatini qisqaligida ifodalanadi.

Kredit deganda vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va ma'lum foizlar to'lash evazi bilan qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlarni tushunish kerak.

Kredit ikki vazifani bajaradi:

- birinchi vazifasi pul mablag'larini korxonalar, iqtisodiy tarmoqlar, tuman, shahar, viloyatlar bo'yichataqsimlanishni ta'minlaydi;

- ikkinchi vazifasi muomaladagi next pullarni kredit pullar (banknot)lar asosida almashuvini ta'minlaydi. Kredit pullarni muomalada qo'llanishi muomala xarajatlarini kamayishini ta'minlaydi. Kreditlashtirish **natural va pul**

shaklida amalga oshiriladi. Natural shaklda kreditlash sub'ektlar o'rtasida asosan tovarlar, xomashyolar va ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan predmetlar tariqasida amalga oshiriladi.

Kredit muddatlari: qisqa muddatli 1 yilgachan; o'rta muddatli 2 yildan 5 yilgachan; uzoq muddatli 6 yildan 10 yilgachan va mahsus uzoq muddatli 20 yildan 40 yilgachan.

Beriladigan kreditlar – davlat, davlatlararo, bank, tijorat, ipoteka va boshqa banklardan berilishi mumkin. Davlatlararo kredit – xalqaro iqtisodiy munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida kreditning rolini quyidagilarda ko'rish mumkin:

–kredit ijtimoiy ishlab chiqarish miqyosini kengaytirishga xizmat qiladi;

–kredit bo'sh pul mablag'larini tezda jalb etish va ulardan iqtisodiyotning ko'proq foyda keltiruvchi tarmoqlarida foydalanishga yordam beradi;

kredit muomala xarajatlaridagi naqd pullarni kamaytirishni ta'minlaydi, chunki to'lovlarning salmoqli qismi naqd bo'lmagan formada (veksel, chek va boshqalar)da amalga oshiriladi.

Pul-kredit tizimi tarkibi va vazifalari – kredit tizimi valyuta moliyaviy tashkilotlar tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini muomalaga kiritish va kerak vaqtda unda chiqarish vazifasiga aytiladi. Pul-kredit tizimi uch bosqichdan tashkil topadi: birinchi bosqich – pul xo'jaligi bosqichi bo'lib, banklarga pul qo'yuvchilar pullarini saqlash bo'yicha kelishuv bitimlarini tuzadilar, kredit beradilar; ikkinchi bosqich – banklarda qo'yiladigan va olinadigan mablag'lar uchun foizlar belgilash ishlarini markaziy bank va uni nazorat

qiluvchi tashkilotlar orqali belgilanadi; uchinchi bosqich – xususiy banklar faoliyatini markaziy bank va moliya vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

Kredit sub'ektlari har xil, bularga korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Banklardan kredit olish tamoyillari asosan: kredit mablag'ining zarurligini asoslashga qaytarish muddatiga rioya qilishga, belgilangan kredit olish foizni o'z vaqtida qaytarishga va belgilangan yo'nalishda foydalanishdan iborat. Kredit davlatning Markaziy banki tomonidan tartibi solinadi.

Kredit ob'ekti bo'lib har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo'lgan pul hisoblanadi.

Kreditning manbai bo'lgan bo'sh pulning kelib chiqishi quyidagilardan iborat:

- ammortizatsiya puli uning muddati tugaguncha ma'lum qismi ishlatilmay to'planib borishi;

- ishlab chiqarishni o'stirish uchun foydadan investitsiya puli muhim ajratib boriladi, lekin bu pul ma'lum miqdorda yig'ilgandan keyingina investitsiya qilish mumkin;

- xom ashyo, yoqilg'i va materiallar uchun oldin sarflangan pul tovar sotilishi bilan egasiga qaytib keladi, lekin ularni yangidan sotib olish shu vaqtning o'zida yuz bermaydi;

- ish haqi pulini kelib tushish va sarflanishi bir vaqtda yuz bermaydi;

- davlat byudjetiga pul daromadlarining kelib tushishi va ularning sarflanishi bir xil vaqtda yuz bermaydi va boshqalar.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida kreditning quyidagi turlari mavjud:

1. Bank krediti – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga moliya-kredit muassasalari tomonidan beriladigan ssuda ko‘rinishidagi kredit. Bank krediti yo‘nalishlarining, muddatining va kredit kelishuvlari summasining cheklanmaganligi bilan tijorat kreditining kamchiliklarini to‘ldiradi:

2. Iste‘mol krediti – aholiga tijorat krediti (tovarlarini haqini to‘lash muddatini uzaytirish orqali sotish) yoki bank krediti (iste‘mol maqsadlari uchun ssuda berish) shaklida beriladi.

3. Kommertsiya krediti – ishlab chiqarishda va savdoda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar o‘zaro bir-birlariga, sotilgan tovarni o‘tkazish ko‘rinishida foydalanadi. Bunda veksel muomala vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Veksel – pulni qarzga olgan tomonga belgilangan muddatda qat‘iy to‘lash majburiyati yuklatilgan qiymatga ega bo‘lgan qarzdorlik hujjati hisoblanadi.

4. Ipoteka krediti – uzoq muddatli ssuda ko‘chmas mulkni (yer, bino, inshootlar) garovga olish orqali beriladi.

5. Xo‘jaliklararo pul krediti – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bir-birlariga aktsiya, obligatsiya, kredit biletleri va boshqa turdagi qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladigan kredit.

6. Davlat krediti odatda byudjet kamomadini moliyalashtirishga, uy-joy qurilishiga va infratuzilmalarni rivojlanishiga beriladi. xalqaro kredit – xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida pul (valyuta) yoki tovar ko‘rinishidagi kredit tarzida amalga oshiriladi.

Ssuda juda qo‘hna hodisadir. Ssuda kapitali ma‘lum muddat mobaynida foydalanilganligi uchun haq foiz to‘lash sharti bilan qarzga berilgan pul mablag‘idir. Bozor sharoitida ssuda kapitalining bahosi, ssuda kapitaliga bo‘lgan

talab va taklif nisbati bilan belgilanadi. Kredit ssuda kapitalining harakati shakli sifatida xizmat qiladi.

Pul kredit siyosatining afzal tomoni uning tezkor va moslashuvchanligidir. Shuningdek fiskal siyosatiga qaraganda siyosiy bosimga kamroq bog'liqdir.

O'zbekiston pul-kredit siyosatining yo'nalishlari quyidagicha:

- davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish uni qattiq nazorat qilish;

- Markaziy Bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta'minlash, bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobida kredit berishi nazarda tutilmoqda, bu o'z navbatida Markaziy bank tomonidan, umuman, pul muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi; Kredit va byudjet tizimlari o'rtasida o'zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi sharoitida pul berib chiqarish hisobiga emas, davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish hisobiga qoplashi zarur.

Kredit siyosati avvalo iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida moliyalashtirishga qaratilgan.

25.5. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari

Bozor iqtisodiyoti ma'lum darajada barqaror rivojlaniishi dolzarb muammo hisoblanadi. Mamlakatimizni barqaror iqtisodiy inqirizsiz va barqaror rivojlantirishni ta'minlamasdan turib iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash asosiy masala hisoblanadi.

Inflyatsiya iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlani-

shu uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish zarur. Inflyatsiya yoki iqtisodiy tanglik bir zumda yuzaga kelmaydi. Inflyatsiya bu pulning qadrsizlanishi bilan bog'liq. Pulning qadrsizlanishi ishlab chiqarish xarajatlarini asossiz o'sib borishiga olib keladi. Oddiy qilib aytsak, ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga ma'lum muddatga ajratilgan mablag' xarajatlari nisbati ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy qiymati bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Qachon pul inflyatsiya yoki pulning qadrsizlanishi yuzaga keladi. Bu ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun jalb qilingan investitsiya mablag'larini tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishga nisbatan ortiqcha bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Agarda korxonalaridagi investitsiya mablag'laridan foydalanish tashkil etilmas ekan, bu holat mavjud kapitaldan samarali foydalanilmayotganligini bildiradi. Qanchalik investitsiya mablag'lari harakati hisobi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ko'p bo'lsa, investitsiya mablag'lari mahsulot birligiga sarfi shunchalik kam bo'ladi. Shuning uchun talab va taklif asosida pul va kredit mablag'lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlari bilan daromad o'rtasida optimal nisbatda bo'lishini ta'minlash zarur.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Pul muomilasi nimalardan iborat?
2. Muomilaga zarur bo'lgan pul miqdori qanday belgilanadi?
3. Pul muvozanatini aniqlash?
4. Pul agregatlari nimalardan tashkil topadi?
5. Pul taklifi va pul talabiga ta'sir etuvchi omillar?
6. Pul mul'tiplikator qanday aniqlanadi?
7. Lokkning pul nazariyasi?

8. Pul massasi qanday aniqlanadi?
9. Bank zahirasi qanday aniqlanadi?
10. Kredit mohiyati va vazifalari?
11. Bank tizimi qanday tashkil topgan?
12. Bank balansi necha qismdan iborat?
13. Respublikada pul-kredit siyosati?

Testlar

1. Pul qanday tovar?

- a) pul mahsulot almashuv qiymatiga ega bo'lgan tovar
- b) pul mehnat maxsuli bo'lgan qiymat o'lchovini bajaruvchi tovar

d) pul to'lov mablag'idir

e) pul absolyut xarid qilinadigan tovar

f) pul iqtisodiy aloqani amalga oshiruvchi tovar

2. Pul bozorida tenglik qanday belgilanadi?

a) muomalaga chiqarilgan pul miqdori bilan

b) muomalaga chiqarilgan tovarlar miqdori bilan

d) talab bilan iste'mol o'rtasida

e) pulga bo'lgan talab bilan taklif o'rtasida

f) tovarlarning umumiy qiymatiga va pul birligining aylanishi vaqtiga

3. Pul muvozanati nimada ifodalanadi?

a) iste'molchilar mablag'larini o'sishida

b) sotuvchilar mahsulotlari hajmini o'sishida

d) pulga bo'lgan talab va taklifning kelishuvi narxida

e) muomalaga talabga nisbatan ko'p miqdorda pul chiqarilsa

f) muomalaga chiqarilgan pul miqdoriga nisbatan taklif qilinayotgan tovarlar miqdori kam bo'lsa

4. Inflyatsiya aholining qaysi ismiga ko'proq ziyon keltiradi?

a) ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotganlarga

b) zayomlarni ushlab turuvchilarga

d) qarz beruvchilarga

e) nafaqalarga

5. Kredit nima?
- a) ortiqcha to'lanadigan pullar
 - b) qarz berish
 - d) qarz olish
 - e) ma'lum muddatga foiz to'lovi hisobiga qarz berish
 - f) bo'sh foydalanilmayotgan pullardan foydalanish
6. 2 yilga 10 % to'lovi bilan 100 ming kredit olingan bo'lsa qancha qo'shimcha mablag' bilan kreditni qaytarish lozim.
- a) 20 ming
 - b) 30 ming
 - d) 40 ming
 - e) 80 ming
 - f) 120 ming
7. Kredit berishning asosiy sharti nima?
- a) kredit olish va muddatida foizi bilan qaytarish
 - b) kreditning foydaliligi va qaytarish muddati
 - d) o'z vaqtida olingan kreditni qaytarish
 - e) kreditni o'z vaqtida qaytarilishini kafolatlanganligi
 - f) kreditga to'lanadigan foiz
8. Ssuda foizi nima?
- a) bank xizmatlarini qiymati
 - b) bank xizmatchilarining qiymati
 - d) ma'lum muddatda foydalanilgan mablag'larga foiz tariqasida to'langan qo'shimcha pul
 - e) pulning qiymati
 - f) tijorat banklarining foydasi
9. Bank foydasi qanday pul qiymatlaridan tashkil topadi?
- a) bankga qo'yilgan depozativ mablag'larga to'lovlar
 - b) berilgan kredit mablag'lariga olinadigan foizlar
 - d) depozativ foizlar bilan kredit foizlari o'rtasidagi farqlar
 - e) banklarning xarajati va daromadi o'rtasidagi farqlar
 - f) bankka qo'yilgan mablag'lardan foydalanish orqali keladigan daromad
10. Tijorat banklari qanday ishlarni bajaradi?
- a) bank mijozlari bilan hisob-kitobni

- b) qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini
- d) mol-mulk oldi-sotdisi bilan
- e) naqd va naqdsiz mablag'lar bilan hisob-kitobni
- f) pul muomalasini tartibga solish

11. Ayrim shaxslar hisob-kitoblarni o'zlarining cheklari orqali bankdagi hisob raqamlari orqali amalga oshiradilar. Bu qanday hisob raqam?

- a) jamg'arma hisob raqami
- b) hisob-kitob raqami
- d) korrespondent hisob raqami
- e) sintetik hisob raqami
- f) hisob raqamli tahlil

12. Banklar qanday operatsiyalar bilan shug'ullanadi?

- a) passiv operatsiyalar bilan
- b) aktiv operatsiyalar bilan
- d) passiv va aktiv operatsiyalar bilan
- e) naqd pulsiz operatsiyalar bilan
- f) kredit operatsiyalari bilan

13. Foiz stavkasi qanday belgilanadi?

a) tijorat banklaridan tadbirkor olgan ssuda (kredit) miqdoriga qarab

b) pulga bo'lgan talab va taklifga qarab

d) xalqaro valyuta fondi tomonidan berilgan kredit foiziga qarab

e) nasiyaga berilayotgan tovarlarning umumiy qiymatiga va qaytarish muddatiga qarab

f) tijorat banklarining foiz protsentiga qarab

14. Davlatning monetar siyosati nima?

a) pulni taklif qilishda olinadigan foiz darajasiga

b) talab taklifni vujudga keltiradi degan siyosatga

d) aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, aholining o'ziga bog'liq siyosatga

e) davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashmaslik siyosatiga

f) bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish siyosatiga

15. Moliya bozori niam?

- a) aktsiyalar bilan savdo qilish
- b) pul bilan savdo qilish
- d) veksel bilan savdo qilish
- e) qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish
- f) zayomlar bilan savdo qilish

16. Aktsiya nima?

- a) qimmatli qog'oz
- b) daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz
- d) pullarni saqlash usuli
- e) zayomlar
- f) kompaniyalar tomonidan chiqarilgan sotib olinadigan qimmatli qog'oz

17. Dividend nima?

- a) daromad
- b) foyda
- d) ish haqi
- e) kapital bahosi

26-bob. BANKLAR VA ULARNING OZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI

Tayanch so'zlar: bank krediti, iste'mol krediti, korxonalar krediti, kommertsiya (tijorat) krediti, ipoteka krediti, xo'jaliklararo pul krediti, davlat krediti, bank tizimi, konsalting, lizing, omilizm, injenering bank xizmatlari.

26.1. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi

Bank tizimi hamma davlatlar tizimida mavjud. Bank tizimlari rivojlangan erkin bozor raqobat asosida rivojlanayotgan davlatlarda bank tizimi ikki bosqichda tashkil topgan. Bunga AQShdagi qo'llanilayotgan bank tizimini misol qilib ko'rsatish mumkin.

AQShda birinchi bosqichdagi bank tizimi bo'lib davlatning zaxira mablag'larini saqlovchi Markaziy bank hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- emissiya pul birliklarini ishlab chiqaradi;
- davlatning qimmatli pul qog'ozlarini nazoratini olib boradi va ularda bo'lgan mavjud kamchiliklar oldini oladi;
- tijorat banklarini faoliyatlarini nazorat qiladi. Zarur holatlardan ularning faoliyatlari kerak bo'lsa to'xtatadi;
- davlatning qimmatli pul qog'ozlarini nazorat qiladi, kamchiliklar oldini oladi;
- davlat faoliyatini boshqaradi (hisob raqamlarini nazorat qilish asosida).

Banklarda zarur bo'lgan davlatlarda ularning faoliyatlarini nazorat qilib boradi. Mavjud aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etadi.

Frantsiyada uning markaziy banki pul-kredit tizimini nazorat qilib boradi. Frantsiyada uning milliy banki bilan birga milliy kredit berish kengashi va banklar faoliyatlarini nazorat qiluvchi uning milliy kengashi ham bank-kredit faoliyatini tartibga solishda faol qatnashadilar.

Rossiyada bank tizimini tashkil topishi o'zining xususiyatiga ega. Davlat tomonidan maxsus qonun ya'ni bank faoliyatini nazorat qilish bank va bank tizimini nazorat qilish. Markaziy bank faoliyatini nazorat qilish bo'yicha qabul qilingan qonunlar asosida ularning bank faoliyatlari o'rganiladi va tegishli xulosalar qabul qilinadi.

Bank-kredit tashkiloti o'zlarida to'plangan pullarni jamg'arma tariqasida saqlash, ularni kerak bo'lsa ishlab chiqarishga joylashtirish, bank hisob raqamlarini kerak bo'lsa ochish va ularni olib borish huquqiy va jismoniy shaxslardan xorijiy valyutalarni sotib olish va saqlash, qimmatbaho metallarni jamg'arish va saqlash vazifalarini amalga oshiradi. Banklar tijorat korxonalari kabi tijorat operatsiyalarini amalga oshirib boradi.

Banklar o'zlarining pul operatsiyalarini amalga oshirishda milliy iqtisodiyotning tarmoq korxonalari bo'yicha e'tibor berishda ularni samarali ishlashini ta'minlash bilan birga bank operatsiyalarini yakunlovchi ko'rsatkichi bo'lgan sarf qilingan investitsiyalar xarajatlarini qoplash va ma'lum darajada foyda olishga qaratiladi.

26.2. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan butunlay yangi davr talabiga javob beradigan mustaqil pul-kredit siyosatini shakllantirishni

talab etadi. Respublikada ikki bosqichli bank tizimi tashkil etildi. Bu bozor munosabatlarini shakllanishi talablariga javob beradi.

Kredit tizimi deganda – pul resurslarini tarkib toptiruvchi, o‘ziga jamlovchi, ma’lum muddatda qaytarib berish va haq to‘lash shartlari asosida ularni qarzga beruvchi muassasalarini majmui tushuniladi va uning uch bo‘g‘inini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1. Markaziy bank. 2. Bank tizimi: tijorat, jamg‘arma, investitsiya va maxsus banklari. 3. Maxsus kredit muassasalari; sug‘urta kompaniyasi nafaqa fondlari investitsion kompaniyalar, moliya kompaniyasi va boshqalar.

Markaziy bank pul, obligatsiya chiqarish (emissiya) bilan shuningdek mamlakatning butun bank tizimini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, ayni vaqtda valyuta zaxiralarini saqlaydi.

Maxsus banklar – muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatadi yoki ayrim harakatlarga ixtisoslashadi (investitsion, eksport, import va boshqalar). Xususan investitsiya bilan shug‘ullanuvchi banklar iqtisodiyotni har xil tarmoqlarini moliyalashtirish va uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi. Eksport bilan shug‘ullanuvchi banklar esa tashqi savdo bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarga ixtisoslashadi.

Tijorat banklari jismoniy va xususiy shaxslarga har xil bank xizmatlari ko‘rsatadi, xususan depozitlarni jalb etish, veksellik hisobi, kredit berish, qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish.

Bankning asosiy hujjatlaridan biri balans hisoboti hisoblanadi. U **aktiv** va **passiv qismdan** iborat bo‘ladi. **Aktiv qismi** bank egalik qiladigan kassa naqdini (qog‘oz pullar va tangalar), bank depozitlari (omonatlar), qimmatbaho

qog'ozlar, bank tomonidan berilgan ssudalarini o'z ichiga oladi.

Bankning balans hisobotining **passiv qismida**, bank oldiga qo'yilgan hamma talablar (bank egalari talablaridan tashqari) o'z aksini topadi. Passiv qismida bank depozitlari muhim o'rin tutadi.

Banklar o'z vazifalarini ikkita o'zaro bog'langan passiv va aktiv operatsiyalari ko'rinishida amalga oshiradi.

a) passiv-bank operatsiyalari zahiralarni shakllantirish operatsiyalari bo'lib, bunda depozitlar, ya'ni mijozlarni omonatlarini bankga jalb qilish amalga oshiriladi;

b) aktiv-bank operatsiyalarida to'plangan resurslarni joylashtirish va foydalanish operatsiyalari amalga oshiriladi.

Bank foydasi ularning aktiv operatsiyalari ya'ni pul mablag'lariga muxtoj bo'lgan sub'ektlarga bergan kreditlari bo'yicha oladigan foizni, mijozlar tomonidan bankga qo'yilgan mablag'lari uchun to'lanadigan bank foizlari o'rtasidagi farq bank foydasini tashkil etadi.

Aktiv operatsiyalar bo'yicha olingan foiz darajasi passiv operatsiyalarda to'lanadigan foiz darajasiga nisbatan past bo'ladi.

Ssuda operatsiyalaridan tashqari banklar keng doirada bank xizmatlarini ham ko'rsatadilar. Bunda ular oltinni sotib oladilar, pulni chet el valyutasiga almashtiradilar, zayomlarni tarqatadilar, aktsiya va obligatsiyalar sotadilar va sotib oladilar, qimmatbaho qog'ozlarni joylashtirib, saqlaydilar, qimmatbaho narsalarni saqlaydilar va boshqalar.

Bank tizimini buzilishiga asosiy sabablar:

- valyuta ko'rinishining o'zgarib turishi;
- pul-kredit siyosatini olib borishda yo'l qo'yilgan xatolar;

- o'ylamasdan qilingan fiskal siyosat.
- Bank tizimini barqarorlashtirish tizimiga:
 - bank qonunlarini takomillashtirish;
 - ustavnoy bank darajasida minimal bank zahiralari-ni-hisobga olish darajalarini muvofiqlashtirish;
 - yangi kredit va bank xizmatlarini tashkil etish va kredit bozorini tartiblashdan iborat.

Shu munosabat bilan so'nggi vaqtlarda konsalting, li-zing, omilning va injenering xizmatlaridan keng foydalan-moqdalar.

Konsalting – korxonalar, firmalar, tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatiga oid masalalar, shuningdek tashqi iq-tisodiy faoliyat sohasi bo'yicha ishlab chiqaruvchilar, so-tuvchlar va xaridorlarga maslahat berish.

Lizing – ishlab chiqarish inshootlarini, mashina, ish-lab chiqarish, transport vositalarini shartnoma asosida ma'lum haq evaziga uzoq muddatga ijaraga berish.

Omiling – mijozga aylanma kapital uchun kredit be-rish bilan birgalikda o'tkaziladigan savdo – vositachilik ha-rakatlarining bir turi.

Injenering – tijorat qoidalariga asoslangan injener-lik – maslahat xizmatlari: ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektla-rini qurib ishga tushirish yuzasidan maslahat berish.

Markaziy bank iqtisodiyotni samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Markaziy Bank qimmat pullar siyosatini amal-ga oshiradi (restriktiv):

– ochiq bozorda davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotadi;

– hisob stavkasini oshiradi;

– zaxira normasini oshiradi.

Qimmatbaho pul siyosati pul taklifini qisqartirish orqa-

li, kreditni qimmat va qiyin oladigan qilib qo'yadi. Natijada investitsiya qisqartirilishi orqali, jami talab kamayadi va inflyatsiya chegaralanadi.

Keysanchilar nazariyasiga asosan monetar siyosati asosini foiz stavkalari darajasi asos qilib olinishi kerak, monetaristlar fikricha esa pul taklifining darajasi tashkil etishi kerak. Keysanchilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb hisoblaydilar, monetaristlar esa uni inkor etadilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda pul kredit siyosatida ikkita modelni sintez qilingan varianti qo'llaniladi. Uzoq muddatli davrda monetaristik pul – kredit siyosati qo'llaniladi. Qisqa muddatli davrda esa foiz stavkalarida fiskal pul – kredit siyosatidan foydalaniladi.

Bank tizimini mustaxkamlashda so'mning xarid qilish qobiliyatini oshirish uchun pul inflyatsiyasini oldini olish, pul miqdorini tovarlar va xizmatlar miqdorini tovarlar va xizmatlar miqdori bilan bog'lab borish va milliy valyuta kursini barqarorligini ta'minlash zarur.

26.3. Pul – kredit (monetar) siyosatni olib borish tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishda pul – kredit tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan qaytarib bermaslik shartlari bilan byudjet mablag'laridan foydalanishdan ozod qiladi. Shuning uchun ham «Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kredit siyosatini amalga oshirish vositasi tubdan o'zgardi, Markaziy bank oldida pul muomalasini tartibga solishning iqtisodiy usullarini egallashdek g'oyat murakkab vazifa turibdi. Shu jumladan:

- tijorat banklarining operatsiyalarini qaytadan

pul bilan ta'minlash. Bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobidan kredit berish ko'zda tutiladi. Bu esa banklarni o'z mablag'lari darajasini Markaziy bank mablag'lari darajasi bilan bog'lashga majbur qiladi;

- pul bilan qayta ta'minlashga kreditlar beriladigan, rasmiy hisobga olinadigan miqdor o'zgarishlarini tartibga soluvchi foiz siyosati;

- tijorat banklarining Markaziy bank hisoblaridagi mablag'larning bir qismini zaxira uchun olish me'yorini, Markaziy bank majburiy zahiralarning me'yorini tartibga solib, tijorat banklari operatsiyalarining hajmlariga muomaladagi pullarning hajmlariga ta'sir qilishi bilan birga Markaziy bank qattiq kredit-pul siyosatini o'tkazish bo'yicha zarur choralarni ko'rib borishi lozim.

Pul - kredit siyosatini to'g'ri shakllanishi ishlab chiqarish va muomaladagi pul miqorini to'g'ri belgilashni ta'minlaydi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuv mavjud. Bu keynsancha nazariya va zamonaviy pul miqdori nazariyasi (monetarizm).

Monetar pul siyosati asosida yaxlit iqtisodiyotga pul va kredit siyosatining ta'sir jarayonlarini o'rganuvchi pul nazariyasi yotadi.

26.4. Qimmatli qog'ozlar bozori va inflyatsiya

Qimmatli qog'ozlar yuridik huquqqa ega bo'lgan qimmatli qog'oz bo'lib uni egasi bo'lgan sub'ektga unda ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqqan holda ma'lum miqdorda dividend tariqasida daromad olishni ta'minlaydi. Qimmatli qog'ozlar davlat va korporatsiyalar tomonidan chiqariladi. Qimmatli qog'ozlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- birinchi guruhga aktsiya, opsiyon guvohnomalar, moliyaviy f'yuchers, orderlar va konosamentlar kiradi;

- aktsiya – bu qimmatli qog‘oz bo‘lib o‘zida ma‘lum miqdordagi pulni ifoda etadi. Aktsioner jamiyati aktsiyasi uni egasiga ma‘lum miqdorda foyda olishni ta‘minlaydi;

- aktsiyalar oddiy va imtiyozli aktsiyalarga bo‘linadi;

- shaxsiy aktsiya – qog‘ozlari odatda aktsionerlar jamiyati tomonidan bir shaxsga berilishi bilan va u aktsionerlar jamiyati tomonidan maxsus shu jamiyat kitobida ro‘yxatga olinadi.

Agar shu aktsiya egasi o‘zgarsa uni qayta ro‘yxatga olish zarur. U erkin olinadi va sotiladi. Imtiyozli aktsiyalar daromad olishni aktsionerlar jamiyatini samarali yoki samarasiz bo‘lishidan qat‘iy nazar foyda olishni ta‘minlaydi. Dastlab aktsionerlar nominal qiymatda (ko‘rsatilgan qiymatda) sotiladi. Keyinchalik sotuvda bozor narxlariga asosida sotiladi.

Aktsiya kursi talab va taklif asosida tashkil topadi u quyidagicha belgilanadi:

$$\text{Aktsiya kursix} = \frac{\text{divident}}{\text{foiz normasi}} * 100\%$$

Opsion guvohnoma qiymatli kontrakt qog‘ozi bo‘lib olish va sotish huquqini ma‘lum aniq tovarni belgilangan narxda belgilangan muddatda sotish huquqini beradi.

Moliyaviy fyuchers – qimmatli qog‘oz bo‘lib uni egasini sotib olish va sotishni kelajakda oldindan belgilangan narxda sotishni ifoda etadi.

Konosament – yuk tashuvchi va yuk egasi o‘rtasida tuzilgan bitimni ifoda etadi.

Varrant – mulk egasi mulkini skladga qo‘yish uchun beriladigan xujjat.

Ikkinchi guruhga – veksel, banknot, chek, obligatsiya, depozit va saqlanayotgan pul uchun banklar tomonidan

beriladigan sertifikatlar kiradi. Obligatsiyalar qisqa muddatli (3-5 yil)ga va qisqa muddatli (3-6 oy)ga beriladi. Muddati o'tgan obligatsiyalar o'zining qiymati bo'yicha yopiladi. Undan foydalanganlar esa ma'lum darajada foyda oladilar.

Depozitvajamg'armasertifikatlari turli muddatlar-ga qo'yish pul ularga sertifikat beriladi u bank tomonidan berilgan guvohnoma hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar muomalaga kirguncha quyidagi bosqichlardan o'tadilar:

- yangi korxonani tashkil etish bilan borg'liq bo'lgan tayyorgarlik;

- qimmatli qog'ozlarni dastlabki bozorga joylashtirish;

- qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi bozorga joylashti-rish;

- qimmatli qog'oz bozorini faoliyat ko'rsatish sharti. Bozordagi qimmatli qog'ozlar narxlari katta bo'lmagan narxlarida olib borilishi;

- qimmatli qog'ozlar bozori samarali bo'lishi;

- bozor tuzilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimni tarqatishi;

- qimmatli qog'ozlar bozori ishonchli bo'lishi kerak.

Qimmatli qog'ozlar bozori bo'lib fond birjasi hisobla-nadi. Fond birjasi qimmatli qog'ozlarni narxini belgilaydi. Fond birjasi qimmatli qog'ozlarni harakatini ya'ni ularni bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa yoki korxonalar va fir-malar bo'yicha harakatini ta'minlaydi. Fond birjasi qim-matli qog'ozlarni to'g'ri narxini belgilash va ularni hara-katini tartibga solib turishidan iborat. Qimmatli qog'ozlar narxlarini fond birjasida doimiy ravishda hisobga olib bo-riladi qimmatli qog'ozlarni narxlarini hisobga olishni **birja kotirovkasi** deyiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida muomala uchun chiqarilayotgan pullar qog'oz pullar bo'lib ularning pul qiymatlariga qarab ma'lum miqdordagi oltin qiymatini ifoda etmaydilar. Umuman ko'p mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda talab va taklif nisbatlarini muvofiqlashtirishning asosiy omili bu muomalaga ko'proq pul chiqarish asosida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish mumkin deb hisoblaydilar. Albatta agarda iqtisodiy rivojlanishga zarur bo'lgan miqdorda muomalaga pul chiqarish zarur. Uning ortiqchasi ham yetishmasligi ham iqtisodiy inqirozni kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ladi. Muomalaga talabga nisbatan pul kam chiqarilsa tovarlarning qiymati asossiz arzonlashadi, ortiqcha chiqarilsa ularning narxi ko'tarilishi va pulning qadrsizlanishiga olib keladi.

Inflyatsiyani bo'lishini, borligini narxlarni o'sishida, tovar narxlarini uni ishlab chiqarish xarajatlariga muvofiq emasligida ko'rish va sezish mumkin. Inflyatsiya suzib yuruvchi shaklida bo'lsa tovarlarni narxlar odatda 10 foizgachan bir yilga bo'lishi mumkin. Galopir inflyatsiya narxlar yil davomida yuqori foizlarda o'sib xatto 1000 foizgachan yil davomida bo'lishi mumkin. Bunday holatdagi inflyatsiya sharoitida pul muomalasini yangidan tartibga solish zarur.

Balanslashtirilgan inflyatsiya sharoitida tovarlar narxlari odatda bir biriga moslashtirilgan bo'ladi.

Nobalanslashtirilgan inflyatsiya sharoitida esa tovarlar narxlar bir-biriga moslashtirilmagan holda bo'ladi.

Inflyatsiya kutilayotgan va kutilmagan holatlarda ham bo'ladi. Kutilayotgan inflyatsiya sharoitida uni iste'mol bozorlarida narxlarga ta'sirini necha foizga o'zgarishini bilgan holda tovarlar narxlari ana shu inflyatsiya foizi darajasida tovarlar va xizmatlar narxlarini oshiradilar. Milliy

iqtisodiyotda kutilmagan inflyatsiya darajalari milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga sezilarli darajada salbiy ta'sirini o'tkazadi. Talab inflyatsiyasi davrida talab va taklif o'rtasidagi nisbat buziladi. Buning uchun ish xaqlarini oshirish yoki narx-navoni tartibga solish orqali inflyatsiyani oldini olish mumkin.

Taklif qilinayotgan inflyatsiya davrida esa ishlab chiqarish xarajatlari o'sishi narxlarni ko'tarilishiga olib keladi. Shuning uchun davlat bir yil ichida 1-2 marotaba ish xaqini oshirish asosida talab va taklifni muvofiqlashtiradi. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishga asosiy sabab:

- davlat tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarilishi, yuqori narxlarda firmalar xizmatiga xaq to'lash asosida kredit-moliya mexanizmini buzilishi;

- kasaba ittifoqlarini ish xaqlarini oshirish to'g'risidagi harakatlari;

- yirik oligopolistik kompaniyalar, firmalar tomonidan iste'mol tovarlariga oligopolistik narxlarni belgilashlari inflyatsiyani vujudga keltiradi.


Inflyatsiya oqibatida – qog'oz pullar miqdori asossiz ravishda ko'payadi va uni xarid qilish qadri tushadi; aholining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan turmush sharoitlari og'irlashadi; davlat tomonidan aholini yashirin holatdagi pulni konfiskatsiya qilinadi; tadbirkorlik, ishlab chiqarish darajasi pasayadi. Inflyatsiyani oldini olishni asosan ikki usuli mavjud:

- birinchi usulda inflyatsiyani oldini olishda inflyatsiya jarayoniga moslashgan holda olinayotgan daromadlarni indeksatsiya qilish va narxlarni nazorat qilishga asoslanadi;

- ikkinchi usulda esa inflyatsiya darajasini pasaytirish va uni yo'q qilishga harakat qilishdan iborat. Bular asosan ishlab chiqarish xarajatlarini tushirish va ishsizlikni oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Iqtisodchi olim Fillips 1958 yilda ishsizlik va inflyatsiyaning vujudga kelishi sabablarini o'rganish asosida nominal ish haqini ishsizlik bilan bog'liq ekanligini asoslab ishsizlik tovarlar, xizmatlar va ish haqini o'sishi bilan bog'liq ekanligini asoslab beradi.

Avstriyalik iqtisodchi olim iqtisod va statistika bo'yicha ko'zga ko'ringan bo'lib, u Angliya (1861-1987-yillarda) iqtisodni taxlil qilish asosida o'zining buyuk kashfiyotini ya'ni Fillips egri chizig'ini taklif etgan (26.1-rasm). Unga asoslangan holda ish haqini o'sib borish darajasini ishsizlikka bog'liq ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha qanchalik ishsizlik darajasi past bo'lsa, ularni qisqartirish shunchalik qiyin bo'ladi deb hisoblangan.



26.1-rasm. **Fillips egri chizig'i**

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Bank zaxirasi qanday aniqlanadi?
2. Kredit nima?
3. Kredit mohiyati va vazifalari.
4. Bank tizimi qanday tashkil topgan?
5. Bank balansi nimani ifoda etadi?
6. Bank balansi qanday aniqlanadi?
7. Bank balansi necha qismdan iborat?
8. Respublikada pul-kredit siyosati.

Testlar

1. Davlatning monetar siyosati nima?
 - a) pulni taklif qilishda olinadigan foiz darajasiga
 - b) talab taklifni vujudga keltiradi degan siyosatga
 - d) aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, aholining o'ziga bog'liq siyosatga
 - e) davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashmaslik siyosatiga
 - f) bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish siyosatiga
2. Moliya bozori niam?
 - a) aktsiyalar bilan savdo qilish
 - b) pul bilan savdo qilish
 - d) veksel bilan savdo qilish
 - e) qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish
 - f) zayomlar bilan savdo qilish
3. Aktsiya nima?
 - a) qimmatli qog'oz
 - b) daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz
 - d) pullarni saqlash usuli
 - e) zayomlar
 - f) kompaniyalar tomonidan chiqarilgan sotib olinadigan qimmatli qog'oz
4. Dividend nima?
 - a) daromad
 - b) foyda
 - d) ish haqi
 - e) kapital bahosi
5. Tijorat banklari qanday ishlarni bajaradi?
 - a) bank mijozlari bilan hisob-kitobni
 - b) qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini
 - d) mol-mulk oldi-sotdisi bilan
 - e) naqd va naqdsiz mablag'lar bilan hisob-kitobni
 - f) pul muomalasini tartibga solish
6. Ayrim shaxslar hisob-kitoblarni o'zlarining cheklari orqali bankdagi hisob raqamlari orqali amalga oshiradilar. Bu qanday hisob raqam?
 - a) jamg'arma hisob raqami

- b) hisob-kitob raqami
 - d) korrespondent hisob raqami
 - e) sintetik hisob raqami
 - f) hisob raqamli tahlil
7. Banklar qanday operatsiyalar bilan shug'ullanadi?
- a) passiv operatsiyalar bilan b) aktiv operatsiyalar bilan
 - d) passiv va aktiv operatsiyalar bilan
 - e) naqd pulsiz operatsiyalar bilan
 - f) kredit operatsiyalari bilan
8. Foiz stavkasi qanday belgilanadi?
- a) tijorat banklaridan tadbirkor olgan ssuda (kredit) miqdoriga qarab
 - b) pulga bo'lgan talab va taklifga qarab
 - d) xalqaro valyuta fondi tomonidan berilgan kredit foiziga qarab
 - e) nasiyaga berilayotgan tovarlarning umumiy qiymatiga va qaytarish muddatiga qarab
 - f) tijorat banklarining foiz protsentiga qarab
9. Pul bozorida tenglik qanday belgilanadi?
- a) muomalaga chiqarilgan pul miqdori bilan
 - b) muomalaga chiqarilgan tovarlar miqdori bilan
 - d) talab bilan iste'mol o'rtasida
 - e) pulga bo'lgan talab bilan taklif o'rtasida
 - f) tovarlarning umumiy qiymatiga va pul birligining aylanishi vaqtiga
10. Pul muvozanati nimada ifodalanadi?
- a) iste'molchilar mablag'larini o'sishida
 - b) sotuvchilar mahsulotlari hajmini o'sishida
 - d) pulga bo'lgan talab va taklifning kelishuvi narxida
 - e) muomalaga talabga nisbatan ko'p miqdorda pul chiqarilsa
 - f) muomalaga chiqarilgan pul miqdoriga nisbatan taklif qilinayotgan tovarlar miqdori kam bo'lsa
11. Inflyatsiya aholining qaysi ismiga ko'proq ziyon keltiradi?
- a) ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotganlarga
 - b) zayomlarni ushlab turuvchilarga
 - d) qarz beruvchilarga
 - e) nafaqalarga

27-bob. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING O'RNI

Tayanch so'zlar: bozor, bozor iqtisodiyoti, davlat bozor infratuzilmasi, raqobat, davlatning roli, iste'mol bozori, narx, milliy valyuta barqarorligi, samaradorlik, adolatlilik, barqarorlik, A.Smitning davlat to'g'risidagi nazariyasi, D.Rikardoning davlat to'g'risidagi nazariyasi, Dj.M.Keynsning davlat to'g'risidagi nazariyasi, M.Fridman nazariyasi, iqtisodiy mexanizm, xuquqiy mexanizm, xususiy mexanizm.

27.1. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishning mohiyati va zarurligi

Keyingi ikki asr ichida iqtisodiyotni boshqaruvini ikki usuli bo'lgan bozor va davlat boshqaruvi bo'yicha tarixiy tajribalar Yetarli darajada. Boshqaruvning ikki usuli o'zaro bog'liqlikda rivojlanib biri birinchi darajalik holatiga ega bo'lsa ikkinchisi esa ikkinchi darajali holatiga ega bo'lgan. Bu boshqaruv shakllari albatta bir-birlariga qarama-qarshidir. Shu bilan birga boshqaruv institutning ikkala shakliga qarshilik ham bo'lishi mumkin. Buning asosiy sababi davlat bu jamoani, ijtimoiy tizimini qo'llab turuvchi tashkilot bo'lib u bozor iqtisodiyoti sharoitida ham faol ana shu vazifalarni bajaradi. Davlat va bozor boshqaruvi o'rtasida raqobat infratuzilmalar rivojlandi.

Bozor iqtisodiy mexanizmi bo'lib o'zining iqtisodiy rivojlanishini tashkil etishda asosiy iqtisodiy vazifalarni xal qila olish qobiliyatiga ega. Bozor sharoitida uning asosiy sub'ektlari o'zlarining iqtisodiy holatlarini yaxshilash va olayotgan foydalarini o'sib borishini ta'minlashga intiladilar. Bozor sharoitida uning sub'ektlari erkin holatda

o'zaro iqtisodiy muloqotlarni olib boradilar. Bozor sharoitida ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi sub'ektlar o'zlarining iqtisodiy manfaatdorliklaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish jarayonini tashqil etadilar va iste'mol bozori talablari bor tovarlarni ishlab chiqaradilar hamda iste'mol bozorlarida o'zlari yoki ularning tovarlarini iste'mol bozorida taklif qiluvchi sub'ektlari iste'mol qiluvchi sub'ektlar bilan iqtisodiy muloqotga kirishadilar. Ishlab chiqaruvchi sub'ektlar o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini qondirish maqsadida iste'mol bozorida olib boradigan iqtisodiy munosabatlari natijasida nafaqat o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini jamiyat a'zolarining ham ob'ektiv tarzda ijtimoiy manfaatlarini ham qondiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'plab ishlab chiqarish sub'ektlarini o'zlarining ishlab chiqargan tovarlari bilan iste'mol bozorlarida qatnashuvi bozorda pul muomilasi harakatini rivojlanishida naqt va naqtsiz pullarni, turli qiymatga ega bo'lgan aktsiyalarni faol qatnashuvini ta'minlaydi. To'g'ri bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining xatti-harakatlari, iste'mol bozorida "pul-tovar" "tovar-pul" ko'rinishidagi harakatlari mustaqil ravishda olib borilsada ular davlat tomonidan qabul qilingan qat'iy qonunlar asosida tartibga solib boriladi. Bozor iqtisodiyotini asosini bozor mexanizmi tashkil etib uning asosiy jihozlari bo'lib narx, talab, taklif va raqobat hisoblanadi.

Buning asosiy sababi davlat bu jamoani, ijtimoiy tizimini qo'llab turuvchi tashkilot bo'lib u bozor iqtisodiyoti sharoitida ham faol ana shu vazifalarni bajaradi. Davlat va bozor boshqaruvi o'rtasida raqobat bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan infratuzilmalar rivojlandi.

Buning asosiy sababi ayrim tarmoq sub'ektlarining moliyaviy darajalarini o'sib borishi natijasida ta'lim, sog'liqni saqlash, transportlarni sug'urta qilish, aloqa va axborotlar tizimida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shu bilan birga bozor iqtisodiyotida bo'ladigan rivojlanishni salbiy tomonlarini oldini olish faqat davlat aralashuvi orqali bartaraf etilishi mumkin.

Bozor sharoitida iste'mol bozorlarida talab va taklif asosida shakllangan narxlar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar bilan iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni qanday yo'nalishda bo'lishini belgilashga asos bo'ladi. Bozorda tovarlarga iste'mol bozorida belgilangan narxlarga qarab iste'mol tovarlarini ishlab chiqaradilar. Iste'mol tovarlariga bo'lgan talab ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish faoliyatlarini o'zgarishiga ta'sir etadi. Bozorda iste'mol tovarlariga belgilangan narxlarni qay darajada bo'lishi bozor mexanizmining asosini tashkil etuvchi vosita bu erkin raqobatni tashkil etilishi hisoblanadi. Raqobat milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida zarur bo'lgan nisbatlarni o'rnatishi natijasida iqtisodiy inqirozlarni bo'lishini oldini olishni ta'minlaydi. Bozor mexanizmi, milliy iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ammo bozor iqtisodiyoti tizimi xo'jaligini olib borishda ma'lum kamchiliklardan xoli emas. Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi. Jumladan mamlakatni milliy xavfsizligini ta'minlovchi tovarlar, jamoa foydalanuvchi tovarlar va xizmat ko'rsatish shaxobchalari, atrof-muhitni ximoya qilish, yo'llar, sog'liqni saqlash, umumta'lim muassasalari va boshqalardan iborat. Ijtimoiy ishlab chiqarilgan tovarlardan jamoa a'zolari foydalanishi bilan ajralib turadi.

Demak jamoa a'zolari tomonidan foydalanadigan tovarlar va xizmat ko'rsatish muassasalari asosan davlat tomonidan tayyorlanadi. Mulkdorlar tomonidan ijtimoiy talabni qondirish tovarlari va xizmat ko'rsatish usullarini tashqil etgan xollarda ham ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar asosan pullik bo'ladi. Bozor iste'moli ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari sarflari har bir ishlab chiqarish sub'ektining iqtisodiy holatidan kelib chiqadi. Lekin bozor iqtisodiyoti insonning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan huquqlarini kafolatlamaydi. Bozor mexanizmi inson huquqlarini iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishda mehnat qilish huquqini ham kafolatlamaydi. Bozor mexanizmi noishlab chiqarish resurslarini ximoya qila olmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkin bozor mexanizmi milliy iqtisodiyotni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan inqirozsiz rivojlantirishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud muammolarni xal qilolmasligi tufayli ularni bajarilishini tartibga solishda davlat tomonidan bozor iqtisodiyotini boshqarishi talab etiladi.

27.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni bevosita va bilvosita usuli

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi sifatida ish olib borib, iqtisodiyotni va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim. Sobiq tizimni parchalanishi natijasida yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning ko'pchiligi, demokratiyaning nihoyatda keng talqin qilinishiga yo'l qo'yib, davlatning tashkilotchilik roliga ye-

tarli e'tibor bermadilar va shu sababli ularda bozor iqtisodiga o'tish ko'p tartibsizliklarga olib keldi.

Mustaqil O'zbekiston bu yo'ldan bormadi, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib borish eng oqil yo'l ekanligini aniqlab oldi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida (22 yanvar 2000y.) nutqida: «Davlatning kuch-quvvati avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy, salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib borish qobiliyati bilan o'lchani»,– degan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida monopollashtirish institutlarini shakllantirishga qiziqish bo'ladi. Ammo davlat tomonidan qabul qilingan antimonopol qonun orqali monopoliyaga qarshi chora va tadbirlar ko'riladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor sub'ektlarini jamoa manfaatlari uchun ishlab chiqarishga qiziqish past bo'lsada, ular foyda olish maqsadida "ijtimoiy manfaatni qanoatlantiruvchi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda faol qatnashadilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy axborotni takomillashgan natijasida iste'mol bozorida talab va taklif xajmlari muvofiq bo'lmasligi holatlariga ham olib kelish mumkin. Masalan mahsulotlarini sifatini bilishi foydalanish unga bo'lgan xarajatlarini miqdori va boshqalar iste'molchilarni qiziqitirsada u ishlab chiqaruvchilar tomonidan ko'pincha sir tutiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat davlat o'rtasida ularning mulkiy xuquqlarini himoya qilishi bilan bog'liq bitim orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqishning huquqiy sha-

roitlarini yaratib berolmaydi. Bunday sharoitni faqat davlat tomonidan ta'minlanadi. Buning uchun sub'ektlar bilan davlat o'rtasida ularning mulkiy xuquqlarini himoya qilish bilan bohliq tuzim orqali amalga oshiriladi.

Davlatning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish bilan bandlikni ta'minlash va narxlarni qat'iyligini, milliy valyutani barqarorligini, tashqi iqtisodiy munosabatlarni muqobilligini ta'minlashdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning asosiy vazifasi mulkiy egalik xuquqini himoya qilish, axborot tizimini himoyalash jamoa uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish, jamiyatni erkin rivojlanishni ta'minlash xuquqiy tartibni o'rnatish va mamlakatni ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlash. Albatta, iqtisodiy tanglik holatiga tushgan davlatlarning iqtisodiy siyosati tanqidga uchrashi va iqtisodiy taraqqiyotga olib borilayotgan davlatning iqtisodiy siyosatiga ijobiy baho berilib, u olqishlarga sazovor bo'lishi ham mumkin. Umuman olganda, yangi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davrda biz bozor iqtisodiyoti oldida turgan muammolarni hal qila olish qobiliyatiga egamizmi? – degan savol tug'iladi. Albatta, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda to'tgan o'rnini inkor etolmaymiz, chunki u kup iqtisodiy muammolarni hal eta oladi. U avvalo ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarini birlashtiradi va birgalikda iqtisodiyotni rivojlantirishga undaydi. Chunki, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar iste'molchilar talabini qondiradigan darajada sifatli va qiymati jihatidan ularni qanoatlantiradigan qiymatlar-da u mahsulotlarini va xizmat turlarini taklif etadilar.

Bozor mexanizmlari fan va texnika yutuqlarini yangi ishlab chiqarish texnologiyalari ko'rinishida ishlab chiqarishga joriy etishlari natijasida, mahsulot ishlab chiqarish

xarajatlarning kamayishiga va uning qiymatini arzonlashuvga olib keladi.

Bozor orqali tovarlarga belgilanayotgan baholar ishlab chiqarish jarayonini ma'lum yo'nalishlarga yangi investitsiya mablag'larini qaysi sohalarga yo'naltirishni belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti davrida davlatning o'rni, uning vazifasi mohiyati kamayadimi? Albatta yo'q. Jamiyatda shunday sohalar borki, unga bozor mexanizmi ta'sir eta olmaydi. Bular birinchi galda ijtimoiy tovarlar, ya'ni jamoa bo'lib iste'mol qilinadigan tovarlar va bajariladigan xizmatlar (milliy mudofaa, transport, ta'lim) tizimidir. Bu sohada ishlab chiqarishni tashkil etish vazifasini davlat o'z zimmasiga oladi. Undan tashqari bozor mexanizmini hal eta olmaydigan muammolari mavjud. Ular quyidagilardir: atrof-muhitni muhofaza qilish, ishsizlikka qarshi ko'rashish, inflyatsiyalarning oldini olish va boshqa muammolarni davlatning aralashuvisiz hal etish mumkin emas.

Davlat o'zining alohida mavqeiga ko'ra, hamma davrlarda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazib kelgan. Hozirgi o'tish davrida davlat iqtisodiyotning, ayniqsa uning asosini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, soliq solish va qarz berishda ma'lum tabaqalarga imtiyozlar yaratishi, shuningdek, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan muhim tarmoqlarga madad berishi lozim. Bozor munosabatlariga o'tishning qiyin davrida aholining manfaatlarini faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga ega bo'lgan davlatgina himoya qilishga qodirdir.

Ayni paytda, davlatning vazifasi himoya bilan cheklanibgina qolmay, bozor munosabatlarining qaror topishi davrida davlat islohot jarayonida faol ishtirok etishi, uning tashabbuskori bo'lishi va islohotlarning asosiy yo'nalish-

larini va bozorga o'tish yo'llarini ishlab chiqishda peshqadam bo'lishi kerak. Davlat iqtisodiy islohotning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi. Eng muhimi esa shundaki, ularni amalga bevosita oshirish kerak. Chunki, faqat davlatgina umummilliy iqtisodiy manfaatlarini mujassam holda ifodalashga va himoya qilishga, aholining barcha kuchlarini umum maqsadlar asosida jipslashtirishga qodir.

Davlat o'z iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslarini, o'ziga xos «bozor shart-sharoiti»ni vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat iqtisodiy erkinliklarning kafolatchisi bo'ladi. Shu tufayli davlat iqtisodiyotga o'zining tartibga solish ta'sirini maqbul ravishda o'tkaza oladi. Tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad uning yo'llarini ishlab chiqish, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning strategik yo'lini belgilash va bu yo'lni o'tkazish yuzasidan taktik qarorlar qabul qilish, davlat zimmasiga yuklatiladi. Ijtimoiy muammolarni hal etishda, bevosita aholini ijtimoiy himoyalashning samarali va aniq ravshan tizimini vujudga keltirishda davlatning ahamiyati katta. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalarining qaror topishi va rivojlantirishiga ko'maklashish ham davlatning burchidir. Yuqorida aytilganlarga xulosa qilib aytish kerakki, hozirgi davrda, ya'ni aholini ijtimoiy himoyalash muhim o'rin tutayotgan bir davrda, bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarish muhim o'rin tutadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu haqda lo'nda qilib aytib qo'yg'ganlar.

«Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan

hozirgi bozor davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir¹

Bozor sharoitida davlat o'z zimmasiga oladigan, ya'ni bozor mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni quyidagi guruhlarga bo'lib ko'rishimiz mumkin. Bular:

1. Iqtisodiyotni kerakli miqdorda pul bilan ta'minlash.

2. Bozor faoliyatini tashqi, salbiy ta'sirlardan himoyalash, boshqarish (masalan ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlarini).

3. Pul bilan o'lchab bo'lmaydigan va talabga aylantirib bo'lmaydigan jamoatchilik noz-ne'matlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish. Ya'ni mudofaa, jamoat tartibini saqlash, davlat boshqaruvi, yagona energetik tizimi kabi jamoat foydalanishdagi xizmat va tovarlarni yetkazib berish ham davlat zimmasidir.

Iqtisodiyotda davlat aralashuvini biz davlatning 3 ta vazifasi orqali ifodalashimiz ham mumkin. Bular: samaradorlik, adolatlilik va barqarorlikdir.

Samaradorlilik vazifasini bajarishi davlatning tadbirkorlik faoliyati uchun muhit yaratib berishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga davlat o'zining monopoliyaga qarshi siyosati orqali biznes olamida raqobat muhitini ham yaratadi. Bunday muhitlarning yaratilishi esa o'z navbatida tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga alohida sifatli va arzon mahsulot hamda xizmat yaratilishi uchun zamin bo'ladi.

Adolatlilik vazifasi davlatning ijtimoiy siyosatida o'z ifodasini topadi.

Barqarorlik vazifasi esa davlatning iqtisodiy rivojining davriy shaklini tugatuvchi: ishsizlik, inflyatsiya, ishlab

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 112-113 betlar.

chiqarish tangligi kabi muammolarni hal etuvchi makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlarida amalga oshiriladi. Yuqoridagi uchta global vazifadan tashqari davlat huquqiy asos va ijtimoiy iqlimni ta'minlash, kichik biznes va kasanachilikni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ilm-fan olamidagi muhim tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni rag'batlantirish, hududiy muammolarni hal etish kabi vazifalarni ham davlat o'z zimmasiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlarga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erishaolamiz" ¹degan edilar.

Shuning uchun ham 2020-yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berilgan.

27.3. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik, monetaristik va kenscha nazariyalari

Bozor iqtisodiyoti davrida davlatning aralashuviga munosabat, uni vujudga keltirish va rivojlanishlari har xil bo'lgan. Bozor munosabatlari tarkib topgan davr (XVII va XVIII asrlarda) Merkantilistlar fikri hukmron bo'lgan.

Uning mohiyati sanoat va savdoni rivojlantirish uchun davlat tomonidan iqtisodiyotning tartibga solinishi zarurligida edi. XVIII asr ohirida merkantilizmning o'rniga kelgan klassik maktab namoyondalari A.Smit, D.Rikardo va boshqalar davlatning iqtisodiyotini tartibga solinishiga aralashuviga salbiy munosabatda bo'lganlar. Bu g'oyani

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi Xalq so'zi. 2020. 25-yanvar. 2 bet

birinchi marta A.Smit asoslab bergan. Uning fikricha, bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi omil bozor hisoblanadi, bundan kelib chiqqan holda bozorga to'liq mustaqillik berilishi lozim. Davlat esa, iqtisodiyotga aralashmaslik siyosatini olib borishi lozim. Hozirgi zamon neoklassik kontseptsiyalar vakillari (monetarizm, rasional ko'tish nazariyasi) g'oyalari o'sha klassik maktab g'oyalaridan kelib chiqadi.

Endi iqtisodchilar, davlat hukumatlari oldida iqtisodiy inqirozlarning oldini oladigan, uning oqibatlarini yumshatadigan, inflyatsiya va ishsizlikni bartaraf etadigan milliy iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini topish asosiy masala bo'lib qoldi. Ana shunday mexanizmni angliyalik iqtisodchi Dj.M.Keyns asoslab berdi. Dj.M.Keyns iqtisodiy inqirozlar va ishsizlikning asosiy sababi, iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalariga yetarli iste'mol talabning bo'lmasligi, deb ko'rsatadi.

Bunga asosiy sabab, daromadlar o'sgan sari foydali ne'matlarga bo'lgan talab pasayib, insonlarda daromadlarini jamg'arish harakati kuchayadi. Bu degan so'z, tadbirkorlarning ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabi ham pasayib borishi natijasida foyda ham kamayib boradi. Shuning uchun ham uning fikricha, davlat iqtisodiyotga aralashishi va uni tartibga solishi zarur. Demak, Dj.M.Keyns davlat o'zining iqtisodiy sohasida olib boradigan siyosati vositasida, jami talab va jami taklifni bir-biriga muvofiqlashtirish iqtisodiyotni tanazzul holatidan chiqarish va barqarorlikni ta'minlashi kerak, degan fikrni ilgari surgan.

Dj.M.Keyns 1920-yilda o'zining "Bandlik nazariyasi, foiz va pul" nomli asarida iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada tahlil qilishni taklif etgan. Makroiqtisod ijtimoiy

ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni ifoda etadi.

Nazariy jihatdan Dj.M.Keynsning qarashlari iqtisodiyot nazariyasida yangi, makroiqtisodiyot bulimi vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Amaliy jihatdan esa, ikkinchi Jahon urushidan sung Dj.M.Keynsning g'oyalari (ya'ni pul kredit va moliya vositasida jami talabni tartibga solish) hamma rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatning asosi qilib olindi. Bu esa, ushbu mamlakatlardagi iqtisodiyotni davriy tebranishlarning yumshatishga olib keldi. Aytish mumkin-ki, ushbu nazariyani ko'pgina mamlakatlar hukumatlari o'z iqtisodiy siyosatlarining yangi yo'nalishiga asos qilib oldilar. Davlatlar iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalari bozorlarini kengaytirish yo'li bilan samarali talabni kuchaytirishni maqsadga muvofiq, deb e'tirof etdilar.

G'arb mamlakatlarda iqtisodiyotni davlatlashtirish siyosati olib borilishi natijasida iqtisodiyotda davlat sektori vujudga keldi. Hukumatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va yoriq rejalarni tuzishni tashkil etdi, katta davlat bozorini vujudga keltirib, o'zining buyurtmalarini bajarishga (ular katta foyda keltirar edi) katta firmalarni jalb etdi.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida, erkin tadbirkorlikni va cheklanmagan raqobat tarafdorlari bo'lgan neokonservatorlar keynsantlikka qarshi chiqdilar. Ularning namoyondasi Amerikalik iqtisodchi Milton Fridman iqtisodiy erkinlik himoyachisi bo'lib maydonga chiqdi. M. Fridman (1974–1975) yildagi inqirozlar sababli, Amerika iqtisodiyotini barqarorlashtirish kontseptsiyasini ishlab chiqdi. U inflyatsiyaning oldini olish uchun davlat muomaladagi pul hajmini qattiq, nazoratga olishga asosiy e'tiborni qa-

ratgan. M. Fridman monitar ya'ni (fiskal') siyosatini ilgari surdi. Fiskal' siyosati makroiqtisodning asosiy elementi bo'lib pul-kredit siyosati orqali taklif qilinayotgan pul hajmiga va unga to'lanadigan foiz darajasiga ta'sir etadi.

Monitar siyosati Rossiya davlatida ham YE.Gaydar tomonidan qo'llanildi. U larzali terapiya nomi bilan mashhur bo'lib, ko'zlangan natijalarni bermadi. AQSH, Angliya, Germaniya va boshqa bir qator mamlakatlarda neokonservatorlik yo'riqlariga asosan iqtisodiy siyosat asosida «samarali taklif» – xususiy tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi qoida asos qilib olindi. Erkin tadbirkorlik foydali bo'lishi uchun, foydadan va mehnat daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari pasaytirildi. Kam samarali deb topilgan tarmoqda davlatni xo'jalik ishlariga aralashuvi kamaytirildi. Davlat korxonalarining bir qismi xususiy lashtirildi. Ko'pgina mamlakatlarda xalq xo'jaligini rivojlantirish qisqardi, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish birmuncha kamaytirildi. Ammo bozorning o'zi davlat tomonidan tartibga solinishiga muhtoj.

Chunki bozorning o'zi hal eta olmaydigan muammolar bor, bular muhtojlik, inflyatsiya, ishsizlik va h.k. Demak, rivojlangan mamlakatlarda, ya'ni bozor iqtisodiyotini hozirgi o'zining xususiyatiga, fe'liga ko'ra qarama-qarshi bo'lgan ikki vosita, ya'ni bozor va davlatning bozor munosabatlariga aralashuvi tartibga soladi. Professorlar P.Samuel'son va N.Nordxaus (AQSH) hozirgi zamon makroiqtisodiy boshqarish fe'lini shunday tushuntirdi. Bozor mexanizmi ko'pgina sohalarda baho va ishlab chiqarishni aniqlaydi, ayni vaqtda davlat va soliq, xarajatlar vositasi yordamida bozorni tartibga soladi. Ikkala tomon – bozor va davlat muhimdir. Ularning unisi yoki bunisi bulmagan

sharoitda iqtisodiyotni boshqarishga harakat qilish – bir qo‘l bilan chapak chalishga harakat qilish bilan barobardir.

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti varianti qabul qilingan. Ya‘ni, bizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlat bozor mexanizmini yaratadi va uning hayotda harakat qilishini ta‘minlab beradi. Bu to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan: «Iqtisodiyotni erkinlashtirishda bosh vazifa, eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, birinchi galda, xususiyl biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat. Ayniksa, xususiyl biznesga ko‘proq erkinlik berish lozim. Umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko‘proq erkinlik berish zarur.

Buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliyl va iqtisodiy shart– sharoit va kafolatlarni yaratishimiz kerak»¹. Keyingi bosqichda esa, ya‘ni bozor mexanizmi ishga tushganda, bizning iqtisodiyotimiz mavjud sharoitlardan kelib chiqqan holda, bozor mexanizmi va davlat tomonidan boshqarilib boriladi.

27.4. Davlatning iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlari

Davlat iqtisodiyotni ma‘muriyl, iqtisodiy, xususiyl mexanizmlar orqali boshqaradi. Davlat, firmalar o‘zining korxonalariga tayinlagan rahbarlari va ma‘muriyl muassasalar tomonidan iqtisodiyot rivojini nazorat qilib borishga ma‘muriyl boshqarish deyiladi. Davlatni iqtisodiy usullar

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2000 y. 19 bet.

orqali bozorni tartibga solish tadbirlari davlat ixtiyoridagi korxonalarni boshqarish byudjet, soliq va pul-kredit siyosati orqali, hamda kapital sarflarni nazorat qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usullar shunday qo'llanishi kerakki, bunda ular bozor kuchini, o'rnini bosmasliklari kerak. Aytaylik olib borilayotgan soliq siyosati ishlab chiqarish darajasini ko'tarishiga baholar esa talab va taklif muvozanatini ta'minlashi kerak. Iqtisodiy uslublar orqali, davlat iqtisodiyot taraqqiyotini salbiy tomonlarini doimo kuzatib, uni oldini olishi yoki hal etishi mumkin. Keyingi davrlarda iqtisodiyotni tartibga solishning bevosita va bilvosita usullaridan ham foydalanilmoqda. **Bevosita uslubda** asosan davlat tomonidan rejalashtirish hisobiga iqtisodiyotni tartib solinmoqda. **Bilvosita usulida** iqtisodiyot taraqqiyotida kamchiliklarni o'rganib, ularni bartaraf etish yo'li bilan va moliya kredit vositalari, soliqlar siyosati orqali iqtisodiyot tartibga solinadi.

O'zbekiston Prezidenti «Bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish, odatda, iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni boshqarish, hamda ijtimoiy muammolarni hal etish yo'li bilan bevosita, shuningdek huquqiy va iqtisodiy vositalar yordamida bilvosita amalga oshiriladi»¹,– degan edi.

Milliy iqtisodiyotni boshqarishdan maqsad: a) ijtimoiy ehtiyojlar tarkibi; b) zarur bo'lgan foydali ne'matlar va xizmatlar to'plami; v) ijtimoiy ishlab chiqarish strukturasi o'rtasida mutanosiblikka erishishdan iboratdir.

Davlat o'z faoliyati natijasida qanday asosiy masalalar

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – buyuk kelajaksari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 117 bet.

va muammolarni hal etmog'i zarur. Bular quyidagilardan iboratdir, fan va texnika taraqqiyotini strategik istiqbol- lashtirish, umumiy nuqtai nazaridan fan va texnika taraqqiyotining kuchayishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga baho berish va uzoq muddatga xalq xo'jaligining rivojlanishini istiqbolashtirish, jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalash pul-moliya tizimini talabga javob beradigan holda harakat qilishini ta'minlash, transport, aloqa va madaniyat muassasalari, sog'liq-ni saqlash va ijtimoiy ta'minot, moddiy texnika bazasini davlat tomonidan ishlab chiqilgan kontseptsiya asosida rivojlantirish. Hozirgi davrda iqtisodiyotni tartibga solishning muhim shakli sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan dasturlashtirish keng tarqalib bormoqda. Bunda davlat tomonidan eksport, import, mablag'lar, malakali ishchilarni tayyorlash ilmiy tadqiqotlar o'tkazish dasturlarini ishlab chiqishdir. Endi yuqoridagi vazifalarni bajarishda davlat qanday vositalardan foydalanadi? Ularning asosiysi quyidagilardan iborat: fiskal' va pul siyosati, ijtimoiy siyosat va daromadlarni tartibga solish siyosati, tashqi iqtisodiy siyosat.

Umuman olganda, davlat iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

- bozor iqtisodiyotini huquqiy asoslarini ta'minlash;
- bozor mexanizmini yaxlitligi va uning normal ishlashi uchun shart-sharoit yaratish;
- aholini qtisodiy jihatdan himoya qilish va daromadlarni adolatli taqsimlash;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning samarali rivojlanishini ta'minlash.

Davlatning byudjet mablag'larini taqsimlash siyosati-

ga, uning fiskal' siyosati deyiladi. Pul siyosati ham iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Pul miqdorini tartibga solish orqali davlat baho darajasiga, investitsion jarayonlariga va aholining iste'moliga, milliy ishlab chiqarish hajmiga va iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etishi mumkin. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning vositalari bir-biri bilan bog'liqdir. Bunda bir sohada qabul qilinayotgan qarorni boshqa sohalarga ta'sirini, albatta, inobatga olmoq zarurdir. Ularga asosan narx-navolarning oshishi bilan jamg'armalarni indeksasiyalash, yashash minimumini o'rnatish, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatishdan iborat. Ijtimoiy siyosat undan tashqari ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohaslarini ham o'z ichiga oladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning xalqaro savdo, valyuta munosabatlarida to'tgan o'rni bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini tarkib topishi sari, bozor mexanizmi shakllantiriladi va u iqtisodiyotni tartibga solish vositalaridan biri bo'ladi. Bunda davlat o'ziga xos bo'lmagan funktsiyalarni bozor mexanizmiga o'tkazib, iqtisodiyotni tartib solish hammaga ma'lum dasturlar – moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxlarni nazorat qilish, hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari yordamida amalga oshiriladi va iqtisodiyotni tartibga soluvchi ikkinchi vosita bo'ladi.

27.5. Davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir etish usullari

Bozor iqtisodiyotini barqaror inqirozsiz rivojlanishini davlat tomonidan uni rivojlanishiga turli usullar asosida

ta'sir etmasdan turib uni rivojlantirish mumkin emas. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish va uni rivojlantirish bo'yicha unga ta'sir etuvchi omillar **bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi** omillarga bo'linadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan bevosita milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Bu omillardan ichki ta'sir etuvchi omillar asosan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun iqtisodiy tarmoqlar yo'nalishidan kelib chiqqan holda ularni zarur bo'lgan korxonalarni tashkiliy holatlarini ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish to'g'ri javob berishi kerak. Korxonalar va firmalar ishlab chiqarish xomashyo, texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishlari, yetarli darajada ishchi kuchlarini bo'lishiga, ishlab chiqarish jarayonlarini va mehnat xodimlarini dam olishlari uchun yetarli darajada javob beradigan infratuzilmalarga ega bo'lishlarini nazorat qilish. Ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni nazorat qilinishi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun uni nazoratini doimiy ravishda bilvosita tartibga solib turish amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti talablari asosida nazorat qilishda asosan bevosita nazorat qiluvchi sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi. Bevosita nazoratni amalga oshirilishi korxonalar ularning yuqori tashkilotlari tomonidan belgilangan qonunlar va ishlab chiqilgan talablar asosida nazorat qilinadi. Nazorat qilish asosida ishlab chiqarishni tartibga solish uchun korxonalar va firmalarda mavjud bo'lgan kamchiliklar aniqlanadi va tegishli chora va tadbirlar ishlab chiqiladi. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy rivojlanishi talabga javob

bermaydigan korxonalar va firmalar faoliyatiga bevosita ta'sir etish uning samaradorligini oshirish ishlariga ma'muriyat tomonidan shu korxonalar va firmalarni nazorat qilish ishlarida ma'muriy chora va tadbirlardan foydalanish o'zining ahamiyatiga ega. Jumladan:

- milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nisbatlarni barqarorligini, ularning ixtiyoridagi korxonalar o'rtasidagi nisbatlarni muvofiqligini ta'minlash;

- iqtisodiy ishlab chiqarish tarmoqlarini investitsiyalashtirish shu tarmoq va ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirishni nazorat qilishni ta'minlash;

- iqtisodiy tarmoq va ularning ixtiyoridagi korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va olayotgan foydalarini taqsimotini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan soliq to'lovlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlab chiqarish xodimlari ish xaqklarini mehnatlariga qarab to'lashni nazorat qilishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishini nazorat qilish va ishlab chiqarish samaradorligini o'sib borishini ta'minlashda ***bilvosita usulda*** nazorat qilish iqtisodiy ahamiyatga egalligi quyidagilar asosida ko'rsatib berish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy taxlil qilish asosida ishlab chiqarish xarajatlarini ob'ektivligini aniqlash va uni kamaytirish chora va tadbirlarini ko'rish;

- mehnat unumdorligini oshirish chora va tadbirlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatlarini oshirish;

- ishlab chiqarish sub'ektlari bilan iste'mol bozorida

iste'molchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish mumkin.

Iqtisodiyotni bilvosita usul asosida tartibga solishda iqtisodiy omil va vositalarga asosiy e'tibor berilgan holda davlatning pul-kredit siyosatini takomillashtirishda quyidagilarga:

- hisob stavkalarini tartibga solishda;
- moliya-kredit muassasalarining markaziy bank zahiralari minimal xajmini belgilash, iqtisodiy zaruriyat bo'lgan uni xajmini o'zgartirish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishga asoslanadi.

Iqtisodiy bilvosita usullari asosida banklar jamg'armalaridan qarzga beriladigan yoki zahiralari darajasini o'zgarishini markaziy bank tomonidan tartiblash, tijorat banklariga ishlab chiqarish sub'ektlari uchun qarz berish va Markaziy bank orqali jamg'arma majburiyatlarini belgilash ishlari amalga oshiriladi. Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosati davlat tomonidan ishlab chiqilgan soliq siyosati asosida davlat byudjeti va xarajatlari tartibga solinadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash va asosiy vositalarini innovatsion yangilashni ta'minlash uchun tezkor amortizatsiya ajratmalari normativlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishda qo'llayotgan tashkiliy iqtisodiy usullari iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Bozor iqtisodiyoti uning asosiy belgilari?
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi?
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri?
4. Bozor sharoitida narxlarning shakllanishi?
5. Milliy valyutani mustahkamlash uni qadrini oshirish?
6. Davlatning iqtisodiy siyosatiga nazariy jihatdan yondoshuvlar?
7. Davlatning boshqarish mexanizmlari?

Testlar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qaysi muammoni o'rganish zarur?
 - a) markazlashtirilgan pul mablag'larini tashkil etish va uni to'g'ri taqsimlanishini ta'minlash
 - b) ishlab chiqarish korxonalarining pul daromadlaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlash
 - d) ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmini to'g'ri belgilash
 - e) jamiyatga zarur bo'lgan tovar va xizmat ko'rsatishni rejalashtirish
 - f) daromadi talabga nisbatan cheklangan iste'molchilarga yordam berish
2. Davlat ijtimoiy sohani qanday moliyalashtiradi?
 - a) eksportni kamaytirish orqali
 - b) importni ko'paytirish orqali
 - d) soliqlardan tushgan tushumlar orqali
 - e) transport to'lovlari orqali
 - f) tovarlarni talonlar orqali tarqatish asosida
3. Pul hajmini davlat qanday belgilaydi?
 - a) faqat transport orqali
 - b) pul-kredit siyosati orqali
 - d) antimonopol siyosat orqali
 - e) bozor mexanizmlarini takomillashtirish orqali
 - f) soliq va trasfert to'lovlaridan foydalanish orqali
4. Davlatning antimonopol siyosatini maqsadi nimadan iborat?

- a) monopoliyalarni (tanho xokimlikni) tugatish
 - b) raqobatni yo'qotish
 - d) erkin raqobatni rivojlantirish
 - e) bozor mexanizmi harakatlarini chegaralash
 - f) bozor mexanizmini takomillashtirish
5. Makroiqtisodiy tenglik nima?
- a) jami talab bilan jami taklif o'rtasidagi nisbat
 - b) jami iste'mol talabi bilan baho o'rtasidagi nisbat
 - d) jami iste'mol talabi bilan ish haqi o'rtasidagi nisbat
 - e) jami taklif bilan baho o'rtasidagi nisbat
 - f) jamg'arma bilan talab o'rtasidagi nisbat
6. Jami talabni jami taklifga mosligini nima ifoda etadi?
- a) jami talabni o'sishi
 - b) jami taklifni o'sishi
 - d) ishlab chiqarish hajmini narx darajasiga mos kelishi
 - e) jami talabni o'sishi va jami taklifni o'sishi
 - f) jami talabni kamayishini jami taklifni o'sishiga
7. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi?
- a) davlat antiinflyatsiya, narx, soliqlar, normativlashtirilgan investitsiya va tarkibiy siyosat orqali
 - b) byurokratik usullar asosida
 - d) huquqiy va iqtisodiy usullar orqali
 - e) qonun va farmonlar orqali
 - f) boshqa davlatlar bilan kelishilgan holda

28-bob. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI

Tayanch so'zlar: daromad, ish xaqi, foyda, dividend, aktsiz, renta, ijtimoiy to'lovlar, yashash darajasi, J.Sey ish xaqi nazariyasi, J.V.Klarkning unumdorlik g'oyasi, ta'rif tizimi, malaka so'rovnoma-si, ta'rif jadvali, nominal daromad, real daromad, daromadlar teng-sizligi, Lorens egri chizig'i, absalyut tenglik, absalyut notengsizlik, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy ximoyalash.

28.1. Daromadlar va ularining shakllanish manbalari

Bizga ma'lum har qanday mulkchilik egaligiga asoslangan holda iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar o'zlarining aholilarini ongli anglagan ravishda yoki ko'plab ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish hisobiga foyda olishni maqsad qilib ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida aholining turmush darajalarini yaxshilab borishni e'tiborga olmagan holda ularning yashash darajalarini yaxshilanib borishiga xizmat qiladilar.

Respublikamizda aholining turmush darajalarini iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan yaxshilab borish asosiy dolzarb masala ekanligi hammaga ma'lum.

Aholining turmush darajasi nima bilan ifodalanadi?

Aholining turmush darajasi ularga zarur bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish darajasiga bog'liq. Ularni qanday iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilash mumkin?

- yashash uchun zarur bo'lgan turar-joyga ega bo'lish;
- kiyim-kechaklar bilan to'liq ta'minlanishi;

- iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talablarni to'liq qondirilishi;
- mehnat qilishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish;
- sarflagan mehnatiga barobar ish haqini olishi;
- transport xizmatlaridan foydalanishga ega bo'lish;
- dam olish uchun zarur shart-sharoitlarni bo'lishi;
- sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish;
- ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlanishi;
- mehnat qilish, dam olish inson erkinligini ta'minlashga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish bozor iqtisodiyotining asosiy muammosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarishni tushunamiz"¹ degan edilar.

Jamiyat taraqqiyoti moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, yaratilgan jami ijtimoiy mahsulotdan sarf etilgan moddiy va mehnat, resurslari xarajatlari qoplangandan so'ng qolgan mahsulot milliy daromad tariqasida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyotining omillari mehnat investitsiya va yer egalari o'rtasida dastlab ishlab chiqarish ne'matlari taqsimlanadi. Taqsimot mikroiqti-sodiyot darajasida korxonalar va turli xo'jalik birlashmalari o'rtasida amalga oshiriladi. Bu ish haqi, foyda, foiz va yer rentasi shaklidagi daromadlardan iborat bo'ladi. Bu daro-


¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Halq so'zi 2019 yil 1 sentyabr 1 bet

madlar boshlang'ich va qayta taqsimot bosqichlaridan o'tadi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishda bevosita taqsimot etganlardan tashqari qayta taqsimotga ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmag'anlar ham ishtirok etadi.

Aholining ishlab chiqarishda band bo'lgan qismining qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz qayta hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2018-yil dekabr oyida 2561,3 ming so'mni tashkil etib, 2017-yilning mos davriga nisbatan 29,1% ga o'sdi, 2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1822,2 ming so'mni tashkil etib, 2017-yilning mos davriga nisbatan 25,0% ga o'sdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sishi iqtisodiy faoliyat turlarining axborot va aloqa (33,8%)ga sanoat (30,6%)ga bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatlarida (29,9%)ga qurilish (29,2%)ga bo'lgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018-yil yanvar-dekabr)



O'rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik

faoliyatida – 3500,5 ming so‘m (respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 92,1%ga yuqori), ahborot va loqada – 3 347,5 ming so‘m (83,7% ga) sanoatda – 2 731,1 ming so‘m (49,9% ga), tashish va saqlashda – 2 507,4 ming so‘m (37,6% ga), qurilishda – 2 297,3 ming so‘m (26,1% ga) yuqori bo‘lgan.

Respublika bo‘yicha o‘rtacha real hisoblangan ish haqi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 550,4 ming so‘mni tashkil etib, 2017-yilning mos davriga nisbatan 6,4% ga o‘tdi. Qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha oylik nominal ish haqi (28.1-jadval)da keltirilgan.

Ish haqi jami daromadlar qismida asosiy bo‘lakni tashkil etadi. Ish kuchi bu insonning moddiy ishlab chiqarishda foydalanadigan mehnatga layoqati bo‘lib, jismoniy va ruhiy kuchi yig‘indisini tashkil etadi. U ishlab chiqarishning shaxsiy omilidir. Mehnat esa kishilarni biror maqsadga qaratilgan faoliyati, ish kuchidan foydalanish jarayoni. Ish kuchi va mehnat tushunchalari bir-birlaridan farq qiladilar. Inson tadbirkor bilan bitim tuzish orqali ma‘lum muddatga o‘z mehnatini sotib ish haqi oladi, haqiqatda esa u tadbirkorga o‘z ish kuchini idora etishni tuzilgan bitim orqali topshiradi. Aholining yashash darajasiga baho berishda asosiy mahsulot turlarini jon boshiga iste‘mol qilish, oila o‘ziga tegadigan qismini pul daromadi sifatida oladilar. Bu pul harid uchun sarflanib, ehtiyoj qondiriladi. Bozor iqtisodiyotida daromad olish cheklanmaydi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi¹**

	Yanvar-Dekabr		Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan %	
	2017	2018	2017	2018
O'zbekiston Respublikasi	1 457,8	1 822,2	100,0	100,0
<i>Shu jumladan</i>				
Sanoat	2 090,7	2 731,1	143,4	149,9
Qurilish	1 777,9	2 297,3	122,0	126,1
Savdo	1 676,5	1 990,3	115,0	109,2
Tashish va saqlash	2 028,6	2 507,4	139,2	137,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 037,9	1 260,4	71,2	69,2
Axborot va aloqa	2 502,2	3 347,5	171,6	183,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	2 694,7	3 500,5	184,9	192,1
Ta'lim	1 160,2	1 396,4	79,6	76,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	979,4	1 173,1	67,2	64,4
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 381,9	1 652,4	94,8	90,7
Boshqa faoliyat turlari	1 261,8	1 711,2	86,6	93,9

Daromad deganda, nimani tushunish kerak? Daromadlar bu ma'lum vaqt mobaynida olingan va shaxsiy iste'mol uchun tovar va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'lari summasidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida


¹ O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati

pul daromadlari to'rt manba asosida olinadi: a) ish haqi; b) foyda; v) mulkdan olinadigan daromad; g) ijtimoiy to'lovlar. Ish haqi daromadlar tarkibiy qiymatining asosini tashkil qiladi.

Aholi farovonligini ifodalashda jami aholining, oilalarning, alohida shaxslarning umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega. Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda milliy hisoblar xalqaro statistika standartlariga, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga asoslangan Davlat statistika qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan idoralararo uslubiy qo'llanma asosida hisoblanadi. Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda quyidagi manbalardan foydalaniladi: Davlat statistika hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistik organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlama kuzatuv ma'lumotlaridan, bunedan tashqari Moliya Vazirligi, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Davlat Soliq qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklarining aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlaridan.

Aholining umumiy daromadlari – doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlari 286,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2017-yilning mos davriga nisbatan 110,3% real o'sish sur'atiga erishiladi.

**2018-yilning yanvar-dekabr holatiga
O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy
daromadlarining o'sish sur'atlari
(2017 yilning mos davriga nisbatan, %)**



Aholining umumiy daromadlari nafaqat yollanib ishlovchilarning mehnat faoliyatidan olgan daromadlari, balki mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar, shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlaridan olingan daromadlar, mol-mulkdan olingan daromadlar (foizlar, dividenlar, mualliflik haqi, boshqa mulkiy daromadlar), transfertlardan olingan daromadlar (pensiflar, nafaqalar, stipendiyalar va boshqa joriy transfertlar) dan tashkil etadi.

2018-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlarining 76,5% ni birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo'lsa 23,5 foizni transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to'g'ri keldi. Aholi umumiy daromadlarining katta qismi 2018-yilda yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad-

larni o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar umumiy daromadlarning 71,1 foizini tashkil etgan. Aholi umumiy daromatlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 1,8 foiz, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 3,5 foizni, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 23,5 foizni tashkil qildi.

Ish haqi yollanib ishlovchilarning ishlab topgan daromadidir ish haqi tirikchilik vositalarini harid etish va pul jamg'armasini hosil etish uchun ishlatiladi. Foyda tadbirkorlarning pul sarflash, tavakkal ish qilib, xavf xatarni zimmasiga olgani uchun ularga tegadigan pul daromadi hisoblanadi. Tadbirkorning foydaga ega bo'lishi yoki uni boy berishi boshlagan ishning natijasiga bog'liq. Shuning uchun tabiatan foyda kafolatlanmagan daromad bo'lib, tez-tez o'zgarib turadi.

Mulkdan olinadigan daromad:

– dividend foydaning aktsiyadorlarga ulush sifatida tegadigan qismi. U aktsiya chiqargan korxonaning rentabelligiga bog'liq. Oddiy aktsiyaga tegadigan dividend kafolatlanmaydi. Imtiyozli aktsiyalarga beriladigan dividend esa kafolatlanadi;

– foiz pul egasi o'z pulini o'zgalarga qarzga bergani uchun oladigan daromadi. Foiz qarzga berilgan pul summasiga nisbatan ulush darajasida belgilanadi;

– renta ko'chmas mulk egalarini muqobil ishlatishdan olgan daromadi. Yer, imorat, uy-joylar va boshqalar ijaraga berilib, undan daromad olinadi;

– ijtimoiy to'lovlar davlat tomonidan to'lanadigan nafaqalar ishsizlik bo'yicha to'lanadigan to'lovlar va shu kabillardir.

Aholi daromadlarining mohiyatini tushunishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– har qanday jamiyatning birlamchi bo'g'ini oiladir. Demak, daromadlar muammosi, eng avvalo, oilani jami daromadlari sifatida namoyon bo'ladi;

– oila daromadlari uch manba asosida shakllanadi. Ish haqi, ijtimoiy to'lovlar va qo'shimcha (tomorqa, transport va h. k.) olinadigan daromadlar tashkil etadi.

Ma'lumki, insonning iqtisodiy faoliyati uning uchun daromad olish bilan yakunlanadi. Daromad xillarining asosiy qismi pul shakliga ega, chunki yaratilgan mahsulotdan odamlar o'z hissalarini sarf etgan mehnatlariga qarab ishlab chiqarilgan mahsulotdan pul shaklida oladilar.

Aholi yashash darajasini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$Yad = \frac{Mx}{As} \quad (28.1)$$

Bunda: *Yad* – aholining yashash darajasi;

Mx – iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi;

As – aholi soni.

“Aholi yashash darajasi”ni hisoblashda jon boshiga zarur bo'lgan iste'mol mahsulotlari hisoblanadi. U “Iste'mol savati”ni tashkil etadi.

Iste'mol savati ma'lum iste'mol darajasini ta'minlovchi tovar va xizmatlar to'plamini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda minimum tirikchilik ne'matlarini hisoblashda normativ usul qo'llaniladi. Minimum tirikchilik ne'matlari minimal iste'molchilar savatchasiga to'g'ri keladi. Oddiy iste'molchi savatchasiga 19 ta mahsulot kiradi. Iste'molchilar savatchasiga kiradigan mahsulotlar olimlar, biolog iqtisoschilar tomonidan tahlil etiladi va hisoblanadi.

Bir kishini iste'mol savatchasi

	Mahsulot nomi	O'lchovi	Oylik me'yor	Yillik me'yor
1	Non. Qora	kg	7.7	92.4
2	Non. Oq	kg	7.25	86
3	Guruch	kg	1.5	1.8
4	Vermishel	kg	0.6	7.2
5	Shakar	kg	2.1	25.2
6	O'simlik yog'i	kg	0.85	10.2
7	Sariyog'	kg	0.3	3.6
8	Mol go'shti	kg	3.5	42
9	Kolbasa (pishirilgan)	kg	1.8	21.6
10	Kolbasa (dudlangan)	kg	1	12
11	Sut	litr	15.5	186
12	Qaymoq	kg	0.35	4.2
13	Pishloq	Kg	0.2	2.4
14	Tuxum	10 dona	15	180 dona
15	Kartoshka	kg	12.5	150
16	Karam	kg	2.5	30
17	Piyoz	kg	0.85	10.2
18	Olma	Kg	1	12
19	Sigareta	Pachka	8	96

Iste'mol savati ma'lum iste'mol darajasini ta'minlovchi tovar va xizmatlar to'plamini o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqqan holda iste'molni «eng kam» va «qanoatlantiradigan» darajasi farqlanadi. Unda eng kam darajasi iste'mol qilishning eng quyi yoki kambag'allik darajasini ko'rsata-

di. Iste'molni «qanoatlantiradigan» darajasi inson uchun «yaxshi» iste'molni tarkibini va miqorini ko'rsatadi. Aholini yashash darajasi sifatida mehnat qilish sharoitlari va xavfsizligi yashash muhitining ahvoli, bo'sh vaqtning mavjudligi, undan foydalanish kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. O'zbekistonda iste'molchilar savatchasida 1 kishiga mahsulotlar quyidagi miqdorda belgilangan (28.2-jadval).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonini erkin raqobatga va erkin ishlab chiqarishni tashkil etilishiga asoslangan sharoitida ishlab chiqarish jarayonida mehnatga yaroqli mehnat resurslariga bo'lgan talab ishlab chiqarish egalari bo'lgan mulkdorlar ixtiyorida bo'ladi.

28.2. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari

Har bir mulkdor o'ziga zarur bo'lgan ish kuchini ishga taklif etadi va tegishli ish xaqlarini belgilaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining turmush darajasi qanday holatda bo'lishi ularning mehnatga yaroqli qismini ish bilan ta'minlanishi va olayotgan ish xaqi darajalariga bog'liq. Jamiyat a'zolari doimiy ravishda mehnat qilish faoliyatiga ega bo'lishlari uchun ular birinchidan o'zlarini mehnat qilish qobiliyatlarini doimiy ravishda tiklab borishlarim zarur. Ikkinchidan ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan har bir ishchi o'zining oilasini boqaolish darajasiga ega bo'lishi kerak. Uchinchidan milliy iqtisodiyotni innovatsiya asosida rivojlanib borishini o'sib borishi yuqori ilimga ega bo'lgan mutaxassislariga bo'lgan talabni o'sib borishi natijasida har bir oila boshlig'i o'zining farzandlarini davr talabiga javob beraoladigan darajada bilish va ta'lim olishlarini ta'minlashlari zarur.

Aholini turmush darajalarini o'sib borishi ularning ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvlari darajasida olayotgan ish xaqklariga og'liq. Ish xaqi asosiy daromad manbai bo'lib har bir shaxsni oilasini yashash uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanish darajasini belgilab beradi. Yuqorida biz respublikada o'rtacha nominal darajada ish xaqi to'lovlarini keltirgan edik. Ana shu ish xaqi to'lovlarini iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha tahlil qilganimizda tarmoqlarda ish xaqini turli darajada belgilanganligini ko'rish mumkin. Ish xaqi to'lovlari darajasi 2018-yilda ishlab chiqarish tarmoqlaridagiga nisbatan xizmat ko'rsatish tarmoqlari (bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik)larda axborot va aloqa tarmoqlarida respublikadagi o'rtacha oylik ish xaqiga nisbatan 192,1 va 183,7 foizlarda yuqori bo'lgan. Vaholanki, umuman iqtisodiyotda milliy bo'lyik yaratish asosida aholining turmush darajalarini farovonlik darajasiga ta'sir etuvchi moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqori bo'lishi kerak.

Jamiyat a'zolarining turmush darajalarini qay darajada ekanligini ularni zarur bo'lgan nozi-ne'matlar bilan uy-joy darajalari bilan va ijtimoiy talablarini qondirish darajalari bilan aniqlanadi. Shuning uchun aholining daromadlarini tabaqalanish darajalarini ishlab chiqarish korxonalarida, uning tarmoqlarida va iqtisodiy mintaqalar darajasida o'rganish zarur. Aholini daromadlarini tabaqalashuvi darajasi ichki va tashqi tabaqalashuvi darajalarini o'rganish lozim. Aholi daromadlari bo'yicha mamlakatlar bo'yicha ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot xajmlarini yoki kishi boshiga natura va qiymat shaklida ishlab chiqarilgan mahsulotni to'g'ri kelishi ko'rsatkichlari orqali aniqlash mumkin. Mamlakatni ichki darajasida esa ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotni kishi boshiga natural va qiymat

ko'rsatkichida aniqlash asosida aholining ijtimoiy turmush sharoitlarini o'zgarib borishi darajasini aniqlash mumkin. Shu bilan birga har bir viloyat iqtisodiy mintaqa darajasida qay miqdorda yalpi mahsulot ishlab chiqarayotganligi, uni natural va qiymat shaklida iqtisodiy mintaqalar bo'yicha kishi boshiga ishlab chiqarish darajalarini aniqlash asosida ularning mehnat daromadlarini tabaqalanishi darajalarini bilish mumkin.

Demak, iqtisodiy mintaqalar bo'yicha ishlab chiqari-
layotgan yalpi mahsulotlar xajmi, kishi boshiga mahsulot
ishlab chiqarishni natural va qiymat darajalari bo'yicha
farqlar borligini ko'rsatadi. Umuman aholini daromadlar
bo'yicha tabaqalashuvi mulkiy tabaqalashuvga olib keladi
va bu tabaqalashuv doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ishlab
chiqarishda band bo'lgan mehnat resurslari daromadlarini
tabaqalashuvini asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy tarmoqlarda ishlab chiqarish jarayonini
tashkil etishdagi tafovutlar;

- ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnat resurslarini
jismoniy, aqliy, ma'naviy, boshqaruv darajasidagi tafovut-
lar;

- aholi nafaqalari, aholiga yordam berish to'lovlari
o'rtasidagi farqlar;

- aholi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish darajalari;

- tormorqa yerlaridan samarali foydalanmaslik va
boshqa sabablardan iborat.

Aholining turmush darajalari va uning sifati inson-
ni yoki oilaning daromad darajalariga bog'liq. aholining
yashash darajalari ularni moddiy, ma'naviy va ijtimoiy
iste'mol talablarini qondirishda ifodalanadi.

Iste'mol darajalari minimal rejalashtirilgan va fizio-
logik darajadagi iste'mol darajasiga bo'linadi. Rejalashtiril-

gan iste'mol darajasi insonni iste'mol talablarini qondirishdan kelib chiqadi. minimal iste'mol darajasi – minimal iste'molni ifoda etadi. Uning xajmi insonni qanoatlantiruvchi iste'molidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fiziologik iste'mol darajasi – bu daraja insonni fiziologik talablari darajasidagi iste'molni ifodalaydi. Bunday iste'mol daraja bilan ta'minlanuvchilar undan past iste'mol darajasi bilan ta'minlansalar ular jismoniy jihatdan yashashlari mumkin emasligini bildiradi. Insonlarni yashash darajasini birinchi bo'lib nemis statistik olimi Ernst Engel iste'molni oilani olayotgan daromadiga bog'liqligini asoslab bergan. Iste'molchini daromadlarini o'sib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishi natijasidagi nooziq tovarlariga bo'lgan talab o'sib borishini asoslab bergan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson xayotini baholashda tasdiqlagan 12 ko'rsatkich bilan aniqlash tavsiya etilgan. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- tug'ilish, o'lish va boshqa demografik holatlar;
- yashash sharoiti, oziq-ovqat tovarlari iste'moli;
- ta'lim va madaniyat, mehnat sharoiti va bandlik;
- yashash bahosi va iste'mol narxlari, transport narxlari;
- dam olishni tashkil etish, ijtimoiy ta'minot;
- inson erkinligi.

Mamlakatlar o'rtasida turmush darajalarini aniqlashda ishlab chiqarilgan milliy daromad va yalpi ichki mahsulotni kishi boshiga ishlab chiqarilishini solishtirish asosida aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkich "sof iqtisodiy farovon turmush tarzi" ko'rsatkichi belgilanadiva u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$SIF=YAMM+UUXK+EV+YAI-AMI$$

SIF – sof iqtisodiy farovonlik;

AMM – yalpi milliy mahsulot;

UUXK – o‘zini o‘ziga xizmat ko‘rsatish; EV – erkin vaqt;

YAI – yashini iqtisod;

AMI – atrof muhitni ifloslanishi.

Mamlakatda ijtimoiy turmush darajasini barqarorligini BMT taklif etgan “insonni rivojlanish indeksi” aniqlashda quyidagilarni e‘tiborga olish zarur:

- insonni yashash umrini;

- 25 va undan ortiq yoshdagi har bir insonni o‘quv bilan band bo‘lgan yillari;

- mamlakatda umumiy iste‘mol va jamg‘arma umumiy resurslari, kishi boshiga yalpi milliy mahsulot (YaMM) tariqasida ko‘rsatkichlar asosida ham daromadlarni ta’baqalanish darajasini aniqlash mumkin. Uni oldini olishda, tengsizlikni kamaytirishda transfert to‘lovlari kam daromad oluvchilarni asosiy daromad manbai bo‘lib kambag‘allik darajasini yumshatishga xizmat qiladi.

28.3. Ish haqi to‘g‘risidagi nazariyalar va ularning iqtisodiy mazmunlari

Ish haqi to‘lash usullari vaqtbay va ishbay ish haqi usullariga bo‘linadi. Vaqtbay ish haqi to‘lash mehnat faoliyatini moddiy ne‘matlar bilan o‘lchab bo‘lmaydigan tarmoqlarda qo‘llaniladi. Ishbay ish haqi usullari asosan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish tarmoqlarida qo‘llaniladi. Ish haqiga ta‘sir etuvchi omillar o‘sha mamlakatda shakllanadigan an‘anaviy udumlar, ijtimoiy–madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun kerakli mablag‘larni tashkil etadi.

Ish haqi tarmoq kasb va boshqa omillar ta‘sirida differensiyalangan bo‘ladi. Bu yerda mehnatni sifatij darajasi

murakkabligi va inson kapitali darajasi katta ahamiyatga ega. Ish haqini o'rtacha darajasini differensialashtirish umumiy mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishning texnologik darajasi va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga qarab aniqlanadi.

Ish haqini tashkil topishi to'g'risida faniuz olimi J.B.Sey nazariyasida birinchi marotaba ko'rilgan. Uning fikricha ishlab chiqarish jarayonida uch omil, mehnat, Yer va kapital faol qatnashib, ular daromad yaratadilar. Ya'ni bu uch omil daromad manbaini tashkil etadi deb hisoblagan.

J.A.Sey ishlab chiqarish omillarini o'zining "Boyliklarning taqsimlanishi" nomli asarida ishlab chiqarishda yaratilgan boylik uchala omil o'rtasida taqsimlanadi degan fikrni bildirgan. To'g'ri bu omillar ishlab chiqarishda yangi yaratilayotgan boylikni yaratishning asosiy manbai hisoblanadi. Ammo bu boylik taqsimoti bu uch omil o'rtasida tenglik darajasida taqsimlanmaydi. Ishlab chiqaruvchi sub'ekt foydasi ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan ish kuchining ma'lum mehnatini qiymatiga haq to'lamasligi oqibatida foyda oladi. Bu nazariyani Amerikalik J.V.Klark yanada rivojlantirib ish kuchi unumdorligi qo'shilgan omil unumdorligi g'oyasi vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Ish haqi odatda ta'rif tizimi orqali tarmoqlar va mamlakat mintaqalariga qarab tartibga solinadi. Ish haqi xodimlar malaka ma'lumotlari e'tiborga olingan holda to'lanadi. Ta'rif tizimi malaka so'rovnomasidan, ta'rif jadvalidan va ta'rif ish haqi darajalaridan tashkil topadi. Ta'rif tizimi malaka ma'lumotlarini va ish haqi to'lash bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyentlarni o'z ichiga oladi. Ish haqi koeffitsiyentlari ishning oddiyligidan murakkablik darajalariga qarab belgilanadi. Ta'rif tizimi ishlab chiqarishda band bo'lgan ish kuchlarini yuqori darajada ish haqlari

olishga ularni o'z mutaxassislik va kasbiy mahoratlarini oshirishga davat etadi. Tarif malakasi kasblar va mehnat turlarini batafsil ifoda etadi. Uni bajarilishi uchun zarur bo'lgan kasbiy mahoratlarini ish razr'yatlariga bo'lishni ifoda etadi. Ishchining malaka darajasi uni ishga qabul qilishda berilgan razr'yat bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib aytsak jamiyatda aholining daromadlariga qarab tabaqalashuvi mavjud. Ishlab chiqarishning ijtimoiy samarasi kishilar farovonligi, ya'ni yashash darajasida namoyon bo'ladi. Kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirilish me'yori yashash darajasi deyiladi. Daromadlarni real va nominal shakli farqlanadi:

- nominal daromad pul shaklidagi jamiki daromadni o'z ichiga oladi. Bu daromad turmush darajasini ifodalamaydi, chunki qancha noz-ne'matlar iste'mol etilganligi narx-navoga ham bog'liq. Moddiy farovonlik darajasi real daromad bilan belgilanadi;

- real daromad, iste'mol tovarlari va xilma-xil xizmatlarda ifodalangan daromad bo'lib, pul daromadining harid qobiliyatini bildiradi, turmush darajasini umumlashgan holda tavsiflaydi. Real daromad jamiki pul daromadlaridan, turli to'lovning chegirib tashlanganidan keyin qolgan qismi sof pul daromadini narx o'zgarishlariga qiyosan hisoblash orqali topiladi.

Real daromadning oshgan yoki pasayganligi real daromad (Rd)da ifoda etiladi va pul daromadi indeksining (Pd) narx indeksiga (Ni) bo'lgan nisbati bilan o'lchanadi.

$$Pd = \frac{Pd}{Ni} * 100\% \quad (28.2)$$

Rd – real daromad;

Pd – pul daromadi indeksi;

Ni – narx indeksi.

28.4. Daromadlarning tengsizligi va uning sabablari. Lorens egri chizig'i

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining daromad olishdagi tafovutlari kuchayadi. Bozor iqtisodiyotida daromadlarning tengsizligi va ularning farqlanishi xosdir. Daromadlardagi tengsizlik kishilar ishlab topgan pul miqdorida katta farqlar bo'lishini bildiradi. Tengsizlikni asosan paydo etadigan omillar quyidagilar:

- kishilarning ish kobilyatlari, ya'ni kuch-quvvati, aql idroki, salohiyati, zakovatini bir xil emasligi;

- bilim olish, kasb egallash, malakani oshirish imkoniyatlari bo'lgan va ish topiladigan joyda daromad ko'p bo'lsa, bunday sharoitlar yo'q joyda daromad oz bo'ladi;

- tengsizlikni oila tarkibi har xil bo'lishini ham yuzaga keltiradi. Agar oila tarkibida pul toparlar ko'p bo'lsa, uning jami daromadi ko'p bo'ladi. Aksincha bo'lsa, daromad oz bo'ladi;


- daromadlardagi farqlarni bozor holatlari o'zgarishlari ham yuzaga keltiradi.

Bu ayniqsa tadbirkor daromadiga ta'sir etadi. Bozorda kutilmaganda, narx oshib ketsa, tadbirkor katta daromad topadi va aksincha bo'lsa, kutilgan daromad ham olinmaydi. Tengsizlik yuzaki qaraganda, adolatsizlikni bildiradi, ammo adolatli va adolatsiz tengsizlik mavjudligini yoddan chiqarmaslik kerak. Yuqori malakali, demak yuqori unumli mehnat uchun past ish haqi olishdagi tengsizlik adolatsiz tengsizlikdir.

Shuningdek, tadbirkorlikda ham shaxsiy xususiyatlar va tavakkalchilik darajalariga nisbatan yuqori yoki past

foyda olishdagi tengsizlik ham adolatsizdir. Yoki dividend, renta kabi daromadlar ham adolatlidir. Adolatsiz daromadlar va tengsizlikni ham inkor qilib bo'lmaydi. Birjadagi kurs o'zgarishi hisobiga birdaniga katta foyda olishda adolatsizlik bor. Bu faqat omadning o'zi. Chunki bu chayqovchilik mazmunidagi daromaddir. Yirik puldorlarni bankka pul qo'yib, katta daromad olishi ham adolatli emas. Chunki bunda hech qanday mehnat, urinish, o'ylab ko'rish ham sodir bo'lmaydi.

Daromadlardagi tengsizlik tabiiy hol bo'lib, daromadi ozlarni yaxshi ishlab pul topishga undaydi. Daromadlardagi to'g'ri farqlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad summasiga qarab aniqlanadi. Buning uchun oila ko'rgan yalpi daromadni uning a'zolari soniga bo'linadi. Mamlakat aholisining daromadlaridagi tafovutlar darajasi tahlil etilganda, 10% boy aholining daromadi bilan 10% kambag'al oilalar daromadi bilan taqqoslanadi. Daromadlarni notekis taqsimlanishi Lorens egri chizig'ida (**28.2-rasm**)da tasvirlanadi.



28.2-rasm. **Lorens egri chizig'i**

Daromadlarni notekis taqsimlanishini 28.2-rasmda ko'rish mumkin. Chizmada agar daromad teng taqsimlanib, oila hissasi bilan daromad hissasi bir xil bo'lganda, daromad chizig'ini to'g'ri bo'linishini ko'rish mumkin (*A* nuqtadan *S* nuqta orqali *YE* nuqtagacha). *S* nuqta 60% oila 60% daromadni olganda, bu daromad tekis taqsimlanishini ko'rsatadi. Amalda bunday bo'lmaydi. Oilalarning jamiyat miqyosidagi umumiy daromaddan olgan hissasi bir xil bo'lmaganidan, masalan 20% oila daromadlarining 50%ni olganidan daromad chizig'i egri chiziq shakliga kiradi. (*AYE* chizig'i) daromadlarning umumiy miqdori bilan uning taqsimlanishi o'rtasida aloqadorlik bor. Umumiy daromad kam bo'lgan sharoitda uning taqsimlanishi keskin o'zgarib turadi, daromad ko'p bo'lganda esa, taqsimlanish bir me'yorda barqaror boradi. Rivojlangan jamiyat boy bo'lganidan bunday jamiyatdagi kishilarning daromadidagi tafovutlar kam bo'ladi.

28.5. Ijtimoiy tenglik va adolat

Ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun respublikada ko'p ijtimoiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga umuman to'qchilik xos bo'lsa-da, ammo aholining ma'lum qatlamlari kam ta'minlangan bo'ladi. Hozirgi jamiyatning asosiy illatlaridan biri qashshoqlikdir. Jahondagi birorta ham mamlakat, hatto eng boy mamlakat ham hozircha undan qochib qutula olmagan. BMT Bosh Assambleyasi 1998 yilni qashshoqlikni tugatish xalqaro yili deb e'lon qilinganligi bejiz emas.

Bozor iqtisodiyoti kam taminlanganlarga aholining ilgari ular jumlasiga kirmagan guruhlari, shu jumladan daromadlari o'rtacha yoki o'rtadan yuqori darajada bo'lganlar

guruhlariga mansub ko'plab kishilar ham kirib qolishi bilan bog'liqdir. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad ko'p bo'lganidan davlat boylar daromadi hisobidan kambag'allar daromadini oshirib boradi. Agar daromad jon boshiga minimal tirikchilik qiymatidan past bo'lsa, oila kam taminlangan hisoblanadi. Albatta, kam ta'minlanganlik mezoni mamlakatdagi turmush darajasiga ham bog'liq. Masalan, agar Germaniya uchun kam ta'minlanganlik jon boshiga yillik daromad 3000 yevro bo'lsa, shunday daromadli oila Hindistonda to'q oila hisoblanishi mumkin. Shunday qilib, kam ta'minlanganlik har bir mamlakat sharoitida o'ziga hos xususiyatga ega.

Bozor iqtisodiyotiga xos umumiy yana bir qoida kam ta'minlanganlar soni va salmog'ining qisqarib borishiga moyilligidir, chunki ishlab chiqarish o'sishi bilan kam daromadli oila o'rta va ko'p daromadlilar qatoridan o'rin oladi.

Buning uchun – davlat kam ta'minlanganlarga ishlab pul topib, to'q yashashiga sharoit va imkoniyat yaratib beradi. Ularga davlatning va firmalarning moddiy yordam berishi tashkil qilinadi. Lekin agarda kam taminlanganlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik bo'lsa, ikkinchi tomonidan bundagi bu yordam intilishni pasaytirish va umuman, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun albatta uning ijobiy chegarasini topa bilish muhim ahamiyatga ega. P.Samuel'son va V.Nordxausning fikricha, bu oilada to'kin-sochinlik va boshqasiga kambag'allik mavjud bo'lsa, talab va taklif yomon ishlashi bozor mexanizmining aybi bilan emas, balki daromad taqsimotining kamchiligi va nomukammalligi tufayli yuz beradigan hodisadir. Bunga davlat qayta taqsimlash, orqali yordam berishi mumkin.

28.6. Aholini ijtimoiy himoyalash

Sivilizatsiyasi yuqori darajada rivojlangan jamiyat uchun bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi zarur holatdir. Bu inson manfaati, himoyasi, uning turmush darajasi muammosidan kelib chiqib, jamiyat bozor munosabatlari kamchiliklariga, ular yuzaga keltirgan salbiy oqibatlariga befarq bo'la olmaydi. Bozor rivojining ijtimoiy yo'nalishda bo'lishi, hozirgi zamon talabi bo'lib, bu sohada, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi katta.

Bunday iqtisodiy taraqqiyot darajasida insonparvarlik tamoyillarining moddiy asoslari yaratilgan bo'lib, boylar va kambag'allar qarama-qarshiligini keskinligi yo'qoladi. Iqtisodiyotning demokratik tamoyili ustunligi ta'minlanib, mulkdorlar ko'payadi. Ishchi kuchi egalarining ayni vaqtda mulk egasi bo'lish imkoniyati ko'payadi. Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi ikki tomonlama amalga oshib boradi. Birinchidan, mulk egalarining faoliyati tadbirkorlikning rivojlanishidan iborat. Mulkturlaridan qat'iy nazar, kapitalmi, ish kuchimi, Yermi, pulmi baribir har biri o'z mulkidan foydalanishni ko'paytirishga harakat qiladi, uning unumdorligini oshirib, samarasini ko'paytiradi. Ikkinchidan, davlat ortiqcha daromadga ega bo'lganlarning bir qism daromadlarini markazlashtirib, qayta taqsimlaydi va ularning farovonligini ta'minlab borishi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Umuman mulkdorlar ichida nufuzli bo'lishga harakat qilish asosan insoniylikni ta'minlash, insonparvar bo'lishga undaydi. Bu esa bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiylikning eng muhim omillaridandir. Demak, bozor iqtisodiyotining o'zi ijtimoiy yo'nalishda bo'lib, farovonlikni ta'minlab boradi.

Lekin daromadlardagi tafovutlar, turmush darajasidagi past-balandlik, muammolari mavjud bo'lib, doimo ijtimoiy himoyani ko'ndalang qilib qo'yadi. Biz bilamizki, bevosita mehnatsiz daromad oladiganlarning soni ham katta, bular asosan mehnatga noloyiq odamlardir. Bularning asosini nafaqaxo'rlar tashkil etadi. Iqtisodiy nuqtai nazaridan himoyaga muhtoj bo'lganlar asosan shulardir, demak bozor iqtisodiyoti shularning turmush darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Tsivilizatsiya sharoitida mehnatga noloyiq odamlarni iqtisodiy jihatdan qo'llash bozor ta'siridan himoya qilish har bir davlatning burchi bo'lib, zamonaviy nafaqa tizimini amalga oshirish, uning o'z fuqarolariga munosabati yoki kattalarni iqtisodiy qaramlikdan qutqarib, turmush darajasini pasayishiga yo'l qo'ymasligi davlatning haqiqiy insonparvarlik vazifasini ado etishlik darajasini belgilab beradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashda «narxlarni erkinlashtirilishi va pulni qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora tadbirlari tizimidagi eng ustun yo'nalishlardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi... ichki iste'mol bozorini himoya qilish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish, ijtimoiy himoya aniq maqsadga va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan bo'lishi, ... mahalla tufayli tub aholi ijtimoiy va iqtisodiy hatti-harakati tarkib topish, ...ijtimoiy ko'maklashuvda aholining aniq talablarini mo'ljallab ish to'tish, shu boricha ko'proq samarali bo'lishiga erishish choralari to'la-to'kis hisobga olishi lozim», – degan edi I.A.Karimov¹.

¹ Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 284–285, 291, 295, 299– betlar.

Respublikada voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan davlat ximoyasiga olinganlar 2007-2011 yillar ichida 1591.5 mingta oiladan 2011 yilga kelib 1266.8 ming oilaga kamaydi. Nafaqa oluvchi oilalarning bu davr ichida kamayishi asosan aholining kam ta'minlangan oilalarning qisqarishidir.

Shu davr ichida o'rtacha oylik nafaqa 26.6 ming so'mdan 52.4 ming so'mga ko'paydi.

Respublikada o'rtacha oylik ish haqi 2018-yil dekabr oyida 2561,3 ming so'mni tashkil etib, 2017-yil dekabr oyiga nisbatan 29,1 foizga ko'paygan. O'rtacha nominar ish haqi omili tarmoq kesimida axborot va aloqa tarmog'ida 33,8 foizni sanoatda 30,6 foizni tashkil etgan.

Respublikada aholining umumiy daromadlari 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 286,3 trillion so'mni tashkil etgan. Bu o'tgan 2017 yilga nisbatan 10,3 foizga ko'paygan. 2018 yilda yanvar-dekabr ichida yonlama va mustaqil ishlovchilarning daromadi aholining umumiy daromadidan 71 foizini tashkil etgan.

Respublikada 2018 yil yanvar-dekabr oylari bo'yicha nominal ish haqini o'sish darajasi 46,2 foizni, aholining umumiy daromadi 2,6 foizgako'payib 23,5 foizni tashkil etgan. Bunga ijobiy transportlar va respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarini o'z ichiga olgan boshqa joriy transportlar hajmini ko'payganligi sabab bo'lgan.

Umumiy ijtimoiy transportlar foizda 2018-yilda pensiyalar 4,6 foizni, nafaqalar, 12,6 foizni va stipendiyalar 82,8 foizni tashkil etgan.

2017-yilga nisbatan pensiyalar 22,6 foizga ko'paygan. O'tgan yilga nisbatan pensiya nafaqa va stipendiyalar 22,6 foizga ko'paygan.

Ijtimoiy transportlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati

foizda 2018-yilda 22,6 foizga, nafaqalar 35,0 foizga va stipendiyalar 29,8 foizga 2017-yilga nisbatan ko'paygan. Respublika bo'yicha shu oylar ichida aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash byudjetdan 52,3 foizni tashkil etgan. Respublikada 2018-yilda aholi jon boshiga to'g'ri kelgan daromad 7963,3 ming so'mni yoki 2017-yilga nisbatan 7,3 foizga ko'paygan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida barcha sohalarda bo'lganidek, aholini ijtimoiy himoyalash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ma'lumki, ishga yaroqsizlar – nogironlar, qariyalar, ko'p bolali oilalar to'la davlat ta'minotidadir. O'zbekistonda nafaqa tizimi bir necha bor takomillashib, yuzaga kelga og'ir sharoitlarni e'tiborga olgan holda har tomonlama zamon talabiga javob bera oladigan darajaga yetkazilgan. Nafaqa darajasi turmush darajasidan juda kam farq qiladi. Ko'p bolali onalar farzand ko'rayotganlar bolaligidan nogiron bo'lib mehnat layoqatini yo'qotganlar va shunga o'xshaganlarning hammasi to'la ijtimoiy himoya ostiga olingan. Nafaqalarning eng past miqdori belgilangan. Talabalar askarlar ham to'la davlat himoyasidadir. Daromadga ta'sir ko'rsatuvchi davlat tomonidan qo'llaniladigan chora tadbirlardan yana bir turi malum mutaxassislarga belgilangan imtiyozlardir. Masalan urush qatnashchilari, baynalminalchilar, tibbiyot xizmatchilar, askarlar kabilarga bir qancha iqtisodiy yengilliklar tug'dirildi. Bular qatoriga shaxsiy daromad solig'idan ozod etish yoki imtiyoz berish, uy-joy to'lovi, kommunal xizmati haqi to'lash bilan bog'liq imtiyozlar kiradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning eng asosiy omillari bu ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish, davlat mablag'lari bilan mehnat jamoalari, jamoat

va hayriya tashkilotlari jamg'armalarining mablag'laridan keng foydalanish, insonlarning kuch qobiliyatlaridan to'la-to'kis foydalanishni ta'minlashga loyiq bo'lgan kuchli boshqarish mexanizmini vujudga keltirish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, aholini ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylanib ketadi. Shuning uchun ham ijtimoiy himoyalash asoslari o'tish davridayoq shakllanmog'i zarur, bundagi kechikish bozor sohasidagi muvaffaqiyatlarga teskari ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Buning oldini olib borish ayni vaqtda bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va bundagi og'irlik, yo'qotishlarni kamaytiradi. Iqtisodi rivojlangan kuchli mamlakatlar tajribalari bozorni boshlang'ich davridayoq uning harakatiga ijtimoiy yo'nalish mazmunini berish madaniyatli bozor iqtisodiyotini yaratishdagi zarur shart ekanligini ko'rsatmoqda. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, zimmaga olingan vazifalarni amalga oshirishda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish juda muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash kerak.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Daromadlar darajalarini aniqlash savollari?
2. Aholini yashash darajasi qanday aniqlanadi?
3. Tarif tizimining tarkibiy qismlari?
4. Nominal va real daromadlarning o'sishini ta'minlovchi omillar?
5. Daromadlarning tengsizligi?
6. Lorens egri chizig'i?
7. Absalyut tenglik va tengsizlik?
8. Ijtimoiy tenglik nima?
9. Aholini ijtimoiy ximoyalash usullari?

Testlar

1. Aholi daromadlari nimalardan iborat?

a) ish haqidan

b) ish haqi va ijtimoiy to'lovlar

d) shaxsiy zaruriyatga ega bo'lgan aholi talablarini moddiy mablag'lari bilan ta'minlash

e) korxonada olayotgan daromadi

f) korxonadan olayotgan ish haqi

2. Yalpi yillik daromadni 50 % ga ko'payishi natijasida sotib olingan tovarlar va xizmatlar 100 % ga ko'payishi nima hisobiga bo'lgan?

a) yillik daromadni o'sishi hisobiga

b) yillik daromadni kamayishi hisobiga

d) nominal daromadni o'sishi hisobiga

e) real daromadni o'sishi hisobiga

f) narxlarni o'zgartirish hisobiga

3. Ish haqi nima?

a) bajarilgan mehnatni mukofotlash

b) ishchi kuchining iste'mol qiymati

d) ishchi kuchining qiymati

e) ishchi kuchi ishlab chiqargan mahsulot qiymati

f) ishchi kuchini qayta takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar qiymati

4. Shaxterlar kasaba uyushmasining 3 talablarini shaxta rahbarlari bajarsalar, bu ularning bandligiga qanday ta'sir etadi?

a) ish haqi va bandlik o'sadi

b) davlat choralariga asosan

d) mehnat unumdorligini o'sishi

e) ish haqlarini o'sishi bandlikni kamayishiga

f) ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini o'sishiga

5. Bozor sharoitida ish haqini o'sishi nimaga bog'liq?

a) minimal ish haqi darajasiga

b) davlat tomonidan ko'rilayotgan choralarga

d) mehnat unumdorligiga

e) rahbarlarning javobgarligiga

- f) ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga
6. Korxonaning asosiy daromad qismi nimalarga sarflanadi?
- a) renta va foiz to'lovlariga
 - b) soliqlarni to'lashga
 - d) ishlab chiqarishni kengaytirishga
 - e) ish haqini oshirishga
 - f) aholini ijtimoiy himoyalashga
7. Real ish haqi qanday holatda o'sadi?
- a) oylik nominal ish haqi o'ssa
 - b) tovarlar va xizmatlar qiymati arzonlashsa
 - d) nominal ish haqi o'zgarmasa
 - e) ish haqi tovar va xizmatlar narxlari o'zgarmagan holda o'sib borsa
 - f) inflyatsiya bo'lmaganda
8. Daromadlar notengligi nimalarga bog'liq?
- a) ishchilarga bo'lgan munosabatlarni kamsituvlanishi
 - b) ishchilarning kasbiy mahoratlarini turli darajada bo'lishi
 - d) ta'lim daromadlaridagi farqlar
 - e) davlatning pul-kredit siyosati
 - f) bozor iqtisodiyotidagi raqobatga asoslanishi
9. Aholini ijtimoiy himoyalash nimadan iborat?
- a) kam ta'minlangan aholiga moddiy yordam berish
 - b) ish haqi mukofot va moddiy yordam berish
 - d) ishsizlik yordam pulini berish
 - e) ko'p bolalik onalarga moddiy yordam berish

29-bob. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI

Tayanch so'zlar: jahon xo'jaligi, A.Smitning absalyut samaradorligi nazariyasi, D.Rikardoning nisbiy samaradorlik nazariyasi, jahon bozori, jahon xo'jaligining sub'ektlari va ob'ektivlari, jahon xo'jaligi infratuzilmasi, xalqaro mehnat taqsimoti, mehnatni integratsiyalashuvi, kapitalni integratsiyalashuvi, xalqaro ssuda kapitali, pul bozori, kapital bozori.

29.1. Jahon xo'jaligining tashkil topishi mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari

Har qanday mulkchilik shakllariga asoslangan o'zining iqtisodiy rivojlanish yo'llarini tanlab olgan davlatlar milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirish asosida o'zlarining ishlab chiqarish vositalariga xom ashyolariga bo'lgan talablarini va aholini iste'mol talabalarini to'liq qondirish masalasi muammo hisoblanadi. Hozirgi iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish masalasi jahon davlatlari oldida turgan hal etilishi zarur bo'lgan muammodir. Jahon xo'jaligini rivojlantirishda xalqaro mehnat taqsimoti uni davlatlar o'rtasida kooperatsiyalashuvini taqozo etadi. Xalqaro mehnat taqsimoti mehnat unumdorligini oshirishga, mahsulot tannarxini arzonlashuviga olib keladi.

O'z vaqtida (1776 yil)da iqtisodchisi A.Smit yaratgan absolyut samaradorlik nazariyasi xalqaro mehnat taqsimotini va mamlakatlarning malum ishlab chiqarish yo'nalishlarida ixtisoslashuvi zarurligi ko'rsatib bergan. Buning asosi mamlakatlarni ma'lum iqtisodiy mintaqalarda joy-

lashishi, ularga tabiiy iqlim sharoitlar, Yer osti boyliklari, ishlab chiqarish resurslari ishlab chiqarish taraqqiyotlarini bir birlaridan ajralib turishidir. Shuning uchun ham ayrim mamlakatlar mutloq iqtisodiy holatda bo'lib yuqori darajada daromad oladilar. Inlis iqtisodchisi D.Rikardo nisbiy samaradorlik nazariyasini 1817 yilda yaratib bu nazariyaga asosan har qanday mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish evaziga ta'minlash mumkinligini aytib o'tgan. Nisbiy samaradorlik ishlab chiqarish ihtisoslashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni harajatlarini kamaytirish evaziga erishish mumkin.

XX asrning boshlarida (1919 yil)da shved iqtisodchisi Ellen Xekter ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasini mualifi bo'lib uning o'quvchilari Nobel' mukofoti lauriyati Bertil Olin bu nazariyani matematik asoslab berdi. Yuqorida keltirilgan nazariyalarga asosan mamlakatlar ortiqcha ishlab chiqarish omillari asosida yaratilgan tovarlarni eksportga chiqarishi kerak. Mahsulotlarni mamlakatlar asosan yetishmaydigan kamyob ishlab chiqarish omillari asosida ishlab chiqarilgan tovarlarni import qilishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Jahon xo'jaligini shakllanishini asosiy sabablaridan biri iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni bosib olish ya'ni rivojlanmagan mamlakatlarni (ekspansiya) qilishidir. Bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga olib keldi. Har qanday davlat o'zining iqtisodiy taraqqiyotini o'zga mamlakatlar bilan iqtisodiy va ishlab chiqarish aloqalarisiz tasavvur eta olmaydi. Bu xalqaro mehnat taqsimoti, jahon bozori, jahon savdosi, baynalminal ko'lamda ishlab chiqarishning umumlashuvi, fan-texnika taraqqiyotining, ishlab chiqarish kuchining xalqaro tavsifiga ta'siri kabi omillarning rivojlanishini tal-

ab etadi. Mamlakatlarning milliy xo'jalik yaxlitligini saqlab qolgan holda xalqaro mehnat taqsimoti asosida jahon xo'jaligi shakllanadi.

Yer yuzidagi ishchi kuchining 50 foizi kam rivojlangan mamlakatlarda joylashgan bo'lib, butun dunyoda olinayotgan daromadning 5 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi. AQShda 6 foiz ish kuchi joylashgan bo'lib, jahon bo'yicha yaratilgan daromadning 25 foizi unga tegishlidir. Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligi davlatlari quyidagi guruhlarga bo'linadi: qoloq, rivojlanayotgan, rivojlangan (yoki industrialashgan) shuningdek, hozirgi vaqtda jahon xo'jaligi yangi industrial mamlakatlar (Meksika, Braziliya, Argentina, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Malayziya, Singapur) «Neft' qirollar»i (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqa) deb atalgan mamlakatlar guruhi yuzaga keldi. Bular bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ayrim rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashib qoldilar.

Umuman iqtisodiy o'sish omillari, ya'ni mehnat resursi, tabiiy resurslar, kapital, texnologik rivojlanish hamma mamlakatlarda ham bir xil emas. Lekin har qaysi davlatda iqtisodiy rivojlanishi uchun ushbu omillardan foydalanishga yondoshish taktikasi tadbirlari turlichadir. Jahondagi barcha rivojlangan, rivojlanayotgan va yangi mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotlarini o'zaro iqtisodiy, moddiy-texnikaviy hamkorliksiz tasavvur qila olmaydilar.

Jahon xo'jaligini birinchi bosqichi XVIII asrning oxirlarida shakllangan deb xioblashadi. Buning asosiy sabablaridan biri Angliyada sanoati revolyutsiya amalga oshirildi. Shu davrda Angliya sanoati jahondagi mamlakatlar ichida sanoat rivojlangan davlat bo'lgan. U xunarmandchilikdan industrial asosdagi ishlab chiqarishga o'tgan edi.

XX asrning o'rtalarigachan Jahon xo'jaligi markazi Angliya bo'lgan. Garbiy Yevropadan zarur bo'lgan mahsulotlar olib chiqilar edi. Uning evaziga xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari olib kelinar edi.

Xulosa qilib aytish mumkin xalqaro savdoni XVI-XVIII asrda rivojlanishi Jahon bozorini shakllanishiga sabab bo'ldi. Jahon xo'jaligini rivojlanishi XX asrning boshlarida bo'lib o'tgan iqtisodiy-ijtimoiy inqirozni bo'lishi Birinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'lib, rivojlangan mamlakatlardagi ishlab chiqarish turg'unlik holatiga tushib qolishi bilan tavsiflash mumkin.

Jahon xo'jaligini ikkinchi bosqichi XIX asrning oxiri XX asrni o'rtalarida to'g'ri keladi. Bu ikkinchi bosqich ishlab chiqarish kuchlarini va monopoliyalarini iqtisodiy rivojlanishini bilan tavsiflanadi. Jahon xo'jaligining ikkinchi bosqichi jahonning rivojlangan mamlakatlarida ishlab chiqarishning rivojlanishida tashkil topgan transmilliy korporatsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish va shu mamlakatlar iste'mol bozorlariga chiqarish va yaqindan iqtisodiy jihatdan yordam berish ishlarini amalga oshirish bilan shug'ullanmoqdalar. chetga kapital chiqarish bilan, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, Xalqaro savdo tashkiloti, Yevropa iqtisodiy uyushmasi, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlarini tashkil topishi va jahonni ikki qarama-qarshi ijtimoiy-iqtisodiy kapitalistik va sotsialistik mamlakatlar tizimiga ajralishi bilan asoslanadi. Jahon xo'jaligining uchinchi bosqichi XX asrning 50 yillarida mustakillikka erishish harakatlari va ilmiy-texnika inqilobini tavsiflash mumkin. Jahon xo'jaligini uchinchi bosqichini rivojlanish xalqaro iqtisodiy ijti-

moiy aloqalar rivojlanishini ilmiy-texnika sohalarida hamkorlikni rivojlanishi, ochlikka, xalqaro terrorizmga qarshi ko'rashuvida birlashishi, sotsializm tizimini buzilishi va mustaqillikka erishgan mamlakatlarni bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan taviflanadi. Jahon xo'jaligi sharoitida barcha mamlakatlarning ishlab chiqarishi, ishlab chiqarish tarmoqlari, savdo, mahsulotlarning sotish baholari, valyuta moliya sohalarini rivojlanishiga bo'lgan qiziqish qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mustaqil tashqi iqtisodiyotni shakllantirib bormoqda. Chunki sobiq totalitar sotsialistik tuzumi davrida tashqi iqtisodiy aloqalarda davlat yakka hokimligi va iqtisodiy aloqalar markazdan boshqarilar edi. O'tish davrida ochiq iqtisodiyot poydevorini asosi siyosiy huquqiy va tashkiliy negizlari shakllandi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi brinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: «O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini mustaqil ravishda belgilashni, ...ma'muriy cheklashlarni, ...umum qabul qilingan xalqaro me'yorlar va qoidalar, tashqi savdoni boshqarishning, bozor vositalari bilan almashtirib, tashqi iqtisodiy faoliyatni asta-sekin erkinlashtirishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi»¹.

Sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida mustaqillikka erishgan davlatlar mustaqillikning dastlabki yillarida chuqur iqtisodiy inqirozlarni o'z boshlaridan kechirdilar. Hozirgi zamon iqtisodiyotni tarkibini shakllantirishi uchun birinchi navbatda ahamiyatga ega bo'lgan eng ilg'or, texnika jihatdan murakkab bo'lgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va kengaytirish bilan ifodalanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi, iqtisodiy rivojlanishi

¹ I.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston », 1998 y. 266-bet.

fan-texnika taraqqiyotning asosiy sharti bo'lib bormoqda. Lekin ishlab chiqarishning va kapitalning davlatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalar yo'nalishining kuchayishi jahon xo'jaligi tizimidagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini ko'proq xalqaro monopoliyalarga qaram qilib qo'ymoqda. Yuqorida aytilganlar jahon xo'jaligining mohiyatini ochishga imkon beradi. Ya'ni hozirgi zamon xo'jaligi xalqaro mehnat taqsimotida qatnashayotgan va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bog'langan ayrim mamlakatlar milliy xo'jaliklarning birlashuvidan iboratdir. Hozirgi zamon jahon xo'jaligiga davlatlarning o'zaro bog'liqligini o'sishi bilan birga ayrim mintaqalarni rivojlanishdagi nomunosiblik, raqbat ko'rashining kuchayishi, chet qoloq o'lkalarning industriallashgan markazlarga bo'ysunishining kuchayishi ham tavsiflidir.

Jahon xo'jaligi tizimida kuyidagi global tasnifga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlar bilan mustakillikka erishgan, rivojlanayotgan davlatlar urtasida o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy texnikaviy madaniy munosabatlarni urnatish, «inson va jamiyat» tizimi asosida (aholining o'sishi, kasallikka, kambagallikka va ochlikka qarshi ko'rashi, insonlarni kapitallashuv darajasini oshirishga, energetika, ekologik, oziq-ovqat muamolarini hal etish zarur. Jahon moliyaviy-iqtisodni inqiroziga qarshi ko'rashishi buyicha samarali tadbirlar ishlab chiqish maksadida eng rivojlangan 20 mamlakat rahbarlari 2008-yilda (Vashington)da, 2009-yilda (Pitterburg)da, 2009-yilda (London)da, 2010-yil (Toronto)da va (Seul)da, xullas bu muammo bo'yicha har yili sammiti o'tkazildi. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chikarilayotgan yalpi ichki mahsulotni o'sishi inkirozdan oldingi darajaga yetgani yo'q. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga ishlab chiqarilgan

mahsulotlari va investitsiyalar bilan kirib borishi natijasida uning tashqi savdo aylanmasi Xitoy xalq respublikasi bilan 2014-2018-yillar ichida savdo aylanmalari 35,2 foizga, Rossiya federatsiyasi bilan 21,2 foizga, Qozog'iston bilan 44,0 foizga, Turkiya bilan 39,6 foizga, Koreya respublikasi bilan 54,1 foizga, Germaniya bilan 24,5 foizga, AQSH bilan 90 foizga, Italiya bilan 72,5 foizga ko'paygan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inkirozni kelib chiqishi moliyaviy nomutanosiblikni keltiradi.

Bu moliyaviy nomutanosiblik davlat daromadlari va xarajatlari, byudjet xarajatlarining byudjet daromadlariga nisbatan ortik bulishida va moliyaviy tizim va moliyaviy munoasabatlarni buzilishda ifodaolanadi.

29.2. Jahon xo'jaligining sub'ektlari, uning infratuzilmasi va xalqaro iqtisodiy integratsiyasi

Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarining baynalminallashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infratuzimasining ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan edi. Hozirgi zamon xo'jaligi infratuzilmasi kema, samolyot, poyezd, avtomobil' transporti tizimi, xalqaro gaz, neft mahsulotlari quvurlarini, elektr energiyasini Yetkazib berish, tarmoqlarga axborot Yetkazib berish kommunikatsiyalari telefon, radio, televideniye, komp'yuter tizimi xalqaro birjalar, moliya markazlari, banklar tizimini o'z ichiga olgan. Har bir yuk tashish turi, dengiz, daryo, havo, temir yo'l, avtomobil yo'li uchun ham ularning ishlash sharoitlari portlar passajirlar tashish va hokazolar uchun umumjahon o'lchovlari mavjuddir. Chunki bu masalalarni kelishib turib, hal etish-

gina barcha mamlakatlarni jahon transporti yo'llarida foydalanish imkonini beradi. Turli xalqaro darajada maxsus ma'lumotlar bosqichlari tashkil topmoqdaki, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha qisqartiradi.

Shuningdek jahon infratuzilmasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanmoqda, bulardan biri transport, aloqa, axborot tizimlari o'rtasidagi raqobatlar, ziddiyatlardir. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti to'g'risidagi strategik ma'lumotlarni tayyorlash, hisoblash ishlarini birxillashuvi jahon infratuzilmasining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatlararo integratsiya ishlab chiqaruvchi kuchlarning yangi ancha yuqori darajada rivojlanganligi va ishlab chiqarishning umumlashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, o'z navbatida ishlab chiqarish va kapitallarning baynalminallashuvi jarayonining tezlashtiradi. Mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimotini chuqurlashtirishga, ijtimoiy ishlab chiqarishning o'sishga va samaradorligini ortishiga sharoit yaratmoqda. Integratsiya qanchalik muvofiq rivojlansa, mehnat taqsimoti shunchalik chuqurlashadi va ayrim tarmoqlar, ayniqsa monopolistik birlashmalar o'rtasida o'zaro kooperatsiya aloqalari shunchalik kengayadi. Aynan yuqori darajada mehnat taqsimoti va integratsiya jarayonining yuqori ko'rinishi rivojlangan mintaqqa G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada yuzaga keldi.

Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligi AQSH, Yevropa ittifoqi, Rossiya, Xitoy, Yaponiya ta'siri va ularning o'zaro poygasi asosida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Xalqaro bozorni egallash uchun ko'rashda har qaysi mamlakat jahon xo'jaligidagi o'z o'rni va imkoniyatiga ega. AQSH juda yirik ishlab chiqarish va fan-texnika potentsiallariga ega. Shu

bilan birga ko'p tabiiy resurslar bilan o'zini-o'zi ta'minlaydi, mamlakat tashqarisida katta miqyosda kapital, baquv-
vat TMK asosida tashqi iqtisodiyotda harakat qilib turibdi.

Xulosa qilib aytish mumkin jahon xo'jaligini rivojlanishi natijasida mustaqil davlatlar o'rtasida iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar rivojlanadi. Natijada jahon moliyaviy infratuzilmalari tashkil topishi kapitallar harakatini o'sib borishiga sharoit yaratadi, bozor iqtisodiyoti uslubi asosida xo'jalikni yuritish doirasi kengayadi. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanadi. Xalqaro savdo tizimi doirasi ham kengayadi. Bu o'z navbatida ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlanishiga olib keladi. Jahon xo'jaligi o'zining rivojlanish xususiyatlariga ega. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot xajmida xizmat ko'rsatish mahsulotlarini xissasi katta, sanoat mahsulotlarini xissasi kamayib bormoqda. Qishloq xo'jaligida esa mehnat resurslarini bandligi rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 7,3 foizni tashkil etsa, MDH mamlakatlarida 19,0 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 60-70 foizni tashkil etmoqda. jahon xo'jaligiga 200 ta mamlakat kiradi. Ularni jahon xo'jaligidagi qatnashuvlari ularning ishlab chiqarishini ixtisoslashguv darajasiga bog'liq. Jahondagi barcha mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashadilar. Bu davlatlarning ishlab chiqarish jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli iqtisodiyotni rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Barcha mamlakatlar hozirgi davrning eng muammosi bo'lgan ekologik inqirozga birgalikda o'zaro kelishuv asosida kurash olib borishlari kerak.

Jahonda mamlakatlar tomonidan ishlab chiqarish xajmini o'sib borishi ishlab chiqarish chiqindilarini o'sib borishi bilan bog'liq. uni oldini olish uchun birinchidan innovatsion ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirishni

ta'minlovchi ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish va chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish zarur. Jahon xo'jaligida ilmiy-texnik yangiliklar rivojlangan mamlakatlar olimlari tomonidan innovatsion yangiliklarni ishlab chiqarilishi va ularni rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qilinishi tufayli bu mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanishi milliy iqtisodiyotni tarkibiy rivojlanishiga o'zgarishlar olib kelmoqda.

Bu innovatsion yangiliklarni rivojlanayotgan mamlakatlarga olib kirilishi ularning ijtimoiy-rivojlanishini tubdan o'zgarishga olib kelmoqda. Bu jahon iqtisodiyotida faol qatnashayotgan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishi natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qo'shimcha ravishda eng rivojlangan mamlakatlarning iste'mol bozoriga aylanishiga olib kelmoqda. Jahon xo'jaligini rivojlanishida uning asosiy sub'ektlari bo'lib ko'pincha yuridik yoki jismoniy shaxslar yoki ayrim shaxslar olib boradilar. Bu shaxslar rezident va norezidentlar bo'lib rezidentlar xo'jalik sub'ektlari bo'lib bu mamlakatda yashaydilar, norezidentlar esa xorijda doimiy ravishda yashovchilar hisoblanadi.

Jahon mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro institutlar tashkil topmoqda. Jumladan Xalqaro sud, Xalqaro arbitraj, Xalqaro valyuta fondi turli sohalar bo'yicha maslahat berish punktlari va boshqalar tashkil etilgan.

Chuqur ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi, eski material sarfiga asoslangan tarmoqlari chet el raqobatidan himoya qilish muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonning ziddiyati shundan iboratki, bir tomondan an'anaviy bo'lgan tarmoqlar qora metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoatlarini sun'iy ra-

vishda qo'llab turish umuman ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini to'xtatib qo'yadi. Boshqa tomondan iqtisodiyotning aynan shu sohada past malakali ishchi kuchining nisbatidan katta miqdori jamlangan bo'lib, u tarmoqlarning keskin pasayishi ijtimoiy kelishmovchiliklarni keskinlashtirishi mumkin. Rivojlangan davlatlardan kelayotgan to'qimachilik poyafzal, maishiy elektrotexnika tovarlari Amerika va G'arbiy Yevropa bozorlarini juda tez egallamoqda. Shu bilan barobar texnik jihatdan murakkab bo'lgan buyumlarni Yetkazib beruvchilar o'rtasida ham raqobat ko'rashi keskinlashmoqda.

29.3. Kapitalning xalqaro integratsiyalashuvi mohiyati, turlari va rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Biz tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz. Xorijiy sarmoyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- birinchidan – tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni qo'zlab siyosat yuritish;
- ikkinchidan – respublika iqtisodiyotiga kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- uchinchidan – respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani Yetkazib berayotgan, iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishayotgan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan eshiklarini ochib qo'yish siyosatini izchillik bilan o'tkazish;

- to'rtinchidan – mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustivor yo'nalishlarda jamlash»¹, – degan edi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sistemasi asosan o'z ichiga:

- xalqaro savdoda tovar va xizmatlar harakatini;
- kapital harakatini va chet el investitsiyalarini;
- ish kuchi migratsiyasini;
- fan va texnika sohasidagi o'zaro aloqalarni;
- valyuta kredit munosabatlarini oladi.

Kapital asosan chetga chiqarish katta foyda olish maqsadida amalga oshiriladi. Chetga kapital chiqarish, agarda bu boshqa davlatlarda yuqori foyda normasini ta'minlansa amalga oshiriladi. Bunga asosiy sabab:

a) agarda mamlakatlarda kapital jamg'arish darajasi ichki talabga nisbatan yuqori bo'lsa, bu kapital monopol foyda olish uchun o'z kapitallarini unga muhtoj bo'lgan va yuqori monopol foyda beradigan davlatga chiqaradi;

b) talab va taklifni jahon xo'jaligi taraqqiyotiga mos kelmasligi davlatlarni notekis iqtisodiy taraqqiyotiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham kapitalni o'z iqtisodiyotlari taraqqiyotiga jalb qiluvchi davlatlar iloji boricha iqtisodga kirib kelayotgan kapitallarga to'liq shart-sharoitlar yaratadilar;

v) kapitalni import qilayotgan davlatlarda xom ashyo, ishchi kuchi arzon bo'lsa, iste'mol bozori mavjud bo'lsa;

g) ishlab chiqarishning integratsiyalanishuvi ham kapitallarni chetga chiqarishning asosiy sababi bo'ladi.

¹ Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 277–bet.

Kapitalni chetga chiqarish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. To'g'ri investitsiya yoki sohibkorlik (ya'ni sanoat, savdo va boshqa korxonalar bilan hamkorlikda ishlash);

2. Portfeldagi investitsiya ya'ni chet elga obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarda;

3. O'rta va uzoq muddatli xalqaro kreditlar yoki savdo korporatsiyalari, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga qarz ssuda kapital berish shaklida.

Portfeldagi investitsiya yirik korporatsiyalar davlat va xususiy banklar orqali chiqarilgan obligatsiyalari mablag' bilan ta'minlash uchun chet el kapitalini jalb etishning eng asosiy manbaidir. Bunda yirik investitsiya banklari vositachilik qiladilar. Bu investitsion obligatsiyalarning harakati (sotilishi) ayrim mamlakatlarning to'layotgan foiz stavkasi normasining farqiga bog'liq.

Xalqaro ssuda kapitali – pul bozori va kapital bozoriga bo'linadi. Pul bozori pul taklifi va unga bo'lgan talab foiz stavkasi darajasi bilan aniqlanadigan bozor. Pulga talab xo'jalik faoliyati uchun zarur pulga ehtiyojdir. Uning shakllanishini asosiy ikkita sababi mavjud: a) insonlarga har doim tovar va xizmatlarni sotib olish uchun, korxonalarga esa resurslar olish uchun pul zarur bo'ladi; b) insonlar o'zlarini pullarini har xil (aktsiya, obligatsiya va h.k) shaklida saqlaydilar, demak aktivlar tomonidan pulga talab bo'ladi. Pul bozoridagi talab va taklifning bir-biriga to'g'ri kelishi iqtisodiyot uchun o'ta muhim masala hisoblanadi.

Demak pul bozori – bu asosan qisqa muddatli, ya'ni bir yilgacha kredit berishda ifodalanadi. Uning yordamida korporatsiyalar vaqtinchalik Yetishmayotgan aylanma mablag'lar o'rnini to'ldiradilar.

Kapital bozori – ikki yildan o'n yilgacha bo'lgan o'rta

muddatli kreditlar va o'n yildan ortiqroq, ya'ni uzoq muddatli qarzlardan iborat bo'lib, obligatsiyalarni chiqarish va sotish shaklida bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda xalqaro bozorda ssuda kapitalining an'anaviy bo'lmagan shakllari, ya'ni sohibkorlik sherikchilik kapitaliga yaqin bo'lgan aynan ochiq sanoat loyihasi uchun yo'naltirilgan usullari qo'llanilmoqda. Xalqaro kredit bozorining tez sur'atda o'sishi jahon xo'jaligining rivojlanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan xalqaro iqtisodiy aloqalar mexanizmini samaradorligini oshirish va kapitalga xalqaro takror ishlab chiqarishni ta'minlamoqda. Boshqa tomondan esa xalqaro miqyosida soxta kapitalning jamg'arilishidagi mavjud jaryon o'rtasidagi farqni orttirib iqtisodiyotning ziddiyatlarini keskinlashtirmoqda. Kapitalning nazoratsiz harakati to'lov balansi muvozanatini buzmoqda va valyutalar kursini beqaror bo'lishiga olib kelmoqda. Bu davlatning iqtisodiyoti boshqa davlatning xo'jalik iqtisodiy va siyosiy holatiga bog'liqligini xalqaro ssuda kapitali bozori esa davlatlari o'rtasida raqobat va poygani kuchaytirmoqda.

Respublikada 2018-yilda 31350,0 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 3,9 mlrd. AQSH doll.) yoki 2017-yilga nisbatan 36,6 foiz ko'p asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilgan. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 29,2 foizni tashkil etdi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 1816,9 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarni, yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 46,8 foizini tashkil etgan. Xorijiy sarmoyalarni jalb etish bo'yicha rag'batlantirishni kuchaytirish kafolat va imtiyozlarni kengaytirish, investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni yanada shakllantirish

zarur. Shunga erishish kerakki, O'zbekiston bozori mam-lakatimizda o'z biznesiga ega bo'lishini istagan har bir ki-shi uchun jozibali bo'lsin.

29.4. Mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasi

Bozor iqtisodiyoti jamiyat a'zolarining mehnat qi-lish qobiliyatlaridan keng foydalanish uchun ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi. Respublikada o'tkazi-layotgan xususiylashtirish siyosati natijasida turli mulk-chilikka asosan ishlab chiqarish shakllanadi. Bu har bir kishiga o'z ishini tashkil qilishda shart-sharoitlar yaratib berdi. Tashkil etilayotgan kichik korxonalar katta investit-siya mablag'larini jalb qilmasdan turib, qo'shimcha ishchi o'rinlarini vujudga keltirishi mumkin. Bu respublikada makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga iqtisodiy islohot-larning hozirgi davrdagi strategiyasining ustivor vazifala-ridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov «Mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash¹, mehnat qilishning texnologiyalarga, xalqning tarixiy an'analari va udumlariga mos keladigan sohalarini barpo etish»dir degan edi.²

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ham jahon xo'jaligi miqyosida ishlab chiqarishni rivojlantirishda katta aha-miyatga ega. 90-yillarda jahonda band bo'lgan ishchilar-ning 25 mln.ga yaqinrog'i ishchi kuchi migratsiyasini tash-kil etib, asosiy rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Ishchi kuchi migratsiyasi qonuniy va noqonuniy migratsiyaga bo'linadi. 90-yillarda 5 mln. yaqin ishchi

¹ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2018 y. Yanvar-dekabr T. 2019 112-114 b.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 382-bet.

kuchlari noqonuniy ravshda bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tganlar. Keyingi davrlarda rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ham ishchi kuchi migratsiyasini ko'rish mumkin. Ayniqsa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga bo'lgan qiziqish katta. Bu mamlakatlardan aholining 65% chetdan kelgan aholini tashkil etadi. Masalan: qator davlatlarda ishchilarning 85% chet elliklar, Birlashgan Arab Amirligida esa 90% ni tashkil etadi. Sobiq Ittifoq Yemirilgandan so'ng aholining chetga chiqishi sobiq ittifoq respublikalarida tezlashdi. Hozir chet el davlatlarida 20 mln. yaqin sobiq ittifoq fuqarolari yashaydilar, shulardan 8% ga yaqin mehnat qilish sharoitiga ega emaslar, garchi aksariyati oliy ma'lumotli, malakali mutaxassislar bo'lsa ham. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning chet ellarda yakka tartibda faoliyat qilishlari uchun sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston aholisining soni va tarkibi shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotlar darajasi bilan boshqa mintaqalardan keskin farq qiladi. Bu farqlar tabiiy, tarixiy, milliy va ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida jumhuriyat uchun aholi o'sishining mustamlaka tipi tavsifli bo'ldi. Ya'ni tug'ilishning yuqori koeffitsiyentiga o'limlarning o'ndan kam bo'lmagan darajasi to'g'ri kelardi. Faqat keyingi yillarda tabiat va sog'liqni saqlash sohasida ilg'orroq tajribani qo'llash shaharlarida xalq turmush darajasini yaxshilashga birmuncha ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy o'sish asosan qishloq aholisi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shahar aholisining o'sishiga tug'ilish bilan bir qatorda migratsiya jarayoni ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining tabiiy o'sishi bilan mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammosi kelib chiqmoqda. Ish joylarini qurib, foydalanishga topshirish aholi tabiiy o'sishidan sezilarli darajada orqada qola boshladi. Ishlab

chiqarish tarmoqlarining hozirgi holati mehnatga yaroqli aholini barchasini o'z bag'riga olishga qodir emas.

Jahon xo'jaligini rivojlanish xususiyatlaridan biri xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonini ixtisoslashuviga qarab amalga oshadi. Xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi ishlab chiqarilgan mahsulotlarini iste'mol bozori hisoblangan jahon bozorida raqobatga bog'liq. Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlarni inegratsiyalashuvi darajasini o'sib borishiga olib keladi. Xalqaro mehnat taqsimoti doimiy ravishda rivojlanib boradi, chunki jahon mamlakatlari o'rtasida savdo, xalqaro savdo tariqasida rivojlanib boradi. Xalqaro savdo eksporti tashqariga tovar chiqarish va import ichkariga mamlakatlarga tovar olib kelishda ifodalanadi.

Xalqaro mehnat migratsiyasini bo'lishi na faqat mehnat resurslarini ayrim mamlakatlarga to'liq ish joylari bilan ta'minlanmasligi, malakaviy kasbga ega bo'lgan ishchilarni ish joylari bilan ta'minlanmasligi balki mamlakatlarni zarur miqdorda moddiy resurslar bilan ta'minlanamaganligi ham asosiy sabablardan hisoblanadi. Jahon xo'jaligida faol qatnashayotgan mamlakatlarning xalqaro savdoda qatnashuviga:

- xalqaro mehnat taqsimoti;
- transmilliy kompaniya korporatsiyalarni shakllanishi;
- xalqaro savdoni erkinlashtirish va ishlab chiqarish, savdo iqtisodiy integratsiyasini rivojlantirish;
- xalqaro savdoni xalqaro savdo tashkiloti tomonidan tartibga solib turilishiga bog'liq.

Biz ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishini jami talab va jami taklif o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'lsagina iqtisodiy har bir mamlakatda barqaror rivojlanadi deb ayta-

miz. Demak har bir mamlakatda ishlab chiqarilgan o'zining talabiga nisbatan ortiqcha mahsulot o'ziga zaruriyati bo'lgan mamlakatlar xalqaro savdo orqali sotib olish bilan o'zlarining iste'mol talablarini qondiradilar.

Jahon xo'jaligini rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu mamlakatlar o'rtasida kapital migratsiyasini rivojlantirish hisoblanadi. Kapitalni migratsiyalashuvini asosiy sababi rivojlangan yuqori darajada innovatsion rivojlangan mamlakatlarda milliy iqtisodiyotlarini rivojlanishi ularni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan to'liq qondirishi natijasida investitsiya kapitalarini jamg'arilishi va uni ishlatish asosida qo'shimcha foyda olish maqsadida investitsiyaga talab bor rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga sarflash asosiy yo'l bo'lib hisoblanadi. Ma'lum ortiqcha kapital egasi bo'lgan mamlakatlar eksporter sifatida unga talab bor bo'lgan mamlakatlar importer sifatida eksport qilina yotgan kapitaldan unumli foydalanish yo'lida harakat qiladilar. Natijada yuqori iqtisodiy darajada bo'lgan mamlakatlar qo'shimcha ravishda chetga kapital chiqarish hisobiga qo'shimcha daromad olishlari natijasida o'z jamg'armalarini o'sib borishini ta'minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarga kapital mablag' tariqasida va unumli kapital tariqasida chiqariladi. Unumli kapital odatda portfeldagi kapital bo'lib rivojlanayotgan mamlakatlarda korxonalar qurilishida ifodalanadi. Portfeldagi kapital – xorijiy mamlakatlarning korxonalar aksiyalarini sotib olishga aytiladi. Bu aksiyalar xajmi unga egalik va nazorat qilishni ta'minlamaydi. Buning mohiyati shundan iboratki unumli kapital tariqasida ishga tushirilgan korxonalar mahsuloti shu mamlakat bozorining o'zida iste'molchilarga Yetkaziladi. Kapitalni eksportning 70 foizi AQSH, Yaponiya, Britaniya, Germaniya va Frantsiya mamlakatlariga to'g'ri

keladi. Shu bilan keyingi davrda rivojlangan Tayvan, Janubiy Koreya, Singapur va Braziliya mamlakatlari kapital eksporti bilan shug'illanuvchi mamlakatlar qatoriga kiradilar. Chetga kapital chiqarishning ikkinchi usuli bu ssuda berish hisoblanadi. Ssuda kapitali mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq orqali tovar aylanmasini rivojlanishini ta'minlaydi. Chetga kapital chiqarishda davlat tomonidan beriladigan ssuda kapitali xissasi mulkdorlar tomonidan beriladigan kapital kreditlariga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Umuman ssuda krediti mamlakatlar tomonidan, xususiyl yirik mulkdorlar tomonidan berilishidan tashqari Xalqaro Valyuta fondi, Yevropa rivojlantirish va ta'mirlash banki, Xalqaro rivojlantirish va ta'mirlash banklari ham mamlakatlarga – ssuda kreditlari berishda faol qatnashmoqdalar.

Iqtisodiy o'sishning hozirgi bosqichi mehnat resurslari malakasini oshirish muammosini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan fan va texnika rivojining ortishi va ayniqsa vujudga keladigan yangi tarmoqlar maxsus malakali bilimni taqozo qiladi. Ayniqsa, malakali milliy mutaxassislardan iborat bo'lgan ishchi kuchining Yetishmasligi keskin bo'lib qilmoqda. Uning asosiy sabablari qilib, respublika umumta'lim darajasida Yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimining hali yetarli darajada mukammal emasligini ko'rsatish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoiti talablariga javob beradigan darajada ishlab chiqarishni tashkil etishga bozor iqtisodiyotini yaxshi biladigan, marketing menejment, moliya va kredit masallarini tushunadigan, tayyorgarlik ko'rgan menejer, ishbi-larmon kadrlarga ega bo'lgandagina erishish mumkin. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: – «bozor o'zgaruvchan sharoitlarida mehnat qilishga layoqatli bo'lgan o'zimizning

yuqori malakali mahalliy kadrlarimizsiz O'zbekistonning mustaqilligini tasavvur qilish qiyin»¹.

Shuning uchun ham respublikada «Ta'lim to'g'risida» qonun va Milliy ta'lim dasturlari qabul qilinadi. Qabul qilingan Qonun va Milliy dasturga asosan kadrlarni kasb-kor-ga yo'naltirish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash, mala-ka oshirish asosida yagona uzluksiz milliy ta'lim tizimini yaratishga asos solindi. Shunga asosan iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy o'quv yurtlariga, il-miy markazlarga, firmalarga o'qishga va malaka oshirishga yuborilmoqda.

O'zbekiston industriyasi, o'tmishda asosan tayyor iste'mol mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xom ashyoni dastlabki qayta ishlashga yo'naltirgan edi. Ular keyin res-publikadan tashqaridagi yirik korxonalariga yuborilar edi. Xalq iste'mol mollarining salmog'i sanoat mahsuloti umumiy hajmda 25% dan oshmas edi.

29.5. O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga qo'shilishining xususiyatlari

O'zbekiston o'zining mustaqilligini e'lon qilganidan keyin uning bevosita xalqaro bozorga kirishi jahon in-frastrukturasi bilan bog'lanishi ob'ektiv reallikka aylan-di. Ammo, buning iqtisodiy va siyosiy suvverenitetidan tashqari yana bir qator sharoitlari bo'lishi kerak. Birinchi navbatda iste'mol bozorini to'yintirib, so'mning qadr-qim-matini tiklab, asta-sekin respublikaning iqtisodiy va moli-yaviy ahvolini sog'lomlashtirib borish kerak. Bu yerda yana bir muhim muammolardan biri Yetishtirilgan qish-loq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdir. Ma'lumotlar-

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y. 55-bet.

ga ko'ra, mustaqillikka yerishguncha qadar yetishtirilgan paxtaning 90% dan ortiqrog'i tola shaklidagi xom ashyo sifatida eksport qilinardi. Birgina Rossiyaning o'zida 10 mln.ga yaqin ishchi O'zbekiston paxtasini qayta ishlash sanoat korxonalarida ish bilan band bo'lgan. Bu degani O'zbekiston olishi mumkin bo'lgan milliy daromadning katta qismidan mahrum bo'lgan. Shuningdek qayta ishlash sohasining rivojlanmaganligi sababli yetishtirilgan meva sabzavot mahsulotlarining 10% dan 40% gachasi iste'molchi dasturxoniga yetib bormasdan nobud bo'lar edi. Keyingi yillarda O'zbekistonning chet mamlakatlari bilan iqtisodiy hamda ilmiy-texnik aloqalarni rivojlantirish yuzasida bir qator tadbirlar, qarorlar qabul qilindi.

Bozorda asosan tayyor mahsulot yuqori baholanadi. Eksport hajmini tayr mahsulot hisobiga oshirish O'zbekistonga chet el investitsiyalarini ko'plab jalb etishni taqozo etadi.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Jahon xo'jaligini tashkil topishning asosiy sabablari?
2. Jahon bozorini tashkil topishi va rivojlanishi?
3. Jahon xo'jaligining sub'ektlari va ob'ektlari?
4. Jahon xo'jaligining infratuzilmasi?
5. Xalqaro mehnat taqsimoti sabablari va integratsiyalashuv?
6. Pul va kapital bozorining xususiyatlari?

Testlar

1. Jahon ho'jaligi nima?
 - a) ishlab chiqarishni kooperatsiyalashuvi, tovarlarni olib chiqilishi va olib kirilishi moliyaviy investitsiya va innovatsiya jarayoni va personal almashuvi
 - b) xalqaro munosabatlarning mohiyati va o'zaro bog'liqligi
 - d) xalqaro mehnat taqsimoti bilan bog'liqligi
 - e) xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatlarning milliy xo'jaliklarining birligi

- d) xalqaro mehnat taqsimoti bilan bog'liq emasligi
2. Xalqaro mehnat taqsimotining asosiy sababi nima?
- a) mehnat resurslari bilan mamlakatlarning ta'minlanishi bir xilda emasligi
- b) Yer osti boyliklarini Yearli darajada bo'lmasligi
- d) ish kuchlari va malakaviy ish kuchlarini mamlakatlarda notekis rivojlanishi
- e) tabiiy resurslarni yetishmasligi
- f) mamlakatlarda yashash turmush sharoitlarini bir hilda emasligi
3. Xalqaro infratuzilma nima?
- a) xalqaro savdo
- b) ilmiy-texnikaviy aloqalar
- d) xalqaro axborotlar olib boorish
- e) ishlab chiqarish sohasi va xalqaro bozor orqali tovarlarni otish
- f) umumlashgan ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatish korxonalar tashkilot va muassasalarning xalqaro birlashmalar asosida sub'ektlarning o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro muunosabatni shakllantirilishidir
4. Jahon xo'jaligi tizimida iqtisodiy munosabatlar?
- a) xalqaro savdo
- b) xalqaro mehnat taqsimoti
- d) xalqaro investitsiya
- e) xalqaro valyuta tizimi
- f) hamma javoblar to'g'ri
5. Iqtisodiy integratsiya nima?
- a) xalqaro mehnat taqsimoti
- b) xalqaro ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish
- d) ishlab chiqarish internatsionalatsiyalashuvi
- e) mamlakatlar iqtisodiyotini yaqinlashuvi
- f) iqtisodiy integratsiya ittifoqlarini tashkil topishi
6. Ishlab chiqarishni internatsionalizatsiyalashuvi hususiyati?
- a) mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish
- b) ilmiy-texnika taraqqiyotining hususiyatlari
- d) mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarni o'rnatilishi
- e) iqtisodiyotni milliyashtirish
- d) eksportni importga bo'lgan nisbati

30-bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

Tayanch so'zlar: rivojlanish, iqtisodiy integratsiya, huquqiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, milliy iqtisodiyot, integratsiya, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro savdo, xalqaro investitsiya, taqqoslash ustivor nazariyasi, nisbatlarni taqqoslash nazariyasi, tashqi savdo omillar nazariyasi, Leontev paradoksi, mehnat nazariyasi, Rabchenskiy nazariyasi, hozirgi zamon savdo nazariyasi, savdo iqtisodiyot nazariyasi.

30.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya munosabatlari bo'yicha nazariyalar

Hozirgi rivojlangan va mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlar o'zlarining huquqiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat tariqasida rivojlanishlari uchun ular barcha mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash asosida rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustaqil erkin davlat sifatida o'rnatishga harakat qilmoqdalar.

Bunga asosiy sabab iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar iloji boricha iqtisodiy integratsiyalashuviga bo'lgan munosabat o'sib bormoqda. Buning asosiy sababi mustaqillikka erishgan davlatlar o'zlarining siyosiy mustaqilligini saqlash bilan birga iqtisodiy mustaqillikka erishish asosida teng bo'lgan iqtisodiy sub'ektlar tariqasida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiy aloqalarini olib borishni ta'minlashdan iboratdir.

Ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish milliy iqtisodiyotni integratsiyalashuvini ta'minlash darajasiga bog'liq. Integratsiya nima? Integratsiya turli daraja yo'nalishlarida


rivojlangan mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarining rivojlanishini ifoda etadi. Integratsiya asosida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishida ifodalanaadi. Integratsiya bu iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi ishlab chiqarish, erkin savdo zonalarini, bojxona ittifoqlarini, to'lov itti farqini, iqtisodiy valyuta fondini va umumiy bozorni qamrab oladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar turli siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa yo'nalishdagi muammolarni o'z ichiga oladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlaridan biri tashqi savdo munosabatlari bo'lib bu munosabatlar moliya munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, savdoda to'lov balanslarini to'g'ri tashkil etish, boj to'lovlarini to'g'ri belgilash, valyuta kursini muqobil darajada bo'lishini ta'minlashga va erkin savdoni tashkil topishiga bog'liq. Tashqi savdo munosabatlarini jahon bozori darajasida rivojlanishini ta'minlashda tashqi savdo nazariyasi, xalqaro moliya nazariyasi va xalqaro iqtisodiy integratsiya o'zaro bog'liq bo'lib bu nazariyalarni rivojlanish darajasi tashqi savdoni tashkil etilishiga va tovarlarni o'zaro almashuvini qay holatda bo'lishiga bog'liq. Ammo bu nazariyani xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida har biridan foydalanish o'zining xususiyatiga qarab ularning mohiyatini anglash mumkin.

Xalqaro savdo nazariyasining asosiy vazifasi xalqaro savdo munosabatlarini tashkil etishni uning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda ifodalansa, xalqaro moliyaviy nazariyaning asosiy vazifasi xalqaro darajada moliyaviy mablag'larni qay darajada boshqarilishini samarali yo'llari birligini ta'minlash bilan bog'liq bo'ladi. Bu nazariya xalqaro darajada moliyaviy mablag'larni taqsimlanishi va qayta taqsimlashi amalga oshiriladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya nazariyasi asosida asosan iqtisodiy integratsiyani mohiyatini ko'rabilish asosida uning mohiyatini iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan asoslab berish mumkin. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasida sinfiy tashqi savdo nazariyasiga asosan ochiq iqtisodiyotni ishlab chiqarish qobiliyatini nima uchun ayrim millatlar tashqi savdoda faol qatnasha olmaslik sabablarini bilish mumkin.

Tashqi savdo nazariyasi tashqi savdo aylanmasi natijasida umumlashgan iste'molni o'sib borishi sabablarini ochib beradi. U asosan ishlab chiqarish jarayonlarini o'sib borishi bilan bog'liq. Tashqi savdo asosida tovarlarni almashuv samaradorligi ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni o'zgar-magan holatda bo'lishi iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni va iste'molni o'sishiga olib keladi. Tashqi savdo milliy iqtisodiyotni samaradorligini oshirishni texnologik ishlab chiqarish jarayonini ayrim mamlakatlardagi holati moddiy resurslarni taqsimotini samaradorligini ifodalaydi. Tashqi savdo almashuv samaradorligi turli darajada shakllanuvchi tovarlarni turli narxlarda tashqi va ichki bozoridagi narxlar ta'sirida bo'ladi. Bunday iqtisodiy holatni quyidagi (30.1-rasm)da ko'rish mumkin.



30.1-rasm. Tashqi savdoni ochiq iqtisodiy samaradorligi

Agar tovar ishlab chiqarish A va B dan iborat bo'lsa, hamda bu tovarlarni biri investitsion tovarni ikkinchisi iste'mol tovarni ifodalasa unda ochiq iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy savdo samaradorligi gorizontol holatda A yo'nalishda iste'mol tovarlari vertikal holatda B tovari bo'lsa BA egri ishlov chiqarish jarayonini ifoda etadi.

Agarda iqtisodiyot rivojlanishi yopiq xususiyatga ega bo'lsa iqtisodda qancha mahsulot ishlab chiqarilsa shuncha iste'mol qilinadi. Agarda iqtisodiy rivojlanish ochiq holatda bo'lsa ishlab chiqarish jarayoni xajmi o'zgarmagan holda ham ularning iste'mol darajasi tashqi savdo munosabatlari hisobiga o'sib boradi. Jahon iqtisodiyotida $A_2 > A_1$ va $B_2 > B_1$ ifodalash mumkin. Tashqi savdoda mamlakatlarni milliy iqtisodiyotda almashuvini tashkil etishlari natijasida resurslardan foydalanish darajalarini o'zgarmagan holda o'z iste'mol darajalarini o'sib borishini ta'minlaydilar.

Taqqoslash ustuvor nazariyasi sinfiy iqtisodchilar tomonidan 1817 yilda David Rikardo o'zining ustuvorlik nazariyasi asosiy xalqaro iqtisodiy modelga asosan miqdoriy jihatdan ma'lum miqdordagi mavjud resurslar ishlab chiqarilgan mahsulot o'rtasidagi nisbatni asoslab beragan.

Nisbatlarni taqqoslash nazariyasi Adam Smitning mehnat taqsimoti uni ixtisoslashuvi turli ishlab chiqarish jarayonida bo'lishi, ikkinchidan mehnat nazariyasini qiymati – ish vaqtini ishlab chiqarilgan mahsulotning xajmiga muvofiq kelishi. Mehnat nazariyasi qiymatini cheklanganligi, uni taqqoslash hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda ahamiyatga ega. Mamlakatlar ishlab chiqargan mahsulotlarni o'zlarining ichki iste'mol bozorlarida sotsa bir birlik foyda olsalar tashqi o'zga bozorga bu mahsulotni chiqarish hisobiga ikki birlik foyda olishlari

mumkin. Shunga asosan ishlab chiqarish jarayonini ixtisoslashuvi iste'molni va milliy iqtisodiyotni samarali bo'lishini ta'minlaydi. Tashqi savdo klassik nazariyasi ma'lum uslubiy kamchiliklarga ega bo'lib ularni ichida bu nazariya nima uchun bir ishlab chiqarish resursi – ish vaqtida hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayonini modifikatsiyalash sharoitida qabul qilingan doimiy ish xaqi turli tarmoqlarda mehnat unumdorligini turlicha bo'lishini ta'minlaydi.

Tashqi savdoda omillar nazariyasi 1933 yilda shved iqtisodchisi Bertnya Ulina tomonidan chop etilgan “Xalqaro va mintaqalararo savdo” kitobi nashr etilishi bilan bog'liq. Bu nazariya sinfiy nazariya bilan bog'liq bo'lib bu nazariyaga sezilarli o'zgarishlar kiritilgan omil nazariyasi oddiy va ishonchlidir. Ishlab chiqarish omillari mehnat va kapital bo'lsa takomillashgan raqobat sharoitida tenglik holatidagi sharoitda chegaraviy kapital va chegaraviy mehnat sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi iqtisodda o'zgarmaydi deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki bu holda iqtisodiy rivojlanish bo'ladigan xavf-xatar (risk)larga ham bog'liq. tashqi savdo milliy iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Leontev parodaksi uning tomonidan tarmoqlar balansi ishlab chiqilgan. Leontev parodaksi AQSh uchun kapital bilan ta'minlashni xaddan tashqari ortiqchaligi kapitalini intensivligi tashqi savdoda omil sifatida talabga javob bermasligida ko'rgan. Bu holatni Leontev quyidagicha tushuntirgan. Ishlab chiqarish omili “kapital va mehnat” umumlashgan omillar bo'lib ulardan zaruriy omillarni ajratib olish darajasida ishlash mumkin bo'lgan differentsiyalangan miqdor va sifatga ega bo'lgan mehnat va kapitalga bo'lish kerak deb asoslangan. Amerika iqtisodini ixti-

soslashuvi Leontev tomonidan asoslab berilgan “kapital va mehnat”ga asoslanadi.

Mehnat nazariyasi minimal darajada sharoit bo'lsa ham ichki vositalar asosida ma'lum natijalarga erishish mumkinligini asoslab bergan. Minxat tomonidan tashqi savdo emas balki nazariy ilmiy kontekstini takomillash-tirish natijasida omilni ishlab chiqarishni rivojlantirishi omilini qaytalash nazariyasi deb hisoblagan.

Ribchinskiy nazariyasiga asosan ishlab chiqarishda qatnashayotgan ichki kapital va ishchi kuchi omili qiymati o'zgarmagan holda bo'lsa ularning nisbiy qiymatlari o'zgarmagan holda bo'ladi. Ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarmagan holda ishlab chiqarish omillaridan birini qiymatini o'zgarishi tovarning nisbiy qiymatini o'sishiga olib keladi, uning sababi bu omildan foydalanish ishlab chiqarishda intensiv darajada bo'lishidir. Agarda kapital o'sib borsa ishlab chiqarish jarayonini kapitalo intensiv ishlab chiqarishni rivojlanishiga olib kelishi natijasida ikkala tarmoqda ham ishlab chiqarish texnologiyasi saqlanib qoladi. Natijada mehnat intensiv mehnat omili intensiv kapital omili tomon taqsimlanadi. Milliy iqtisodiyotni xalqaro darajada intensiv kapital ishlab chiqaruviga asoslanishi natijasida bu tarmoqlar tomonidan eksport mahsulotlarini o'sishiga olib keladi.

Hozirgi zamon savdo nazariyasi – xalqaro tovarlarni sotiluvini xajmi ular ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillarini milliy iqtisodiyotga taklif etish darajasiga bog'liq. Xalqaro savdo rivojlangan va rivojlanmagan mamlakatlar, rivojlangan mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladi. Xalqaro savdo turlarini rivojlanishi “ilmfan va texnika”, yuqori malakali mehnatga bog'liq.

Kapital uzatmalarni tovarlar bilan bog'liqligi – moli-

yaviy kapital uzatmalarini o'sib borishi darajasi ularni ishlab chiqarish jarayonidagi samaradorlik darajasiga bog'liq.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya nazariyasi – XX asrning 50-70 yillarida nobel mukofoti laureati gollandiyalik Yan Tanbergen, ingliz iqtisodchisi Dj.Mid va tadqiqotchi venger B.Balashisha, fransuz iqtisodchisi M.Alyae va boshqa avtorlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular integratsiya holatini sub'ektlar uchun iqtisodiy faoliyatni tenglashtirish deb qaraydilar. Shu bilan birga integratsiya shakllarini ko'rib chiqish asosida savdodagi integratsiya uchun erkin savdo zonasi bo'lishini buning uchun bojxona to'siqlarini olib tashlash asosida savdo va bojxona xamkorligi asosida yagona bojxona to'lovlarini kiritishni taklif qilganlar. Yagona iqtisodiy zonalar tarif to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan nomaqqul to'lovlar oldini olishni ta'minlaydi.

Savdo integratsiyasi – universal integratsiya shakli bo'lib u tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mahsulotlarni integratsiyalashuvini ifoda etadi.

Moliyaviy integratsiya – moliyaviy bozorni integratsiyalashuvini tahlil qilish mexanizmi moliyaviy mablag'lar uzatmalarini boshqaruvida moliyaviy integratsiyani tahlil qilish bir-biridan farqlanib moliyaviy integratsiya darajasi integratsiya bozorida “moliya mahsuloti” hisoblanadi. Moliya bozorida ham raqobatni rag'batlantirishda tovarlar bozorida qo'llaniladigan omillar asosida iqtisodiy tahlil qilib borish zarur. Jahon xo'jaligini rivojlantirishda xalqaro moliyaviy integratsiyani mohiyati katta. Makroiqtisodiy darajada moliyaviy integarsiyani olib borish mikroiqtisodiy darajada olib borishga nisbatan imtiyozli darajada bo'ladi. Shu bilan birga makroiqtisodiy darajada moliyaviy integratsiyani amalga oshirishda asosan ikki narsaga e'tibor berish zarur.

Birinchiidan foyda stavkalarini minimallashtirish ya'ni kamaytirish investitsiya faolligini pasayishiga olib keladi.

Ikkinchiidan moliyaviy integratsiya rivojlanishi iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan sog'lomlashtirish siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkin xalqaro iqtisodiy integratsiya asosiy vazifasi iqtisodiy sub'ektlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy sharoitlarni yaratib berishdan iborat bo'lib, mamlakatlarning rezidentlari bir yoki bir necha davlatlar rezidentlaridan iborat bo'lgan holda integratsiya guruhida bo'lishidan qat'iy nazar shu yo'nalishda faoliyat olib boradilar.

30.2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va ularning asosiy yo'nalishlari

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanib borishi mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishining turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro mehnat taqsimotini kengayib borishi iqtisodiy xamkorlikni kuchayib borishiga olib kelmoqda. Xalqaro iqtisodiy munosabatlari mamlakatlar o'rtasida rivojlanib borishi mehnat taqsimotini rivojlanib borishi natijasida mamlakatlarda turli yo'nalishda ma'lum bir tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishini kooperatsiyalashuviga olib kelmoqda.

Kooperatsiyalashuv savdo yo'nalishlaridan ishlab chiqarish yo'nalishlariga o'tib bormoqda. Kooperatsiya asosida ishlab chiqarishni tashkil etishni tashkil topishi tufayli mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonida sanoat yo'nalishlariga qarab ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi yuzaga keladi. Ishlab chiqarish jarayonini ma'lum soha yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuvi mamlakatlarni o'zaro ishlab

chiqarish jarayonini olib borishni tashkil etishda ularni o'zaro integratsiyalashuvini talab etadi. Mamlakatlarni o'zaro iqtisodiy rivojlanishida aloqalarini bog'liqligi oqibatida Yevropada Ittifoqini vujudga kelishiga asosiy sabab bo'ladi.

Yevropa Ittifoqini tashkil topishi 1957-yilda olti Frantsiya, Italiya, GFR, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg mamlakatlari Rim bitimiga qo'l qo'yishlari natijasida Yevropa Iqtisodiy Assosatsiyasi tashkil topadi. Bu birlashma 1967-yilda Yevropa Ittifoqi deb nomlanadi va 1957 yilda Angliya, Daniya va Italiya, 1981 – yilda – Gretsiya, 1986-yilda Ispaniya va Portugaliya, 1995 -yilda Avstriya, Fillandiya va Shvetsiya a'zo bo'lganlar hozirgi vaqtda G'arbiy va Sharqiy Yevropadan 27 mamlakat bu ittifoqqa a'zo hisoblanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi integratsiya munosabatlarini takomillashuvi uni sifatli ekanligini ko'rsatadi. Dastlab mamlakatlar o'rtasida bojxona ittifoqini tashkil topishi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasida savdo munosabatlarini takomillashuvi uni sifatli ekanligini ko'rsatadi. Dastlab mamlakatlar o'rtasida bojxona ittifoqini tashkil topishi YEI mamlakatlari o'rtasida savdo munosabatlarini rivojlanishiga asos soldi. Yevropa Ittifoqi bo'yicha 1979-yilda Yevropa valyuta tizimi tashkil topdi, natijada yevropa valyuta fondi va uning puli *ekyu* tashkil topdi. 1992-yil oxirigachan Lyuksemburg sammitida bu mamlakatlarning to'liq integratsiyalashuvi bo'yicha Yevropa bozorini tuzilishini to'liq amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi. Bu YEI mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga olib keldi. 1990 -yilga kelib YEI ning ko'pchilik mamlakatlarida valyuta nazorati bekor qilindi. 1992-yilga kelib YEI bozori shakllangan va 1996-yilga kelib bu ittifoq mamlakatlarida 900,0 ming ish joylari tashkil etildi. Eksport 20-30%

ga ko'paygan, mamlakatlar ichki bozori narxlari bilan YEI bozori narxlari o'rtasidagi nisbat deyarlik 19,6-22,5 foizga yaqinlashgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida umumlashgan iqtisodiy ittifoq tashkil etilgan.

Yevropa Ittifoqi moliyaviy siyosati – byudjetiga asoslanadi. Byudjet mablag'ining asosiy qismi agrar siyosatini amalga oshirishga, ilmiy-texnikaviy siyosatni rivojlantirishga. YEI moliyaviy tizimiga Yevropa rivojlanish fondi, Yevropa investitsiya banki, Yevropa valyuta fondi hamkorligi kiradi. YEI moliyaviy siyosati asosiy vazifasi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq to'lov darajalarini tengligini ta'minlashdan iborat. YEI davlatlararo ilmiy-texnik siyosati olib boriladi. Olib borilayotgan ilmiy-texnikaviy yangiliklar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy ishlar xarajatlari to'liq yoki qisman ana shu ilmiy-texnika siyosati YEI tomonidan to'lanadi. Shu bilan birga YEIda bo'lgan rivojlangan Germaniya, Frantsiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari yuqori darajada ta'minlangan davlatlar bo'lib ularni rivojlanishi milliy iqtisodiyotni rivojlanish xususiyatiga ega. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar mintaqaviy ittifoqga kirishiga qaramasdan ular o'zlarining umumiy rivojlanish xususiyatlariga ega rivojlangan mamlakatlarda kishi boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1996 yilda 21005 dollarni tashkil etgan, umuman barcha mamlakatlar bo'yicha bu ko'rsatkich 5705 dollarni tashkil etgan.

Rivojlangan mamlakatlarda tahminan 14 foizida aholi yashab jahonda ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotni 50 foizini ishlab chiqaradi. Ulardagi bu rivojlanish darajasi ilm-fan va texnika yutuqlaridan keng doirada foydalanishga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ana shunday rivojlangan mamlakat AQSH hisoblanadi. Uning iqtisodiy rivojlanish darajasi 1993 – yilda 4,0-4,5 foizni tashkil etgan. Mam-

lakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat aholini turmush darajalarini yaxshilanishini ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlardan biri Yaponiya bo'lib uning tabiiy boyliklari bo'lmasa ham ilm-fan va texnika sohalarini rivojlantirishga e'tibor berishi natijasida yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Yaponiya dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan yalpi milliy mahsulotning 14 foizini va sanoatning 12 foiz mahsulotini ishlab chiqaradi. Ishchilarning o'rtacha oylik ish xaqlari 3,5 ming dollarni tashkil etadi.

Jahon xo'jaligida rivojlanayotgan mamlakatlarda jumladan Janubiy-Sharqiy mamlakatlardan Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong va Tayvan mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlanishi yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega. Bu mamlakatlar o'zlarining qayta ishlash sanoatlarini rivojlantirishga erishdilar. Uning asosiy sababi bu mamlakatlarda AQSH va Yevropa mamlakatlari, Yaponiya tomonidan yirik transmilliy kompaniyalar bo'limlarini ochilishi ularning ilmiy-texnika sanoatini rivojlanishiga asosiy sabab bo'lgan. Rivojlangan industrial mamlakatlar Lotin Amerikasida Argentina, Braziliya, Meksika mamlakatlari yuzaga keldi. Rivojlangan asosiy neft mahsulotlarini eksport qiluvchi BAE, Kuveyt, Katar, Saudiya Arabistoni va Oman mamlakatlari eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirib kishi boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 8815 dollarni Omada 22749 dollarda esa BAEda to'g'ri kelgan. O'rtacha rivojlangan mamlakatlarda jumladan Eron, Aljir, Indoneziya, Pokiston va shunga o'xshash mamlakatlarda kishi boshiga YAIM ishlab chiqarish o'rtacha 6957 dollarni tashkil etgan. Jumladan Malida 501 dollar, Chad va Nigeriyada 781 dollarga teng bo'lgan YAIM kishi boshiga ishlab chiqarilgan.

Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar faoliyatlarini

xususiyatlarini o'rganish asosida ularni quyidagicha baholash mumkin. Ularning iqtisodiy rivojlanishi asosan tashqi, bozorga yo'naltirilgan bo'lib tashqi xorijiy mamlakatlarning investitsiya mablag'lari uchun ichki iqtisodiyotni ochiqligi asosida jalb etish va rivojlanishiga asoslangan.

30.3. Bozor iqtisodiyotga o'tishga asoslangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

Yangi iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan mamlakatlarga asosan sobiq SSSR markazidan boshqaruv tizimini Yemirilishi natijasida Yevropa va Osiyo va sobiq SSSR ittifoqidagi sotsialistik deb atalgan mamlakatlar yangi iqtisodiy bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning asosida o'zlarining siyosiy mustaqilligini iqtisodiy rivojlanish asosida mustaxkamlashga e'tibor berdilar. Bu yo'lni jami 29 mamlakat tanlab olgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tizimini tashkil topishi revolyuqion yoki tinchlik usuliga asoslangan evolyutsion usul orqali o'tish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga evolyusion yo'lni tanlab olgan mamlakatlar Xitoy, Vetnam, Belorussiya, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo respublikalari va Qozog'iston mamlakatlari bu tinchlik asosida iqtisodiy reformalar orqali noformatsion bozor iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan edi.

Mustaqilikka erishgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab olgan mamlakatlar iqtisodiyoti iqtisodiy inqirozlar bilan bog'liq bo'lgan, buning asosiy sababi iqtisodiy rivojlanishdagi tarmoq tizimlari o'rtasidagi nisbatlarni buzilganligi va ishlab chiqarish jarayonining tugallanmagan tsiklda olib borilishi bo'lgan. Xalqaro valyuta fondi tomonidan olib borilgan tahlillar ko'rsatishicha bu yo'nalishdagi mamlakatlar iqtisodiyotni rivojlantirish

uchun asosan iqtisodiy inflyatsiya darajasini kamida 50 foizga va umuman bu iqtisodiy holatni oldini olish asosida mamlakat byudjet kamomadini kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan edi.

Sobiq SSSR ittifoqidan chiqqan mustaqil mamlakatlarga nisbatan Sharqiy Yevropa mamlakatlari bo'lgan Polsha, Ruminiya, Chexiya va Slovakiya iqtisodiy jihatdan rivojlanishi yuqori bo'lgan. Bu mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish asosan davlat ixtiyoridagi ishlab chiqarish sektorini iqtisodiy inqirozlar bilan bog'liq bo'lib uning rivojlanishi yuqori bo'lgan. Bunday holatdan chiqish uchun davlatlar asosan davlatga qarashli mulklarni, korxonalarni ularning ta'siridan chiqarish va hususiy sektor faoliyatini rivojlantirishga qaratganlar. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardan Xitoy respublikasini tajribalari alohida ahamiyatga ega. Xitoyda 1987-yilda Den Siopin tomonidan Xitoy iqtisodiyotini sotsialistik rivojlantirish yo'li quyidagi shartlar asosida rivojlanishi belgilangan edi:

- sotsializm yo'lida rivojlanish;
- demokratik xalq diktaturani saqlash va rivojlantirish;
- Xitoy kommunistik partiyasini boshqaruv rulini ta'minlash;
- zaruriy iqtisodiy reformalarni amalga oshirish va aholi bilan bo'lgan munosabatlar doirasini kengaytirib borishdan iborat.

Ijtimoiy mulkga asoslangan rejali tovar xo'jaligini tashkil etish asosida Xitoy mamlakatini madaniylashgan sotsialistik davlatga aylantirishdan iborat bo'lgan. Xitoyda olib borilgan islohotlar asosida yer dehqonlarga berilgan. Dehqonlar yerlarni berilishi asosida dehqonchilikni ijara usulida tashkil etishgan. Ammo bu usulda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish ma'lum muammolarni tashkil etdi.

Milliy iqtisodiyotning uchinchi tartibi bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga e'tibor berildi. Bu sohani rivojlantirilishi oqibatida 200 mln. kishi ish joylariga ega bo'ldilar. Ammo davlat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishini boshqarishida asosiy vazifani iqtisodiyotni tartibga solishni bajaradi. Xitoyda 1990 yillarda direktiv asosda rejalashtirish 16,2 foizni, yakka tartibda rejalashtirish 42,8 foizni va bozor asosida tartibga solish 40 foizni tashkil etgan.

Hozir Xitoy mamlakati iqtisodiyoti markaziy rejalashtirishdan makroiqtisodiy tartibga solishga o'tilgan. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlarga rejalashtirishning 33 mahsulotlar yo'nalishida amalga oshiriladi. Xitoyning moliyaviy holati doimiy ravishda byudjet kamomadi bilan tavsiflanadi. Soliq tizimi ichki va markazlashtirilgan tizim asosida takomillashtirilgan. 1994-yilda Xitoy xalq banki mamlakatning Markaziy bankiga aylantirilgan. Tijorat banklari 1995 -yildan boshlab faoliyat ko'rsatadi. 1994-yilda valyuta reformasi amalga oshirilgan. Xitoy iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi xorijiy investorlarni jalb qilishi natijasida keyingi 10 yil ichida yalpi ichki mahsulotni (YAIM) o'sishi 3 marotabaga, jon boshiga esa 2,5 ko'payishi ta'minlangan.

Xulosa qilib aytsak bozor iqtisodiyoti munosabatlari-ga o'tish iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash milliy iqtisodiyotni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotni rivojlanishini ta'minlovchi reformalarga bog'liq bo'lib u ma'lum darajada vaqtga va moddiy ish kuchi va kapitalga bog'liq bo'ladi.

30.4. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining asosiy shart-sharoitlari

Jahonda XX asrning 50 yillaridan jahon xo'jaligida avvalam bor sobiq rivojlangan mamlakatlarning mustamlakachilik tizimini yemirilish va sotsialistik tizim asosida rivojlanib kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy tizimni yemirilishi natijasida siyosiy ozodlikka erishgan mamlakatlar uni mustaxkamlash yo'lida yuqori iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga ega bo'lgan, rivojlangan va bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanish yo'lga kirgan mamlakatlar o'rtasida xalqaro iqtisodiy integratsiya munosabatlarining rivojlanishi asosida mamlakatlarni jahon bozoriga mustaqil, siyosiy va iqtisodiy sub'ekt sifatida o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirish bozor iqtisodiyoti yo'llarini tanlab olgan edilar.

Milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish yo'lida jahondagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish asosida milliy iqtisodiyotni talab darajasida rivojlantirishni birdan-bir asosiy yo'li ekanligini anglaganlar. Shuning uchun ham rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar xo'jaligining iqtisodiy mavqeiga yetarli darajada ega bo'lgan mamlakatlar bilan yaratilayotgan innovatsion texnika va texnologiyalar bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishni industriyalashgan asosda rivojlantirish, xalqaro savdoni rivojlantirish va erkinlashtirish, savdo-iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy masala hisoblangan. Jahon xo'jaligi barcha milliy iqtisodiy xo'jaligiga ega bo'lgan mamlakatlarni ularning iqtisodiy rivojlanishini qay darajada ekanligidan tashqari ularni ishlab chiqarish

jarayonini ilg'or ilm-fan yutuqlari asosida rivojlantirish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifat jihatidan na faqat ichki bozor talablarini qondirish balki jahon iste'mol bozorlarida ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifat darajasi bilan va iste'mol qiymatlarini iste'molchilarning xarid qilib olish va raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirishga yo'naltirishlari kerak. Agarda jahon xo'jaligi rivojlanishiga nazar tashlasak u asosan 16 asrlardan boshlab dastlab savdoni jahon miqyosida mamlakatlar o'rtasida boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Jahonda Frantsiya va Angliyada dastlab sanoat mahsulotlari jumladan neft va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarilishi sanoat rivojlanishiga asos soldi. 16-17 asrlarda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda jumladan tayyor mahsulotlarni eksport qilish jarayoni murakkabligi ularga to'lov bojlarini yuqoriligi bilan ifodalangan.

Jahon xo'jaligi XIX asrning o'rtalaridan boshlab rivojlanishi AQSH va Yevropadagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi industrialashgan sanoat ishlab chiqarishining boshlanishi bilan bog'liq bo'lgan. XX asr boshlariga kelib jahonda ikki iqtisodiy-ijtimoiy tizimga mos kapitalistik va sotsialistik ishlab chiqarish tizimi yuzaga kelgan. Jahon xo'jaligini rivojlanishi kapitalistik jamiyatda yirik ishlab chiqarish monopoliyalari bilan, chetga kapital chiqarish investitsiya asosida yoki portfeldagi investitsiya shaklida kapital chiqarish rivojlanganligi bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotini rivojlanishi jarayonida milliy mamlakatlarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishini jahon xo'jaligi bilan bog'liq holda rivojlanishi XX asrning 20-30 yillarida, XX asrning 40-80 yillarida va nihoyat XX asrning

oxirigi o'n yilligida bo'lib o'tgan iqtisodiy inqirozlar natijasida bu iqtisodiy holatdan chiqish maqsadida mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlar o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlari yo'nalishida respublika iqtisodiy mintaqalarining tabiiy resurslari asosida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va diversifikatsiya ishlarini olib borish, xalqaro mehnat taqsimotida, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash uchun xorijiy mamlakatlarning investitsiyalaridan samarali foydalanishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Jahonda barcha mamlakatlar bilan iqtisodiy xamkorlik qilish ular bilan ijtimoiy sohalar bo'yicha aloqalar o'rnatish bozor iqtisodiyoti sharoitining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mamlakatimiz jahon xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha mamlakatlar bilan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va boshqa yo'nalishlar bo'yicha aloqalar olib borish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotimizni bozor iqtisodiyotida tashkil etishni amalga oshirish yo'lida iqtisodiy reformalarni amalga oshirish yo'lida ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda jahon xo'jaligida faol qatnashuvi yo'lida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish yo'lida:

- birinchidan tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borishni ta'minlovchi xalqaro normativlarga javob beraoladigan normativ bazalari ishlab chiqildi;

- ishlab chiqarish sub'ektlarini davlat tasavvuridan chiqarish asosida bu mulklarning iqtisodiy mustaqilligini ifoda etuvchi qonunlar ishlab chiqish;

- iqtisodiyotni uning tarmoqlarida iqtisodiy jihatdan samarali rivojlanishini ta'minlash yo'lida xususiy mulkdor-

larni faoliyatlarini rivojlanishini ta'minlash yo'lida chora va tadbirlar ishlab chiqildi;

- iqtisodiyotni tartibga solishni bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida tartibga solishda iqtisodiy rivojlanish darajasini qay holatda yuritilishini e'tiborga olgan holda tartibga solib borish zarur.

O'zbekiston o'zining siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng uni saqlash, iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'lida jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi yo'lida tayyorgarlik ishlarini olib bormoqda. Hozirgi kunda 165 davlatlar bilan iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishlarda aloqada bo'lib shulardan 120 tasi bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan Toshkent respublika poytaxtida 35 mamlakat elchixonalari ishlamoqda.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi, 1992 yildan buyon Xalqaro Valyuta fondining a'zosi. Shu yili Xalqaro jahon bankining a'zosi bo'lgan. Bu bank mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida yaqindan yordam berib kelmoqda. Respublikamiz Birlashgan Millat tashkilotining ta'lim, ilm-fan va madaniyat yo'lida (YUNESKO) yaqindan aloqada bo'lgan holda hozirgi zamon muammolarini o'rganish va mamlakatimizda ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniyatini hamma sohalari bo'yicha tegishli zarur bo'lgan ishlar jumladan: insoniyatga axborot va informatika xizmatlarini yaxshilash, ijtimoiy va gumanitar fanlarni jahon rivojlanishi bo'yicha insoniyatga axborotlarni yetkazish ishlarini amalga oshirishga yaqindan yordam bermoqda.

Mamlakatimiz jahon savdo bozorida savdo siyosatiga asoslangan holda savdo faoliyatlarini olib bormoqda. Tashqi savdo sohasini rivojlantirishda: bojxona to'lovlari, aktsiz

soliqlarni, savdo kvotalarini belgilash asosida jahon savdosi qatnashuvi tartibga solib turiladi. Jahon savdosi rivojlanishiga turli ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan asosiy omillarni ishlab chiqarishga joylashtirish, jahon mamlakatlarida ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish protektsionizm siyosatini ya'ni milliy iqtisodiyot sub'ektlarini ishlab chiqarish va jahon savdo bozorida ularni ximoya qilishni ta'minlash yoki ochiq bozor tizimini friterderlik siyosatini amalga oshirish orqali tartibga solinadi. Protektsionizm siyosatini amalga oshirishda asosiy masala import va eksport tovarlariga import va eksport kvotalarini qo'llash zarur. Jahon savdo bozorida asoslanmagan mahsulot sifatini standartlash va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'lida to'g'ridan-to'g'ri cheklash mamlakat yoki yirik monopoliyalar tomonidan amalga oshiriladi yoki qiyosiy cheklash, mamlakat yoki yirik monopoliyalar tomonidan tartibga solib boriladi. Bu friterderlik siyosati bo'lib erkin savdoni ifodalaydi. Erkin savdoda mamlakatlar tovarlariga olinadiki friterderlik eksport va import to'lov-lari orqali tartibga solinadi. Erkin savdoda qatnashayotgan mamlakatlarning turli darajadagi ko'rsatkichlari bir-birlariga mos kelishiga asosiy sabab tovarlarga qo'yiladigan narxlar bilan ishlab chiqarish xarajatlari nisbatlari mamlakatlarda bir-biriga yaqin bo'ladi.

Jahon xo'jaligiga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirishda asosan mamlakatning tabiiy boyliklariga ega bo'lgan resurslardan samarali foydalanish sohalarini rivojlantirishga asosiy e'tiborlarini qaratishlari zarur. Shu bilan birga ichki iste'mol talablariga zarur bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishda asosan bir narsaga e'tibor berish zarur. Jumladan tashqi mamlakatlardan

xalqaro savdo asosida olib kelinayotgan iste'mol mahsulotlari qiymati o'zida uni ishlab chiqarish arzon bo'lsa zaruriy xomashyolar olib kirish yoki zarur bo'lgan mahsulotlar iste'mol qiymati o'zimizda ishlab chiqarishga nisbatan arzon bo'lsa tayyor iste'mol mahsulotlarini xarid qilib olish maqsadga to'g'ri bo'ladi. Umuman mamlakatlararo savdo tizimini rivojlantirish barcha mamlakatlar uchun iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan ularning manfaatdorlik darajalarini o'sib borishini ta'minlaydi. Buning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini ilk bor kapitalistik ishlab chiqarish usulini rivojlanishini iqtisodiy jihatdan tahlil qilgan A.Smit va D. Rikardolar xalqaro savdo munosabatlariga asos solgan ingliz iqtisodchilaridan A.Smit o'zining "Tabiatni o'rganish va xalq boyligi sabablari" asarida har bir to'g'ri fikr qiluvchi oila boshlig'i, xech qachon arzon bo'lgan mahsulotni uyda qilmaslikka chaqiradi.

D.Rikardo esa o'zining taqqoslama ustunligi yoki ishlab chiqarish xarajatlari ustunligi nazariyasini yaratgan. Bu nazariyaga asosan har bir ishlab chiqaruvchi mikro va makro darajadagi sub'ektlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda bo'ladigan ishlab chiqarish xarajatlarini taqqoslash asosida ishlab chiqarishni tashkil etishni zarurligini ko'rsatadi. Ularning asosiy yutuqlari ishlab chiqarish xarajatlarini nisbatlaridagi farqlardan iborat bo'lib ularning olayotgan foydalarini o'sib borishini ta'minlaydi.

Respublikada 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida milliy iqtisodiyotni ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Mamlakatimizni asosiy strategiyasi iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlantirish asosida tashqi iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirish asosida iqtisodiy tarmoqlar majmuasini rivojlantirish asosida mamlakat

iste'mol talablarini qondirish, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishni o'sib borishini yalpi milliy mahsulot xajmini o'sib borishini muqobillashtirish asosida davlat byudjeti va maxalliy byudjet tushumlarini o'sib borishini ta'minlash asosida mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy holatini barqarorligini ta'minlash aholini turmush darajalarini o'sib borishini ta'minlaydi. Harakatlar strategiyasida belgilangan masalarni amalga oshirish uchun 649 innovatsion loyihalarni bajarilishini ta'minlashga 40 milliard dollar ajratilishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,5 marotabaga ko'payib yalpi ichki mahsulotdagi xissais 33,6 foizdan 36,0 foizga, mahsulotlarni qayta ishlash tarmoqlarida esa bu o'sish ko'rsatkichi 80,0 foizdan 85,0 foizga ko'payishi belgilangan. Bu iqtisodiy tadbirlar ijtimoiy ahamiyatga egaligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishi natijasida ishga yaroqli mehnat resurslarini ish joylari bilan to'liq ta'minlashga olib keladi.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima?
2. Nisbatlarni taqqoslash nazariyasi mohiyati?
3. V.Leontev Parodoksi nima?
4. Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari nima bilan ifodalanadi?
5. O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga qo'shilish xususiyati?

Testlar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima?
 - a) ishlab chiqarishni o'sishi
 - b) innovatsion rivojlanish
 - d) xamkorlikda ishlash
 - e) mamlakatlarning iqtisodiy aloqalari

f) ishlab chiqarish sohalarida rivojlanishni o'zaro bog'liqligi
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar rivojlanish xususiyatlari?

- a) xususiy mulkchilikka asoslanishi
- b) ijtimoiy mulkka asoslanganligida
- d) erkin raqobatga
- e) erkin savdoga
- f) xususiy mulkchilikka va erkin savdoga

3. O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga qo'shilishini qanday aniqlash mumkin?

- a) investitsiya asosida
- b) innovatsiya asosida
- d) texnikaviy xamkorlik asosida
- e) mamlakatda iqtisodiy reformalar asosida
- f) jahon xo'jaligi va jahon bozorida faol qatnashuvi

31-bob. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

Tayanch so'zlar: jahon bozori, eksport, import, reeksport, reimport, savdo siyosati, xalqaro savdo, friterderlik siyosati, potentsializm siyosati, savdo balansi, to'lov balansi, kliring.

31.1. Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar

Har qanday mulkchilik shakllariga asoslangan mamlakatlar xalqaro darajada o'zaro iqtisodiy aloqalarsiz rivojlana olmaydi. Xalqaro savdoda nafaqat rivojlangan xatto rivojlanayotgan mamlakatlar ham xalqaro jahon bozoriga o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlari bilan iste'mol bozorida qatnashadilar. Demak jahondagi barcha mamlakatlar o'zaro jahon bozorida iqtisodiy aloqalararo rivojlana olmaydi. Jahon bozorida qatnashuvchi davlatlar ma'lum darajada foyda olishga harakat qiladilar. Mamlakatlar o'rtasida xalqaro jahon bozorida qatnashuvidan maqsad foyda olish ekanligini savdodan foyda kelishini merkantelistik nazariyatchilari vakillari e'tibor berganlar. Tabiatan har bir mamlakat tashqi savdoga takomillashib borayotgan iqtisodiy munosabatlar asosida shunday tovarlarni jahon iste'mol bozoriga chiqaradilarki bu tovarlar ichki iste'mol bozoriga nisbatan yuqori foyda keltiradilar. Ular asosiy boylikni oltinda ko'rganlar, ular shunga asoslangan holda tashqi savdo nazariyasini yaratganlar. Savdo maksimal darajasida foyda olishni ta'minlashi kerakligini asoslab eksportni rivojlantirish importni esa xajmini qisqartirishni taklif etganlar.

Mamlakatlarni rivojlantirishni ta'minlash uchun faqat

tabiiy boyliklarni o'zini taqsimlash va qayta taqsimlashni o'zi kifoya qilmaydi balki mamlakatlar tomonidan mavjud tabiiy boyliklardan tejamli va unumli foydalanish asosida moddiy boyliklarni ishlab chiqarish tufayli eng va rivojlangan mamlakatlar boyligi ko'payib bormoqda.

Sinfy iqtisodiyot vakillaridan A.Smit o'z vaqtida millatning boyishi jamg'arilgan tillaga va yakuniy darajada iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishga bog'liq degan edi. A.Smit nazariyasini D.Rikardo rivojlantirib o'zining taqqoslashustuvorligi nazariyasini yaratadi. Uning fikricha tashqi savdo yuqori daromadga ega bo'lgan mamlakatlar uchun qo'shimcha foyda keltiradi. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki ayrim tovarlarni bir mamlakatda ishlab chiqarishga nisbatan uni boshqa mamlakatlarda sotib olish samarali bo'ladi.

Taqqoslash nazariyasi mehnat qiymati nazariyasiga asoslanadi. Hozirgi sharoitda mehnat qiymati nazariyasiga asoslangan holda ishlab chiqarish bilan bog'liq alternativ xarajatlar asosida bir tovar qiymatini ikkinchi tovar qiymatini yaratish uchun sarf etilgan mehnat sarflari asosida aniqlanadi. Bu nazariyaga asoslangan holda aytish mumkin har bir jahon bozorida qatnashayotgan mamlakat ma'lum darajada foyda oladi.

Alternativxarajatlar nazariyasini rivojlanishiga 20-30 yillarning XX asrida tashkil etilgan Xeksher Olin nazariyasi. Bu nazariyaga asosan xalqaro mehnat taqsimoti na faqat mamlakatlarning tabiiy holatlari bilan ishlab chiqarish shartlari bilan ham bog'liqligidan kelib chiqqan holda ularni qanchalik darajada intensiv omillar va omillar bilan to'yinganlik darajasiga ham bog'liqligida ko'radilar. Qaysi mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar darajasi yuqori bo'lsa bu mamlakatlar boshqa mamlakatlarga nisbatan ishlab chiqar-

rish omillari bilan ta'minlangan bo'lsa bu mamlakat tovarni ishlab chiqaradi. Iqtisodiyotda omillarni nisbatlar qonuni asoslangan holda har bir mamlakat qaysi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa demak ularda shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun Yetarli omillar bor deb hisoblash mumkin. Bu mexanizm doimiy ravishda mamlakatlarda o'zgarib turishi mumkin. Bu nazariyani boyitishda AQSH iqtisodchisi P.Samuelson tomonidan taklif etilgan ixtisoslashgan mehnat resurslariga bo'lgan talabni o'sib borishi va uni ishlab chiqarish omili sifatida o'sib borishi sekin-asta uning boshqa mamlakatdagi mehnat resurslariga bo'lgan talabni o'sishi natijasida har bir mamlakat o'zining ishlab chiqarish yo'nalishlarini o'zgartirish hisobiga eksportni o'sishini ta'minlashi mumkin. Shuning uchun omillarning nisbatlar nazariyasini Xaksher Olin Samuelson nazariyasi deb yuritiladi.

AQShlik iqtisodchi Vasiliy Leontev o'zining Leontev paradoksi nazariyasida AQSH mamlakatida eksport va importni o'rganish nazariyasi AQSH chet el mamlakatlariga mehnat ko'p talab qiladigan tovarlarni chiqarib ulardan kapital xarajatlari yuqori tovarlarni xarid qilishini shu nazariya orqali asoslab bergan.

Asoslab berilgan nosinfiy nazariyotchilar tomonidan "notexnologik nazariya" bo'yicha ayrim mamlakatlarda yuqori texnologik ishlab chiqarishga ega bo'lishi texnologik jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan jahon savdo bozorida yuqori daromad olishni ta'minlaydi.

Ingliz iqtisodchisi texnologik uzilish nazariyasida ayrim mamlakatlar bu yo'nalishda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi tufayli bir xil ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlanishidan qat'iy nazar yuqori texnologik holatga ega bo'lgan mamlakatlar yuqori foyda

olishni o'zlariga ta'minlaydilar toki raqobatdosh mamlakat shunda ustunlik texnologik darajaga yetgunga qadar.

AQShlik iqtisodchi E.Linder firmanazariyasida texnologik jihatdan murakkab ishlab chiqarilayotgan mahsulot ishlab chiqarishi va uni keng doirada ishlab chiqarilishi natijasidan keyin tashqi bozorga chiqariladi. Buning uchun xaridor mamlakatni topishi va undagi iste'mol talabni eksport qiluvchi mamlakat iste'mol talablariga yaqin bo'lishi bu mamlakatlarni bir darajada rivojlanishini ta'minlaydi. AQShlik M.Porter xalqaro millatlararo raqobat nazariyasida jahon bozorida u raqobat, omillar va ularning sifatlari, ichki bozordagi talab, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, firmaning strategiyasi va ichki raqobatga bog'liq barcha xalqaro savdo nazariyalari oqibatda jahon bozorida barqaror narxlarni tashkil etilishida va daromad taqsimotiga olib keladi.

Xalqaro savdo qadimgi davrlardayoq bo'lgan. Grek, rim, arab, xitoy davlatlari qadimgi davrlarda hunarmandlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, tirik tovarlar (qullar) bilan savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganlar. O'rta asrlarda Venesiya, Xiva, Buxoro, Qo'qon shaharlarida savdo gullab yashnagan, lekin u davrlarda chet davlatlar bilan savdo aloqalari ommaviy tus olmagan edi. Pulning umumiy tavsifga ega bo'lmaganligi tufayli savdo ishlari barter ko'rinishida bo'lgan.

Ilm va fan taraqqiyoti texnikani rivojlanishi mashinalarning ishlab chiqarilishi natijasida sanoat inqilobini amalga oshirilishi milliy iqtisodni jahon iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga sabab bo'ldi. Davlatlar o'zaro savdo aloqalarini amalga oshirish bilan o'zaro manfaatdorlikka erishishga harakat qila boshladilar.

Xalqaro savdoni tahlil qilish natijasida A.Smit mutloq afzallik nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaga muvofiq

ba'zi bir davlatlar biror mahsulotni ishlab chiqarganda mutloq afzallikka, samaradorlikka erishadilar. Xalqaro savdoda qatnashayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalar uchun zarur bo'lgan tovarlarni turli mamlakatlarda ishlab chiqarish va o'zaro xalqaro bozorda eksport va import yo'nalishida xarid qilib olishni, ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan moddiy xarajatlarni kamaytirib borishini ta'minlaydi. Buning sababi bu davlatlarning o'zga davlatlarga nisbatan qulay bo'lgan tabiiy shart-sharoitga ega ekanligidir. Masalan: Hindistonda choy yetishtirish, Braziliyada kofe, O'zbekistonda paxta yetishtirish qulay va arzon. Sababi: tabiiy sharoitni qulayligi.

Bu davlatlar uchun o'zaro yetishtirgan tovarlarni almashlash foydaliroq. Chunki O'zbekistonda kofe, choy yetishtirish mumkin bo'lsada, biz uchun samarasiz. Lekin ko'pgina davlatlar mutloq afzallikka ega bo'lmasalarda xalqaro savdoda ishtirok etadilar. Bunday ziddiyatni ingliz iqtisodchisi D.Rikardo o'zining nisbiy afzallik nazariyasida tushuntirib bergan. Aynan bir xil tovar ishlab chiqaruvchi boshqa davlatlarga nisbatan mehnat unumdorligi yuqori bo'lganligi sababli samaraga ega bo'ladi, uning tovari kam xarajat talab etadi. Natijada tovarlarni sotgan davlatlarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi.

Xalqaro savdo mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq tovarlarni chetdan olib kelish (import) va chetga chiqarish (eksport) bilan tavsiflanadi. Xalqaro savdoning iqtisodiy asosi xalqaro mehnat taqsimotidir. Xalqaro savdo asosida dunyoda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslar qaytadan taqsimlanadi. Jahon savdosining tuzilishini 60% xom ashyo materiallari, 40% tayyor mahsulotlar tashkil etadi.

Xalqaro savdoning elementlariga eksport, import, reek-

sport, reimportlar kiradi. Reeksport deganda o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi davlat uchun olib sotiladigan tovarlar kiradi. Reimport esa iste'molchi mamlakatlardan reeksport qilingan tovarlarni sotib olishni ifodalaydi.

Reimport - reeksport tovarlarni xarid qiluvchi iste'molchilar hisoblanadi. Xalqaro savdo oboroti import va eksport tovarlarining pulda ifodalangan yig'indisi hisoblanadi. Tashqi savdo sharoitida mamlakat daromadlarining modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Daromad = iste'mol + investitsiyalar + eksport-import.

Import bilan eksport o'rtasidagi farq savdo balansining qoldig'I (sal'dosi) hisoblanadi, ya'ni sof eksportni o'zida ifodalaydi.

31.2. Savdo siyosati: nazariya va tajribani amalga oshirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo faoliyati davlat tomonidan boshqariladi. Boshqarish huquqiy asoslarni vujudga keltirish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon respublikamiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro savdo, xalqaro savdo siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Xalqaro savdo siyosati, milliy siyosatdan darajasi va tavsifi jihatidan tubdan farq qiladi. Davlat tashqi iqtisodiy savdo aloqalarini amalga oshirish masadida ochiq savdo siyosati (fritrederlik) va yopiq savdo siyosatini (proteksionizm)ni amalga oshiradi.

Ochiq savdo siyosati (fritederlik) milliy iqtisodni himoya qilish va rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Yopiq savdo siyosati (proteksionizm) merkantilizmning ilk rivojlanishi davrida vujudga kelgan bo'lib, davlat byud-

jetining daromad qismining katta qismi boj solig'i hisobida tarkib topgan. Proteksionizm siyosati chet el tovarlariga har xil to'siqlar qo'yish yordamida amalga oshiriladi. To'siqlar turli ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Bojxona tariflari: Tariflar importga solinadigan soliqlardir. Tariflarning ikki xil turi mavjud. Chet eldan kelayotgan tovarlardan daromad olish uchun hamda ichki bozorni chet el tovarlari kirib kelishidan ma'lum darajada himoyalash uchun aktsiz solig'i hisoblanadi. Fiskal tariflar davlat tomonidan pul mablag'lari oqib kelishini ko'paytirish maqsadida qo'llaniladi.

2. Kvotalar: Muayyan nomdagi va turdagi import qilindigan tovarlar miqdorini chegaralab qo'yish hisoblanadi.

3. Demping – o'zga davlat tovarlarini sotishga to'sqinlik qilish maqsadida milliy mahsulotlar bahosini tushirish.

4. Kelayotgan import tovarlarga olgan lisenziyasini talab qilish.

31.3. O'zbekistonning xalqaro savdo tashkilotiga qo'shilishi

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning oliy shakli bu jahon xo'jaligidagi integratsiya aloqalaridir. Iqtisodiy integratsiya g'oya murakkab jarayon bo'lganidan unga xos hodisalarni hisobga olgan holda uni baholash mumkin.

Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy integratsiya milliy bozorlar va mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasida uzviy bog'liq hamjihat rivojlanishini ta'minlash turli mamlakatlarda, doirasida resurslarning erkin harakat qilishi, yagona umumiy bozor tashkil qilish maqsadida birlashuvidir.

Milliy mudofaa xavfsizligini ta'minlash, ish bilan bandlik darajasini oshirish, boshqa mamlakatlar tomonidan iqtisodiy

tisodiyotdagi barqarorlikni buzish, hali o'zi tiklab olmagan yosh tarmoqlarni himoya etish, milliy bozorni chet el firmalarining dumping (tovarni foyda ko'rmasa ham bozorni egallash maqsadida arzonlashtirib sotish) siyosatidan chet eldan arzon ish kuchini kirib kelishidan himoya etishdir.

Xalqaro mehnat taqsimoti qancha chuqur bo'lsa va ishlab chiqarishdagi kooperatsiya aloqalari qanchalik mustahkam bo'lsa, iqtisodiy integratsiya shunchalik muvaffaqiyatli va turli shakllarda rivojlanadi. Shuning uchun ham 1947 yili 23 ta davlat o'rtasida savdo va boj siyosati bo'yicha «Xalqaro tarifni belgilash va savdoni amalga oshirish» bitimi tuzildi. Hozirgi davrda bu bitimga 111 ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib, kelishuv qoidolari asosida xalqaro savdoning 85 foizini amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham 1999-yilda kuzauvchi sifatida shu tashkilotga a'zo bo'ldi.

1994-yilda davlatlar o'rtasida kelishmovchilik bo'lishi natijasida tashkilot inqirozga yuz tuta boshladi. Uganda raundida 1994-yildan boshlab, tashkilotning nomi (GATT) Xalqaro savdo tashkiloti (XST), deb nomlanadi. Natijada davlatlar o'rtasida tariflar erkin savdo zonalarini aniqlash o'zaro savdo-sotiq yuzasidan olib boriladigan qonun qoidalar davlatlarning manfaatlarini himoyalash maqsadida qaytadan ko'tarila boshladi. Rimda Xalqaro Yevropa iqtisodiy uyushmasi (YEIU) tashkil topdi. Bu uyushmaga 13 ta davlat a'zo bo'lib u «umumiy bozor» nomini oldi. Umumiy bozor uyushmasining asosiy maqsadi shu uyushmaga a'zo bo'lmagan davlatlar tovarlari uchun umumiy boj tizimini joriy etish, umumiy bozor uyushmasiga a'zo bo'lgan davlatlar o'rtasida ishchi kuchi va kapitalni erkin harakat qilishini ta'minlash, iqtisodiy sohada o'zaro manfaatdor bo'lgan umumiy siyosatni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrining boshlarida jahon savdo bozorlariga chiqishda ma'lum darajada chegaralangan edi. Hozir esa respublika o'zining mahsulotlari paxta tolasi, neft, gaz, oltin, texnika va avtomobil' va boshqa tayyor mahsulotlari bilan jahon bozorida o'z o'rnini egallamoqda. 1997 yildan boshlab Yevropa uyushmasiga, Xalqaro valyuta fondiga, Jahon bankiga a'zo bo'ldi. Yevropa qayta qurish va rivojlanish bank Osiyo taraqqiyot banklari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatligiga kirib borishida chet el investitsiyalari katta ahamiyatga egadir.

31.4. Savdo balansi, uning tarkibiy tuzilishi va tartibga solish usullari

Har bir davlat ma'lum vaqt davomida iqtisodiy aloqalarning borishi haqida ma'lumotlarni to'playdi. Tashqi savdoning chet davlatlarda qanday ahvolda olib borilayotganligini ifodalaydigan ma'lumotlardan biri to'lov balansi hisoblanadi. Agarda mamlakatga kirib kelyotgan mablag'lar nisbiy bo'lsa, to'lov balansi salbiy bo'ladi.

To'lov balansi salbiy bo'lganda, kamommad chet davlatlarga qimmatbaho qog'ozlar (zayom) sotish yoki Markaziy bank zahiralaridan qoplash hisobiga to'latiladi. Har qanday davlatning rasmiy valyuta zahiralari chegaralanganidir. Shuning uchun to'lov balansining uzoq, muddat kamomadli holda bo'lishi davlatning valyutalarini behudaga sarflanishiga, isrof bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bunday davlat to'lov balansini muvozanatli holga keltirishga harakat qilishi kerak. Davlatlar to'lov balanslarini Xalqaro valyuta fondining (XVF) tavsiyalari asosida tuzishlari kerak. Bu murakkab hujjat yuzdan ortiq bo'limlardan

iborat. To'lov balansi bo'xona xizmatchilarining ma'lumotlari asosida tuziladi.

To'lov balansi savdo balansiga nisbatan keng ma'noga ega. To'lov balansida davlatlar o'rtasida amalga oshiriladigan turizm, ish kuchi migratsiyasi, kapital almashish, investisiya sohasiga tegishli bo'lgan mablag'larning nisbati ham olinadi.

Kommertsiya operatsiyalarining xalqaro hisoblari naqd pullarsiz amalga oshiriladi. Shuning uchun uning ma'lumotlari buxgalteriya hisobotlaridan olinadi. Xalqaro hisoblar erkin almashtiriladigan valyutada, o'zaro tovar ayirboshlash formasida va kliring savdosi yordamida amalga oshiriladi.

Kliring – deganda (inglizcha aniq, tozalash) o'zaro tovar almashishi jarayonida vujudga kelgan farqni xalqaro valyuta yordamida to'lash tushuniladi. Banklararo kliring va xalqaro valyuta kliringlari mavjud.

31.5. Xalqaro valyuta tizimi, uning tuzilmasi va shakllanish bosqichlari

Jahon xo'jaligi aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yilgan valyuta munosabatlari tizimisiz tasavvur etish mumkin emas. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro to'lov aylanmasida pulning harakat qilishi boshlanishi bilan vujudga kelgan. Valyuta munosabatlari taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon xo'jaligi tarkibining o'zgarishi bilan bog'langandir.

Valyuta munosabatlari – bu davlatlar o'rtasida tashqi savdoga kapital chiqarish, foydani olib chiqish, zayom va subsidiyalar olish, fan va texnika sohasida ayirbosh qilish,

turizm va boshqa shunga o'xshash xo'jalik aloqalariga xizmat qiluvchi jahon puli amal qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.

Valyuta munosabatlari taqsimot va almashuv sohasida amal qiladi. Lekin nisbatan mustaqil holda to'lov balans, valyuta kursi, kredit va hisob operatsiyalari orqali jahon iqtisodiyoti ahvoriga, ijtimoiy takror ishlab chiqarish, ayrim mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, ularning xalqaro iqtisodiy aloqalarini turli ko'rinishlariga ta'sir o'tkazadi.

Bunda davlatlar o'rtasida hisob-kitob bir maromda, silliq ko'chmaydi, o'zaro nizolar va kelishmovchilik ostida bo'ladi. Hozirgi zamon valyuta munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi, jahon xo'jaligining samarali rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarini yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro valyuta munosabatlarida teng huquqli sub'ekt sifatida qatnashish uchun xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondiga, Xalqaro qayta tiklash va rivojlantirish bankiga, Osiyo taraqqiyot bankiga a'zo bo'ldi.

Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega. Milliy valyuta tizimi mamlakatning pul tizimining bir qismi bo'lib, uning doirasida valyuta resurslari shakllantiriladi va foydalaniladi, xalqaro to'lov oboroti amalga oshiriladi.

Unga quyidagi asosiy belgilarning bo'lishligi hosdir:

- milliy valyuta birligi;
- rasmiy tilla valyuta zaxirai;
- pul birliklari qiymatining oltin baravarida kurs shakllanishining tengligi;
- valyutani qaytarish sharti;
- valyutaga cheklashning bor yoki yo'qligi;
- davlatning tashqi hisob tartibi;

- milliy valyuta bozori va oltin bozorini tartibi;
- mamlakat valyuta munosabatlarini boshqarishni ta'sis etuvchi milliy huquqi.

Milliy valyuta tizimi pul tizimining tarkibiy qismidir. Uning o'ziga hosligi mamlakat iqtisodiyotining, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganlik darajasi sharoiti bilan belgilanadi.

Jahon valyuta tizimi bu – jahon xo'jaligining rivojlanishi va davlatlararo kelishuviga muvofiq huquqiy mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlari shaklidir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan:

- milliy va jamoa valyuta mablag'i va oltin zaxiraining tarkibi va tuzilishi;

- teng valyuta va kurs mexanizmi;

- o'zaro valyutani qaytarish sharti;

- valyuta miqdorining cheklanishi;

- xalqaro hisob shakli;

- xalqaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi xalqaro kredit tashkilotining huquqiy holatidan iborat.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro valyuta tizimi milliy valyuta tizimlari asosida harakat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'larini, shu jumladan valyutani almashtirish va sotish yirik tijorat banklari vositasida amalga oshiriladi. Shu banklar boshqa mamlakatlarda o'z firmalariga ega yoki boshqa banklar bilan shartnomaga ega bo'ladilar. Bu banklar orqali savdo va boshqa tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida mijozlar ushbu bankka pul qo'yish va uni boshqa mamlakatga boshqa turdagi valyuta bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqaro valyuta bozorining yirik markazlari Tokio, N'yu-York, Bryussel shaharlari hisoblanadi.

Xalqaro valyuta tizimi o'z taraqqiyotida uch bosqichni

bosib o'tgan. Xalqaro valyuta tizimining birinchi bosqichi XIX asr ohirida oltin andoza asosida yuzaga kelgan bo'lib, bunda ayrim mamlakatning milliy valyutasi bozorda oltin-ga erkin almashtirilgan. Bu valyuta tizimi XX asr boshlarida-gi buyuk depressiya davrida barbod bo'ldi. Ikkinchi bosqichda 1944-yil AQShda Bretton-Vuds konferensiyasida rasmiylashtirilgan valyuta kursining oltin andozasi saqlanib qolindi. Lekin bunda AQSH dollari oltin va valyuta almashinuvida bosh vositachi qilib belgilandi. Bu ikkalla vositada ham valyuta kursi hukumat tomonidan oltinni jahon bozoridagi bahosiga ko'ra belgilab qo'yish asosida amalga oshirildi.

Ushbu konferensiyada «Xalqaro valyuta fondi» tashkil etildi.

1971-yilga kelib AQSh hukumati dollarini oltinning rasmiy bahosi bo'yicha almashtirib olishdan bosh tortdi. Chunki bu davrga kelib jahondagi pul zahirasining o'sishi qazib olinayotgan oltin miqoriga bog'liq bo'lib qoldi. Shuningdek, oltin zahiralarining o'sishi, xalqaro savdo va moliya miqyoslarining o'sishidan orqada qola boshladi.

Bu orada chet mamlakatlarga chiqib ketgan AQShning dollari miqdori ko'payib savdo balansida kamomad ortib ketdi, hozirda amal qilib turgan uchinchi bosqich 1976 – yilda HVF tomonidan joriy etilgan bo'lib, davlatlar o'rtasida valyuta munosabatlari milliy pul birligining o'zgarib turuvchi, suzuvchi kurs asosida harakat qilishini belgilashdan boshlanib hozirgacha davom etib kelmoqda. Mamlakat agarda quyidagi uchta shartni bajarsa oltin andoza qabul qilgan hisoblanadi: o'zining pul birligiga ma'lum miqdorda oltin o'rnatish; mavjud oltin zahirasi bilan taklif pul miqdori o'rtasida qat'iy nisbatni saqlash; oltinning erkin eksport va importiga qarshilik qilmaslik. Bunga ko'ra, agarda

har qaysi davlat o'zining pul biriligiga oltin holatini belgilasa, turli milliy valyutalar o'zaro belgilangan nisbatlarga ega bo'ladi. Masalan; AQSH o'z dollarini 0,1gramm oltinga tenglashtirsa, Angliya esa funt sterlingni 0,2 gramm oltinga, demak bir funt sterling ikki dollarga teng. Ammo «Oltin andoza» tizimiga ko'ra mamlakat milliy valyutasini joriy etish uchun; albatta o'z oltin zahirasi ega bo'lmog'i kerak va oltin zahirasi tugasa «Oltin andoza»dan voz kechishga majbur bo'ladi.

Hozirgi vaqtda amal qilayotgan xalqaro valyuta mexanizmining asosiy ko'rinishlari quyidagicha. Valyuta birligini oltinga bog'liqligi yo'qoldi. Natijada o'zgarmas baho belgilash ham yo'q bo'ldi. Oltin nafaqat ichki, hatto jahon bozorida ham umum to'lov vositasi pul rolini bajarishdan to'xtadi.

Shuning uchun jamoa valyuta birligini yaratishga erishilmaganligi uchun dollar valyuta moliya mexanizmida asos bo'lib qolmoqda va xalqaro muammolarda kredit to'lovi vositasini bajarmoqda, bosh valyuta zaxirai rolini o'ynamoqda.

Jamoa valyuta birligi u banknot yoki pul birliklari ko'rinishida bo'lmoqda. Jamoa valyuta birligi asosida naqd pulsiz maxsus hisob-kitob yuritiladi. Bu maxsus hisob-kitob yuritish usulidir. Jamoa valyutasiga 1970-yilda «Xalqaro valyuta fondi» tomonidan EPR (o'zaro foydalanish huquqini beruvchi hujjat) kiradi. EPRning qiymati valyuta savatchasi asosida tashkil topadi. Valyuta savatchasi «Xalqaro valyuta fondi»dagi qiymatning 42 % AQSH dollari, G'arbiy yevropa pul birligi (frank–marka) 45 % va Yaponiyaning 13 % yeni tashkil etadi. Maxsus hisob-kitob yuritish bilan birga mintaqaal (mintaqaviy) hisob pul birliklari mavjud. Bu EKYU yevropa hisob birligi bo'lib Yev-

ropa Iqtisodiy Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Hozirgi davrda, ya'ni XX asrning ohirgi yilida EKYU naqd va chekli pulga aylantirildi va keyinchalik muomalaga yevropa pul birligi yevro kiritildi.

Buning uchun Yevropa Markaziy Bankini tashkil etish va Yevropa Davlatlarining Milliy Banklari uning bo'limlariga aylanishi belgilangan. Osiyo, Afrika va Lotin Amerika davlatlarida ham bir necha xil jamoa valyutasi mavjud bo'lib, uning hisob-kitobi Arab valyuta fondining dinorini, AND paktining AND pessosida va Afrika davlatlari va uning doirasiga kiruvchilar Frantsiya frankida hisob-kitob yuritadilar. Xalqaro valyutaning eng asosiy xususiyatlaridan biri uni konvertatsiyalashuvidir. Ya'ni milliy ichki pul valyutasi chet el davlatlari valyutalari bilan almashinuvidir.

Valyutalarni konvertatsiyalashuvi ya'ni almashuvi erkin, qisman va almashmaydigan valyutalarga bo'linadi. Erkin almashuvchi valyutalar belgilangan xalqaro kurslarda barcha chet el valyutalari bilan almashinadi. Masalan: AQSH dollari, Kanada dollari, Yaponiya yeni bunga misol bo'la oladi. Ayrim milliy ichki valyutalar cheklangan darajada xalqaro muomalalarda bo'lishi mumkin. Masalan: tovar-pul munosabatlarida faqat tovar operatsiyalarida konvertatsiya bo'lmaydigan milliy valyuta faqat ichki to'lov muomalasida qo'llaniladi. Milliy valyutalarning konvertatsiyalashuvi ichki va tashqi konvertatsiyalashuviga bo'linadi. Tashqi valyuta konvertatsiyalashuvida chet elning yuridik va fuqarolik huquqiga ega bo'lgan shaxslar bema'lol milliy valyuta ko'rinishida to'lovni amalga oshirishlari yoki milliy valyuta ko'rinishida aktivlarga ega bo'lishlari mumkin. Ichki konvertatsiyada faqat chet el valyutasini davlatning o'zida harid qilish va ayrim to'lash hisob-kitoblarini amalga oshirish mumkin.

31.6. Valyuta kursi va harid qilish qobiliyati

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Milliy valyuta – milliy iftihar, davlat mustaqilligining ramzi, suvveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli boyluk va mulkdir... o'z valyutamiz tovar bilan barqaror ta'minlangan taqdirdagina real kuch va obro'ga ega bo'ladi... valyutaning barqaror amal qilish uning muhimligi, erkin almashinuvi yetarli valyuta zahirasi bo'lishiga bog'liq milliy valyutani mustahkamlashning eng muhim sharti inflyatsiyaga qarshi baquvvat, puxta o'ylangan siyosat o'tkazishdir» degan edi¹⁵⁶.

Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi **valyuta kursi** deb ataladi. Valyuta kursi ayirboshlash kursi deb ham ataladi. Biror davlat valyutasi bahosining boshqa valyutaga nisbatan pasayishi **deval'vasiya** deyiladi. Bahosining ko'tarilishi esa **revol'vasiya** deyiladi. Valyuta kursi ikki turga bo'linadi:

- qat'iy o'zgarmaydigan kurs – valyutalar narxi barqaror turadi;
- suzib yuruvchi kurs – valyutalar kursi o'zgarib tura-di, ammo ma'lum chegarada yuz beradi, ya'ni kurs cheksiz oshib yoki kamayib ketmaydi.

Valyuta kursi ta'sirida eksport yoki import ustivorligi ta'minlanadi. Bozor o'zgarib resurslar oqimi ham o'zgaradi. Valyuta kursining o'zgarishlari bevosita iqtisodiyotga tasir etganida uni o'zgartirish bilan iqtisodiyot tartibga solinadi. Valyuta kursi pul qadrini ifodalaydi. Valyuta kursi deb chet el valyuta qiymati birligini milliy valyuta birligini qiymatiga tenglashtirishga deyiladi.

¹ Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston» 1998 y. 369, 371, 373, 374–betlar.

Masalan: AQSH dollari 85,5 so‘mga yoki Yevro 47,25 so‘mga teng va hokazo. Yoki teskarisi agarda milliy valyuta chet el valyutasiga tenglashtirilsa, teskari tenglashtirish deyiladi. Masalan: 1 so‘m = 0,0117 AQSH dollariga, 1 so‘m = 0,0212 Yevro va hokazo. Agar valyuta narxi oshsa, kurs yuqrilashgan bo‘ladi yoki aksincha. Valyuta tovar bo‘lganidan uning narxini belgilovchi asos bo‘lishi kerak. Shunday asos valyutalar «harid qobiliyatining pariteti» deyiladi, ya‘ni valyuta birligini qurbi, ya‘ni uning harid qobiliyati belgilanadi. Masalan: 1 dollar, 1 marka, 1 so‘m, 1 tangaga nima olish mumkin, shunga qarab valyuta kursini hisoblashda eng muhim tovarlar narxiga qarab har bir valyutaning kursi aniqlanadi.

Valyutaning harid qilish qobiliyati quyidagicha belgilanadi. $Vhq \ R$ dollarda/ R so‘mda = dollar miqdori/so‘m miqdori = 1/85

R – baho savatchasi

Vhq – valyutaning haridorgir qilish qobiliyati

Valyuta harid qilish qobiliyati pariteti nazariyasiga XX asr boshlarida shved iqtisodchisi G.Kassel (1886–1945) asos solgan. Bu nazariyaga asoslangan holda xalqaro iqtisodiy tenglashuvlar asosida, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotlari ish yuritmoqdalar. Inflyatsiya davrlarida pulning jamg‘arish vazifalarini chet el valyutalari amalga oshiradi. Bu davrda chet el valyutalari qiymati oshadi.

Valyuta bahosi va valyuta bozori depozitivlari valyuta kurslariga va banklarga qo‘yilgan valyutalarga to‘lanadigan foizlarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: AQSH va GR foizi 5 ga teng. GR foizni 7 ga oshirdi. AQShda esa o‘zgarmadi. Bunday sharoitda kapital AQShdan Germaniyaga o‘tkazila

boshlashiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida valyuta migratsiyasiga olib keladi.

Valyuta migratsiyasi kapital kursini o'zgartirishga olib keladi. Valyuta kursining o'zgarishi iqtisodiyotning turli sohalariga har xil ta'sir qiladi. Eksportga ishlovchi korxonalariga valyuta kursining pasayishi qulay uning ortishi esa zarar keltiradi. Iqtisodiyotda shunday qoida bor, milliy valyutaning kursi oshganda import uning kursi pasayganda esa eksport qulay bo'ladi.

31.7. Valyuta kursini davlat tomonidan tartibga solish

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatida qatnashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti kabi va boshqa obro'-e'tiborli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi hamda ularda faol siyosat o'tkazaboshladi, jahon iqtisodiyotiga qo'shilishidan iborat bo'lgan strategik integrasion vazifa – O'zbekistondagi barcha xo'jalik sub'ektlarining tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalari uchun teng huquqli va milliy manfaatlariga mos keladigan shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilish nazarda tutiladi».¹

Valyuta munosabatlarini davlat tomonidan va davlatlararo miqyosda tartibga solish valyuta siyosati asosida amalga oshiriladi.

Valyuta siyosati – davlat muassasalari va huquqmatlarga

1 Karimov I. O'zbekiston buyukkelajaksari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 269, 271–betlar.

ro tashkilot tomonidan qabul qilingan dasturga muvofiq o'tkaziladigan iqtisodiy tadbirlar yig'indisidan iboratdir. Valyuta intervensiyasi orqali milliy ichki valyuta kursini ushlab turadi. Valyuta intervensiyasi yirik davlatlarning chet el valyutalarini sotib olish yo'li bilan valyuta kurslarini oshuvi yoki kamayishiga ta'siridir. Davlat o'z valyuta kursini oshishidan manfaatdor bo'lsa, u chet el valyutalarini sotib milliy valyutalarni sotib oladi yoki milliy valyuta kursini tushirish uchun chet el valyutasini sotib oladi. Valyuta intervensiyasini odatda, Markaziy banklar amalga oshiradi. Davlat qat'iy valyuta kursini o'tkazish yo'li bilan ham valyuta siyosatini o'tkazadi, yoki ma'lum muddatga boshqariluvchi valyuta kursi siyosatidan ham foydalaniladi.

Valyuta kursini o'zgarishi iqtisodiyotni ahvoliga sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun u mamlakat va davlatlararo munosabatlarda tartibga solinadi. Respublikada tashqi savdo aloqalarini kengaytirish maqsadida tovarlarni eksport va import qilish uchun bojxona to'lovlari tartibga solib turiladi. Davlatning valyuta kursiga ta'sir etishning to'g'ri va bilvosita usullari bor. Ochiq iqtisodiyot sharoitida bilvosita usullarga pul-kredit va moliyaviy siyosatni butun vositalari kiradi. Milliy valyuta kursiga muomaladagi pul hajmi, real foiz stavkasi: inflyatsiya sur'atlari ta'sir ko'rsatadi va tashqi valyuta bozorlarida valyuta intervensiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Diskont inglizcha "discount" so'zidan olingan bo'lib (skidka) tushirib berish ma'nosini ifodalaydi. U qimmatli qog'ozni fond birjasida sotiladigan narxi bilan joriy birja kursi narxi o'rtasidagi farqda ifodalangani. Diskontlashtirish banklarga qo'yilgan pul mablag'lari, zahiralar, sug'urtalar, amortizatsiya foydalilik darajasi moliyaviy bitimlarda hisoblanadi.

AQShda 70–yillarda dollar kursi pasayishi tendensiyasi kuzatilgan. 70–yillarning ohirida esa AQSH hukumati dollarni quvvatlash rejasini qabul qildi. U bank hisob stavkasini oshirish va yirik ko‘lamda valyuta interventsiyasini nazarda tutar edi. Ushbu rejani amalga oshirish boshida dollarni kursini pasaytirishni to‘xtatish, so‘ngra esa 80–yillarda oshirish imkonini berdi. Bunga faqat yuqorida qayd qilingan vostalar bilan birga o‘sha davrda o‘tkazilgan qattiq pul–kredit siyosati orqali yerishilgan. Valyuta kursini tartibga solish deval‘vasiyaga valyuta kursini pasayishiga va reval‘vasiyaga (valyuta kursini ko‘tarish) ga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu ushbu davrda hukumat oldiga qo‘yilgan maqsadlari va mamlakat iqtisodiyotidagi ahvolga bog‘liq bo‘ladi. U valyutani deval‘vasiyaga suyanib jami talabni eksport imkoniyatlarini hisobga oshirishni yoki uni reval‘vasiya bilan cheklash mumkin.

Mamlakatlar markaziy banklari o‘zlarining valyutalarini tashqi bozorda sotish yoki sotib olish yo‘li bilan valyuta interventsiyasini amalga oshiradilar. Valyuta kursini deval‘vasiyasini amalga oshirish uchun valyuta bozorlarida o‘zini valyutasini taklifini oshirish zarur. Bu pulni qo‘shimcha emissiya hisobiga amalga oshirish mumkin. Agar valyuta interventsiyasi reval‘vasiyaga qaratilgan bo‘lsa, unda mamlakat Markaziy banki o‘zining milliy valyutasini o‘zining ixtiyoridagi chet el valyutasi hisobiga iloji boricha ko‘proq sotib olishi mumkin. Bunday tadbirlarni amalga oshirish uchun mamlakat valyuta zaxiralariga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun esa davlatlarda maxsus barqarorlashtirish fondlari tashkil etiladi.

Valyuta sohasida davlat proteksionistik siyosatni ham qo‘llashi mumkin yoki valyutaviy chegaralashni amalga

oshirishi mumkin. Uni qo'llash natijasida davlat oltin va valyuta operatsiyalarini ustidan nazorat o'rnatadi. Milliy eksporterlar o'zlarining mahsulotlarini sotishdan olgan valyutalarini bozorda sota olmaydilar, uni o'rnatilgan kurs bilan topshirishlari o'rniga esa milliy valyutani olishlariga majbur bo'ladilar.

31.8. Valyuta – moliyaviy doiradagi davlatlararo tuzilmalar

Biz bilamizki, valyuta harakatlarini muvofiqlashtirish hukumatlar doirasida olib boriladi. Valyutani tartibga solish sohasida Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro rekonstruktsiya va taraqqiyot banki (XRTB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) va boshqalar muhim o'rin tutadilar.

XVF – xalqaro valyuta fondi – kredit tashkiloti 1944 yili tashkil topgan. Valyuta fondining ikki asosiy vazifasi bor: o'z a'zolari bo'lgan mamlakatlarning valyuta aloqalarini (valyuta ayirboshlash valyuta bilan to'lovlarni amalga oshirish va h.k.) boshqarib turish; umumiy kredit mablag'laridan a'zo mamlakatlarga qarz berib ularning taraqqiyotiga ko'maklashish.

Valyuta fondining kapitali unga a'zo mamlakatlarning badal pulidan tashkil topadi. Uning o'sishi yangi a'zolarining badal puli va kredit uchun olingan foizlar hisobiga yuz beradi. Valyuta fondiga qo'shilgan davlatlar o'z valyutalari kursini xalqaro mintaqaal valyutalarga nisbatan belgilaydi va bu kurs ma'lum chegarada o'zgaradi. Bu bilan davlatlararo bir-biriga pul to'lashda valyuta kursining o'zgarishi katta salbiy oqibatlar keltirmaydi va valyuta aloqalarini o'zaro manfaatli qiladi. Valyuta fondining krediti

ma'lum maqsad uchun beriladi. Kredit milliy valyutaga xorijiy valyutani sotish tarzida beriladi. Kredit qaytarilganda qarzdor mamlakat xorijiy valyutaga qaytadan o'z valyutasini sotib oladi. Kredit olingan qarz valyuta fondi tavsiyalariga binoan ishlatilgandagina beriladi.

XRTB – Xalqaro rekonstruktsiya va taraqqiyot banki 1945 yilda tashkil topgan. Bank mablag'lari uning ustav kapitalidan (a'zolari qo'shgan puldan), o'z obligatsiyasini xalqaro bozorda sotishdan kelgan puldan va nihoyat bankning ishlab topgan daromadidan tashkil topadi. Xalqaro rekonstruktsiya va taraqqiyot bankiga (XRTB) a'zo bo'lgan mamlakatlarga ularni iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida uzoq muddatli zayomlar beradi.

IHTT – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 1985-yili Yeron, Pokiston, Turkiya hamkorligida tuzilgan. 1992-yil fevralida Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari a'zo bo'lib kirdi. A'zo mamlakatlarda o'rtasida savdo iqtisodiy hamkorlikni amalga oshiradi. Tashkilot idorasi Tehronda joylashgan.

Valyuta xarajatlarini boshqarish davlatlararo darajada olib boriladi. Valyutani tartibga solishda G'arbning rivojlangan sakkiz mamlakatlarni har yilgi yig'ilishlari, Xalqaro valyuta fondi (XVF) Xalqaro tiklash va rivojlanish banki (XTRB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirishni rag'batlantirish uchun tashqi iqtisodiy faoliyatlarini erkinlashtirishni huquqiy negizlari, avvalo «tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «chet el investitsiyalari» va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatini kafolatlari» to'g'risida qonunlar va me'yoriy

xujjatlar qabul qilindi. Bu xujjatlar iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun, xalqaro shartnomalar uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga chet el investitsiyalarini respublika iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratdi.

O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari

1. Jahon bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati?
2. Xalqaro savdo olib borishning eksport, import, reeksport va reimportdagi farqlari?
3. Davlatimizning savdo siyosati?
4. Davlatimizning ochiq savdo siyosati?
5. Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish?
6. Tashqi savdo balansi nima?
7. Kliring operatsiyasini amalga oshirish xususiyatiga
8. Xalqaro valyuta fondi qachon tashkil etilgan va sababi?

Test

1. Tashqi savdo aylanmasi?
 - a) improt hissasini o'sishi
 - b) eksport hissasini o'sishi
 - d) eksport va import summasi
 - e) eksport va import summasi o'rtasidagi farqlar
 - f) eksportni importga bo'lgan nisbati
2. Import tovarlariga soliq qo'yilishi sababi nima?
 - a) improtni cheklash uchun
 - b) eksportni rag'batlantirish uchun
 - d) importni rag'batlantirish uchun
 - e) milliy iqtisodiyotni himoya qilish uchun
 - f) ichki tovarlar bozorida narxlarni arzonlashtirish uchun
3. Erkin savdoni qo'llanilishiga sabab?
 - a) bandlikni oshirish uchun
 - b) davlatning ichki xavfsizligini ta'minlash uchun
 - d) ichki bozor narxlarini arzonlashtirish uchun

- e) milliy iqtisodiyot taraqqiyotini himoyalash uchun
 - f) ichki bozorni tovarlar bilan ta'minlash uchun
4. Protetsionizm siyosati nima?
- a) milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga yo'l ochib berish
 - b) milliy iqtisodiyotni rivojlanishini himoya qilish
 - d) xalqaro savdoni himoya qilish
 - e) ochiq savdo siyosati
 - f) ichki bozorni xorijiy mamlakatalar tovar va xizmatlaridan himoya qilish
5. Friterderlik siyosati nima?
- a) milliy ichki bozorni himoya qilish
 - b) ochiq savdo siyosatini himoya qilish
 - d) yopiq savdo siyosatini olib boorish
 - e) bojxona ta'riflarini oshirish
 - f) demping siyosatini olib boorish
6. Erkin savdoning mohiyati nimadan iborat?
- a) mehnatga yaroqli aholi bandligini oshirish
 - b) davlat xavfsizligini ta'minlash uchun
 - d) moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun
 - e) milliy iqtisodiyot tarmoqlarini himoya qilish uchun
 - f) ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan ta'minlash

GLOSARIY

A

AYIRBOSHLASH TENGLAMASI – unga binoan jami xarajatlardan milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning qiymatiga teng, ya'ni $M \times V = P \times Q$; bunda M – pul taklifi; V – pulning aylanish tezligi yoki aylanish soni; R – tovar va xizmatlarning o'rtacha narxi; Q – sotilgan tovarlar soni.

AN'ANAVIY IQTISODIYOT – iqtisodiy tizim. Unda ishlab chiqarish texnikasi, ayirboshlash, daromadlarni taqsimlash avloddan-avlodga o'tuvchi an'analariga asoslanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni tatbiq etish cheklangandir, chunki ular an'analar bilan to'qnashib, ijtimoiy tuzilmaning barqarorligiga xavf soladi.

Diniy va madaniy qadriyatlar iqtisodiy faoliyatga nisbatan birlamchi bo'lib hisoblanadi. Jamiyat oldida turuvchi muammolar o'sha an'analar va urf-odatlar asosida hal etiladi. Bunday iqtisodiy tizim sust rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

ARALASH IQTISODIYOT – iqtisodiy tizim, sof kapitalizm va bo'yruqbozlik iqtisodiy tizimlarning ijobiy taraflarini o'zida qo'shgan, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilik va xususiy mulkchilik unsurlarini birlashtirgan. Aralash iqtisodiyot turli mulkchilikka asoslangan, iqtisodiy faoliyat esa, ikkita vosita bozor mexanizmi (narh, raqobat) va davlat tomonidan tartibga solinadi.

AGROSANOAT MAJMU'I – xalq xo'jaligida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, ularni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlarining jami bo'lib, asosan to'rt sohani o'z ichiga oladi.

Birinchi soha – qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalarini etkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq

xo'jaligidagi ishlab chiqarishga texnika xizmatini ko'rsatadigan tarmoqlar.

Ikkinchi soha – qishloq xo'jaligining o'zi. Uchinchi soha – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchilarga etkazib berishni ta'minlaydigan (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish) tarmoqlar.

To'rtinchi soha – agrosanoat majmui tarkibida mahsulot ishlab chiqarishni hamda kishilarning hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infrastrukturalar.

AYLANMA FONDALAR – ishlab chiqarish fondlarining xom ashyo, yoqilg'i, yordamchi materiallarda ifodalangan qismi bo'lib, ular bir doiraviy aylanish davomida o'zining moddiy, buyum-shaklini butunlay yo'qotadi va ishlab chiqarilgan mahsulotga o'z qiymatini to'liq o'tkazadi. Ular jumlasiga mehnatga haq to'lash uchun avanslangan mablag'lar ham kiradi.

B

BOZOR – tovar va pullar harakatini ta'minlovchi, ishlab chiqarish bilan iste'mol, sotuvchi bilan xaridor o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning murakkab tizimi. Bozor mavjud bo'lishining birinchi va asosiy sharti erkin tadbirkorlikdir. Tovar ishlab chiqaruvchi mustaqil ravishda o'z imkoniyatlariga va bozor talablariga ko'ra ishlab «chiqarishning tuzilishi hamda hajmini belgilashi, xo'jalik yuritishning shakllari hamda usullarini takomillashtirishi kerak. Sotuvchi va xaridor bir-birlarini bozorda topadilar va narh xususida kelishadilar. Tadbirkorlik erkinligi – bu odamlarning talablar va raqobatdan emas, balki davlatning xo'jalik yuritish faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan erkinlikdir. Pul talabi va bozor raqobati ishlab chiqaruvchini jamiyatga zarur tovarlarni chiqarishga buyruqlar va qarorlarga qaraganda ancha yaxshiroq majbur qiladi. Bozor tovarlarni sotish borasidagi iqtisodiy aloqalar va munosabatlarning majmui sifatida mehnat taqsimoti rivojlangan har qanday iqtisodiy tuzumning muhim tarkibiy qismidir. Bozor xo'jaligi bozorning xilma-xil turlari mavjud bo'lishini taqozo etadi.

BOZOR INFRASTRUKTURASI – bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi har xil sohalardan iborat. Unga banklar, tijorat banklari, birjalar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, davlatning tashqi savdo mahkamalari, soliq undiruvchi tashkilotlar, tijorat va sohibkorlik idoralari, vositachi firmalar, savdo-sotiq uyushmalari, konsorsium va boshqalar kiradi. Bozor infrastrukturasi tovar ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga sherik topishga, ishchi kuchi yollashiga yordamlashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi. Bozor infrastrukturasi faqat davlat idoralari emas, balki mustaqil uyushma, tashkilot va firmalardan ham iborat bo'lib, ular ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladilar.

BOZOR IQTISODIYOTI – iqtisodiy hatti-harakatlarni erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularni bozor mexanizmi orqali bir-biriga muvofiqlashuvidir. Bozor iqtisodiyoti – bu erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmini inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga ega bo'lgan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirrali va murakkab iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyotining quyidagi sub'ektlari mavjud:

a) iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan mulk egasi yoki iste'molchi kishilar yohud guruhlar. Bularga odatda yollanib ishlovchilar, yer egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmaydi. O'z mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi;

b) firma, korxonalar, xo'jaliklar. Ular foyda olish yo'lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar;

v) davlat, aniqrog'i davlatning barcha mahkamayu tashkilotlari. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug'ullanadilar. Bozor va unda ishtirok etadiganlarni nazorat qiladilar. Bozor iqtisodiyotining muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm, ya'ni mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining turli-tuman bo'lishidir. Bozor iqtisodiyotida ayrim mulkning hukmron bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Xo'jalik yuritish usullari ham turlicha bo'ladi: yakka tartibda, jamoaga uyushgan tartibda, sherikchi-

lik-paychilik yoki aksiyadorlik asosida, o'z mablag'iga yoki qarzga olingan mablag'ga tayanib xo'jalik yuritish, yer va boshqa vositalarni ijaraga olish va ishlatish kabilar bilan birgalikda bo'radi.

Bozor iqtisodiyoti – erkin iqtisodiyotdir. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi – ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning mulk ob'ekti bo'lishi, mulkdorlarning esa mustaqillikka ega bo'lishidir. Har bir korxonalar, tashkilot, ayrim fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra, qonun doirasida o'ziga ma'qul bo'lgan ish bilan shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganidan, u har qanday iqtisodiy monopoliizmni inkor etadi. Biroq u o'zining tartibga soluvchisiga ega. Ularning eng muhimi bozor narxidir. Narx oshib, tovarlar jadal sotilsa, foyda ko'payadi, ularni ishlab chiqarish kerak bo'ladi. Tovarlar narhi pasayib, yaxshi o'tmasa, demak ishlab chiqarishni qisqartirish yoki undan tamomila voz kechish kerak bo'ladi. Bozor munosabatlarining har bir sub'ekti korxonami, davlatmi, alohida kishimi buning ahamiyati yo'q, o'z manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi. Ammo, ko'r-ko'rona, xohlagan ishini qilolmaydi, chunki u bozor bilan hisoblashishga majbur, aks holda uning ishi yurishmaydi, xonavayron bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti shunday iqtisodiy munosabatlarni, ular ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchni yuzaga chiqaradi. Ular har qanday iqtisodiyot kabi iqtisodiy qonunlarni ta'sirida rivojlanadi.

BANK KREDITI – banklar tomonidan ish yurituvchilarga pul ssudasi shaklida beriladigan kredit. U qisqa muddatli (odatda bir yil muddatga), o'rtacha muddatli (besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yildan ko'proq muddatli) bo'ladi.

BANK TIZIMI – biror bir davlatda mavjud bo'lgan va amal qilib turgan banklarning barchasi tushuniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi o'z ichiga: 1. Markaziy bank. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. 3. Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat va davlat banklari majmuidan iborat bo'lgan 31 ta bankni o'z ichiga oladi. 4. Ulush, qo'shish, hissadorlik ham-

da xorijiy kapitallar ishtiroki asosida tashkil topgan qo'shma banklar, kooperativ va xususiy banklardan iborat.

V

VALYUTA-1. Muayyan mamlakatda qabul qilingan pul tizimi va shu mamlakatning pul birligi (dollar, so'm, rubl, manat, marka, iyen va boshqalar); 2. Chet el kredit biletlari, moneta va boshqalar; 3. Veksel muomalasida – vekselda ko'rsatilgan to'lov miqdori. Valyutaning ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi har bir mamlakatning valyutasi bo'lmish milliy valyutadir; ikkinchisi, erkin almashtiriladigan valyutadir. Milliy valyuta qaysi mamlakatniki bo'lsa, o'sha mamlakatda tovar bilan qoplangandagina haqiqiy kuchga va qadrga ega bo'ladi. Milliy valyuta faqatgina oltin zahirasi bilangina emas, balki barqaror, erkin almashtiriladigan valyuta bilan ham etarlicha mustahkamlangan bo'lishi kerak. Buning uchun esa mamlakat o'z mahsulotini eksport qila olishi kerak.

Erkin almashtiriladigan valyuta Xalqaro valyuta fondi tomonidan belgilanadi. AQSH dollari, Germaniya markasi, Fransiya franki, Angliya funt sterlingi va Yaponiyani shunday valyutalardan hisoblanadi.

VALYUTA KURSI – muayyan mamlakat pul birligining boshqa bir mamlakat pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursining ikki turi mavjud: 1. Qat'iy qayd etilgan. 2. O'zgarib turadigan. Qat'iy qayd etilgan valyuta kursi – valyuta bozorlari va valyuta kursini aniqlash ishida davlatning aralashuviga asoslanadi. O'zgarib turadigan valyuta kursi esa, butunlay valyuta bozoridagi u yoki bu valyutaga bo'lgan erkin talab va taklifga asoslanadi.

VAQTBAIY ISH HAQI – xodimga uning malakasi, mehnatining sifati, ishlagan vaqtiga qarab belgilanadigan ish haqi. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, muhandis-texnik xodimlar va xizmatchilar, so-

zlovchilar, elektr ta'mirlovchilar va shu kabilarga haq to'lashda) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining bori-shi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog'liq bo'lmagan (masalan, konteynerlar va avtomat liniyalarda ishlash) sharoitida qo'llaniladi.

D

DAVLAT BUDJETI – davlat tomonidan o'z vazifalarini amalga oshirish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondidir. U ikki qismdan iborat: 1. Daromad qismi – unda barcha tushumlar ko'rsatiladi. 2. Xarajat qismi – unda barcha xarajat turlari ko'rsatiladi. Xarajat va daromad teng bo'lganda davlat budjeti muvozanatga ega bo'ladi. Xarajatlarning daromaddan oshib ketishi budjetning etishmovchiligini bildiradi. Budjet etishmovchiligini bartaraf etish uchun davlat budjetining daromad qismini ko'paytirishga, ya'ni soliqlarni oshirishga, davlat qarzini ko'paytirishga, shuningdek, qo'shimcha miqdorda pul chiqarishga majbur bo'ladi. Davlat budjetining xarajatlari uning vazifasiga ko'ra tashkil qilinadi va uning orasida eng yiriklari: iqtisodiy xarajatlar, mudofaa xarajatlari, tashqi faoliyatga doir xarajatlar, ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan xarajatlar, davlat mahkamalarini saqlab turish xarajatlaridan iboratdir.

DAROMAD – bu korxonalarining barcha yo'nalishlarda olib brogan faoliyatlarining iqtisodiy natijasiga aytiladi.

DAROMAD SAMARASI – mahsulot bahosi pasayishi xaridorni sotib olish qobiliyatini oshiradi, natijada u oldingiga nisbatan xarid qiladigan tovardan ko'proq miqdorda sotib oladi. Masalan, mol go'shtini xaridor 400 so'mdan ikki kg. xarid qilardi. Bahoni 50% pasayishi natijasida, endi xaridor 200 so'mdan 4 kg. mol go'shtini xarid qiladi.

Daromadlar bo'yicha YAMM yollanma ishchilarni ish haqi, renta to'lovlari, bank foizi, foyda, daromadga qo'shilmagan to'lovlar (tadbirkorlikka bilvosita soliqlar, amortizasion ajratmalar) jamlash orqali hisoblanadi.

DAROMAD SOLIG'I – yalpi daromadga solinadi, unda mod-

diy sarf xarajatlar va soliq imtiyozlari chegirib qolinadi. Daromad solig'i asosan ish xaqi berilishi va daromadning boshqa turlarida, shuningdek, maxsus moliya tashkilotlariga manbalarini ko'rsatgan holda barcha ishlab topilgan summani o'z ichiga olgan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish cho'g'ida chegirib qolish yo'li bilan undiriladi.

E

EVROPA IQTISODIY UYUSHMASI (EEIU) – 1957-yilda G`arbiy Evropadagi 6 ta davlat: Fransiya, Italiya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburg davlatlari o`rtasida boj chegaralarini yo`qotish va «umumiy bozor» barpo etish maqsadida tuzilgan iqtisodiy uyushma. 1973-yilda unga Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya, 1981-yilda Gretsiya, 1986 -yildan Ispaniya va Portugaliya ham a`zo bo`lib kirdi. Bu uyushmani tuzishdan ko`zlangan maqsad boj ittifoqi va uyushmaga kirgan davlatlar o`rtasida tovar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining umumiy bozorini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham u «Umumiy bozor» nomini oldi. Evropaning tashkil etilishi G`arbiy Evropa markazining rivojlanishini tezlashtirdi.

J

JAMOA MULKI – madaniylashgan jamiyatda mulkchilikning bir shakli bo`lib, uning asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalariga jamoa-guruh tarzida egalik qilinishidir. O`zbekistonda qabul qilingan mulkchilik to'g'risidagi qonunda ishlab chiqarish vositalariga jamoa egalik qilishining kooperativ (jamo), shirkat, ijara, aksionerlik, konsern mulk shakllari mavjud bo`lishligi ko'rsatilgan. Milliy ishlab chiqarishning miqdorini ortishi baholarni o'zgarishi sharoitida yuz beradi .

JAMI TALAB – mumkin bo`lgan har qanday baholar darajasida iste'molchilar, tadbirkorlar va davlat tomonidan sotib olinishi mumkin bo`lgan mahsulot hajmi. Jami talabga baxo darajasi, teskari proporsional ta'sir ko'rsatadi, ya'ni baho o'sgan sari talab kamayadi va aksincha, shuningdek jami talabga aholi

daromadlari, investision sarflardagi o'zgarishlar kabi omillar ta'sir qiladi.

JAMI TAKLIF – iqtisodiyot ishlab chiqaradigan hamma tovar va xizmatlar; mumkin bo'lgan har bir baho darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi. Unga baho ta'sir etadi. Bu ta'sir proporsionaldir, ya'ni baho darajasi o'sgan sari jami taklif-miqdori ham o'sadi. Undan tashqari jami taklifga resurslarga baholarning o'zgarishi, ishlab chiqarish unumdorligini o'sishi va shu kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

JAHON PULI – xalqaro miqyosda umumiy xarid, to'lov vositasi, boylukning umumiy moddiy timsoli, baynalminal qiymat ifodasi bo'lgan pul. Ilgarilari jahon puli vositasini oltin yombilari bajargan, hozir esa bu vazifani dollar, evro, funt sterling, nemis markasi, yapon iyeni, Fransiya va Shveysariya franki bajaradi.

JAHON XO'JALIGI – jahon xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi va jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali bog'liq bo'lgan mamlakatlar milliy xo'jaliklarning yig'indisidir.

Z

ZARURIY MAHSULOT – Zaruriy ish vaqti davomida yaratilgan mahsulotga zaruriy mahsulot deyiladi. U ishchi va xodimlarning oladigan ish haqiga to'g'ri kelishi yoki rivojlangan mamlakatlardagidek aholi qo'liga nafaqalar, imtiyozlar ko'rinishida kelib tushishi mumkin.

ZARURIY MEHNAT – ishchi va xodimlar tomonidan zaruriy mahsulotni yaratish uchun sarflangan mehnat.

ZARURIY ISH VAQTI – sarflangan ish vaqtining bir qismi. Zaruriy ish vaqti davomida ishchi o'zining yashash sharoitini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qiymatdagi mehnat mahsulotini yaratadi. Zaruriy ish vaqtining umumiy sarflangan ish vaqtidagi ulushi miqdori ishchilarning mehnat unumdorligi darajasi, mehnatning intensivligi, ish haqi darajalariga bog'liq bo'ladi. Zaruriy ish vaqti ishchi sarf etgan jismoniy va aqliy quvvatini

qayta tiklash, malakasini oshirish, o'zi va oila a'zolarining hayot kechirishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag'ni yaratadi.

ZAYOM (olingan yoki berilgan qarz) – davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish, budjetdagi kamomadni to'ldirish yoki boshqa maqsadlarda sotuvga chiqarilgan zayom obligatsiyalari shaklidagi qimmatbaho qog'ozlar.

ZAKOT (arabcha – tozalanish, sadaqa berish) – mol-mulk va daromaddan ixtiyoriy ravishda beriladigan xayr-ehson. Zakot – islom dinining besh asosiy talablaridan biri. Unga ko'ra har bir musulmon yillik umumiy daromadining qirqdan bir ulushini (ya'ni 2,5% ni) zakot sifatida berishi lozim.

ZARAR – korxonada daromadi va umumiy xarajatlari orasidagi manfiy ayirma. Masalan, korxonada daromadi 15 ming, xarajatlari 20 ming so'mga teng. Unda zarar – 5 ming so'mga teng bo'ladi.

ZARARSIZLIK NUQTASI – umumiy xarajatlar umumiy daromadga yoki o'rtacha xarajatlar, mahsulot narhiga teng bo'lganda ishlab chiqarish hajmi agarda bozor narhi zararsizlik nuqtasidan pasaysa, unda korxonalar tabiiyki, o'z tarmoqlarini tashlab boshqa tarmoqqa o'tib ketadilar. Bu nuqtada faqat yangi mahsulotni ishlab chiqarishga o'tgan korxonalar faoliyat ko'rsatishlari mumkin bo'ladi yoki korxonada tomonidan o'tkazilgan tahlil shu tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qisqa muddatda talabning ko'tarilishi natijasida narhni ko'tarilishini tasdiqlasa, korxonada o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin.

I

ISHLAB CHIQRISH – barcha tarmoqlarning moddiy ishlab chiqarishini umumlashgan shakli bo'lib, ishlab chiqarish uchun shart-sharoit – ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlarini ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish sohasiga sanoat, qishloq va o'rmon xo'jaligi, transport, aloqa, energetika, savdo, umumiy ovqatlanish, xo'jalik omborxonalari va xizmat ko'rsatish tarmoqlari kiradi. Ishlab chiqarish sohasiga ilm-fan (innovasion)

yutuqlar ham kiradi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladi.

ISH KUCHI – bu mehnatga layoqatli resurslarning ishlab chiqarishda faoliyat olib borayotgan qismini ifoda etadi.

ISH HAQI – yollanma-xodim tomonidan pul shaklida olinadigan haqi tushuniladi, ish kuchi egasining yashash vositalari narxini ifodalaydi.

ISH HAQI MINIMUMI – ish haqini eng kam stavkasi, uni tadbirkor qonuniy asosda xodimga ish vaqti birligiga to'laydi. Ish haqi minimum davlat tomonidan belgilanadi, tadbirkorlar esa undan kam ish haqi to'lashga haqqi yo'q. Chunonchi O'zbekistonda 2003-yil maydan boshlab eng kam ish haqi miqdori 5440 so'm miqdorida belgilangan.

ISHLAB CHIQRISH OMILLARI – ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda qatnashuvchi inson (ishchi kuchi), mehnat vositalari va mehnat sarflanadigan xom ashyolar yig'indisidan tashkil topadi. Insonlar nimaniki yordamida mehnat ashyosiga o'z ta'sirlarini o'tkazsalar, shu narsalar mehnat vositalari (qurollari) hisoblanadi. Ular turli xil mashina va mexanizmlardan, asMavzu-uskunalardan, turli qurilmalardan va hokazolardan tashkil topadi. Ishlab chiqarish jarayonining ro'y berishi uchun ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari bilan mehnat jarayonida inson o'z ta'sirini o'tkazadigan tabiat narsalari (xom-ashyo)lar mehnat omillarini ifodalaydi.

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI – mahsulot tayyorlash uchun qilingan barcha moddiy va ma'naviy mehnat sarfi. Uning qiymat shakli mahsulot tannarhini o'zida aks ettiradi. Korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini ikkita qismga: doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lish mumkin. Doimiy xarajatlarga: ijara to'lovi, qorovullik va ma'muriyat xizmati kabilar kiradi. O'zgaruvchan xarajatlarga xom ashyo, yoqilg'i, energiya, ish haqiga qilingan sarf-xarajatlar kiradi.

IQTISODIY TAFAKKUR – o'zining tarifiy rivojlanish darajasiga ega bo'lib u doimiy ravishda rivojlanishi asosida mukam-

malashib boradi. Iqtisodiy tafakkur insonlarning onglarini iqtisodiy jihatdan rivojlanishini, uning ma'nosini anglashini va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart va sharoitlarni tashkil topishga asos soladi.

IQTISODIY OMILLAR – har qanday mulkchilik shakllariga asoslangan iqtisodiy tizimdagi iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish qurollari (texnika, texnologiya) lardan, xom-ashyolardan va ish kuchlaridan tashkil topadi.

IQTISODIY O'SISH – mamlakat iqtisodiy salohiyatining or-tishi, ya'ni aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ko'payib, yaxshilani-b borishi. Iqtisodiy o'sish mamlakatning rivojlanib, taraqqiy etib borishini ifodalaydi. Iqtisodiy o'sish – yalpi milliy mahsulot va milliy daromad hajmining ortib borishi, aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning ko'payishi bilan o'lchanadi. Iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv turlari mavjud.

IQTISODIY ISLOHOTLAR – bu davlatlarda qabul qilingan iqtisodiy siyosat asosida o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini bo-zor iqtisodiyoti talablari asosida tashkil etish bo'lib u nafaqat iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishini balki uning jismoniy sub'ektlari va insonlarda ham iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish bo'yicha onglarini rivojlantirishga olib keladi.

IQTISODIY MUSTAQILLIK – mulkchilik munosabatiga ko'ra yuzaga kelib, turli korxonalarda ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik chegaralanishiga va ishlab chiqarish natijalariga asoslanadi.

ILMIY ABSTRAKSIYA – u ko'pincha sohta tassavur berib yuzaga chiquvchi iqtisodiy xodisalar tub mohiyati va yo'nalishini ochish uchun turli tuman murakkab xodisalar orasidan eng asosiysini sof xolda ajratib olib ilmiy tekshirishni qiyin-lashtiruvchi xodisalarni yo'q deb faraz qilishdir.

IJTIMOIIY EHTIYOJ – jamiyat a'zolarini ehtiyojlarini qondirish bo'lib, insonlarni kamol topishi uchun zarur narsalar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi.

INVESTISIYA – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'dir. U ichki va tashqi investisiya mablag'laridan tashkil topadi.

INVESTISIYA BOZORI – moliyaviy bozorning o'ziga xos bir ko'rinishidir.

INNOVASIYA BOZORI – innovatsiyaga texnik va ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklar, ixtiro va rasionalizatorlik takliflari hamda ilmiy texnikadagi yangi yutuqlaridan tashkil topadi.

ISTE'MOL BAHOLAR INDEKSI – iste'molchilarning iste'mol savatchalarining qiymatini va uni o'tgan yildagiga nisbatan qiymatlashganligini yoki arzonlashganligini ko'rsatuvchi iqtisodiy baholar indeksidir.

IPOTEKA KREDITI – uzoq muddatli ssuda, ko'chmas mulkni (yer, bino, inshootlar)ni garovga olish orqali beriladigan kredit shaklidir.

Q

QIYMAT O'LCHOVI – umumiy ekvivalent tovar qiymatini yaratishga sarf qilingan ishlab chiqarish xarajatlarini ifoda etadi va u pulda ifodalanadi.

QIYMAT QONUNI – ishlab chiqarish xarajatlarini, mehnat xarajatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Qiymat qonuniga asosan tovarlar, xizmatlar qiymati aniqlanadi. U ob'ektiv iqtisodiy qonun bo'lib, ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va iste'mol jarayonlarida mehnat sarflarini ularni qiymatini o'lchashga xizmat qiladi.

M

MUOMILA VAQTI – ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq vaqtga muomila vaqti deb ataladi. Muomila vaqtida tovarlar pulga aylantiriladi.

MUOMILA XARAJATLARI – mahsulotlarni tashish, saqlash, sortlarga ajratish, kerakli og'irlikda qadoqlash, savdo bilan bog'liq bo'lgan va reklama xarajatlaridan tashkil topadi.

MEHNAT – kishilarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan faoliyat jarayoni bo‘lib, ular ana shu faoliyat yordamida moddiy ashyolarni va tabiat kuchlarini o‘zgartirib o‘z ehtiyojlarini qondirishga moslashtiradilar.

MEHNAT BIRJASI – doimiy ish joyini yo‘qotgan ishsizlarni ro‘yxatga olish, ularga nafaqa to‘lash, yangi ish o‘rni topib joylashtirish va boshqa kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etib berish kabi vazifalarni bajaruvchi muassasa. Mehnat birjasining mamlakat bo‘yicha bosh boshqarmasi, viloyat va tumanlarda esa bo‘limlari mavjud bo‘ladi.

MEHNAT BOZORI – ish kuchiga talab va taklif asosida bo‘lgan munosabatni shakllanishi. Mehnat bozori mamlakatdagi ishchi kuchiga bo‘lgan talab uni taklif etilishi o‘rtasidagi mutanosiblik nisbatini ifodalaydi. Mehnat bozori shakllanishi mumkin, agarda ishchi kuchi o‘zining mehnatini egasi bo‘lsa. Mehnat bozori orkali ishchi kuchi ma‘lum muddatga sotiladi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab uni taklifidan ortiq bo‘lsa, uning bahosi ko‘tariladi yoki aksincha.

MONOPOLIYA – (yunoncha: tanho sotaman) iqtisodiyotning biron-bir sohasidagi tanho hukmronlik. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining yagona yoki ozchilik korxonalar, tadbirkor shaxslar yoki davlat qo‘lida to‘planishi natijasida paydo bo‘ladi. Monopol korxonalar hukmronlik mavqeidan foydalanib, sarflarni kamaytirish monopol baho belgilash orqali foyda ko‘rish, raqobatning yo‘qligi yoki zaifligidan bozorda o‘z izmini o‘tkazishi mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli davlatlar antimonopol chora-tadbirlar joriy etadilar.

MONOPOLIYADAN CHIQRISH – raqobat munosabatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat tomonidan tartib-qoidalarining joriy etilishi. Bunda yirik korxonalar va xo‘jalik tuzilmalari maydalashtiriladi yoki parallel tuzilmalar tashkil etiladi. Shu bilan birga tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilar kirishi uchun turli xil rag‘batlantiruvchi sharoitlar yaratiladi.

MAKROIQTISODIYOT (grekcha maros – katta va iqtisodiyot ma’nosini bildiradi) – u davlat iqtisodiyotiga bog’liq bo’lib, iqtisodiy voqeelikni va jarayonni o’rganadi. Asosiy maqsadi va muammolari quyidagi asosiy yo’nalishlarni qamrab oladi: yuqori darajada ijtimoiy mahsulotni o’sishini, ish bilan bandlikni yuqori darajada ta’minlash, narxlarni muvofiq darajada bo’lish, eksport va importni muvofiq lashtirish.

Makroiqtisodiyotni o’rganuvchi ob’ekti bo’lib, hamma xo’jaliklar bo’yicha umumlashgan ko’rsatkichlar, jumladan, milliy boylik, yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, umumlashgan davlat va xususiy investisiyalar, umumiy pul miqdori va ularning aylanishi hisoblanadi. Shu bilan birga makroiqtisodiyot mamlakat miqyosida o’rtacha daromad, o’rtacha ish haqi, inflyasiya darajasini, ishsizlikni, ish bilan ta’minlanganlik, mehnat unumdorligini ham o’rganadi. Makroiqtisodiyotni predmeti bo’lib mamlakat iqtisodiyotini tavsiflovchi umumlashgan iqtisodiy o’sish, uni ko’payishi yoki kamayishi, iqtisodiy jarayonlar va ularning tarkibiy nisbatlari hisoblanadi.

MAKROIQTISODIY MUVOZANATNING KEYNSANCHA MODEL – narhlar darajasi o’zgarmas bo’lgan sharoitda jami sarflar va real yalpi milliy mahsulot o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni aks ettiruvchi model (qarang, Keynsancha iqtisodiy nazariya, Keynes D.).

MAKROIQTISODIY TAHLIL – Makroiqtisodiy tahlilda jamiyat miqyosida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning kechishi harakati tahlil etiladi. Makroiqtisodiy tahlilda, iqtisodiyotda o’ziga xos bo’lgan faoliyat ko’rsatish va rivojlanish qonuniyatlari ega bo’lgan xususiy, davlat va boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlarni ishsizlik, inflyasiya, moliya-kredit tizimi, iqtisodiy o’sish kabi muammolarini bitta turkum sifatida olib o’rganadi.

MOLIYA BOZORI – moliyaviy mablag’larni vaqtincha haq to’lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo’ladigan munosabatlar. U tarkiban qimmatbaho qog’ozlar bozori va qarzga beriladigan pul bozoridan iborat. Moliya bozori tizimiga – qim-

matbaho qog'ozlar bozori, valyuta bozori, ssuda kapitali bozori kabilar kiradi. Moliya bozorida pulga obligasiya va aksiyalar, veksel, va sertifikatlar, valyutalar oldi-sotti qilinadi.

MOLIYAVIY MUNOSABATLAR – pul jamg'armalarining xarajati natijasida davlat va uning quyi va yuqori tashkilot idoralari, turli xo'jalik yuritish shaklidagi korxonalar, firmalar, kooperativlar, birlashmalar, jamoa uyushmalari alohida aholi qatlamlari o'rtasida o'zaro yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar.

ME`YORIY DAROMAD (MG) – tovarni qo'shimcha birligini sotish natijasida-umumiy daromadni ortgan miqdori.

$Mr = Tr/Q$; bunda Tr – yalpi daromadning ortgan qismi..

Q – sotish hajmini ortgan qismi.

N

NOMINAL MILLIY MANSULOT – joriy baholarda xisoblangan yalpi milliy mahsulotdir.

NOMINAL ISH HAQI – ishchi va xizmatchini ma'lum ish vaqt davrida sarflagan mehnatining miqdori va sifatiga ko'ra oladigan pul qiymati. Nominal yalpi milliy mahsulot – joriy narhlarda hisoblangan yalpi milliy mahsulot, YAMM darajasini hisoblash maqsadida nominal YAMM va real YAMM tushunchalar farqlanadi, ya'ni ular pulda hisoblangan ko'rsatkichlar, uning miqdori narhlar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Faraz qilamizki, mamlakat joriy yildagi narhlarda hisoblaganda YAMM 465 mlrd. dol. tashkil etdi, bu nominal yalpi milliy mahsulotni tashkil etadi.

ORTIQCHA ZAHIRALAR – bankning Markaziy bankdagi depozitlar summasi, shuningdek, kassa naqdi.

ORTIQCHA ISHLAB CHIQRISH – iste'mol talabiga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilgan iste'mol va ishlab chiqarish vositalari xomashyolaridan tashkil topadi.

P

PUL – hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan

umumiy ekvivalent bo'lmish maxsus tovar. Pul bozor yuzaga kelishi va rivojlanishining mahsulidir. Pul kelib chiqish tarixi va tabiatiga ko'ra 3 xil xususiyatga ega: a) hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim harid vositasi; b) boylik timsoli; v) mehnatni qiymat shaklida o'lchab boradigan vosita.

PUL MUOMALASI QONUNI – bozor iqtisodiyoti xo'jaligining ob'ektiv iqtisodiy konuni. Muomaladagi pul miqdori pul muomalasi konuniga ko'ra boshqariladi, ya'ni tovarlar muomalasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdori quyidagilarga bog'liq bo'ladi: a) muayyan davrda sotilishi lozim bo'lgan tovarlar bahosining qiymatiga, chunki tovarlar qanchalik ko'p bo'lsa, ularni sotilishi uchun shunchalik ko'p pul zarur bo'ladi; b) bir pul birligining aylanish tezligiga, chunki ayni pul birligi qiymati ayirboshlashga ko'proq yoki ozroq xizmat qilishi mumkin; v) to'lov vositasi vazifasida foydalanishga, chunki nasiyaga sotilgan tovarlarning haqi boshqa vaqtda to'lanadi, shunga ko'ra zarur pul birligi miqdori kamayadi va bir tomondan boshqa tovarlarni to'lov vaqti boshlanadi. Yuqoridagilarga ko'ra muomala uchun zarur pul miqdorini quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin bo'ladi:

$$P_M = \frac{(T_{SH} - X_T) + (X_K - K_T)}{OT}$$

P_M – muomala uchun zarur, bo'lgan pul miqdori;

T_{SH} – sotilishi lozim bo'lgan tovarlar bahosi yig'indisidir;

X_T – nasiyaga berilgan tovarlar bahosining yig'indisi;

X_K – nasiyaga berib haqini to'lash muddati kelgan tovarlar bahosi yig'indisi;

K_T – bir-birini qoplaydigan to'lovlar qiymati yig'indisi;

T – pul oboroti (aylanishi) tezligi.

PUL MUOMALASINING BARQARORLIGI – pulning xarid quvvati pasaymagan holda uzluksiz harakatda bo'lishi. Pul muomalasining barqarorligini ta'minlash (u avvalo, bozorga yetarli miqdorda va sifatli tovarlar chiqarilishi) kerak. Tovarlarni taqchil-

ligi mavjud bo'lgan sharoitda pul muomalasi barqarorligiga erishib bo'lmaydi, tovarlar qimmatlashib, pul qadrsizlanib boradi.

PUL QIYMATI – pul birligiga almashtirilishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori; pul birligini sotib olish qobiliyati; baho darajasiga teskari kattalik.

PULGA UMUMIY TALAB – bitimlar uchun pul va aktivlar tomonidan pullarga talab summasi (qarang, pul bozori).

PULNING AYLANISH TEZLIGI – muomaladagi pul birligini yiliga necha marta tovarlarni sotib olishga xizmat qilish soni.

PULNING VAZIFALARI – pul vositachiligida bajarish mumkin bo'lgan tadbirlar bo'lib, ular 5 tani tashkil etadi: a) tovarlarni qiymat o'lchovi vazifasi, ya'ni barcha tovarda gavdalangan mehnat miqdori pul orqali o'lchanadi; b) muomala vositasi vazifasi, ya'ni tovarlar oldi-sotdi qilinishi muomalasi pul vositasida amalga oshiriladi; v) jamg'arish, xazina to'plash vositasi vazifasi, ya'ni o'zida mehnatni gavdalantirgani uchun boylikning umumiy shakliga aylanadi va kishilar ehtiyojlaridan ortiqcha pullarni jamg'ara boshlaydilar. Lekin pulni boylik sifatida jamg'arilishi uchun uning qadri, xarid quvvatining saqlanishi muhim ahamiyatga ega; g) to'lov vositasi vazifasi, nasiyaga sotilgan tovarlar va xizmatlar haqi to'langan pul to'lov vositasi vazifasini bajaradi; d) jahon puli vazifasini, tovarlar muomalasi bir mamlakat doirasidan chiqaboshlashi va xalqaro savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jahon puli vazifasinioltin, u bilan bir qatorda konvertlangan valyutalar ham bajaradi.

U. Pettini fikricha foyda faqat ishlab chiqarish sohasida yaratiladi. U birinchi marta iqtisodiyot nazariyasini o'rganish ob'ekti muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga olib o'tgan.

PULNING QADRSIZLANISHI – uni xarid quvvatining pasayishi (yana qarang – inflyasiya).

R

RAQOBAT – tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va foydali qilib sotish uchun

kurash. Raqobatning asosiy maqsadi, bozor sub'ektlari turli bozorlarda o'z mavqelarini mustahkamlashdir. Raqobat – bozor mexanizmining zarur va tarkibiy elementi hisoblanadi.

REAL ISH HAQI-pul shakldagi ish haqini sotib olish qobiliyati, nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Real ish haqi ish haqining haqiqiy darajasini ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Real ish haqiga soliqlar miqdori, tovar va xizmatlarga baho, inflyasiya va boshqa shunga o'xshash omillar ta'sir ko'rsatadn.

REAL DAROMAD – nominal (pul) daromadi miqdoriga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Agarda nominal daromad narhlarga nisbatan tez sur'atlarda o'ssa unda real daromad o'sib boradi va aksincha. Real daromadni o'zgarishini qo'yidagicha ifodalash mumkin:

Real daromadni o'zgarishi nominal daromadni va narh darajasini o'zgarishiga bog'liq. Agarda nominal daromad bir yilda 10% oshsa, baholar darajasi 8% ko'tarilgan bo'lsa, unda real daromad 2% o'zgargan (oshgan) bo'ladi.

S

SAMARASIZ BOZOR – vaqtinchalik faoliyat ko'rsatadigan bozor.

SALOHİYATLI BOZOR – ma'lum sharoitdagina rivojlangan bozor.

SAMARADORLIK – xo'jalik faoliyatining samaradorlik darajasini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u ma'lum vaqt, yil, kvartal va oylar davomida ishlab chiqarishning foydaliligini ko'rsatadi.

SAMARADORLIKNI “O” DARAJASI – iqtisodning umumiy darajasi “o” ga teng bo'lganda, daromad va xarajatlar teng bo'ladi.

SALBIY SAMARADORLIK – mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamayib borishida ifodalanadi.

SAMARALI SAMARADORLIK – iqtisodiy jihatdan ishlab

chiqarilgan yalpi mahsulotning qiymatini uni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan ustun darajada o'sishida ifodalanadi.

T

TADBIRKOR – foyda olish maqsadida yangi texnologiyalarni va jamiyat ehtiyojlarini qondirish usullarini izlash bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonning ishtirokchisi.

TAKLIF – ishlab chiqaruvchini bozorga sotishga taklif etadigan mahsulot hajmi.

TAKLIF EGRI CHIZIG'I – sotuvchilar bozorda taklif etadigan tovar narhi va miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni grafik ifodasi.

TALAB – iste'molchining muayyan joyda va muayyan vaqtda tovar yoki xizmat sotib olish imkoniyatidir. Boshkacha qilib aytadigan bo'lsak, bu pul bilan ta'minlangan ehtiyoj, ya'ni to'lovga qodir ehtiyojdir. Aynan mana shu ehtiyojga qarab, bozorga chiqarilishi lozim bo'lgan tovarlarning miqdori va assortimenti aniqlanadi.

TALAB EGRI CHIZIG'I – tovarga qo'yilgan narx bilan talab miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni grafik ifodasi.

TOVAR – bozorda oldi-sotti orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli. Mahsulot sotilgandan so'ng tovarga aylanadi. Tovar moddiy shakldagi mahsulot bo'lishi shart emas, xizmatlar ham tovar hisoblanadi.

TOVAR ISHLAB CHIQRISH – oldi-sotti orqali tovarlarni ayirboshlash uchun mahsulotlarni ishlab chiqarish. U ibtidoiy tuzum emirilishi davrida vujudga kelgan. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi sabablari quyidagilar: ijtimoiy mehnat taqsimoti; tovar ishlab chiqaruvchilarning xususiy mulkni vujudga kelishi natijasida alohidalashuvi. Bozor iqtisodiyotini o'zi tovar ishlab chiqarishga asoslangandir. Tovar ishlab chiqarish umuminsoniy hodisa hisoblanadi. Tovar ishlab chiqarishni qiymat qonuni talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonunlari tartibga soladi.

TOVAR XOSSALARI – tovarning iste'mol qiymati va qiymati. Tovar qiymati tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnatdir. U tovarlar ayirboshlanishida ifoda etiladi, tovar narxini ob'ektiv asosi hisoblanadi. Qiymat miqdorini ayrim ishlab chiqarishning yakka tartibdagi sarflangan mehnati emas, balki ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi, ya'ni tovarning aksariyat qismini yaratish uchun ketgan, ya'ni o'rtacha mehnat malakasi, mehnat shiddati va texnika darajasi sharoitida sarflangan va ehtiyojini kondirganligi uchun jamiyat tomonidan e'tirof qilgan mehnat belgilaydi. Tovarning iste'mol qiymati uni biror-bir ehtiyojlarni qondira olishidir. Narsaning foydaliligi, uni iste'mol qiymatiga aylantiradi va undan foydalanishda namoyon bo'ladi. Tovarning iste'mol qiymatlari har qanday jamiyat boyligining moddiy mazmunini tashkil etadi. Demak, tovar ikki xossaga, ya'ni iste'mol qiymati va qiymatga ega. Tovar iste'mol qiymati va qiymatning birligidan iborat.

TRANSMILLIY KORPORASIYALAR – kooperativ asosda tashkil etilgan, jahon xo'jaligida bitta yoki bir qator tarmoqlarni nazorat qiluvchi yirik birlashmalar. Ularning kapitallari esa transmilliy kapital deyiladi.

U

ULGURJI SAVDO – tovar muomalasini shakllaridan biri, uning vositasida korxonalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladi. O'zbekistonda ulgurji savdo asosan tovar, xom ashyo birjasi orqali amalga oshiriladi.

F

FOYDA – sof daromadni asosiy shakli, mahsulotni sotiladigan bahosi va uning tannarhi o'rtasidagi farq asosida vujudga keladi. Foyda korxonalar faoliyatining samaradorligini ko'rsatuvchi umumiy ko'rsatkichdir.

FOYDA NORMASI – ishlab chiqarilgan qiymat ko'rinishidagi foyda massasini ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lgan nisbatini foizda ifodalanishiga aytiladi.

FOYDA MASSASI – natural hollarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarda ifodalanadi.

X

XUFIYA IQTISODIYOT – davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish, ya'ni soliq to'lamaydigan, qonunlarga bo'ysunmaydigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish. Xufiya iqtisodiyotga qarshi kurash vositalari quyidagilar: erkin bozorni vujudga keltirish, mulkka davlat egaligini va markazlashtirilgan direktiv rejalashtirishni yo'qotish.

XUFIYA BOZORI – yashirin bozor, noqonuniy bozor.

XOLDIN – aksionerlar kompaniyasi bo'lib, bir yoki bir necha aksionerlar jamiyatlarini faoliyatlarini boshqarish maqsadida ularning aksiyalarini nazorat paketiga ega bo'ladilar. Xolding kompaniyasi sof xolding va aralash xolding ko'rinishida bo'ladi. Sof xolding umumiy boshqaruvni ta'minlash uchun moliyaviy nazorat vazifalarini bajaradi. Aralash xolding moliyaviy nazorat vazifalaridan tashqari tadbirkorlik faoliyatlari bilan ham shug'ullanadi. U boshqa firmalarning nazorat paketini qo'lga olib, ularni ishlab chiqarish faoliyatini o'ziga bo'ysuntiradi. Xolding kompaniyasi faoliyati aksiya paketlarini boshqarish bilan chegaralanmay, birja va boshqa operatsiyalardan dividendlar yig'ish, boshqaruvga, direktorlar Kengashiga va boshqa qaramog'idagi kompaniyalarga vakillar tayinlash bilan ham shug'ullanadi.

XALQARO VALYUTA TIZIMI – xalqaro valyuta munosabatlarida davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan va xalqaro hisob kitoblarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoida va tartiblar.

XALQARO VALYUTA FONDI (XVF) – xalqaro valyuta-kredit tashkiloti 1944-yili tashkil etilgan. Unga 1998-yilda 167 ta mamlakat a'zo bo'lgan kapitali 120 mlrd. dollarni tashkil etdi. Valyuta fondining ikki asosiy vazifasi bor: o'z a'zolari bo'lmish mamlakatlarning valyuta aloqalarini (valyuta ayirboshlash,

valyuta bilan to'lovlarni amalga oshirish va h. k.) boshqarib turish, umumiy kredit mablag'laridan a'zo mamlakatlarga qarz berib, ularning tarakqiyotiga ko'maklashish. Valyuta fondining kapitali unga a'zo mamlakatlarning badal pulidan tashkil topadi. Uning o'sishi yangi a'zolarining badal puli va kredit uchun olingan foizlar hisobiga yuz beradi .

XALQARO IQTISODIY ALOQALAR (XIA) – xalkaro mehnat taqsimotiga asoslangan turli milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari tizimi. XIA xalqaro savdo, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, valyuta-moliya va kredit aloqalarida o'z aksini topadi.

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI – BMTning ixtisoslashgan muassasi, uning faoliyati mehnatning ijtimoiy-iqtisodny muammolarini hal etishga qaratilgan.

XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI (XMT) – mehnat taqsimoti-alohida mamlakatlar doirasidan chiqishi bilan bog'liq, ijtimoiy mehnat taqsimotining yukori pog'onasi. XMT alohida mamlakatlarni ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini bildiradi, bu esa halqaro savdoni zarurligini belgilaydi. ,

XALQARO MOLIYA KORPORASIYASI – rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoya sarflab va boshqaruv masalalari yuzasidan maslahatlar berish yo'li bilan ularda tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi tashkilot.

XALQARO SAVDO – mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq tovarlarni chetdan olib kelish, import va chetga chiqarish (eksport), jahon iqtisodiy munosabatlarining shakli. Xalqaro savdoning iqtisodiy asosini xalqaro mehnat taksimoti tashkil etadi.

XALQARO TASHKILOTLAR – mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlarning, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim turlaridan biri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlar me'yoriy xujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 1992 yil 8 dekabr. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)

2. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiyot faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2000-yil 26-may, 77-II-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

3. O'zbekiston Respublikasining "Ijara to'g'risida"gi Qonuni, 1991 yil 19 noyabr, 427-XII-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2024-y., 03/24/922/0224-son)

4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 1991-yil 19-noyabr, 425-XII-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son

5. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2014-yil 12-sentabr, O'RQ-375-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

6. O'zbekiston Respublikasining "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr, O'RQ-410-son *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son.*

7. O'zbekiston Respublikasi ning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 11-noyabr, O'RQ-582-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son.*

8. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2014 yildagi 5 may, O'RQ-370-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

9. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorining amal qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2015 yil 3 iyundagi O'RQ-387-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

10. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy xududlar to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 39-son, 424-modda

11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 09.11.2023-y., 03/23/876/0839-son.

13. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son.

14. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son.

15. O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

16. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2022-yil 30-dekabrdagi O'RQ-812-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 29.11.2023 ü., 03/23/880/0905-son.

18. O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019 y., 03/19/589/4126-son; 19.05.2020 y., 03/20/618/0596-son.

19. O'zbekiston Respublikasi "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil

25 dekabr, O'RQ-657-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020 y., 03/20/657/1669-son.

20. O'zbekiston Respublikasi "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 30 dekabr, O'RQ-742-son. <https://lex.uz/docs/5801127>

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 14-apreldagi "Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4715-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-2624884>

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-2635197>

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi № PF-5635-son Farmoni. www.lex.uz

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni. www.lex.uz

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-sonli Farmoni, www.lex.uz

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ni tasdiqlash to'g'risida"gi №PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. Raxbariy adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi 2000 yil 8 iyun.

2. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston" 1999.

3. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. T.: "O'zbekiston" 1992.

4. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent "O'zbekiston", 1995.

5. I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 14-sessiyasida so'zlagan nutqi. "O'zbekiston ovozi", 1993. 30 dekabr.

6. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. Toshkent, "O'zbekiston", 1992.

7. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, Toshkent 1997 yil.

8. I.A.Karimov. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy prinsiplari. Toshkent, "O'zbekiston", 1995.

9. I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasidagi 1999 yildagi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2000 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzasi. 2000 yil.

10. I.A.Karimov. Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent "TURKISTON" 2015.

11. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent "O'zbekiston", 2009.

12. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent "O'zbekiston", 1999.

13. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent, "O'zbekiston", 2005.

14. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, "O'zbekiston", 1995.

15. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2000.

16. I.A.Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi. Toshkent, "O'zbekiston", 2012.

17. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshiriga xizmat qiladi. Toshkent, "O'zbekiston", 2011.

18. I.A.Karimov. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: "O'zbekiston", 1992.

19. I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz ma'sulmiz. T.: "O'zbekiston", 2001.

20. I.A.Karimov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. T.: "O'zbekiston", 2002.

21. I.A.Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T.: "O'zbekiston", 2002.

22. I.A.Karimov. Konstitutsiya – mamlakatimizda yangicha xayot, yangi jamiyat qurishning xuquqiy asosidir. T.: "O'zbekiston", 2003.

23. I.A.Karimov. Mavjud imkoniyat va resurslaridan oqilona foydalanish – tarqqiyot omili. T.: "O'zbekiston", 2004.

24. I.A.Karimov. Eskicha qarashlar va yondoshuvlar bilan yangicha xayot qurib bo'lmaydi. T.: "O'zbekiston", 2005.

25. I.A.Karimov. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb xisoblashar edi. T.: "O'zbekiston", 2005.

26. Mirziyoyev Sh.M. «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kun-

dalik qoidasi bo'lishi kerak»: – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 1046 b.

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-22-12-2017>;

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.prezident.uz

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.prezident.uz

30. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 b.

Maxsus adabiyotlar

1. Абулқосимов Хасан. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Тошкент «Академия” - 2012.

2. Аманов Е.Е. Ислохотларни чуқурлаштириш жараёнида иқтисодий ўсиш ва унинг омиллари. Иқтисодий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2005.

3. Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. Тошкент. Тошкент молия институти, 2005.

4. Абдурахманов К.Х. Управление трудовым потенциалом региона. Ташкент. 1990.

5. Борисов Е.Ф. Основы экономики. Москва ДРОФА. 2004.

6. Борисов Е.Ф. Основы экономической теории. Москва, Новая Волна, 1996.

7. Ғойибназарова З.Т. Инновацион инвестициялаштириш самарадорлигини ошириш. Тошкент. Тошкент давлат техника университети, 2013

8. Davlat qarzlarini boshqarish: O.S.Komolov, A.Z.Abdul-layev, X.X. Rejapov O'quv qo'llanma 2023. – 306 b.

9. Гукосян Г.М. Экономическая теория. Москва, Санкт-Петербург, Нижний Новгород, Воронеж, Ростов- на- Дону, Екатеринбург, Самара, Новосибирск, Киев, Харков, Минск, 2010.

10. Горелов Н.А. Политика доходов и качество жизни населения. СПб.: Питер, 2003.

11. Долан Е., Мендсей Д. Рынок. Микроэкономическая модел. СПб, 1992.

12. Ефимова Е.Г., Потапова И.С. Экономическая теория част-2. Макроэкономика. Учебное пособие. Москва. 2006.

13. История экономических учений. Под общей редакцией Г.А.Шмарловской. Минск ООО «Новое знание”, 2003.

14. Курс экономической теории. Под.общей редакцией проф. М.И.Чепурина., проф.Е.А.Киселевой. Киров. Изда-тельство «АСА”, 1997.

15. Козырев В.М. Основы современной экономики. Москва, «Финансы и статистика”, 2001.

16. Қодиров А. ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИ: САВОЛ ВА ЖАВОБЛАР. Тошкент. Тошкент давлат техника универ-ситети, 2014.

17. Қодиров А. Иқтисодиёт назарияси. Ш- Бўлим. Мак-роиқтисодиёт. Услубий қўлланма. Тошкент. Тошкент дав-лат техника университети. 2009.

18. Қодиров А., Турсунов А., Туляганов И.Ж. Шакллана-ётган бозор иқтисодиётида кичик бизнеснинг самарадор-лигини ошириш. Тошкент. Тошкент давлат техника уни-верситети, 2006.

19. Қодиров А., Исмоилов Ж.Г., Мирзамахмудов Т.Т., Тўрабекова Г. Ишлаб чиқариш муносабатларини такомил-лаштириш. Тошкент, Тошкент давлат техника университе-ти. 2011.

20. Қодиров А. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Тошкент. Тошкент давлат техника университети. 2010.

21. Қодиров А. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Тошкент. Тошкент давлат техника университети. 2002.
22. Қодиров А., Турсунов А.М., ТурГунов У. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Тошкент. Тошкент давлат техника университети. 1997.
23. Қодиров А. Минтақа хўжалик ҳисоби ва иқтисодий мустақиллик. Тошкент. “Ўзбекистон” 1992.
24. Бобоев А.Ч. Рақобат ва унинг иқтисодий моҳияти. Тошкент. / Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар № 3. 2007, 3 июн.
25. Курс экономической теории. / Под.ред. М.И.Чепурина., С.А.Кирова. 2006.
26. Makkonell K., Bryu S. Ekonomika. Prinsipy, problemy i politika. – М.: Respublika, 1992.
27. Общая экономическая теория (Политекономия). Учебник. «Промо Медиа”. Москва, 1995.
28. Носова С.С. Экономическая теория. Москва. Владос 2000.
29. Николенко С.И. Теория экономических механизмов. Учебное пособие. Москва 2009.
30. Режапов Х.Х. Олий таълим ва меҳнат бозори хизматлари ўртасидаги муносабатлар: назария ва амалиёт [Матн]: монография / Х.Х. Режапов. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 212 б.
31. Режапов Х.Х., Кадиров А.А. Ўзбекистонда инвестиция муҳити ва хорижий инвестицияларни жалб қилишни рағбатлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш.- Тошкент: Bookmany print, 2023. – 86 б.
32. Стратегии модернизатсии и обеспечения долгосрочного устойчивого экономического роста. / Под. общей редакцией д.е.н.проф. А.М.Садикова. Ташкент СМИ- АСИА. 2011.
33. Samanov A.A. O‘zbekistonda biznesni texnik-iqtisodiy asoslashni takomillashtirish usullari. Toshkent. Toshkent davlat texnika universiteti, 2014.

34. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: 1962.
35. Тожибоев Д. Иқтисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. / Акад. М.Шарифхўжаевнинг илмий тахрири остида. – Т.: “Шарқ”, 2003.
36. Ташматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли. Тошкент “Фан ва технология”, 2008.
37. Экономическая теория част-1. Микроэкономика. Учебное пособие. Под. редакцией проф.Е.Г.Ефимовой.
38. Экономическая теория. Санкт- Петербург, 1997.
39. Hamroyev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. T.: TDIU, 2004.
40. Кураков Л.П., А.Г.Краснов., А.В.Назаров. Экономика инновационные подходы Москва. Гелиос 1998.
41. Муфтайдинов Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари докторлик диссертация автореферати. Тошкент, 2000.
42. Қодиров. А., А.Ч.Бобоев, Г.Турабекова., Л.Қориева Тадбиркорликнинг назарий ва амалий асосларини такомиллаштириш. Тошкент. Тошкент давлат техника университети. 2012.Экономическая теория. / Под.редакцией проф.И.П.Николаевой. Москва, “Проспект”, 1998.
43. Маршал А. Принципы политической экономии. Т.3.М.: 1984, 226 стр.
44. Общая экономическая теория. (Политекономия). Учебник “Промо- Медиа”, М.: 1995, 28 стр.
45. Курс экономической теории. / Под.ред. М.И.Чепурина., С.А.Кирова., 2006.
46. Қодиров А., Умаров А.Т., Режапов Х.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарида ишлаб чиқариш ҳаражатларини камайтириш механизмини такомиллаштириш. Тошкент. 2022. 171 б.
47. Общая экономическая теория (Политекономия). Учебник., “Промо- Медиа” Москва, 1995.
48. О.Н.Намройев. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. T.: TDIU, 2004.

49. O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi, Toshkent, 2012.
50. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический обзор за 2005 год. Ташкент. 2006.
51. O'zbekiston Respublikasi statistika axborotnomasi. 2011.
52. Экономика Узбекистана. Аналитический обзор за 2003 год. Ташкент. № 4, 2004.
53. Статистический обзор Республнки Узбекистана за 2003 год Ташкент. 2004.
54. www.stat.uz
55. www.uza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
56. www.syer.uz
57. www.bearingpoint.uz – USAID Bearingpoint Uzbekistan Ekonomik Reform.
58. www.uzeksport.com – O'zbekistoni Respublikasining mamlakat eksporti salohiyati haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.

MUNDARIJA

KIRISH	3
19-bob. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSİYALAR	
19.1. Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va uning sifati.....	7
19.2. Jamg'arishning mazmuni va manba'lari.....	14
19.3. Jamg'armaning mablag'laridan foydalanish samaradorligi.....	23
19.4. Investitsiya mazmuni va vazifalari	27
19.5. Respublikada investitsiya faoliyatini ta'minlash	34
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	38
Testlar	38
20-bob. IQTISODIY TARAQQIYOT, IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK	
20.1. Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko'rsatkichlari..	39
20.2. Iqtisodiy o'sish modellari	44
20.3. Iqtisodiy o'sish omillari va turlari.....	49
20.4. Milliy boylik va uning tarkibi	55
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	56
Testlar	57
21-bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATLI VA MUTANOSIBLI RIVOJLANISHI	
21.1. Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiy iqtisodiy va xususiy muvozanatlik.....	59
21.2. Makroiqtisodiy muvozanatni baholash.....	65
21.3. Asosiy milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta'minlovchi iqtisodiy modellar	69
21.4. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari	72

21.5. Mamlakat iqtisodiy muvozanatni va mutanosibli rivojlantirishda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash o'rni.....	75
O'zlashtirish bilimlarni nazorat qilish savollari.....	79
Testlar	79

22-bob. IQTISODIYOTNING TSIKLLIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK

22.1. Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularni nomoyon bo'lishi.....	81
22.2. Iqtisodiy rivojlanishning davriyligi. Iqtisodiy tsikl va uning bosqichlari	84
22.3. Iqtisodiy inqiroz to'lqinlari, inqiroz turlari va kelib chiqish sabablari	89
22.4. Pul-kredit sohasidagi inqiroz.....	93
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	97
Testlar	97

23-bob. ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK

23.1. Ish kuchining iqtisodiy-ijtimoiy mazmuni	99
23.2. Mehnat bozori	103
23.3. Nufus qonuni. Ishchi kuchlaridan foydalanishni tartibga soluvchi nazariyalar	110
23.4. Ishsizlik va uning turlari, iqtisodiy oqibatlarini	113
23.5. Yalpi ish kuchi, uning bandligi.....	117
23.6. Ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i.....	118
Testlar	121

24-bob. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT

24.1. Moliyaning mazmuni va ahamiyati.....	122
24.2. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari.....	127
24.3. Byudjet kamomadining muammolari va davlat qarzi	131
24.4. Soliq siyosati, uning tabiati, vazifalari va tamoyillari soddalashtirish tizimlari.....	133

24.5. O‘zbekistonda soliq tizimining mohiyati. Soliqlarning turlari	136
24.6. Davlatning fiskal siyosati va iqtisodiy barqarorli.....	140
O‘zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	143
Testlar	143

25-bob. PUL-KREDIT TIZIMI

25.1. Pul-kredit tizimi. Pul tizimining tarkiblari.....	147
25.2. Pul agregatlarini likvidik darajasi.....	151
25.3. Pulga bo‘lgan talabni tartiblash	154
25.4. Kredit mohiyati, vazifalari va tizimi	157
25.5. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari.....	161
O‘zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	162
Testlar	163

26-bob. BANKLAR VA ULARNING OZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI

26.1. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi	167
26.2. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi	168
26.3. Pul – kredit (monetar) siyosatni olib borish tamoyillari.....	172
26.4. Qimmatli qog‘ozlar bozori va inflyatsiya	173
O‘zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	178
Testlar	179

27-bob. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING O‘RNI

27.1. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishning mohiyati va zarurligi.....	181
27.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni bevosita va bilvosita usuli	184
27.3. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik, monetaristik va kenscha nazariyalari	190
27.4. Davlatning iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlari....	194

27.5. Davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir etish usullari.....	197
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	201
Testlar	201

28-bob. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOY SIYOSATI

28.1. Daromadlar va ularining shakllanish manbalari.....	203
28.2. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari..	213
28.3. Ish haqi to'g'risidagi nazariyalar va ularning iqtisodiy mazmunlari	217
28.4. Daromadlarning tengsizligi va uning sabablari. Lorens egri chizig'i	220
28.5. Ijtimoiy tenglik va adolat	222
28.6. Aholini ijtimoiy himoyalash	224
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	228
Testlar	229

29-bob. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI

29.1. Jahon xo'jaligining tashkil topishi mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari.....	231
29.2. Jahon xo'jaligining sub'ektlari, uning infratuzilmasi va xalqaro iqtisodiy integratsiyasi.....	237
29.3. Kapitalning xalqaro integratsiyalashuvi mohiyati, turlari va rivojlanishi.....	241
29.4. Mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasi.....	245
29.5. O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga qo'shilishining xususiyatlari.....	250
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	251
Testlar	251

30-bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

30.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya munosabatlari bo'yicha nazariyalar	253
---	-----

30.2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va ularning asosiy yo'nalishlari.....	260
30.3. Bozor iqtisodiyotga o'tishga asoslangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.....	264
30.4. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining asosiy shart-sharoitlari	267
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari	273
Testlar	273

31-bob. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

31.1. Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar	275
31.2. Savdo siyosati: nazariya va tajribani amalga oshirish ..	280
31.3. O'zbekistonning xalqaro savdotashkilotiga qo'shilishi...	281
31.4. Savdo balansi, uning tarkibiy tuzilishi va tartibga solish usullari	283
31.5. Xalqaro valyuta tizimi, uning tuzilmasi va shakllanish bosqichlari.....	284
31.6. Valyuta kursi va harid qilish qobiliyati.....	290
31.7. Valyuta kursini davlat tomonidan tartibga solish	292
31.8. Valyuta – moliyaviy doiradagi davlatlararo tuzilmalar	295
O'zlashtirish bilimlarini nazorat qilish savollari.....	297
Test.....	297
GLOSARIY.....	299
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	321

**A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov,
N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov**

IQTISODIYOT NAZARIYASI

DARSLIK

II qism

Bosishga ruxsat etildi. 12.02.2024 y.
Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset uslubida oq qog'ozda
chop etildi. "Cambria" garniturasida terildi.
Nashriyot hisob tabog'i 21.0, Adadi 100. Buyurtma № 17.
Bahosi kelishuv asosida

"BROK CLASS SERVIS" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik k., Segizbayeva 10a.